

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SH.X.ABDULLAYEVA**

# **KASBIY PSIXOLOGIYA**

**(O'QUV QO'LLANMA)**

**TOSHKENT – 2020**

**UO‘K: 159.9:174(075)**  
**KBK 88.4ya73**

**Kasbiy psixologiya Sh.X.Abdullayev ... -2020.**

**ISBN 978-9943-6351-8-0**

O‘quv qo‘llanmada kasbiy psixologiyaning vujudga kelish shart-sharoitlari, predmeti, maqsad va vazifalari, ilmiy tadqiqot metodlari tasnifi, XX asr boshlarida kasbiy faoliyat sohasiga doir ilmiy yondashuvlar tahlili, shaxsning psixik taraqqiyotiga ta’sir etadigan tabiiy va ijtimoiy omillar haidagi qarashlar aks etadi. Kasbiy faoliyat uchun muhim bo‘lgan shaxsning bilish jarayonlari, hissiy-irodaviy sohasi(hissiyot, iroda), har bir alohida olingan shaxsning individual-tipologik xususiyatlari (temperament, xarakter, qobiliyat)ga keng o‘rin berilgan.

Oquv qo‘llanma oliy o‘quv yurtining -5120100. Filologiya va tillarni o‘qitish bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tavsiya etiladi.

**Taqrizchilar:**  
**D.I.Ilxamova**  
*psixologiya fanlari nomzodi dotsent;*  
**A.A.Shayusupova**  
*pedagogika fanlari nomzodi dotsent.*

Darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi 2020-yil 14-avgustdagи “418”-sonli buyrug’iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan  
(30.05.2019 yil 10-sonli majlis qarori).

**ISBN 978-9943-6351-8-0**

© Тошкент давлат шарқшунослик университети, 2020

## KIRISH

Bugungi kunda kasbiy psixologiya va jamiyat tizimidagi faoliyat sohalarining asosiy vazifasi – kasbiy faoliyatning asosiy subyekti bo‘lgan shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni, shaxsning dunyoni bilish va anglash jarayonlari, hissiy-irodaviy sohasi, alohida tipologik xususiyatlarini tadqiq etish, faoliyat tizimiga ta’sir ko‘rsatadigan omillar, kasbiy mahorat sirlarini tahlil qilish, faoliyat sohasini boshqarishning eng samarali usullarini hayotga tatbiq etishdir.

Xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosi va umuminsoniy qadriyatlari asosida milliy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyalarning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o‘tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo‘lib qoldi.

O‘zining haq-huquqlarini taniydigan, kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo‘layotgan voqeа-hodisalarga mustaqil fikrash, alohida munosabat orqali yondashadigan, ayni paytda o‘zining shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘un ko‘radigan shaxs - fuqarolarni voyaga yetkazish tizimini hayotga tatbiq etish bugungi kunning eng muhim masalasi sanaladi.

...“Ko‘zlagan maqsadlarimiz qanchalik yuksak va mashaqqatli bo‘lmisin, ularga yetish uchun barcha imkoniyatlarimiz mavjud. Ajodolarimiz merosi, xalqimizning ilmiy va bunyodkorlik salohiyati hamda tadbirkorlik fazilati bizga bu yo‘lda beqiyos kuch-qudrat manbai bo‘lib xizmat qiladi...

Bilimli avlod buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa – taraqqiyotning kafolatidir!...”<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Ш.Мирзиёев. Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъзуза.31-бет.Тошкент. Ўзбекистон, 2018. 64 бет.

Shaxs ijtimoiy hayotning mahsuli ekan, u albatta ijtimoiy muhit ta'sirida ostida rivojlanadi, shaxsning kasbiy faoliyati davomida ijtimoiy-psixologik muhit unga ijobiy ta'sir ko'rsatib rivojlanish imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi.

Ta'lism jarayonida samaradorlikka erishish maqsadida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ta'lism sifatiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri, ta'lism beruvchi o'qituvchi shaxsidir, shu sababdan pedagoglarning kasbiy tayyorgarligiga juda katta e'tibor qaratilmoqda.

Shu o'rinda, rivojlanib borayotgan O'zbekiston sharoitida ayniqsa yangicha dunyoqarash va ijtimoiy munosabatlarning shakllanishini, shaxsning o'z-o'ziga va boshqalarga ta'sir etishini o'rganish eng dolzarb masalalardan biridir.

Haqiqatan ham, mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va yangilanishlar, eng avvalo, odamlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarning oqilona yechimini topib xalqimizning o'z turmushidan mammun bo'lib yashashi uchun barcha sharoitlarni yaratishga, "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan oljanob g'oyaning hayot bilan hamnafas ekanligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlarga beriladigan ta'lism va tarbiyaning sifatini oshirish, turli sohalarga kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e'tibor qaratilgan: "...Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi. Yana bir muammoni hal etish muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lism olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur.."<sup>2</sup> ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Mustaqillik solnomasidagi har bir o'tayotgan yil mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hayotida o'ziga xos iz qoldiradi.

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш. Танқидий тахлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Т. "Ўзбекистон", 2017 й. – 45-б.

2020-yilni “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e’lon qilinishi yangi, zamonaviy axborot texnologiyalarni hayotga tatbiq etish sifatida baholanmoqda.

“Kasbiy psixologiya” kursining asosiy maqsadi – bo’lg‘usi kasb egalari sifatida tanlagan mutaxassisliklariga nisbatan jamiyat ehtiyojlari, turli sohalarda kasbiy faoliyatning mazmuni, kasbning insonga qo‘yadigan psixologik talablari (professiogramma), kasbiy faoliyatga nisbatan shaxsdagi psixologik imkoniyatlar (psixogramma), mehnat sharoitlari, shaxsning qiziqish va ehtiyojlariga tanlangan kasbning mosligi, kasb egasi shaxsiga qo‘yiladigan talablar, kasb odobi, malakasi, kasbiy yo‘nalishning psixologik tabiat, turli ixtisoslik sohalari va ularning o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risidagi bilimlarni yetkazib berishdan iborat.

“Kasbiy psixologiya” kursi quyidagi vazifalarni bajarishni ko‘zda tutadi:

- bakalavrlarga o‘zлari tanlagan kasbning psixologik mohiyati hamda milliy mafkura g‘oyalari asosida jamiyat oldidagi ahamiyatini anglashiga ko‘maklashish;
- tanlangan kasbning professional yo‘nalish sifatidagi jamiyatda tutgan nufuzi va ahamiyatiga xolis baho berishga o‘rgatish;
- har bir talabaning tanlangan kasbi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, boyitish, psixologiya sohasidagi ishonchli metodikalar va testlardan foydalanishga doir bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;
- kasb odobi, professional axloq tushunchalari doirasida tanlangan kasbning murakkab qirralarini jamiyatda barqaror bo‘lgan qadriyatlar va ma’naviy mezonlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish, kasbga sadoqat tamoyillarini belgilash;
- bo’lg‘usi kasb egalarida kasbiy mahorat sirlarini o‘zlashtirish- ning psixologik hamda pedagogik texnologiyalardan xabardor qilish, kasbiy faoliyat motivatsiyasi, kasbiy targ‘ibot va maslahat asoslari bilan tanishtirish;

– bo‘lg‘usi kasb egasi bo‘lgan shaxsning individual-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, kasbiy faoliyatning ijtimoiy negizini anglab yetishiga, kasbiy muloqotni o‘zlashtirishiga ko‘maklashish.

# **I bob. PSIXOLOGIYA FANINING DOLZARB VAZIFALARI,**

## **PREDMETI**

Reja:

- 1.1.Kasbiy psixologiya fanining tarixiy rivojlanish bosqichlari.
- 1.2.Kasbiy psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
- 1.3.Kasbiy psixologiya fanining tadqiqot metodlari va boshqa fanlar bilan bog‘liqligi.
- 1.4.Zamonaviy psixologiya fanining asosiy yo‘nalishlari.

### **1.1. Kasbiy psixologiya fanining tarixiy rivojlanish bosqichlari**

Umumta’lim mакtablarining yuqori sinf o‘quvchilarini mustaqil hayotga tayyorlash va kasb-hunarga yo‘naltirish borasida, umumiy o‘rta ta’lim mакtablarida huquqiy va me’yoriy hujjatlar, kasbiy axborot va maslahatlar, psixologik xizmatlar bo‘yicha uslubiy tavsiyalar, psixodiagnostik metodikalar, ixtisos tasniflagichlari tayyorlanib amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Kasb-hunarga yo‘naltirishdan maqsad – o‘sib kelayotgan yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashdir. Ularni kasb-hunarga yo‘naltirish orqali bo‘lajak kasbiy qarorlarini shakllantirish kasbni erkin va mustaqil tanlashlari uchun kasb-hunarga yo‘naltirish ishlariga mustahkam zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Kasb-hunarga yo‘naltirish xizmati mutaxassislarning vazifasi, umumta’lim mакtabi bitiruvchisiga, kelgusi hayotida o‘zining munosib o‘rnini topa olish, o‘zi yoqtirgan kasb-hunar egasi bo‘lish, o‘zining va jamiyatning ertangi kundagi faoliyatini ta’minlab berish imkoniyatini yaratishdan iboratdir.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2017- yil 7- fevral kuni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon imzolandi va 2017-2021-yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha

Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. Harakatlar strategiyasi besh bosqichda amalga oshirilmoqda:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish.
2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish.
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish.
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish.
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Mazkur yo'nalishlarning har biri mamlkatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo'limlardan iborat.

Davlat dasturining "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalish aholi bandligini oshirish, fuqorolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik-komunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotinqizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiyl o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Jumladan, ta'lim va fan sohasini rivojlantirish maqsadida:

- uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;
- ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zmonaviy o'quv va labaratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni qo'llash;

- kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo‘yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish.

Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish bo‘yicha:

- jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

- yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalg etish kabi muhim vazifalar qamrab olingan.

Harakatlar strategiyasining amalga oshirilishi mamlakatimizni rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqorolik jamiyati barpo etish, qonun ustuvorligini, xavfsizlik va huquq tartibotni, jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minalash yo‘lidagi shaxdam harakatlariga yangi kuch bag‘ishlaydi.

Muayyan bir faoliyatga oid qobiliyaning ro‘yobga chiqishida, shaxsning qiziqishlari bilan bir qatorda uning o‘z ustida ishlashi ham muhim ahamiyat kasb etadi, buning uchun esa bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirish, tinimsiz izlanish, faoliyatning barcha turlarini egallagan bo‘lishlari shart.

Insoniyat tomonidan asrlar davomida to‘plangan ma'lumot va bilimlar har bir yangi avlod vakillari tomonidan o‘zlashtirilib, boyitib borilishi va jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishi lozim, ularni o‘zlashtirish o‘ta murakkab jarayon bo‘lib, u faqat ilmiy jihatdan asoslangan holda maxsus tashkil etilishi lozim.

Ta’lim jarayoni va ruhiy kamolotga erishishning uzviyligi masalasi, shaxsning bilish jarayonlari hamda tafakkuri, faoliyati, hissiy-irodaviy sifatlari,

alohida fazilatlari falsafa, psixologiya, fiziologiya fanlari tizimi orqali o‘rganiladi.

Yoshlarni kasbga yo‘naltirishda o‘quvchilarining alohida qobiliyatlarini mehnat resurslarini jamiyat manfaatlariga mos tarzda taqsimlanishini hisobga olish lozim. Kasbga yo‘naltirish–har bir shaxsning alohida xususiyatlarini mamlakat xalq xo‘jaligining iqtisodiy manfatlaridan kelib chiqib, mehnat bozorini to‘laqonli ta’minlash zaruratini hisobga olib erkin va mustaqil kasb tanlashga tayyorlashga asoslangan tizimidir.

Kasbga yo‘naltirish tizimi – kasbni va shaxsiy sifatlarni o‘rganishda yordam beruvchi maqsadlar, mohiyat va qoidalar, uslublar va vositalar birligidir.

Sobiq ittifoq psixologiya mакtabida, shaxsni kasblar olami bilan tanishtirish, kasbga yo‘llash va kasbiy tanlovnii tadqiq etish muammozi S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontyev, D.B.Elkonin, I.A.Kon, A.H.Sazonov, A.H.Platonov, E.A.Klimov singari yirik psixolog-olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Shaxsning oz-ozini kasbiy anglash masalasi bo‘yicha E.A.Klimov qimmatli fikr-mulohazalar bildirgan. Uning fikicha oson va qisqa muddatli hisoblangan kasb tanlovi, aslida “lahza qo‘shuv butun kelgusi hayot” formulasi asosida amalga oshiriladi. Shaxsda rivojlanish yo‘llaridan avval turli mehnat sohalariga ma’lum munosabat, ko‘pgina kasblar haqida tasavvur va o‘z imkoniyatlarini baholash, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda to‘g‘ri yo‘l tutishi kasb tanloving “zaxira variantlari” va navbatdagi kasbiy anglash ichki tayyorgarlikka xos bo‘lgan boshqa ko‘p narsalar haqida tasavvur shakllangan bo‘ladi.

Mehnat va kasb ta’limining uzviyligi, kasbga yo‘naltirish, kasbga moslashtirishga bag‘ishlangan muammolar K.D.Davlatov, O.Magdiyev, U.Nishonaliyev, Ya.Haydarov, N.Sayidahmedov, N.Sh.Shodihev, O.Hayitov kabi tadqiqotchilar olib borgan izlanishlarda o‘z aksini topgan.

Mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi muammolari O.A.Abdulina, N.V.Aleksandrov, N.V.Kuzmina, M.Ochilov, A.I.Sherbakov, D.U.Ergashev O.I.Avazboyev, Sh.Sharipov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, pedagogika sohasidagi so'nggi tadqiqotlarda o'qituvchi shaxsini shakllantirishga qaratilgan izlanishlar yetakchi o'rinn tutmoqda, jumladan, N.A.Muslimov, U.Nishonaliyev, O'.Q.Tolipov, S.Sh.Sharipovlarning ishlarida mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi masalalari o'rganilgan bo'lsa, N.Azizxo'jayeva, J.G'.Yo'ldoshev, M.Ochilov, T.To'laganovlar ishida bo'lajak o'qituvchining umumpedagogik tayyorgarligi tadqiq etilib, o'qituvchining ma'naviy va metodik tayyorgarligi, kasbiy faoliyatga moslashuvining asosiy tarkibiy qismlari korib chiqilgan.

Yuqorida zikr etilgan mualliflarning ishlarida ko'p jihatdan kasb-hunarga yo'naltirish muammolarini hal etish masalalari yoritib berilgan.

1920-yillarda rus psixotexniklari tez sur'atlarda kasbiy faoliyatning tamoyil va usullarini ishlab chiqdilar, tadqiqotlarni umumlashtirish psixotexnikada maxsus yondoshuv professiografiyani shakllanishiga olib keldi. Uning mohiyati – "kasblar tasviri" kasbning psixologik tavsifi va loyihalashtirishini o'z ichiga oladi. Professiografiyada mehnat jarayonini tashkil etuvchi obyektlar, mehnat subyekti, mehnat predmetining vazifalari, vositalari va sharoitlari o'rganiladi. Professiografiyaning asosiy tamoyillaridan biri kasbiy faoliyatni o'rganishga differensial (alohida) yondashuv tamoyili hisoblanadi. Masalan, kasbiy maslahat va kasbiy tanlov uchun, kasbiy muhim belgilarni ajratish kerakki, ular sinovdagilarning kasbiy layoqatiga ko'ra farqlanishi lozim.

Malaka darajasini aniqlash uchun mehnat vazifalari, kasbiy bilim, malaka, ko'nikma tavsifi muhim ahamiyatga ega. Kasbiy toliqishni o'rganish uchun shunday belgilardan foydalaniladiki, ular yordamida kasbiy toliqishni yuzaga keltiruvchi omillar aniqlanadi. Professiografiyaning differensial tamoyili, kasbning tavsifi, mazmuni, qo'llanilish sohasiga doir maqsadlar orqali belgilanadi va quyidagi faoliyat sohalari bilan bog'langan bo'lishi mumkin:

- ishchilar attestatsiyasi;
- yangi kasblar va mutaxassisliklarni loyihalashtarish;
- kasbiy konsultatsiya va mutaxassislar tanlovi;
- kasbiy ta’lim malaka tayyorgarligi va qayta malaka oshirish;
- shaxsning kasbiy rivojlanishi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar.

Professiografiya natijalari professiogrammada aks etadi, u mehnat sharoitlari tasviri, ishchi-xodimning huquq va majburiyatlari, muhim kasbiy sifatlari shuningdek uning sog‘lig‘i to‘g‘risidagi ko‘rsatmalarini o‘z ichiga oladi. Professiogrammaning muhim tarkibiy qismi – psixogramma bo‘lib, u mutaxassisning motivlashgan, irodaviy va emotsiyal sohasining tavsifi hisoblanadi. Psixogramma – kacbning psixologik portreti bo‘lib, unda kasb uchun zarur bo‘lgan psixik funksiyalar guruhi namoyon bo‘ladi.

Professiografiyada turli-tuman usullar qo‘llaniladi:

- ijtimoiy usullar(so‘rovnomalar, savollar kiritilgan kuzatuv);
- psixologik usullar(suhbat, kuzatuv tajribasi, shaxsiy so‘rovnomalar, testlar, tajribalar, biografiyalar, faoliyat mahsulini o‘rganish metodi);
- fiziologik usullar(EKG, UZI, MRT, arterial bosimni o‘lchash, antropometrik ma’lumotlar);
- texnologik jarayonlar ta’siri va boshqa usullar.

Professiogrammalarni kasbga yo‘naltirish va kasbiy tanlov maqsadida ishlab chiqishda psixodiagnostik tadqiqotlar juda muhim hisoblanadi, kasbning shaxsga nisbatan qo‘ydigan talablari va mehnat sharoitlarini bilmasdan turib, kasbga yo‘naltirish va kasbga nisbatan layoqatini aniqlab bo‘lmaydi.

Professiografik tadqiqotlarning keyingi yo‘nalishi – toliqish va monotoniya, jarohatlanish, ko‘z kasalliklari va ko‘rish sezgisining pasayishi bilan bog‘liq mehnat shart-sharoitlari va tartibini o‘rganishdir.

E.M.Ianova professiografiyaning 4 ta guruhini taklif etadi:

– ma’lumotli; – diagnostik; – prognostik; – metodik.

Axborot-ma'lumotli professiografiya – oktantlar, ya'ni kasb tanlash zaruriyati oldida turgan shaxslar bilan kasbiy maslahat ishlari uchun mo'ljallangan bo'lib, ular qatoriga o'quvchilar, bilim yurtlari bitiruvchilari, ishsizlar va kasbini o'zgartirmoqchi bo'lganlar kirishi mumkin.

Axborotli professiografiya ishlari, maxsus kasbiy adabiyotlar bilan tanishish, tahlil qilish va hujjatlarni o'rganish orqali amalga oshiriladi.

Diagnostik (tashxisli) professiografiyalash –mehnat samaradorligining pastligi, mahsulot sifatining talab darajasida emasligi, avariya holati, jarohatlanish, kadrlar qo'nimsizligi kabi sabablarini aniqlash uchun o'tkaziladi.

Diagnostik professiografiya quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

#### **Faoliyat mazmuni:**

- mehnat predmeti va masalalari;
- ish natijalari sifatiga qo'yiladigan talablar.

#### **Mehnat qurollari:**

- ish turi va tartibi;
- boshqarish organlari;
- ish joyini tashkil etish.

#### **Mehnat subyektining faoliyati:**

- harakat turlari va ularning tavsifi;
- ishni rejalashtirish va bajarish nazorati;
- kasbiy faoliyatga xalaqit beruvchi omillar;
- mehnat jarayonida uchraydigan xatoliklar, jarohatlar;
- mehnat subyektining shaxsiy va psixofiziologik sifatlariga qo'yiladigan talablar;

- mehnat subyekti faoliyatining past samaradorligi tashxisi;
- kasbiy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha amaliy tekshiruv.

Diagnostik professiografiyada empirik ma'lumotlarni yig'ish amalga oshiriladi.

Prognostik professiografiya – kasbiy faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalarni berish maqsadida qo'llaniladi:

- kasbning umumiy tavsifi;
- kasbning rivojlanish tarixi va istiqbollari;
- kasbiy faoliyatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari;
- kasbiy muhit;
- kasbning mazmuni;
- kasbiy bilimdonlikni aniqlovchi omillar;
- kasbiy bilimlarni rivojlanishi;
- kasbiy ta'lim darajasi va malaka oshirish;
- kasbiy tayyorgarlik;
- ishchi-xodimning kasbiy moyilligi;
- mutaxassislik sohasining kengligi;
- malakalar darajasi;
- mutaxassislik va kasbni o'zgartirish imkoniyati;
- kasbning istiqbolini baholash;
- shaxsning kasbiy imkoniyatlari;
- ishchi-xodimning kasbiy faolligi.

Prognostik professiografiyalashda genetik, modellashtiruvchi tajriba usullari orqali kasbiy talablar va shaxsning psixofiziologik imkoniyatlari taqqosланади.

Metodik professiografiyalash psixologga mehnat subyektining holati va muhim kasbiy sifatlarini o'rganish usullarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalariga ko'ra metodik professiografiyalash chizmasi ham o'zgaradi. Masalan, kasbiy mehnat va dam olish tartibi, kasbiy toliqish va charchoq tufayli samaradorlikning pasayishi, o'z ishiga befarq munosabtning ta'sirini o'rganishda ushbi chizma qo'llaniladi:

- Mehnat subyekti faoliyatining mazmuni:

1. Harakatlar turi va ularning tavsifi.
2. Ishni rejalashtirish va bajarish xarakteri.
3. Emotsional holatlar.
4. Ish joyidagi noqulaylik turlari.
5. Faoliyat jarayonida paydo bo‘ladigan xatoliklar, jarohatlar.
  - Mehnat sharoitlari:
    1. Sanitariya va gigiyena(havo harorati, chang, namlik va b.).
    2. Yorug‘lik darajasi, shovqin.
    3. Ish tartibi.
    4. Haq to‘lash va rag‘batlantirish shakli.

Mutaxassisning kasbiy mahoratini o‘rganishda professiografiyaning quyidagi chizmasi qo‘llaniladi:

- Faoliyat mazmuni:
  1. Ishchi-xodimlar malakasiga qo‘yiladigan talablar (kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar, irodaviy sifatlar va qobiliyatlar).
  2. Ishchilarning huquq va majburiyatları.
- Mehnatni tashkil etish:
- Malaka oshirish.
- Kasbiy zaxira imkoniyatlari.
- Ijodiy qobiliyatlar.
- 3. Mehnat subyekti faoliyati:
- Harakatlar turi ka ularning tavsifi.
- Ishni rejalashtirish va uni nazorat qilish.
- Faoliyatning individual xususiyatlari.

Inson shaxsiga qo‘yiladigan talablar nuqtayi nazaridan kasblar va uning ixtisosliklarini umumlashma tavsiflanishi professiografiya deyiladi.

Professiografiya natijasi professiogramma bo‘lib, bir kasb doirasidagi ixtisosliklarning insonga, odamlar guruhiga qo‘yishi mumkin bo‘lgan talablari asosida tuzilgan umumlashtirilgan tavsifnomalardir.

Professiogrammaning bir qismini psixologik professiogramma, qolgan bir qismini – inson psixikasiga qo‘yiladigan talablar, ya’ni kasbiy qobiliyatlar ro‘yxati tashkil etadi. Professiografiya kasblar tasnifini ham o‘z ichiga oladi, bu turli mezonlari bilan ifodalanadi: texnologik, gigiyenik, psixologik va boshqalar. Har qanday kasbni o‘rganish va tavsiflash ma’lum bir maqsadni nazarda tutadi.

Professiogrammalar quyidagi vazifalarni bajarishga qaratiladi:

- kadrlarning mehnat faoliyatiga tayyorgarligini asoslash;
- gigiyenik sharoitlarni hisobga olish va muhitni sog‘lomlashtirish;
- kasbiy maslahat va kasbiy tanlovni asoslash;
- mehnat faoliyati me’yorlarini belgilash;
- mehnat xavfsizligi chora-tadbirlarini baholash.

Mehnatni ilmiy asosda tadqiq etish bilan kasbiy tibbiyot, mehnat fiziologiyasi, mehnat psixologiyasi kabi fanlar shug‘ullanadi. Mehnat psixologiyasi sohasidagi barcha tadqiqotlar, avvalo muayyan bir kasb faoliyatini o‘rganishdan boshlanadi. Hozirgi kundagi fan va texnika taraqqiyoti, hamma sohada yangi zamонавиу texnologiyalarning amaliyotga joriy etilishi munosabati bilan, mehnat faoliyati sharoitlarigina emas, balki mehnat mazmuni ham o‘zgarib bormoqda.

## **1.2. Kasbiy psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari**

XX asr boshlarida paydo bo‘lgan mehnat psixologiyasi – kasbiy faoliyat turlarini, kasbiy faoliyatning insonga, uning psixofiziologik imkoniyatlariga qo‘yadigan talablarini, kasbiy layoqat, ko‘nikma va malakalarni o‘rganadi.

Mehnat psixologiyasining asosiy vazifalaridan biri, mehnat sharoitlari, vositalari va mazmunini tahlil qilishdan iborat. Ishlab chiqarishdagi turli kamchiliklar, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni tashxis qilish orqali, ish

faoliyatining samaradorligiga katta e’tibor beriladi. Ammo tadqiqotchilar diqqat markazida asosan mehnatning amaliy natijaga erishish aspektlari, uning psixofiziologik tavsiflari turadi.

Mehnat psixologiyasi – insonning mehnat qurollari, ishlab chiqarish vositalari, mehnat faoliyati va ish sharoitiga ko‘nikishini o‘rganadi.

Inson shaxsining xususiyatlari hamda uning ishlab chiqarish muhiti bilan o‘zaro hamkorligi mehnat psixologiyasining predmetini tashkil qiladi. Mehnat faoliyatining psixologik mohiyati insonga uning kasbi taqozo etadigan psixik xususiyatlarga, holat va jarayonlarga qo‘yiladigan talablardan iborat bo‘ladi.

Mehnat faoliyati borasidagi psixologik tadqiqotlar – kasbiy maqsad, kasbiy o‘zlikni anglash, kasbiy shakllanish, kasb tanlash va uni o‘zgartirish sabablar haqida, kasbiy rivojlanish bosqichlari haqida to‘liq tasavvurni bermaydi. Aynan ushbu tushunchalar kasbiy psixologiyaning predmetini tashkil etadi.

Shuning uchun, kasb tanlash sohasidagi ishlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, kasb tanlashga ongli munosabatni shakllantirish, kasbiy inqirozli holatlar va qiyinchiliklarni yengib o‘tishda mazkur fanga doir bilimlar zarur bo‘ladi. Shu bois, hozirgi kunda kasbiy psixologiyaga doir bilimlarga ehtiyoj sezilmoqda.

Psixologiya – psixik faktlar, psixik qonuniyatlar va psixikani harakatga keltiruvchi kuchlarni o‘rganadi, psixologiya shaxs va uning faoliyati haqidagi fan sanaladi, psixologiyaning asosiy o‘rganish obyekti – bu psixika.

Insonda jismoniy tanadan tashqari, undan farqlanuvchi yana nimadir borligi haqidagi tasavvurlar qadimgi davrlarda ham mavjud bo‘lgan. Eng qadimgi davrlardayoq inson tush ko‘rish hodisasi orqali ayrim odamlarning noyob qobiliyatları (masalan, ovdagi muvaffaqiyatlar) o‘lim va boshqa hodisalarining sabablarini tushuntirishga intilib ko‘rishgan. Ammo ular mifologik xarakterda bo‘lib, fikrlash orqali emas, ko‘r-ko‘rona ishonch vositasida egallangan.

Odam psixikasi(ruhiyati)ning mo‘jizaviy imkoniyatlari haqidagi dastlabki qarashlar qadim zamonlardan beri mavjuddir. Ilk davrlarda psixik xususiyatlar


“jon”ning ishi deb tushuntirilgan, “jon”ning o‘zi esa odam tanasidagi maxsus ikkilamchi jism deb tasavvur qilingan.

Psixologiya tarixida psixikaning paydo bo‘lishi haqida yana bir qancha turli-tuman fikrlar bor. Uzoq asrlar davomida psixika va uning paydo bo‘lishi, taraqqiyoti masalalariga har xil nuqtayi nazardan yondashib kelindi.

**Psixologiyaning psixika(ruhiyat) to‘g‘risidagi fan sifatida shakllanishida quyidagi 4 ta asosiy bosqichni ajratish ko‘rsatish mumkin:**

Psixikaning taraqqiyoti, uning harakati – o‘zgarishidir. Qadimgi faylasuflar ruhiy hodisalarning rivojlanishini turlicha talqin etib kelganlar, uni ilohiy kuchga bog‘lab tushuntirishga harakat qiladilar. Masalan, qadimgi yunon faylasufi Fales (miloddan avvalgi 624-547- yillar) odamning ruhiy hayotini bug‘ shaklida tasavvur qilgan va uning asosida “suv” yotadi degan g‘oyani ilgari surgan bo‘lsa, Anaksimen (miloddan avvalgi 588-525-yillar) ruhiy hayotning manbaini “havo” tashkil etadi deb ko‘rsatadi. Efeslik Geraklit (miloddan avvalgi 530-470- yillar) “...qaysi yo‘llar bilan bormagin, baribir ruhning chegarasiga bora olmaysan...” degan aforizm bilan individual ruh va koinot birligi g‘oyasini oldinga surdi, unga ko‘ra barcha narsaning asosida “olov” yotadi. Organizmdagi olov uchquni bu – ruhdir, u «olovli va nam» holatda bo‘ladi. Bu fikr bilan Geraklit barcha psixik hodisalar moddiy dunyo qonunlariga buysunishni ta’kidlamoqchi bo‘ladi.

## Psixologiyaning fan sifatida rivojlanish bosqichlari



Geraklitedagi ruh uchqunlari keyinchalik Demokrit(miloddan avvalgi 400 – 370- yillar)ning ta’limotida «olovli atomlarga» aylandi.

Platon ta’limotiga ko‘ra «ideyalar» ning mohiyati abadiy va o‘zgarmasdir, uning fikriga ko‘ra, tabiiy olamdan tashqarida “Oliy ilohiy olam” mavjud bo‘lib, ularni odam ko‘z bilan ko‘ra olmaydi. Platon(Afrotun) psixologiyada «dualizm» oqimining asoschisi hisoblanadi. Dualizm so‘zi ikki yoqlamalik degan ma’noni anglatadi. Dualizm ta’limoti, moddiy va ruhiy olam, ya’ni tana va psixika bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud deb tushuntiradi.

Ushbu qarashlar Platonning shogirdi Aristotel(Arastu) tomonidan inkor etiladi, Aristotelning «Jon haqida» deb nomlangan asari o‘sha davrda katta shuhrat qozonadi va ruhiyat ilmida materialistik yondashuvga asos soladi.

Aristotel birinchi bo‘lib “jon va tana” ning ajralmasligini, ularning yaxlit bir butun ekanligini ko‘rsatib berdi. Unga ko‘ra, jon qismlarga bo‘linmaydi, lekin u faoliyatimiz davomida oziqlanishi, his etishi va harakatga kelishi, aql-idrok kabi turlarga oid qobiliyatlarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Birinchi qobiliyatlar o‘simgiliklar uchun, ikkinchisi va uchinchisi hayvonlarga, to‘rtinchisi esa insonlar uchun xosdir. O‘simgiliklar, hayvonlar ruhi

va aql-idrok odam ruhi ta’limoti bilan Arastu oliv qobiliyatlar va ularning negizida paydo bo‘lishini bildiradigan rivojlanish tamoyilini joriy etdi.

Arastu organizmning tabiatdan olgan qobiliyatlarni faqat o‘zining xususiy faolligi orqali ruyobga chiqarishga asoslangan holda xarakterning faoliyatda shakllanishi to‘g‘risidagi nazariyani ilgari surdi.

Antik davrning yirik mutafakkirlari Geraklit, Demokrit, Aflatun, Arastularning ta’limotlari keyingi asrlarda psixologik g‘oyalarning rivojlanishida tayanch nuqta bo‘lib xizmat qila boshladi.

O‘rta asrlarda Sharqda ham ilk psixologik qarashlar yuzaga keldi. Abu Nasr Forobi, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Umar Hayyom, Mirzo Ulug‘bek singari buyuk mutafakkirlar odam rihiyati, bola tarbiyasi va axloqiy qarashlarga doir fikrlar va falsafiy qarashlarini meros sifatida qoldirganlar.

Abu Nasr Forobi qomusiy bilimlar sohibi sifatida falsafa, mantiq, psixologiya, adabshunoslik, matematika, astronomiya, geometriya sohalariga oid 100 dan ziyod asarlar yozgan. Forobi umri davomida atoqli yunon olimi Aristotelning asarlariga sharhlar yozdi, uni o‘zining g‘oyaviy ustozni, deb bildi.

Bir kuni Forobiyan so‘radilar:

– siz kuchlimi yoki Aristotelmi?

Olim shunday javob berdi:

–agar men Aristotel zamonida yashagan bo‘lganimda, uning eng yaxshi shogirdi bo‘lgan bo‘lardim.

Aristotel ta’limoti, yunon falsafa maktabini chuqur bilganligi, qomusiy aqli va ilm-fan taraqqiyotiga juda katta hissa qo‘shganligi uchun Forobi “Sharq Aristoteli” nomiga sazovor bo‘lgan. Forobi o‘z davrida ilg‘or falsafiy maktabni yaratishga asos solgan va yo‘nalishlarni belgilab bergen, Platon, Aristotel, Epikur, Zenon, Aleksandr, Ptolomey, Parfiriy asarlarini puxta bilgan va sharhlagan.

Forobi o‘zi shug‘ullangan ilmning har bir sohasida, aql tamoyillariga va narsalarning obyektiv munosabatlariga muvofiq keluvchi haqiqiy ahvolni

aniqlashga intildi, shu ma'noda uning “Inson tanasining a'zolari haqida” gi risolasi katta ahamiyatga ega. Ushbu asarda inson organizmining tashqi muhit bilan uzviy aloqadorligi, insonning ruhiy va jismoniy holat tashqi omillarga bog'liqligiga alohida e'tibor qaratiladi. Abu Nasr Forobiy o'zining ta'lim-tarbiyaga oid asarlarida, ta'lim-tarbiya usullari, uslublari haqida fikr yuritadi. “Fozil odamlar shahri”, “Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida”, “Ilmlarning kelib chiqishi”, “Aql ma’nolari to‘g‘risida” kabi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o‘z ifodasini topgan va bugungi kunda ham o‘zining qimmatini yo‘qotmagan.

Forobiyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlariga insonparvarlik g‘oyalari alohida o‘rin tutadi. U pedagogika tarixida birinchilardan bo‘lib, insonni jamoada tarbiyalash g‘oyasini olg‘a surdi, ya’ni uning fikricha inson zaruriy xislatlarni: odob-axloqli bo‘lish, bilimdon bo‘lish, to‘g‘rilik va haqiqatni sevish, jasurlik, do‘stlarga sadoqatli bo‘lishni jamoadan o‘rganadi. Buning uchun esa baxt-saodatga eltuvchi jamoa bo‘lishi zarur.

Forobiy inson kamolotga yolg‘iz erisha olmaydi, buning uchun esa boshqalar bilan alohida bo‘lish, ularning ko‘maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo‘ladi, deb hisoblaydi. Bunga ta'lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqaligina erishiladi, deydi, chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni aqliy va axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, insonni tabiat va jamiyat qonunlarini, qoidalarini to‘g‘ri bilib oladi va hayotda to‘g‘ri yo‘l tutadi, boshqalar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi, jamiyat tartib-qoidalariga rioya etadi.

Ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iboratdir.

Forobiy bilimdon, ma'rifatli, yetuk insonning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi:

“Har kimki, ilm hikmatini o‘rganaman desa, uni yoshlikdan boshlasin, sog‘lig‘i haqida qayg‘ursin, yaxshi odob va axloqli bo‘lsin, so‘zining ustidan

chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo‘lsin, barcha qonun qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo‘lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha moddiy narsalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lsin”.

Abu Ali ibn Sinoning ruhiyot ilmi (psixologiya) sohasidagi ta’limoti uning tirik organizmlardagi hayotiy, tabiiy - biologik jarayonlarni tushuntirib berishida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Buyuk olim o‘zining psixologiya sohasiga oid risolalarida qanday masala yuzasidan ilmiy tadqiqot ishi olib borilmasin, avvalo, o‘sha tekshirilayotgan obyekt mavjudmi yoki yo‘qmi shuni aniqlash kerakligini uqtiradi.

Abu Ali ibn Sino, agar har qanday narsa va hodisa, ichki yoki tashqi sabablar bilan harakatga keladigan bo‘lsa, insonning yashashi va harakatida ham birorta sabab bo‘lishi kerak, bunday sabablardan biri «ruhiy quvvatdir», deb ko‘rsatadi.

Aristotel kabi, Abu Ali ibn Sino ham odam tanasi va «ruhiy quvvatlar» materiya bilan shaklan bir-biridan ajralmagan holda mavjud ekanligini ta’kidlaydi. Shuning uchun ham Abu Ali ibn Sino psixik faoliyat bilan odam salomatligining o‘zaro bir-biriga ta’sir etish kuchi katta ekanligini isbot qilishga harakat qiladi. Bu sohada u mavhum fikr yuritish bilan chegaralanib qolmay, balki kuzatishlarga tayanib, hayvonlar ustida oddiygina, ammo asosli tajribalar o‘tkazadi.

«Instinkt» deydi Abu Ali ibn Sino, shunday quvvatdirki, bu hayvon ongida mantiqsiz vujudga keladi... «Insonga esa ongli, mantiqan fikrlash xosdir. Miya kishining fikrlash a’zosidir. Shuning uchun ham Ibn Sino miya «seziluvchi suratlarni idrok qiladi yoki saqlaydi..., xayolda saqlangan suratlarni jamlab yoki bo‘lib ish yuritadi va shuning bilan birga sezgi orqali kelgan suratlarga o‘xshagan turli suratlarni vujudga keltiradi», - deya ta’kidlaydi.

Abu Ali ibn Sino odam nerv(asab) tizimining tuzilishiga doir tasavvurlarga asoslanib, nervlarning boshlanish joyi bosh miya bo‘lib, organizmning barcha a’zolariga tarqaladi va shu tufayli odam tashqi olamdan bo‘ladigan ta’sirotga javob qaytarish qobiliyatiga ega bo‘lishini yaxshi tushungan.

Kishiga tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarining ta’sir etishi, avvalo sezgilar orqali vujudga keladi, deb uqtiradi va asosan beshta sezgi (ko‘rish, eshitish, hid bilish, maza va teri-tuyg‘u) borligini, ularning xususiyatlari va ahamiyati haqida to‘xtalib, har qaysi sezgining bosh miyada alohida boshqarib boradigan markazi borligini ishonch bilan bayon etadi.

Abu Ali ibn Sino kishi mijozni to‘g‘risida fikr yuritar ekan, kishilarning yoshi va jinsini ham hisobga olish kerakligini uqtirib o‘tadi. U kishilarning yoshini umuman to‘rt qismga bo‘ladi:

1.“O‘sish yoshi”, bu o‘smirlik deb ham ataladi. Bu davr o‘ttiz yoshgacha davom etadi.

2.«O‘sishdan to‘xtash yoshi» yoki navqiron davri. Bu o‘ttizdan o‘ttiz beshgacha yoki qirq yoshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

3.«Cho‘kish yoshi», yoshi qaytganlik davri bo‘lib, bu oltmis yoshgacha davom etadi.

4.«Kuchsizlik bilan birga keksalik yoshi». Bu kishi umrining oxirigacha davom etadigan – qarilik yoshidir.

Ibn Sino o‘z asarlarida mardlik, insonparvarlik, halollik, poklik, mehnatsevarlikni targ‘ib qiladi, munofiqlik, yolg‘onchilik, ishyoqmaslik, riyokorlik, ikkiyuzlamachilikni fosh etadi. U insonlarni ilm-fanni o‘zlashtirishga, kasb-hunar egallahsga da’vat etadi.

Ibn Sino boshqa mutafakkirlar kabi o‘zining pedagogikaga oid fikrlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan uyg‘un holda ifodalagan va ularni maxsus risolalarda bayon etgan, u fanlarni tasnif etadi va birinchi o‘ringa tibbiyot fanlarini qo‘yadi, falsafani esa nazariy va amaliy guruhlarga bo‘ladi.

Ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma’rifatni egallahsga da’vat etadi, chunki ilm-fan inson kamolotiga xizmat qilib, tabiat qonuniyatlarini ochib avlodlarga yetkazishi kerak. Ma’rifatli kishi jasur, qo‘rmas, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo‘lishi kerak, bilimsiz kishilar johil bo‘ladilar, ular haqiqatni bila olmaydilar, bunday kishilardan ilm sirlarini, ilmiy fazilatlarni sir tutmoq kerakligini ta’kidlab o’tadi.

Yuqoridagi fikrlarni davomi sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, Ibn Sinoning ta’lim to‘g‘risidagi fikrlari ham muhim ahamiyatga ega. U xususan, ta’lim metodlari haqidagi ta’limotni yakunlar ekan, bilimlarni egallahda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerakligini uqtiradi. Shuning uchun ham bolalarni, albatta, maktabda o‘qitish zarur, deydi.

U ta’limda quyidagi tamoyillar tasnifini beradi.

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo‘ymaslik;
- ta’limda yengildan og‘irga qarab borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolaning yoshiga mos bo‘lishi;
- o‘qitishda jamoa bo‘lib, maktabda o‘qitishga e’tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayl va qiziqishlarini hisobga olish;
- o‘qitishni jismoniy mashqlar bilan qo‘shib olib borish.

Ana shu ta’limotlar bugungi kunda ham ta’lim jarayonida o‘z qimmatini yo‘qotgan emas. Ibn Sino “Tadbiri ul-manozil” asarida ushbu masalaga maxsus bo‘lim ajratadi va uni “Bolani maktabda o‘qitish va tarbiyalash” deb aytadi. Bu o‘rinda ta’lim jarayonida o‘qituvchining o‘rni va uning quyidagi mas’uliyatli vazifalariga alohida e’tibor qaratadi:

- bola bilan muomlada jiddiy bo‘lish;
- berilayotgan bilimlarni o‘quvchilar qanday o‘zlashtirayotganligiga e’tibor berish;
- ta’limda turli usul va vositalardan foydalanish;
- o‘quvchilarning xotirasi, bilim olish qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini e’tiborga ola bilish;

- fanga qiziqtira olish;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimlarini ajratib bera olish;
- bilimlarni o‘quvchilarga tushunarli, uning yoshi va aqliy darajasiga mos bo‘lishi;
- har bir so‘z bolalarning hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishish zarur!

Ibn Sinoning fikricha, har qanday holatda ham bolalarga berilayotgan bilim, bilim hosil qilish bilan birgalikda, mantiqiy fikrlash, olgan bilimlarini amaliyatda qo‘llay olish, mustaqil fikrlashga yordam berishi zarur.

XVII asr biologiya va psixologiya fanlari uchun muhim davr bo‘lib hisoblanadi. Jumladan Fransiya olimi Rene Dekart (1596-1650) tomonidan xulq-atvorning reflektor (g‘ayriixtiyoriy) tabiatga ega ekanligining kashf etilishi, yurakdagi mushaklarning ishlashi (faoliyati) qon aylanishning ichki mexanizmi bilan boshqarilayotganligini tushuntirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, refleks (lotincha. Refluxus - aks ettirish) organizmning tashqi ta’sirga qonu-niy ravishdagi javob reaksiyasi sifatida talqin qilinib, asab-mushak faoliyatini obyektiv tarzda bilish vositasiga aylandi. Sezgilar, assotsiatsiyalar, ehtiroslarning yuzaga kelishini izohlashga imkoniyat yaratildi.

Psixologiya fanining ilmiy asosga qurilishida ingliz olimi Gobbs(1588-1679) ruhni mutlaqo rad etib, mexanik harakatni yagona voqelik deb tan olib, uning qonuniyatlari psixologiyaning ham qonuniyatlari ekanligini ta’kidladi. Niderlandiyalik olim Spinoza (1632-1677) ongi katta ko‘lamga ega materiyadan sira qolishmaydigan voqelik, ya’ni yaqqol narsa deb, tushuntirdi. U determinizm (lotincha determinara - belgilayman) tamoyilining, ya’ni tabiat, jamiyat hodisalarining, shu jumladan psixik hodisalarning obyektiv sabablar bilan belgilanganligi haqidagi ta’limot targ‘ibotchisi edi.

XVII asrdagi yirik nemis mutafakkiri Leybnits (1646-1716) ning ta’limoti matematika, jumladan, integral va differensial hisoblar kashf etilishiga ta’sir etgan edi. Psixika hayot manzarasi arifmetik yig‘indi tariqasida emas, balki

integral tarzda namoyon bo‘ladi. Leybnits tasavvurlarning uzluksiz chegaralanishi g‘oyasiga tayangan holda pertsepsiya (bevosita ongsiz idrok)ni appertseptsiyalar diqqat va xotirani o‘z ichiga olgan anglangan idroklardan farqlagan edi. Leybnits psixologiyaga psixikaning faolligi tabiatini va uzluksiz rivojlanishi hamda psixikaning onglilik va ongsizlik ko‘rinishlari o‘rtasidagi murakkab nisbat haqidagi g‘oyani olib kirdi.

XVII asrda empirizm va sensualizmni tajriba va his etiladigan bilimning «sof» aql-idrokdan afzalligi haqidagi ta’limotning, ya’ni aqlida hech qanday tug‘ma g‘oyalalar va tamoyillar bo‘lishi mumkin emasligi haqidagi ta’limotning oldingi marraga ko‘tarilishiga olib keldi.

Bu ta’limotni ingliz faylasufi va pedagogi Jon Lok (1632-1704) astoydil himoya qilib chiqqan edi. Uni empirik psixologiyaning asoschisi deb hisoblash qabul qilingan. Barcha bilimlarning tajribadan kelib chiqishi haqidagi ta’limoti psixologiya uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, chunki u ruhiy hayotning aniq faktlari oddiy hodisalardan murakkab hodisalarga o‘tish yo‘llari puxta o‘rganilishini taqozo etadi.

Jon Lokkning fikricha, tajribaning ikkita manbai mavjud bo‘lib, biri tashqi sezgi a’zolarining faoliyati (tashqi tajriba) va ikkinchisi o‘zining xususiy miyani idrok etuvchi aqlning ichki faoliyati (ichki tajriba)dir. Kishi hech qanday g‘oyalarga ega bo‘lmagan holda dunyoga keladi. Uning ruhi – «toza taxta» bo‘lib, keyinchalik unga tajriba yozuvlari bitiladi. Tajriba oddiy va murakkab g‘oyalardan tarkib topadi. Bu g‘oyalalar yo sezgilardan, yo ichki idrok (refleksiya)dan hosil bo‘ladi. Ikkinchi holatda ong real narsalarga emas, balki o‘z xususiy mahsuliga yo‘naltirilib, o‘zi bilan o‘zi bo‘lib qoladi.

J.Lokkning refleksiya ta’limoti kishi psixologik faktlarni interospektiv tarzda bilib oladi degan taxminga asoslangan edi. Bu bilan yana dualizm ta’limoti ilgari suriladi. Ong va tashqi olamni turlichalicha usullar yordamida bilish mumkinligi jihatidan ham ular bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilar edi.

J.Lokkning tashqi va ichki tajriba to‘g‘risidagi ta’limoti ikki xil xarakterga ega ekanligi ham materialistik ham idealistik ta’limotlarning taraqqiyotiga turtki bo‘ldi. Materialistlar olamni bilishda tashqi tajribani asos qilib, olib inson psixikasining ichki mazmuni asosida odamning atrof-muhit bilan o‘zaro munosabati yotadi degan edilar.

XVIII asrga kelib nerv tizimini tadqiq qilishda ulkan yutuqlarga erishildi (Galler, Proxazka), natijada psixika - miya funksiyasi ekanligi haqidagi ta’limot vujudga keldi. Ingliz tadqiqotchisi Charlz Bell va fransuz Fransua Majandi tomonidan yoyiluvchi va harakat nervlari o‘rtasidagi tafovut ochib berildi, uning negizida psixologiya fanida reflektor yoyi degan yangi tushuncha paydo bo‘ldi, natijada ixtiyoriy (ongli) va ixtiyorsiz (ongsiz) reflektor turlari kashf qilindi.

Yuqoridagi ilmiy kashfiyotlar ta’sirida rus olimi I.M.Sechenovning (1892-1905) reflektor nazariyasi ro‘yobga chiqdi va ushbu nazariya psixologiya fanining fiziologik asoslari, mexanizmlari bosh miya reflekslarining o‘ziga xos xususiyatlari tabiatini ochib berish imkoniyatini yaratdi. Inson hayotida reflekslarning o‘rnini yuqori baholagan rus fiziologi I.M.Sechenov(1829-1905) o‘zining mashhur “Bosh miya reflekslari”(1863) asarida quyidagicha ta’rif beradi: “Ongli va ongsiz hayotning barcha aktlari(harakatlari) kelib chiqish usuli(mohiyati)ga ko‘ra reflekslardan iboratdir”.

Buyuk rus fiziologi I.P.Pavlov(1849-1936) o‘z amaliy tajribalari orqali I.M.Sechenov g‘oyalarini rivojlantirib, refleks tushunchasiga yangicha mazmun kiritdi va shartli reflekslarning hosil bo‘lish asoslarini yaratdi.

### **Reflekslarning ikki turi farqlanadi: shartsiz va shartli reflekslar.**

Shartsiz reflekslar tug‘ma bo‘lib, hayotning dastlabki kunlaridan namoyon bo‘la boshlaydi. Masalan: so‘rish, so‘lak ajralishi.

Shartli reflekslarning hosil bo‘lish sohasi bosh miya po‘stlog‘i hisoblanadi.

### **Birinchi va ikkinchi signallar tizimi:**

Odamda birinchi va ikkinchi signallar tizimi, hayvonlarda esa faqat birinchi signallar tizimi, ya’ni analizatorlar bo‘ladi. Ikkinci signallar tizimi so‘zlardan iborat bo‘lib, predmetlarning ayrim belgilarini farqlash, umumlashtirish, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlarni vujudga keltirish xususiyatiga ega.

Odamda nutq faoliyati(til) orqali ifodalanadigan so‘zlar alohida ahamiyat kasb etadi. “... so‘z, deb yozadi I.P.Pavlov, birinchi signallarning signali bo‘lib, voqelikning faqat biz(odamlar)gagina xos bo‘lgan ikkinchi signallar tizimini tashkil etadi”...

Nutqning rivojlanishi odamlarning bir-biriga munosabatini osonlashtirib, mehnat turlarini ko‘paytirish va ongning rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Odamda shartli refleks, shartsiz qo‘zg‘atuvchining mustahkamlanib borishi asosidagina emas, balki nutq yordamida ham hosil bo‘lishi mumkin.

Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qo‘ng‘iroq ovoziga nisbatan shartli refleks paydo bo‘lgandan so‘ng, qo‘ng‘iroq ovozi o‘rniga og‘zaki yoki yozma shakldagi “qo‘ng‘iroq” yoki “tanaffus” so‘zi ishlatilsa, bola qo‘ng‘iroq ovoziga qanday reaksiya ko‘rsatgan bo‘lsa, “qo‘ng‘iroq” yoki “tanaffus” so‘zining o‘ziga ham xuddi shunday reaksiya ko‘rsatadi.

Nutq faoliyati asosida shartli refleksning hosil bo‘lishi, odam oliv nerv faoliyatining sifat jihatidan o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatidir.


I.P.Pavlov tomonidan organizmning javob reaksiyasini aks ettiruvchi analizator tushunchasi fanga kiritildi.

**Analizator** – odamga ta’sir etayotgan qo‘zg‘atuvchilarni idrok etish va analiz(tahlil) qilishni ta’minlab beruvchi, murakkab neyrofiziologik tizimdir. U retseptor, retseptorni miya bilan bog‘lab turuvchi nerv yo‘llari va nerv impulsalarini qayta ishlaydigan miyaning alohida bo‘lmalaridan iboratdir.

**Psixika** yuksak darajada tashkil topgan materianing alohida xossasi bo‘lib, u obyektiv olamni alohida bir tarzda aks ettiradi. Yuksak darajada tashkil topgan materiya deganda, biz miyani tushunamiz, inson va hayvonlar psixikasining moddiy asosini markaziy nerv tizimining eng yuksak qismi bo‘lgan bosh miya

tashkil etadi. Odamning har bir psixik jarayoni holati va xususiyati butun markaziy nerv tizimining faoliyati bilan bog‘liqdir.

### **Analizatorlar va ularning bosh miya po‘stlog‘idagi joylashuvi**



**Psixika** – bu inson ruhiyatining shunday holatiki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni ham) ongli (ba’zan ongsiz) tarzda aks ettirishimizni, ya’ni bilishimiz, his qilishimiz, tasavvur qilib, anglashimizni ta’minlaydi.

**Psixika** – lotincha “psyuxxe” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, ruh, jon degan ma’noni bildiradi.

**Ong haqida tushuncha.** Ong psixikaning eng yuksak darajasi bo‘lib u faqat insongagina xosdir. Ong ijtimoiy tarixiy sharoitda odam mehnat faoliyatining tarkib topishida, til yordamida boshqa kishilar bilan doimiy munosabatda bo‘lish natijasida tarqqiy etgan, ong – ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli hisoblanadi.

Ongning birinchi xossasi – bu anglash demakdir. Inson ongi tevarak-atrofdagi tashqi olamga doir bilimlar yig‘indisidan iborat. Anglash tashqi


olamdagi narsalarni tushunish bo‘lib, uning tarkibiga muhim bilish jarayonlari kiradi.

Ongning ikkinchi xossasiga binoan, ongda obyekt bilan subyekt o‘rtasidagi aniq farq o‘z ifodasini topadi, ya’ni odam «men» degan tushunchani «men emas» tushunchasidan farqlay oladi. Odam o‘zini bilish qobiliyatiga ega bo‘lgan, ya’ni psixik faoliyatda o‘z-o‘zini tekshira oladigan yagona mavjudotdir.

Ongning uchinchi xossasiga asosan, ong yordami bilan odamning maqsadni ko‘zlash faoliyati ta’milnadi. Faoliyat maqsadlarini yaratish ongning vazifasiga kiradi. Bunda faoliyat motivlari yuzaga keladi va chamlab ko‘riladi, irodaviy qarorlar qabul qilinadi, harakatlarni bajarish yo‘llari hisobga olinadi.

Ongning to‘rtinchi xossasiga asosan, insoniy munosabatlar tizimi orqali ongli ravishda turli-tuman his-tuyg‘ular, kechinmalar yuzaga keladi. Ong kishilar o‘rtasidagi munosabatlarining yig“indisi va asosi hisoblanadi.

**Psixologiyaning predmeti** – konkret shaxs, uning jamiyatdagi xulq - atvori va turli faoliyatlarining o‘ziga xos tomonlaridir.



Psixik faoliyatni harakatga keltiradigan manbalar u yoki bu psixik jarayonni amalga oshiradigan aniq anatomik-fiziologik apparatlarning ishlashini talab qilgani uchun ham psixologiya ushbu mexanizmlarning tuzilishi, tabiatini va harakatini boshqa fanlar (fiziologiya, biofizika, biokimyo, kibernetika va boshqalar) bilan birgalikda ochib beradi. Psixologiya fanining o‘rganadigan obyekti psixik hodisalardir. Psixik hodisalar o‘z navbatida uchta katta guruhga taqsimlanadi:

- psixik jarayonlar;
- psixik holatlar;

- psixik xususiyatlar.

Psixik jarayonlar – sezgi a’zolariga tashqi ta’sir shakllari, inson va tashqi muhit, ichki kechinmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar shaklida bo‘lishi mumkin.

Psixik holatlar – psixik faoliyatning vaqtinchalik o‘zgarishi (dinamikasi) bilan ifodalanadigan hodisalar bo‘lib, alohida olingan kishining ichki dunyosini muhim tomonlarini hisobga olgan holda faoliyatga ta’sir etadigan omillardir.

### **Odam psixikasining namoyon bo‘lish shakllari va ularning o‘zaro bog‘liqligi**

<b>Psixik jarayonlar</b>	<b>Psixologik holatlar</b>	<b>Shaxs xususiyatlari</b>
<b>Bilish jarayonlari</b>	<b>Hissiy-irodaviy soha</b>	<b>Individuallik</b>
Sezgilar	Emotsiyalar	Yo‘nalganlik
Idrok	E’tiqod	Temperament
Xotira	Bardamlik	Xarakter
Tafakkur	Tetiklik	Qobiliyatlar
Xayol	Empatiya	Iqtidor
Nutq	Qiziquvchanlik	Aqliy salohiyat
Diqqat	Hayratlanish	Xulq motivatsiyasi

“...Bugungi kunda biz insonlar butun yer yuzidagi o‘ta murakkab telefon tarmoqlariga qaraganda ancha murakkab tuzilishdan iborat bo‘lgan atiga uch funtli inson miyasini tadqiq eta oldik: yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning qobiliyatlaridan taajjubga tushdik; inson ongingin vizual obrazlarni bir vaqtning o‘zida, parallel ishlov berish uchun guruhab, keyin esa ulardan qayta yorqin rangli obrazlarni yaratuvchi millionlab nerv impulslariga taqsimlovchi sensor tizimini munosib baholay oldik; inson xotirasining umumiyl ko‘rinishi bilan

hajmining cheksizligini va biz tevarak-atrofdan olayotgan axborotlarga ongli hamda anglamagan holda osonlik va zudlik bilan ishlov berishimizga ishonch hosil qildik. Shuning uchun insoniyat vakillari orasida fotoapparat, avtomobil va kompyuterni ixtiro qilgan, atomni parchalagan va genetik kodni kashf etgan, kosmik fazoni zabit etgan daholarning mavjudligi ajablanarli hol emas....<sup>3</sup>

Psixikaning turli shakllarda ko‘rinishlari: psixik jarayonlar, psixologik holatlar, xususiyatlар mavjud bo‘lib, psixik aks ettirish bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi, ya’ni shaxs individualligi orqali namoyon bo‘ladi; shaxsning faoliyati jarayonida yuzaga keladi; atrofdagi voqelikni to‘g‘ri aks ettirish imkoniyatini beradi.

Ushbu sohada amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, mavjud nazariy manbalar, fanlararo o‘zaro integratsiya jarayonlari psixologiya tarmog‘idan bir qator alohida yo‘nalishlarning ajralib chiqishiga turtki bo‘ldi, ular jumlasiga kasbiy psixologiyani ham kiritishimiz mumkin. Kasbiy psixologiyaning predmetini - shaxsning kasbiy jihatdan shakllanish qonuniyatlari, mexanizmlari va alohida psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Kasbiy psixologiya – bu shaxsning kasbiy maqsadlarni qo‘yishi, muayyan bir kasbni tanlashi va egallashi, kasbiy shakllanishi hamda rivojlanishiga doir qonuniyatlarni, shu bilan birga, shaxsning mehnatga layoqatlilik darajalarini o‘rganuvchi psixologiya fanining alohida sohalaridan biridir.

Kasbiy psixologiya psixologiya fanining mustaqil sohasi bo‘lib, u o‘zining tadqiqot predmeti va obyektiga ega, aynan shu jihatdan mehnat psixologiyasi, muhandislik psixologiyasi, yosh va pedagogik psixologiyadan farqlanadi.

Mazkur farqlar jadvalda quyidagicha ifodalaniladi:

---

<sup>3</sup>David G. Mayers Psychology, © 2010 by Worth Publishers. 213-b..

<b>Psixologiya fanining tarmoqlari</b>	<b>Tadqiqot predmeti</b>	<b>Tadqiqot obyekti</b>
Mehnat psixologiyasi	Mehnat faoliyatining psixologik qonuniyatlari va xususiyatlari	Mehnat faoliyatining yangi va uning psixologik, bajaruvchilik tavsiflari
Muhandislik psixologiyasi	Inson va texnikaviy tizimlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning psixologik qonuniyatlari	Inson-mashina tizimi
Pedagogik psixologiya	Ta'lismi va tarbiya jarayonining psixologik qonuniyatlari va o'qituvchi psixologiyasi	Ta'lim oluvchi hamda tarbiyalanuvchi shaxs, ta'lim va tarbiya beruvchi shaxs (pedagog shaxsi)
Yosh davrlari psixologiyasi	Shaxs ontogenetik taraqqiyotining psixologik qonuniyatlari	Shaxsning ontogenezda psixik rivojlanishi
Kasbiy psixologiya	Shaxsning kasbiy shakllanishini psixologik qonuniyatlari	Shaxsning "inson-kasb" tizimida kasbiy rivojlanishi

Mehnat psixologiyasi va kasbiy psixologiyaning farqini alohida ta'kidlash lozim, Y.A.Klimov, mehnat psixologiyasiga quyidagicha tavsif beradi: mehnat psixologiyasi fan sifatida odamning subyekt sifatida faoliyat ko'rsatishi va shakllanishi sohasidagi vazifalarni hal etish usullari, yo'llari va sharoitlarini o'r ganuvchi psixologiya yo'nali shidir.

Kasb psixologiyasi – shaxsning kasbiy jihatdan shakllanishini o‘rganadi, bunda shaxsning rivojlanishi kasbiy shakllanish sifatida ko‘rib chiqiladi.

Shaxsning psixomotor, motivlashgan va kognitiv sifatlarini hisobga olgan holda, uning kasbiy yutuqlariga e’tibor qaratiladi, inson va uning kasbi o‘rtasidagi bog‘liqlik, kasbiy vazifalar va kasblar olami tahlil qilinadi.

Kasb psixologiyasi – inson uchun kasbiy faoliyatning ahamiyatini o‘rganib, shaxsning kasbiy shakllanishini tadqiq etadi, shuningdek, kasbiy tasavvurlarning rivojlanishi, kasbiy yetuklik va uning hayotga bo‘lgan ta’sirini o‘rganadi.

Kasbiy psixologiyaning muhim aspektlari – kasbiy faoliyat tahlili, kasbiy maqsadlar, qiyinchiliklarini o‘rganish, kasbiy talablarni aniqlashdan iborat.

**Kasbiy psixologiyaning predmetiga asoslanib, uning quyidagi vazifalarini ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq:**

- + shaxsning kasbiy shakllanishiga oid asosiy tushunchalar va tadqiqot tamoyillarini, faoliyatiga tegishli uslublarini asoslash;
- + kasbiy psixologiyaning tadqiqot usullarini ishlab chiqish;
- + kasblarning tavsifiy tuzilmasini yaratish;
- + shaxsning kasbiy shakllanish qonuniyatlari va psixologik mexanizmlarini tadqiq etish, kasbiy faoliyat omillarini aniqlash, kasbiy shakllanishdagi inqirozlarni tahlil qilish;
- + kasbiy tuzilmalarning izdan chiqishi, shaxsning kasbiy faoliyat deformatsiyasi, kasbiy layoqatning pasayishi o‘rganish;
- + kasbiy rivojlanish monitoringini yuritish, psixodiagnostik vositalarni ishlab chiqish, mutaxassislarni attestatsiyadan o‘tkazish;
- + shaxsning kasbiy shakllanishiga psixologik yordam ko‘rsatish, insonning kasbiy faoliyatini muhofazalash va qo‘llab-quvvatlash;
- + kasbiy tashxis va maslahat, kasbiy korreksiya va reabilitatsiya, kasbiy faoliyatni yakunlashda psixologik yordam ko‘rsatish.

### **1.3. Kasbiy psixologiya fanining tadqiqot**

## **metodlari va boshqa fanlar bilan bog‘liqligi**

Psixologiya fanida tashqi olam sir-sinoatlari, ma’lum bir odamning ichki ruhiy dunyosini o‘rganish, turli-tuman psixik hodisalar va har bir shaxsga xos bo‘lgan individual xususiyatlarni aniqlash, ruhiyat ilmiga yanada chuqurroq kirib borish maqsadida bir qator ilmiy tadqiqot metodlari qo‘llaniladi.

Odam psixikasini tadqiq qilish metodlarining turlicha tasnifi mavjud bo‘lib, rus psixologi B.G.Ananyev ilmiy tadqiqot metodlarini tasniflash uchun ularni 4ta guruhga ajratadi:

### **•I guruh – tashkiliy metodlar:**

- qiyoslash metodi(turli guruh vakillarini yoshga, jinsga, faoliyat turiga yoki boshqa jihatlariga ko‘ra solishtirib ko‘rish);
- longityud metodi(bir necha kishilarni uzoq vaqt davomiy tarzda tadqiq etish);
- kompleks(har tomonlama o‘rganish) metod(tadqiqotlarda bir necha soha vakillari ishtiroy etadilar M: biologiya, psixologiya, sotsiologiya);

### **•II guruh – empirik metodlar:**

- kuzatish va o‘z-o‘zini kuzatish;
- tajriba metodlari (tabiiy va laboratoriya tajribalari, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi tajribalar);
- psixodiagnostik metodlar (testlar, anketalar yoki so‘rovnomalar, suhbat, intervyu, sotsiometriya);
- faoliyat natijalarini tahlil qilish metodi;
- biografiya metodi.

### **III guruh – olingan natijalarini qayta ishslash metodlari:**

miqdor(statistik) va sifat tahlilini o‘tkazish.

### **IV guruh – sharhlash metodlari.**

## **Tashkiliy metodlarning qo‘llanilishi**

Psixik taraqqiyotni o‘rganish metodlarining tashkiliy guruhiga qiyoslash, longityud (uzluksiz), kompleks (ko‘pyoqlama) metodlarni kiritish mumkin.

Odam va hayon psixikasini tadqiq etishda qiyoslash muhim o‘rin tutadi.

Psixologiyaning alohida tarmog‘i hisoblangan qiyosiy psixologiya – psixik hayotning filogenetik taraqqiyot shakllarini o‘rganuvchi psixologiya sohasi bo‘lib, odam va hayvonlar psixik rivojlanishini o‘zaro solishtirish orqali o‘xshashlik va farq qiluvchi tomonlarini aniqlaydi.

Qiyoslash metodi umumiyligi psixologiyada (psixikaning filogenetik va ontogenetik taraqqiyotini o‘rganishda), ijtimoiy psixologiyada (shaxsning ijtimoiy maqomini belgilash, shaxslararo munosabatlarda yuz bergan nizoli vaziyatlarni aniqlash, shaxs faoliyat ko‘rsatadigan turli-tuman guruhlarni o‘zaro taqqoslashda), tibbiyot psixologiyasida sog‘lom va bemor kishilarning ruhiy holatlarini qiyoslashda, sport psixologiyasi, yuridik psixologiya kabi psixologyaning deyarli barcha tarmoqlarida samarali qo‘llaniladi.

Yosh psixologiyasida qiyoslash metodidan turli yoshdagi odamlarning bilish jarayonlari, shaxs sifatida ulg‘ayish xususiyatlari, hissiy kechinmalari va irodaviy harakatlari, alohida o‘ziga xos shaxsiy fazilatlari, psixik taraqqiyotning kechish sur’ati, darajasi va o‘ziga xosligini o‘rganishda foydalaniladi.

Sobiq ittifoq psixologiya maktabining taniqli vakillari L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, B.G.Ananev, D.B.Elkonin, P.Y.Galperin va ularning izdoshlari tomonidan jismoniy va ruhiy taraqqiyotning yosh bosqichlari (chaqaloqlik va go‘daklik, ilk bolalik, bog‘cha yoshi, kichik maktab yoshi, o‘smirlilik, o‘spirinlik, yetuklik, keksalik davrlari)ni taqqoslash orqali ilmiy-nazariy tadqiqotlar amalga oshirilgan. So‘nggi yillarda o‘sib kelayotgan yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish sohasidagi yangi islohotlar, uzluksiz ta’limning joriy etilishi, kadrlar tayyorlashda shaxs, fan, madaniyat va ishlab chiqarishning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlashning muhim ahamiyat kasb etishi mazkur metodni keng miqyosda qo‘llashni ko‘zda tutadi.

Shu bilan birga, tadqiqotda olingan ma'lumotlarning ishonchli ekanligini aniqlash uchum ham qiyoslash metodi zarur bo'ladi.

Ruhiy taraqqiyotni ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etish uchun longityud (uzluksizlik) metodi ham foydalaniladi, uning o'ziga xosligi shundaki, bunda bir yoki o'ndan ortiq sinaluvchilar uzoq muddat, ba'zan bir necha yillar tekshirish obyektlariga aylanadilar. Germaniyalik tadqiqotchi V.Shtern, fransiyalik olim R.Zazzo, rus psixologlari N.A.Menchinskaya, V.S.Muxinalar o'z faoliyatlari davomida ushbu metodni samarali qo'llab kelganlar.

Longityud metodi yordamida bir xil jinsli(Hasan-Husan, Fotima-Zuhra) yoki aralash jinsli (Hasan-Zuhra, Fotima-Husan) kabi egizaklar o'rtasidagi o'xshashlik va farqli jihatlarni kuzatish mumkin bo'lgan.

Rus psixologlari N.A.Menchinskaya, V.S.Muxinalar o'z farzandlarining ruhiy taraqqiyotini, yosh ulg'ayishi bilan ularda yuz berayotgan psixik yangilanishlarni uzoq muddatli kuzatishlar asosida o'rGANIB borganlar, ular olib borgan tadqiqotlar «Ona kundaligi» deb nomlangan.

Alovida olingan bir shaxsni yoki shaxs faoliyat ko'rsatadigan muayyan bir kichik guruhni uzoq muddat davomida kuzatish, uning shaxs sifatida ulg'ayish jarayoni va xulq-atvoridagi o'zgarishlar, unga ta'sir ko'rsatuvchi mikroomillar, kichik guruhrar tizimi(oila, tengdoshlar davrasi)dagi shaxslararo munosabatlarning kechishi to'g'risida ishonchli hamda barqaror ma'lumotlar to'plash imkonini yaratadi.

Hozirgi kunda fan va texnika sohasida erishilgan ulkan yutuqlar (axborot kommunikatsiya tizimidagi yangiliklar, nanotexnologiyalar), tabiat va jamiyatning eng oliv ne'mati bo'lgan inson shaxsini turli yo'nalishlarda tadqiq etishga zarurat tug'ildi. Shuning uchun ilmiy nuqtayi nazardan bioijtimoiy jonzot sanaluvchi odamni turli-tuman fanlar (tibbiyot, fizika, kimyo, biologiya, anatomoiya va fiziologiya, psixologiya, sotsiologiya, falsafa, kibernetika va.b) negizada o'rGANISH ko'zda tutiladi va unga nisbatan kompleks yondashuv talab etiladi.

Jamiyat hayotining turli sohalarida tashkil etilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar psixologiyaning ayrim sohalarini qamrab oladi va uyg‘unlashtiradi:

- ijtimoiy psixologiya;
- tibbiyot psixologiyasi;
- boshqaruv psixologiyasi;
- mehnat psixologiyasi;
- muhandislik psixologiyasi;
- yuridik psixologiya;
- sport psixologiyasi.

Professor V.Karimova muallifligida chop etilgan “Psixologiya” o‘quv qo‘llanmasida ham ilmiy tadqiqot metodlar tasnifi keltirilgan, ushbu metodlar yordamida tadqiqotchi psixik jarayonlar, psixik holatlar yoki shaxs xususiyatlari to‘g‘risida birlamchi ma’lumotlar to‘plashi va tahlil qilishi mumkin bo‘ladi.

<b>ASOSIY METODLAR</b>	Asosiy metodlarning variantlari
<b>KUZATISH METODI</b>	Tashqi (obyektiv kuzatish) Ichki (subyektiv, o‘z-o‘zini kuzatish) Erkin kuzatish, standartlashtirilgan kuzatish Guruh ichida va tashqarisida kuzatish
<b>SO‘ROV METODLARI</b>	Og‘zaki so‘rov Yozma so‘rov Erkin so‘rov (suhbat) Standartlashtirilgan so‘rov
<b>TESTLAR METODI</b>	Test-so‘rov. Test-topshiriq. Proyektiv test. Sotsiometrik test.

EKSPERIMENT	Tabiiy eksperiment, Laboratoriya eksperimenti.
MODELLASHTIRISH	Matematik modellashtirish. Mantiqiy modellashtirish. Texnik modellashtirish. Kibernetik modellashtirish

**Kuzatish metodi.** Odatda kuzatish tabiiy sharoitda, faoliyatning kechishiga xalaqit bermagan holda olib boriladi, lekin maishiy hayotdagi oddiy kuzatishdan, muayyan bir maqsad asosida amalga oshiriladigan ilmiy asoslangan kuzatishni farqlash lozim. Ushbu metodning obyektiv (tashqi) va subyektiv (o‘z-o‘zini) kuzatish turlari mavjud. Ruhiy taraqqiyotning har bir yosh davriga xos bo‘lgan xususiyatlar, bola psixikasidagi o‘zgarishlar (yangilanishlar) va uning xulq-atvorini kuzatish uchun quyidagi tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi:

- kuzatishning maqsadi hamda vazifasi belgilab olinadi;
- kuzatiladigan obyekt tanlanadi;
- kuzatiluvchining yoshi, jinsi haqida ma'lumot olinadi;
- kuzatish ishini o‘tkazish vaqtি rejalashtiriladi;
- kuzatishning davom etish muddati qat’iy belgilanadi;
- kuzatish qaysi faoliyat turi (o‘yin, o‘qish, mehnat, sport)da amalga oshirilishi tavsiya etiladi;
- kuzatishning shakli (yakka, guruhiy) tanlab olinadi;
- kuzatilganlarni qayd etib borish vositalari (kundalik, suhbat daftari, kuzatish varaqasi, diktofon, videokamera va boshqalar) tayyorlab qo‘yiladi.

Kuzatish orqali idrokning xossalari, diqqatning o‘sishi, yuz ifodasida aks etadigan emotSIONAL holatlar, faoliyat jarayonidagi xatti-harakatlar, asab tizimining qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlari, nutq faoliyati kabilar o‘rganiladi.

Tashqi kuzatuv mohiyatan kuzatiluvchi xulq - atvorini bevosita tashqaridan turib, kuzatish orqali ma'lumotlar to'plash bo'lsa, o'z-o'zini kuzatish odamning o'zida kechayotgan ruhiy jarayonlar, holatlar, hissiy kechinmalarni o'rganish maqsadida ma'lumotlar to'plash va qayd etish usulidir.

Erkin kuzatuv ko'pincha muayyan bir jarayonni o'rganish maqsad qilib qo'yilganda qo'llaniladi. Masalan, dars jarayonida bolalarning mavzuga nisbatan munosabatlarini bilish uchun ham ba'zan erkin kuzatish tashkil etilishi mumkin, standartlashtirilgan kuzatuvda esa, nimani, qachon, kimni kuzatish qat'iy belgilab olinadi va maxsus dastur doirasidan chiqmasdan, kuzatuv olib boriladi.

Ijtimoiy hamda pedagogik psixologiyada guruhiy jarayonlarning shaxs xulq -atvoriga ta'sirini o'rganish maqsadida bevosita ichkaridan kuzatuv tashkil qilinadi, bunda kuzatuvchi shaxs o'sha guruh yoki oila hayotiga tabiiy ravishda qo'shiladi va zimdan kuzatish ishlarini olib boradi. Guruhdagi ijtimoiy-psixologik muhit va shaxslararo munosabatlarni tashqaridan kuzatish, chetdan(sirdan) kuzatish shaklida amalga oshiriladi va faqat ayrim vaziyatlar asosida xulosa chiqariladi.

Kuzatish metodining ijtimoiy hayotning turli ko'rinishlarini qayd qilishda afzallikkari bor, lekin shu bilan birga kuzatuvchining mahorati, kuzatuvchanligi, bilim darajasiga bog'liq jihatlar, to'plangan ma'lumotlarni subyektiv ravishda tahlil qilish xavfi bo'lgani uchun ham ayrim kamchiliklardan xoli bo'lmaydi.

**So'rov metodi.** Ushbu metod psixologiyaning barcha tarmoqlarida birlamchi ma'lumotlar to'plashning an'anaviy usullaridan hisoblanadi, unda respondent (o'rganilayotgan shaxs) bir qator savollarga javob qaytarishi kerak bo'ladi.

Og'zaki (erkin) so'rov suhbat metodi deb ham ataladi.

Suhbat metodi sirdan qaraganda oddiy so'zlashuv jarayoni bo'lib ko'rinsada, aslida odamning ichki ruhiy holati, hissiy kechinmalari, alohida psixologik xususiyatlari, shaxsiy xislat va fazilatlarni aniqlash imkonini beradi.

Dastlab suhbatning asosiy maqsadi va ko‘zda tutilgan vazifalar belgilab olinadi, uning obyekti tanlanadi, mavzusi, o‘tkaziladigan vaqt aniqlanadi.

Suhbatlar rasmiy yoki norasmiy, qisqa muddatli yoki davomiy, yakka holda yoki guruh tarzida o‘tkazilishi mumkin.

Suhbat metodining o‘ziga xos afzallik tomonlari ham mavjud:

- maxsus laboratoriya xonasi va jihozlar talab etilmaydi;
- muloqot bevosita, jonli o‘tkaziladi;
- bir vaqtning o‘zida bir necha kishini qamrab oladi;
- mavzu bo‘yicha oldindan tayyorgarlik ko‘rish imkoniyati mavjud;
- milliy xususiyatlar va mahalliy shart-sharoitlar e’tiborga olinishi mumkin;
- yakka holda va intim;
- oddiy va hayotiy.

Suhbat metodini qo‘llash orqali psixolog suhbatdoshining yuz mimikasi, ko‘z qarashlari, imo-ishoralari va kayfiyatini tez ilg‘ab olishi, ichki kechinmalari, fikr yuritishi, fe’l-atvori to‘g‘rsida ma’lumotga ega bo‘lishi, eng muhimi tinglay olishi va o‘z fikr mulohazalarini bildirishi zarurdir.

Suhbat o‘tkazish jarayoni quyidagi talablarni o‘z ichiga oladi:

- suhbat aniq maqsad va reja asosida tashkil qilinadi;
- suhbat o‘tkazish uchun qulay joy tanlab olinadi hamda vaqt belgilanadi;
- so‘zlashuv suhbatdoshning hissiy holatiga mos ravishda boshlanadi;
- suhbat mazmuni oldindan belgilangan yo‘nalishga o‘tkaziladi;
- suhbat o‘zaro ishonch ruhida o‘tkaziladi;
- suhbat shaxs to‘g‘risida batafsil ma’lumot olingandan so‘ng o‘tkaziladi;
- suhbat o‘tkazilayotgan shaxs fikrlari diqqat bilan tinglanadi;
- suhbatda uzviylik, ishonch va o‘zaro hamkorlikka amal qilinadi;

– suhbatda maslahatgo‘ylik emas, balki o‘zaro hamjihatlik yo‘lga qo‘yiladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan talablar asosida zarur bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan mutaxassisning suhbat metodini qo‘llay olishi o‘quvchilar shaxsi, fikrlash darajasi, his-tuyg‘ulari, ma’naviy dunyosi, qiziqishlari, faoliyat motivlarini chuqur o‘rganishga xizmat qiladi.

Yozma so‘rov yoki anketaning afzalligi shundaki, uning yordamida bir vaqtning o‘zida ko‘pgina odamlar fikrini o‘rganish mumkin bo‘ladi. Unga kiritilgan savollar, ulardan kutiladigan javoblar (yopiq anketa) yoki erkin o‘z fikrini bayon etish imkoniyatini beruvchi (ochiq anketa) so‘rovnomalar aniq va ravon tilda javob beruvchilar tushunish darajasiga monand tuzilgan bo‘lsa, shubhasiz, qimmatli birlamchi materiallar to‘planadi.

**Test metodi.** Testlar(inglizcha. sinash, tekshirish) – shaxsning aqliy taraqqiyotini, qobiliyatini, irodaviy sifatlarini va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirish va anqlashda qo‘llaniladigan qisqa, standartlashgan(bir qolipga solingan) savollar, so‘rovlar, mashqlar, masala va topshiriqlar hisoblanadi.

Testlar shaxsning qiziqishlari, moyilligi, kasbga yaroqliligi, iqtidorini aniqlashda, temperament tipi va xarakter xislatlarini o‘rganishda keng qo‘llanadi.

Testlar orqali olingan natijalarning qiymati, test sinovi o‘tkazuvchining mahorati, yig‘ilgan ma’lumotlarning obyektivligi va ilmiy tahlil qilishga bog‘liqdir.

1905- yilda fransuz psixolog A.Bine va uning shogirdi A.Simon odamning aqliy o‘sish va iste’dod darajalarini o‘lchash imkoniyati mavjud degan g‘oyani ilgari surganlaridan keyin psixologiyaning turli sohalarida testlar qo‘llana boshlandi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, XX asrning 90-yillaridan boshlab, testlar hayotimizga dadil kirib kelgan tekshiruv usullari sirasiga kiradi.

Test-so‘rov oldindan qat’iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi. Masalan, Ayzenkning 57 ta savoldan iborat test so‘rovnomasidan shaxsdan berilgan savollarga «ha» yoki «yo‘q» tarzida javob

berish so‘raladi va olingan natijalarga ko‘ra: intraversiya-ekstraversiyani aniqlaydi.

Test-topshiriq odam xulqi va holatini amalga oshirgan ishlari asosida baholashni nazarda tutadi. Masalan, shaxs tafakkuridagi kreativlilikni aniqlash uchun ko‘pincha bir qarashda oddiygina topshiriq beriladi: berilgan 20 ta doira shaklidagi shakllardan o‘zi xohlagancha rasmlar chizish imkoniyati beriladi.

Ma’lum vaqt va tezlikda bajarilish sur’ati, rasmlarning o‘ziga xos va betakrorligiga qarab shaxs fikrashi jarayonining naqadar nostandard, ijodiy va kreativligiga baho berilib, miqdoriy ko‘rsatgich aniqlanadi.

Bu metodlarning umumiy afzalligi ularni turli yosh, jins va kasb egalariga nisbatan qo‘llashning qulayligi, bir guruhda natija bermasa, boshqa guruhda yana qayta tekshiruv o‘tkazish imkoniyatining borligi bo‘lsa, kamchiligi-ba’zan tekshiriluvchi agar testning mohiyatini yoki kalitini bilib qolsa, sun’iy tarzda uning kechishiga ta’sir ko‘rsatishi, faktlarni falsifikatsiya qilishi mumkinligidir.

Testlar ichida proyektiv testlar deb nomlanuvchi testlar ham borki, testning asl maqsadi tekshiriluvchiga sir bo‘ladi, ya’ni shunday topshiriq beriladiki, tekshiriluvchi topshiriqni bajarayotib, nimani aniqlashi mumkinligini bilmaydi.

Masalan, mashhur Rorshaxning «siyoh dog‘lari» testi yoki TAT (tematik apperception test), tugallanmagan hikoyalari kabi testlarda muayyan bir narsaga yo‘naltirilgan xatti-harakatlardan, ikkinchi bir ruhiy holatlar va xususiyatlarning mohiyati aniqlanadi. 1921- yilda kashf etilgan «siyoh dog‘lari» testini taqdim etish orqali sinaluvchining nimalarni eslayotganligi, dog‘larni nimalargadir o‘xshatishi, ya’ni idrok etishiga qarab, uning shaxs sifatidagi yo‘nalishlari, hayotiy tamoyillari, qadriyatlarga munosabati, ishni bajarish paytidagi emotSIONAL holatlari aniqlanadi.

Ushbu testlar juda noyob, qimmatli, lekin uni faqat mutaxassis psixolog qo‘llashi va natijalarni mohirona tahlil qilishi talab etiladi.

**Eksperiment metodi.** Tajriba o‘tkazish metodi orqali tushunchalarning shakllanishi, nutqning o‘sishi, muammoli vaziyatlarni hal qilishi, shaxsning histuyg‘ulari, xarakteri va tipologik xususiyatlari o‘rganiladi, inson psixikasining

nozik ichki bog‘lanishlari va qonuniyatlari tekshiriladi. Tajriba o‘tkazuvchi mutaxassis, eksperimental materialini sinchkovlik bilan tanlashi, tajriba ishiga obyektiv tarzda yondashishi, zarur holat va vaziyatlarni yarata olishi, bunda sinaluvchining yoshi, aql-idroki, temperament tipi, xarakter xislatlari, hissiy kechinmalar, irodaviy sifatlari, qiziqish va moyilliklari, turmush tajribasi, bilim, ko‘nikma va malakalariga e’tibor berishi lozim bo‘ladi.

Tajriba metodining tabiiy va laboratoriya turlari ajratiladi.

Tabiiy tajriba metodining ilmiy asoslari 1910- yilda A.F.Lazurskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Tabiiy metod yordamida tashkilot, muassasa, ishlab chiqarish korxonasi xodimlarining o‘zi egallab turgan vazifasiga loyiqlik darajasi, ularning o‘zaro munosabatlari, jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhit, ish qobiliyatlarini tahlil qilish kabi masalalarni hal qilish nazarda tutiladi.

Tabiiy tajriba o‘tkazish usuli, sinaluvchilar (bog‘cha yoshidagi bolalar, maktab o‘quvchilari, ishchi-xodimlar, turli yoshdagi kishilar v.b) uchun odatiy bo‘lgan sharoitda qo‘llaniladi, bu esa laboratoriyyada yuz berishi mumkin bo‘lgan hissiy zo‘riqishlarning oldini oladi va natijalarning ishonchli bo‘lishini ta’minlaydi.

Tajriba o‘tkazishning laboratoriya usuli, ko‘pincha yakka tartibda, ba’zan guruh shaklida maxsus jihozlangan xonalarda maxsus anjomlar, yo‘riqnomalar, tavsiyalar, ko‘rsatma va ilovalardan foydalanib olib boriladi.

Hozirgi kunda inson psixikasidagi ko‘zga ko‘rinmas o‘zgarishlarni ham aniqlay oladigan asboblar multimedia qurilmalari mavjudki, ular odamdagи psixik jarayonlar, hissiy holatlar, alohida psixik o‘zgarishlarni qayd etadi.

Tajriba metodining laboratoriya usuli yordamida diqqatnning sifatlari (ko‘chishi, ko‘لامи, barqarorligi), idrokning xossalari, xotira va tafakkur jarayonlarining xususiyatlari, hissiy kechinmalar, irodaviy zo‘r berish singari murakkab psixik holatlar tekshiriladi. Laboratoriya sharoitida kutilmagan tasodifiy vaziyatlar (halokat, portlash, izdan chiqish, shovqin ko‘tarilishi)ning modellari yaratiladi, natijada odam psixikasidagi o‘zgarishlar, rivojlanish sur’ati, jismoniy va aqliy toliqish, hissiy-irodaviy hamda asabiy zo‘riqishlar, tanglik

holati qanday sodir bo'layotganligini ifodalab beradigan qimmatli ma'lumotlar olinadi.

Tajriba o'tkazish - aniqlovchi, tarkib toptiruvchi va tekshiruvchi qismlarga bo'linadi. Tajribaning aniqlovchi qismida psixik xususiyat, jarayon yoki holat o'yin, mehnat, o'qish kabi faoliyatlarda tadqiq etiladi. Tadqiqot obyektining aynan shu paytdagi ruhiy holati va uning imkoniyati aniqlanadi, tekshiruvchi tomonidan sinaluvchiga subyektiv ta'sir o'tkazmasligi belgilab qo'yiladi.

Tarkib toptiruvchi tajribada sinaluvchilarda muayyan bir sifatni shakllantirish, ko'nikma va malakanai hosil qilish rejalashtiriladi. Tajriba yakka yoki guruh tarzida o'tkazilishi mumkin, buning uchun zarur bo'lgan tajriba materiali oldindan tayyorlab qo'yilishi shart hisoblanadi.

Tekshirish tajribasida tarkib toptiruvchi bosqichda shakllantirilgan sifat, ko'nikma va malakaning egallaganish darjasи, uning barqarorligi aniqlanadi, natijalar orqali tarkib toptiruvchi tajribaning samarasи o'lchanadi.

Mazkur bosqichda tekshiruvchi sinaluvchiga mutlaqo yordam berishi mumkin emas, aks holda tadqiqot o'tkazish tamoyili buziladi.

Aniqlovchi, tarkib toptiruvchi va tekshiruvchi tajribalarda yig'ilgan ma'lumotlar, miqdoriy-statistik metodlardan foydalangan holda qayta ishlab chiqiladi, statistik metodlar yordamida odamning bilish jarayonlari va individual-tipologik xususiyatlarining bog'liqligi va o'zaro ta'siri tahlil qilinadi.

**Modellashtirish metodi.** Ushbu metod zamonaviy psixologiyaning turli sohalarida kuzatish, so'rov yoki boshqa usullar yordamida o'rganilayotgan hodisaning tub mohiyati aniqlanmagan sharoitlarda qo'llaniladi. Bunda o'sha hodisaning umumiy belgisi yoki asosiy o'lchamlari modellashtirilib, o'sha model asosida tadqiqotchini qiziqtirgan jihatlar o'rganiladi va xulosalar chiqariladi.

Modellar texnik, mantiqiy, matematik yoki kibernetik bo'lishi mumkin. Matematik model asosida o'rganilgan hodisaga Veber-Fexnerlarning

sezgirlikning quyi va yuqori chegarasini aniqlashga qaratilgan matematik formulasi va shu asosda to‘plangan ma’lumotlar tahlilini misol qilish mumkin.

Mantiqiy modellar yordamida ko‘pincha inson tafakkuridagi aqliy operatsiyalarni elektron hisoblash mashinalari ish uslublari bilan qiyoslanadi.

Kibernetik modellashtirishda odam ongingin imkoniyatlarini matematik dasturlash tamoyillariga moslashtirish nazarda tutiladi. Hozirgi kunda ko‘pgina murakkab shaxs xususiyatlari ham dasturlangan bo‘lib, ular algoritmlar asosda qisqa fursatda ko‘pgina sifatlarni ko‘plab mezonlar orqali natijalarni umumlashtirishga imkon bermoqda.

Ma’lum bo‘lishicha, odamning fikrlash operatsiyalari bilan yangi kompyuter texnologiyalarining ishlash tamoyillari o‘rtasida ma’lum bir uyg‘unlik bor ekan, bu esa murakkab psixik jarayonlarni modellashtirish orqali insonning aql-zakovat chegarasini yanada kengaytirish istiqbolini beradi.

### **Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni**

Hozirgi zamon psixologiya fani, barcha tabiiy va ijtimoiy fanlar tizimida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, ular bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib bormoqda. Fanlar orasidagi bog‘lanishlar psixologiyaning fanlar tizimidagi o‘rnini belgilab beradi. Hozirgi zamon psixologiya fani shaxsning bilish jarayonlari, bilish faoliyati, hissiy-irodaviy sohasi va alohida psixologik xususiyatlarini o‘rganadi.

Psixologiya barcha fanlar tizimida muhim o‘rinni egallaydi.

Psixologiya ijtimoiy-gumunitar sohani tadqiq etuvchi falsafa, sotsiologiya, mantiqshunoslik, tarix, san’atshunoslik, pedagogika kabi fanlar bilan uzviy bog‘liq holda taraqqiy etib boradi.

Psixologiya falsafa fani bilan chambarchas bog‘liqdir, bu ushbu fanlarning inson ongi va tafakkurini o‘rganish sohasidagi mushtaraklikdan kelib chiqadi. Psixologiya fani tabiat, jamiyat va inson tafakkuriga xos bo‘lgan umumiyl qonuniyatlar va tamoyillarni falsafiy bilimlar orqali asoslaydi va shu

bilan birga o‘zi ham inson ongi va tafakkurini tadqiq etish sohasidagi yutuqlar bilan falsafa fanini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta’kidlash o‘rinlik, mustaqillik yillarida yaratilgan milliy istiqlol mafkurasinining asosiy g‘oyalarini yoshlar ongiga sinsdirishda falsafa va psixologiyaning o‘zaro hamkorligi va hamjihatligi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Bu ayniqsa yangicha tafakkur, dunyoqarash va mustahkam e’tiqodni shakllantirish zarur bo‘lgan tarixiy davr, ya’ni yurtdoshlarimiz ongi va tafakkuriga milliy istiqlol g‘oyalarini singdirish davrida o‘ta muhim ahamiyat kasb etdi.

Sotsiologiya fani ham yangi davr va yangicha munosabatlar sharoitida o‘z taraqqiyotining muhim bosqichiga erishar ekan, psixologiya ushbu fan qo‘lga kiritgan yutuqlardan foydalanadi hamda ularning qo‘llanilishiga, xizmat qiladi. Ayniqsa, psixologiyadan mustaqil ravishda rivojlanib, ajralib chiqqan bugungi taraqqiyot davrida alohida ahamiyat kasb etgan ijtimoiy psixologiyaning sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo‘lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanishni ta’minalash ishiga xizmat qiladi. Huquqiy-demokratik davlat qurish ishini amalga oshirayotgan O‘zbekiston xalqining huquqiy madaniyatini va demokratik o‘zgarishlarga ruhiy jihatdan tayyorligini amalda ta’minalash, muntazam ravishda aholining turli qatlamlaridagi ijtimoiy fikrlarni o‘rganish, bashorat qilish va taraqqiyot mezonlarini ishlab chiqish zarurati har ikkala fanni o‘zaro uyg‘unlikda bo‘lishiga zamin yaratadi.

Pedagogika bilan psixologiyaning o‘zaro hamkorligi va aloqasi an’anaviy va azaliy bo‘lib, ularni yosh avlod tarbiyasining zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi ahamiyati va nufuziga xosdir.

Mazkur aloqadorlik hamisha mavjud bo‘lib kelgan va buni hozirgi zamon pedagogika va psixologiya maktabi vakillari tushuntirib berishga harakat qilishadi. Rus pedagogi va psixologi K.D.Ushinskiy pedagogika uchun o‘z ahamiyatiga ko‘ra psixologiya barcha fanlar ichida birinchi o‘rinda turadi, deya ta’kidlaydi. “Kishini

har jihatdan tarbiyalamoq uchun, - deb ko'rsatgan edi K.D.Ushinskiy, uni har jihatdan o'r ganmoq darkor".

Tabiiy fanlardan – biologiya, anatomiya va fiziologiya fanlari psixik jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushuntirib berish va shu orqali ularning kechish qonuniyatlarini obyektiv o'r ganishga zamin yaratib beradi.



**Psixologiya va tabiiy fanlar.** Biologiya, fiziologiya, kimyo, fizika va boshqa fanlar psixik hodisalar va jarayonlarning tabiiy-fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechishi qonuniyatlarini obyektiv o'r ganish uchun material beradi.

Ayniqsa, bosh miya hamda markaziy asab tizimidagi nerv jarayonlari va psixik faoliyatini o'r ganishda psixologiya fani, tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardagi tadqiqot usullaridan samarali ravishda foydalanadi, tabiiy fanlar sohasidagi muvaffaqiyatlar psixologiya fanining rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Kibernetika fani sohasidagi erishilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatli va zarur bo'lib, u inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika fani tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturlardan o'z o'rnida foydalanadi. Ayniqsa, axborotlar asri bo'lgan XX asrda va har bir alohida ma'lumotning qadr-qimmatini oshishi bashorat qilingan XXI asrda psixologiya hamda kibernetika fanlarining salohiyati yanada ortadi.

Muloqot jarayonini yanada takomillashtirish, har bir so'zning shaxslararo munosabatlardagi ta'sir kuchini oshirish maqsadida hamda ijtimoiy faoliyat jarayonidagi shaxs tuzilmasini yanada takomillashtirish uchun turli kibernetik modellardan o'rinli foydalanish zamonaviy psixologiyaning jamiyatdagi o'rni va maqomini oshiradi. Kompyuter texnikasi, maxsus kompyuter dasturlari va inson miyasi, uning ruhiy olami sirlarini tez va aniq o'r ganishni kafolatlaydi.

Iqtisodiyot sohasi va psixologiyaning o‘zaro aloqasi va hamkorligi XX asr yangiliklaridan biri bo‘lib, yurtimizda bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tish sharoitida iqtisodiy ong va tafakkurning o‘ziga xos tarzda shakllanish qonuniyatlarini o‘rganish va hayotga tatbiq etishda aks etadi.

#### **1.4.Zamonaviy psixologiya fanining asosiy yo‘nalishlari**

Psixologiya fanining rivojlanishi bir qator bosqichlarni o‘z ichiga qamrab olib, bu davrlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi, aynan tadqiqotlar samarasi uchun fan doirasida tamoyillarni ishlab chiqish zarurati sezila boshladi.

XX asrning boshlariga kelib, psixologiya fani to‘g‘risidagi ilmiy tushunchalarda keskin o‘zgarishlar yuzaga keldi va psixologiyaning tadqiqot obyekti sifatida insonga tashqi muhitning ta’siri, uning xulq-atvorini o‘rganish muammolari tanlab olindi, shu davrda psixologiya fanining rivojlanishiga ijobiy hissa qo‘shgan bir qator nazariyalar, oqimlar va yo‘nalishlar vujudga keldi.

XX asr boshlarida bixevoirizm, psixoanaliz, geshtalt psixologiya, gumanistik psixologiya kabi yirik psixologiya makteblari paydo bo‘ldi.

**Bixevoirizm yo‘nalishi.** AQSHda E.Torndayk, D.Uotson kabi olimlar dastlab hayvonlarda keyinroq odamlar xulqini o‘rganish asosida xulq-atvor psixologiyasini yaratdilar. BIXEVIORIZM (inglizcha. *Behaviour* – xulq) – XX asr boshlaridagi yirik psixologik yo‘nalish, ushbu yo‘nalishda “rivojlanish” tushunchasi, “uqush”, “o‘rganish” tushunchasi bilan yonma-yon yuradi.


Bixevoirizmnning vujudga kelish shart-sharoitlari:

- introspektiv (introspeksiya. o‘z-o‘zini kuzatish metodi) psixologiyaning yetarli emasligi, amaliy tajribalarga bo‘lgan ehtiyojning paydo bo‘lishi;
- AQSHda hukmron o‘rinni egallagan “pozitivizm va pragmatizm falsafasi” (mazkur yo‘nalish g‘oyasiga ko‘ra: odam, uni o‘rab turgan muhit orqaligina odam hisoblanadi);

- hayvonlar xulqini o‘rganishga oid o‘tkazilgan tadqiqotlar (E.Torndayk), rus olimlari (I.P.Pavlov, V.M.Bexterev)ning fiziologik va psixologik g‘oyalari;
- psixika va psixik jarayonlarning xulq ko‘rinishidagi idodalanishini o‘rganish;

Bixevoirizm oqimining yirik vakili E.Torndayk (1874-1949) biologiya fanida hukm surayotgan evolutsion ta’limotga asoslangan holda, bolalarga ta’lim berishda o‘ziga xos yondashuvni ilgari suradi.

Uotson Jon (1878-1958) amerikalik psixolog, bixevoirizm oqimining asoschisi, ushbu oqimning manifesti sifatida Jon Uotsonning – «Bixevoirist nuqtayi nazarida psixologiya» (1913- yil) nomli maqolasi e’tirof etiladi. Bixevoirizm individ (hayvon va odam)ning tug‘ilganidan to umrining oxirigacha bo‘lgan xulqini o‘rganishni taklif etadi.



### **Xulqni tahlil qilish birligi sifatida S – stimul va R – reaksiyaning bog‘lanishi nazarda tutiladi.**

XX asrning 70- yillarida bixevoirizm, aniqrog‘i neobixevoirizm oqimining taniqli vakillaridan biri Berrens Skinner edi. Uning fikriga ko‘ra, odamning xulqi, tashqi muhit ta’siri ostida yuzaga keladigan vositalar(rag‘batlantirish yoki jazolash)ga uzviy ravishda bog‘liqdir, shuning uchun bola tarbiyasi muayyan bir stereotip(qolip)lar orqali amalga oshiriladi.

Skinnerning hisoblashicha, odamning xulqi uning ehtiyojlari bilan emas, balki uni o‘rab turgan muhit orqali belgilanadi, zero, ehtiyojlarning shakllanishi – bu muhitning ta’siri va uning mustahkamlanishidan iboratdir. Odamning tashqi muhit ta’sirini qabul qilishi va o‘zida mustahkamlay olish qobiliyati, o‘z-

o‘zini saqlash instinkti negizida amalga oshiriladigan mashqlar orqali shakllanadi.

XX asr boshlarida avstriyalik psixiatr Zigmund Freyd (1856-1939) tomonidan psixikani harakatga keltiruvchi kuchlar va shaxs faolligining sabablarini aniqlashga qaratilgan psixoanaliz nazariyasi ishlab chiqilgan.

**Psixoanaliz.** Ushbu nazariya asosida, shaxs faolligining manbaini ilk bolalikda paydo bo‘lgan instinktiv mayllar tashkil etadi degan g‘oya yotadi.

Z.Freyd shaxs tuzilishining yangi nazariyasini taklif etadi, bu nazariya uch xil psixik instansiyaning hukm surishi to‘g‘risidagi farazni asoslashga qaratiladi:

- «U» (Id) — lazzatlanish, rohatlanish tamoyiliga bog‘liq bo‘lgan instinktiv mayllarni qamrab oladi;
- «Men» (Ego) — tashqi olam bilan bilvosita aloqaga kirishuvchi psixologik instansiya;
- «Mendan yuqori-Oliy Men»(Super-Ego) o‘z ichiga ijtimoiy ta’qilalar, qonun tusiga kirgan majburiy tartib qoidalari va ideallarni oladi;
- «Men» (Ego) reallik tamoyiliga asoslangan holda inson psixikasida harakatlanuvchi qarama-qarshi kuchlarni muvofiqlashtirish funksiyasini bajaradi.

Freydning ta’kidlashicha, avloddan-avlodga nasliy yo‘l bilan o‘tgan instinktiv mayllar zamirida shaxs faollik ko‘rsatadi.

1923-yilda sobiq ittifoq psixologiya maktabi psixologlarning birinchi yig‘ilishida K.N.Kornilov psixologiya fanini qayta qurish vazifasini ilgari surdi. Psixologiya fanining taraqqiy etishiga P.P.Blonskiy, S.L.Rubinshteyn, L.S.Vigotskiy, B.G.Ananев, A.R.Luriya, A.N.Leontyev, D.B.Elkonin, P.I.Ivanov, A.N.Petrovskiy, R.S.Nemov va boshqa ko‘pgina rus psixologlari, shuningdek keyinchalik O‘zbekistonda yetishib chiqqan M.G.Davletshin, E.G‘.G‘oziyev, M.Vohidov, V.A.Tokareva. R.Z.Gaynudinov, V.M.Karimova, G‘.B.Shoumarov, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishanova kabi yirik olimlar o‘z hissalarini qo‘sishgan.

Hozirgi kunda psixologiya faniga bo‘lgan talab va ehtiyoj kuchayib bormoqda, shuning uchun psixologik bilimlar darajasini oshirish, ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, ta’lim tizimini yangi, innovatsion texnologiyalar asosida qayta qurish lozim. Respublikamiz oliy o‘quv yurtlarida psixologiya bo‘limlari, kafedralar va ilmiy laboratoriyalar tashkil etilgan.

Psixologiya sohasi bo‘yicha bakalavriat va magistratura yo‘nalishlarida mutaxassislar tayyorlanmoqda. Mazkur muassasalarda psixologik tadqiqotlar o‘tkazilib, psixik jarayonlar, holatlar, shaxsning individual xususiyatlari, hissiy-irodaviy sohasiga doir nazariy va amaliy bilimlar qo‘lga kiritildi.

Olib borilayotgan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar zamonaviy psixologyaning quyidagi tamoyillari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. Determinizm tamoyili.
2. Ong va faoliyat birligi tamoyili.
3. Psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi tamoyili.

**Tamoyil** – muayyan bir faoliyatni izohlashga doir qonuniyatlar, tayanch vazifasini o‘taydigan dastlabki qoidalar tizimidir.

**Determinizm** tamoyiliga ko‘ra, psixika yashash sharoiti bilan belgilanadi va sharoit o‘zgarishi bilan o‘zgaradi. Hayvonlar psixikasining taraqqiyoti tabiiy saralanish bilan, odam psixikasi taraqqiyoti esa ijtimoiy taraqqiyot qonunlari bilan belgilanadi.

**Ong va faoliyat birligi** tamoyiliga ko‘ra, ong va faoliyat bir-biriga qarama-qarshi ham, aynan bir narsa ham emas. Ular bir butunlikni tashkil etadi. Ong faoliyatning ichki rejasini, dasturini tashkil etadi.

Bu tamoyil inson xulq-atvori, xatti-harakatlari va amaliy faoliyatlarini o‘rganish orqali, ko‘zlangan maqsadlarga erishish va mavjud ehtiyojlarni qondirishni ta’minlab beruvchi ichki psixologik mexanizmlar va faoliyat motivlarini aniqlash imkonini beradi.

**Psixika va ongning faoliyatda taraqqiy etish** tamoyiliga ko‘ra, psixikaga taraqqiyot mahsuloti va faoliyat natijasi deb qaralsa, uni to‘g‘ri tushunish hamda tushuntirib berish mumkin.

Mazkur tamoyil sobiq ittifoq psixologiya maktabi vakillari L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, V.M.Teplov kabi psixologlarning ilmiy-nazariy va tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan. L.S.Vigotskiy ta’lim va ruhiy taraqqiyotning o‘zaro bog‘liqlik masalasini o‘rganishda ushbu tamoyilni asos qilib oladi.

P.P.Blonskiy esa, tafakkurning kichik maktab yoshida didaktik o‘yinlar orqali, o‘spirinlik yoshida o‘quv faoliyati bilan bog‘liq tarzda rivojlanishini tahlil qildi. S.L.Rubinshteynnning fikriga ko‘ra «Ong faoliyatda paydo bo‘ladi va faoliyatda shakllanadi».

### **Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi**

Hozirgi zamon psixologiya sohalari hozirgi kunga kelib 300 dan ortiqni tashkil qiladi. Bu sohalar o‘ziga xos obyektga ega bo‘lib, bir-biridan farq qiladi. Shu bois, fan sohalarini o‘rganish qulay bo‘lishi uchun tarmoqlarni ma’lum tizimga keltirish maqsadida ma’lum guruhlarga tasniflash joriy qilingan.



**Psixologiyaning 300dan ortiq tarmoqlari fan sifatida rivojlanayotganligi hozirgi kunda psixologiyaning fanlar tizimida yanada mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi:**

Bu borada professor A.V.Petrovskiy psixologiya fan sohalarini quyidagicha tasniflashni ilgari surdi:

- aniq faoliyat turlarini o‘rganuvchi psixologiya sohalari;
- rivojlanishning yosh xususiyatlarini o‘rganuvchi psixologiya sohalari;

- shaxs va jamiyatga bo‘lgan munosabatni o‘rganuvchi psixologiya sohalari.

### **Aniq faoliyat turiga ko‘ra psixologiyaning quyidagi turlari mavjud:**

- mehnat psixologiyasi: inson mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishning psixologik tamoyillarini o‘rganadi. Mehnat psixologiyasining bir nechta bo‘limlari mavjud;
- muhandislik psixologiyasi – inson bilan mashina o‘rtasidagi vazifalarni taqsimlash masalalarini hal qiladi va asosan operatorlarning faoliyatini o‘rganadi;
- aviatsiya psixologiyasi – uchishga o‘rganish faoliyatini egallash jarayoni va uchish moslamalarini boshqarishda inson faoliyatining psixologik qonuniyatlarini o‘rganadi;
- kosmik psixologiya – vaznsizlik holati, fazoviy tasavvurlar chalkashib ketgan vaqtida va organizmga juda ko‘p ortiqcha ta’sirlar yuklangan paytda, asab va ruhiy zo‘r berish bilan bog‘liq bo‘lgan alohida holatlar tug‘ilganda odam faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi.

➤ Pedagogik psixologiya–uning predmeti o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o‘rganish, o‘quvchilar tafakkurini taraqqiy topishi, intellektual faoliyat malakalari va usullarini o‘zlashtirish jarayonini boshqarish masalalarini o‘rganadi, uning bo‘limlari:

- ta’lim psixologiyasi;
- tarbiya psixologiyasi;
- o‘qituvchi psixologiyasi.

➤ Tibbiyot psixologiyasi shifokor faoliyatining va bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o‘rganadi. Uni quyidagi tarmoqlari mavjud:

- neyropsixologiya — psixik hodisalar bilan miyadagi fiziologik tuzilishlar o‘rtasidagi nisbatni o‘rganadi;

- psixofarmakalogiya — dorivor moddalarning shaxs ruhiy holatiga ta’sirini o‘rganadi;
- psixoterapiya — bemorni davolash uchun ruhiy ta’sir vositalarini o‘rganadi.

➤ Yuridik psixologiya sud-huquq tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik masalalarni o‘rganadi. Uning quyidagi tarmoqlari mavjud:

- sud psixologiyasi – jinoiy hatti-harakar sodir etgan shaxslarning xulq-atvorini, alohida psixologik xususiyatlarini tahlil qiladi;
- kriminal psixologiya – jinoyatchining xulq-atvori, shaxsining shakllanishiga doir psixologik masalalar, jinoyatning motivlarini aniqlash bilan shug‘ullanadi.

➤ Harbiy psixologiya – kishining harbiy harakatlar sharoitidagi xulq-atvori bilan bog‘liq hodisalar, xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganadi.

➤ Sport psixologiyasi – sportchilar shaxsi va faoliyati xususiyatlarini, ularning psixologik jihatdan tayyorligining shart-sharoitlari, musobaqalarni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq psixologik omillarni o‘rganadi.

➤ Savdo psixologiyasi – asosan rivojlangan mamlakatlarda keng taraqqiy etgan bo‘lib, kishilar ruhiyatiga tijorat ta’sirini psixologik shart-sharoitini, xaridorlarga xizmat ko‘rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi. Modalar psixologiyasini tadqiq qiladi.

➤ San’at psixologiyasi – san’at asarlarining yaratilishida faoliyatning psixologik tomonlarini, inson tomonidan badiiy asarlarni idrok etilishi, turli hodisalarni paydo bo‘lishi va estetik tarbiya muammolari, musiqaviy, badiiy, adabiy qobiliyatlarni shakllantirish va tarbiyalash muammolarini o‘rganadi.

**• Psixik tarqqiyotning yosh xususiyatlarini o‘rganuvchi sohalari:**

➤ yosh psixologiyasi – inson shaxsining psixologik xususiyatlari va bilish jarayonlarining ontogenezda rivojlanishini o‘rganadi. Yosh psixologiyasi bolalar

psixologiyasi, o'smirlar psixologiyasi, kattalar psixologiyasi, gerontopsixologiya kabi tarmoqlarga bo'linadi.

➤ maxsus psixologiya – miya faoliyatining buzilishlari natijasida kelib chiqadigan turli shakldagi ruhiy rivojlanishdan og'ishlarni o'rganadi.

- Oligofrenopsixologiya – miyaning tug'ma kamchiliklari tufayli paydo bo'ladigan bo'limlarni o'rganadi.

- Surdopsixologiya – eshitish faoliyatida jiddiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning rivojlanishini o'rganadi.

- Tiflopsixologiya – ko'rish qobiliyati past yoki umuman ko'rmaydigan kishi faoliyatini o'rganadi.

➤ Qiyosiy psixologiya – hayotning filogenetik shakllarini o'rganuvchi psixologiya sohasi bo'lib, inson va hayvonlar psixologiyasini solishtirish orqali o'xshashlik va farq qiluvchi tomonlarini aniqlaydi.

➤ Akmeologiya – yetuklik darajasiga erishgan shaxs rivojlanishining yuqori darajasi ularning qonuniyatlari va mexanizmlarini, ayniqsa rivojlanishining eng yuqori cho'qqiga erishish xususiyatlarini o'rganadi.

- **Inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning psixologik tomonlarini o'rganuvchi psioxologiya sohalari.**

**Ijtimoiy psixologiya** – odamlarning jamiatdagi birligida ish faoliyatları natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarini o'rganadi.



➤ Differensial psixologiya – shaxs shakllanishining individual-psixologik yo'nalgaligi, rivojlanishdagi farqlanuvchi xususiyatlarni o'rganadi.

➤ Din psixologiyasi – inson ongiga diniy qarashlarning ta'sirini o'rganadi.

- Etnopsixologiya – inson psixologiyasining etnik xususiyatlari, milliy xarakter, milliy tuyg‘u, milliy g‘oya, o‘z-o‘zini anglash, etnik stereotip, ularning qonuniyatlari va vujudga kelish xususiyatlarini o‘rganadi.
- Boshqaruv psixologiyasi – boshqaruv tizimidagi rahbarlik uslublari, liderlik, boshqaruv subyektlari va obyektlarini o‘rganadi.

### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari:**

- Kasbiy psixologiyaning shakllanishi haqida tushuncha?
- Mamlakatimizda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamdagi islohotlarning mazmunini izohlab bering?
- Professiografiya haqida tushuncha?
- Psixologiyaning fan sifatida rivojlanish tarixi?
- Antik davrda “ruh”, “jon” haqidagi tasavvurlarning shakllanishi va allomalarining falsafiy qarashlari tahlili?
- O‘rta asrlarda Sharq mutafakkirlarining ruhiyat ilmiga doir qarashlari?
- Tabiiy fanlarning rivojlanishi tufayli ruhiyatga bo‘lgan yangi yondashuvlar va ilmiy tadqiqotlarning yuzaga kelishi?
- Psixika – miya funksiyasi ekanligi haqidagi ta’limotning vujudga kelishi?
- I.M.Sechenov, I.P.Pavlovning ilmiy qarashlari va tadqiqotlari?
- Analizatorlar, ikkita signallar tizimi haqida ta’limot?
- Psixika va ong haqida tushuncha?
- Odam psixikasining namoyon bo‘lish shakllari haqida tushuncha?
- Kasbiy psixologiya fanining predmeti hamda vazifalari?
- Fanning ilmiy tadqiqot metodlari haqida tushuncha?
- Kuzatish metodining afzalliliklari va kamchiliklari?
- Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni?
- Psixologiyaning tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi?

- Zamonaviy psixologiya fanining asosiy yo‘nalishlari?
- Zamonaviy psixologiya fanining asosiy tamoyillari?
- Hozirgi zamon psixologiya fanining tarmoqlari?

### **Mavzu bo‘yicha test savollari:**

1. Refleks tushunchasi qachon va kim tomonidan fanga kiritilgan?
  - a. XIX asrda I.M.Sechenov tomonidan.
  - b. XX asrda I.P.Pavlov tomonidan.
  - c. XVIII asrda R.Dekart tomonidan.
  - d. XX asrda V.M.Bexterev tomonidan.
2. “Ongli va ongsiz hayotning barcha aktlari(harakatlari) kelib chiqish usuli(mohiyati)ga ko‘ra reflekslardan iboratdir” ushbu fikr muallifi kim?
  - a. I.P.Pavlov.
  - b. V.M.Behterevo.
  - c. Ch.Darvin.
  - d. I.M.Sechenov.
3. Organizmning javob reaksiyasini aks ettiruvchi analizator tushunchasini fanga kiritgan fiziolog olimni aniqlab bering?
  - a. Ch.Darvin.
  - b. I.P.Pavlov.
  - c. I.M.Sechenov.
  - d. V.M.Behterevo.
4. Rus psixologi B.G.Ananyev ilmiy tadqiqot metodlarini tasniflash uchun ularni nechta guruhga ajratadi?
  - a. 2 ta.
  - b. 3 ta.
  - c. 4 ta.
  - d. 5 ta.
5. Turli guruh vakillarini yoshga, jinsga, faoliyat turiga yoki boshqa jihatlariga ko‘ra solishtirib ko‘rish qaysi tadqiqot metodi hisoblanadi?
  - a. Kuzatish metodi.
  - b. Qiyo slash metodi.
  - c. Longityud metodi.

d. Anketa metodi.

6. Shaxsning aqliy taraqqiyotini, qobiliyatini, irodaviy sifatlarini va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirish va anqlashda qo'llaniladigan qisqa, standartlashgan(bir qolipga solingan) savollar, so'rovlar, mashqlar, masala va topshiriqlar qaysi metodda aks etadi?

a. Tajriba metodi.

b. So'rov metodi.

c. Suhbat metodi.

d. Test metodi.

7. AQSHda E.Torndayk, D.Uotson kabi olimlar dastlab hayvonlarda keyinroq odamlar xulqini o'rghanish asosida xulq-atvor psixologiyasini yaratdilar va qaysi yo'nalishga asos soldilar?

a. Psixoanaliz.

b. Geshtalt psixologiya.

c. Bixevoirizm.

d. Gumanistik psixologiya.

8. Psixikani harakatga keltiruvchi kuchlar va shaxs faolligining sabablarini aniqlashga qaratilgan psixoanaliz nazariyasining asoschisi?

a. Berrens Skinner.

b. Zigmund Freyd.

c. Kurt Levin.

d. Abraham Maslou.

9. Odamlarning jamiyatdagi birgalikdagi ish faoliyatları natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarini o'rGANADIGAN psixologiya sohasi bu...?

a. Mehnat psixologiyasi.

b. Muhandislik psixologiyasi.

c. Differensial psixologiya.

d. Ijtimoiy psixologiya.

10. Neobixeviorizm oqimining taniqli vakillaridan biri, uning fikriga ko‘ra, odamning xulqi, tashqi muhit ta’siri ostida yuzaga keladigan vositalar (rag‘batlantirish yoki jazolash)ga uzviy ravishda bog‘liqdir?
- a. Berrens Skinner.
  - b. Zigmund Freyd.
  - c. Kurt Levin.
  - d. Abraham Maslou.

## **II bob. PSIXOLOGIYADA SHAXS VA JAMIYAT MUAMMOSI.**

### **SHAXS TARAQQIYOTIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR**

- 2.1. Psixologiyada shaxs va jamiyat.
- 2.2. Shaxs taraqqiyotining davrlarga bo‘linishi.
- 2.3. Psixologiyada shaxs va uning faolligi masalasi.
- 2.4. Psixologiyada motiv va motivatsiya tushunchalari.
- 2.5. Muvaffaqiyatga intilish hamda mag‘lubiyatdan qochish motivlari.
- 2.6. Shaxsning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillar.

#### **2.1. Psixologiyada shaxs va jamiyat**

Individ tushunchasi professor E.G‘ozievning “Umumiy psixologiya” darsligida tavsiflanishicha, individ lotincha ajralmas, alohida zot ma’nolarini anglatib, inson zotiga xoslik masalasini belgilab beradi. Katta yoshdagি ruhiy sog‘lom odamlar ham, chaqaloq ham, aqli zaiflar ham individlar deb ataladi.

**Individ** sifatida dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta’sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir. Dunyoga kelayotgan chaqaloqning gavda tuzilishi unda tik yurish uchun imkoniyatining mavjudligini taqozo etsa, miyasining tuzilishi aql-hushining rivojlanishi uchun imkoniyat tug‘diradi, qo‘llarining shakl-shamoyili mehnat qurollaridan foydalanish istiqbollarining mavjudligini ko‘rsatadi.

Individ – tabiiy zotga mansublikni anglatadi.

**Individuallik** har bir odamning o‘ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farq qilishini aks ettiradi. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament tipi, hissiy kechimalar, faoliyat motivlari, dunyoqarash va qobiliyatlar kiradi, uning eng muhim xususiyati, o‘ziga xosligi va takrorlanmasligi hisoblanadi.

Har bir odam tug‘ilgan kunidan boshlab odamlar qurshovida, ma’lum bir guruhda – masalan, oilada yashaydi. Jamiyatda rivojlanuvchi, til yordamida boshqa odamlar bilan munosabatga kirishuvchi odam, ijtimoiy zot, ya’ni

shaxsga – voqelikni anglab yetuvchi hamda uni o‘zgartiruvchi subyektga aylanadi.

Odamning shaxs sifatida o‘z xulq-atvorini boshqarishi, uning tevarak - atrofdagi kishilar va narsalar bilan bo‘lgan aloqalari, ularning turli-tuman faoliyati, odamlar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

Odam boshqa kishilar bilan kechadigan o‘zaro munosabatlardagina shaxs sifatida shakllana boshlaydi. Shaxs, ongli, muayyan bir kishilik jamiyatida yashab o‘z ijtimoiy maqomiga ega bo‘lgan, faoliyatning biron turi bilan shug‘ullanadigan, til orqali atrofdagilar bilan normal muloqotga kirishadigan, o‘z xatti-harakatlari uchun to‘la javob bera oladigan individdir.

Inson shaxsining eng muhim tomonlaridan biri uning individualligidir. Individuallik–bu shaxsning bir necha fazilatlarining qaytarilmaydigan birikmasidir. Uning tarkibiga xarakter (fe’l-atvor, tabiat), temperament (mijoz), qobiliyatlar, hissiyotlar yig‘indisi, odatlar kiradi. Odam turli guruhlarga kirar ekan, har xil vazifalarni bir-biriga o‘xshamagan rollarni bajaradi.

Shaxsning nisbatan barqaror va o‘zgaruvchan xususiyatlari, shaxs xislatlarining bir butunligi va o‘zaro bog‘liqligidan iborat bo‘lgan murakkab birlikni, ya’ni yaxlit tuzilmani hosil qiladi.

Shaxsning ruhiy, jismoniy va ijtimoiy taraqqiyoti, o‘ziga xos jarayon bo‘lib, uning butun hayot yo‘li va amalga oshiradigan faoliyatida o‘z aksini topadi.

Bolaning mustaqil hayotga qadam qo‘yishi, uning ijtimoiylashuvi, shaxsning jamiyat hayotiga, uning ijtimoiy ta’sirlariga moslashishi, uning ijtimoiy voqelikni bilish va anglash faoliyatiga bo‘lgan muhim ehtiyoji sifatida paydo bo‘ladi.

Sobiq ittifoq psixologiya maktablarida shaxs tuzilishiga doir bir qator manbalar keltirilgan. Jumladan, S.L.Rubinshteyn bo‘yicha shaxs tuzilishi quyidagi ko‘rinishga ega:

➤ Yo‘nalganlik – ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e’tiqod faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarda ifodalananadi.

➤ Bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar – shaxsning hayot yo‘li va faoliyat ko‘rsatish jarayonida egallanadi.

➤ Individual tipologik xususiyatlar – temperament tipi, xarakter xislatlari, qobiliyatlarda aks etadi.

K.K.Platonov ta’limotiga ko‘ra shaxs tuzilishi quyidagicha shaklga ega:

- Yo‘nalganlik osttuzilishi – shaxsning axloqiy qiyofasi va munosabatlarini birlashtiradi. Unda harakatchanlik, barqarorlik jadallik ko‘lami (hajmi) darajalarini farqlash lozim.

- Ijtimoiy tajriba osttuzilishi – ta’lim natijasida shaxsiy tajribada egallangan bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar va odatlarni qamrab oladi.

- Psixologik aks ettirish shakllari osttuzilishi – ijtimoiy turmush jarayonida shakllanuvchi bilish jarayonlarining individual xususiyatlari.

- Biologik shartlanganlik osttuzilishi – miya morfologik va fiziologik xususiyatlariga muayyan darajada bog‘liq bo‘lgan patologik o‘zgarishlar, shaxsning yoshi, jinsi va uning tipologik holatlarini birlashtiradi.

A.G.Kovalyov talqiniga binoan shaxs quyidagi tuzilishga ega:

■ Yo‘nalganlik – voqelikka nisbatan inson munosabatini aniqlaydi, unga o‘zaro ta’sir etuvchi har xil g‘oyaviy va amaliy ustanovkalar, qiziqishlar, ehtiyojlar kiradi. Ustuvorlik shaxsning psixik faoliyatini belgilaydi.

■ Imkoniyatlar – faoliyatning muvafaqqiyatli amalga oshirishini ta’minlovchi tizim, o‘zaro ta’sir etuvchi va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan turlicha qobiliyatlar.

■ Xarakter – ijtimoiy muhitda shaxsning xulq-atvor uslubini aniqlaydi. Odamning ruhiy hayoti shakli va mazmuni unda namoyon bo‘ladi, xarakter tizimi irodaviy va ma’naviy sharoitlarga ajraladi.

■ Mashqlar to‘plami – hayot va faoliyat, harakat va xulq-atvorni tuzatish, o‘zini-o‘zi nazorat qilish, o‘zini-o‘zi boshqarishni ta’minlaydi.

**Shaxs shakllanishida ijtimoiy muhiting roli.** Shaxsning o‘z hayot yo‘lini belgilashi va jamiyatdagi shaxslararo munosabatlar tizimida o‘z o‘rnini topishi va o‘z maqomi(statusi)ga ega bo‘lishi muhim bo‘lib, shaxsni o‘rab turgan katta – makro ijtimoiy borliq hamda mikro – kichik ijtimoiy borliqning ta’sirlarini o‘rganish katta ahamiyatga ega.

Ajdodlarimiz komil inson tarbiyasining negizi sifatida axloqiy uchlik: ezgu o‘y, ezgu niyat, ezgu so‘z va ish birligini nazarda tutishgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”dagi bitiklar, ya’ni “ezgu niyat”, “ezgu so‘z”, “ezgu amal” jamiyat hayotining ustuvor g‘oyasi sifatida talqin etilgani, bizning bugungi milliy ma’naviy qadriyatlarimiz bilan naqadar uzviy bog‘liq, nechog‘lik mustahkam hayotiy asosga ega ekanligi bilan ayniqsa e’tiborlidir.

Yurtimiz istiqlolga erishgach, ma’nан va jisman sog‘lom, barkamol avlodni tarbiyalash orqali kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish birlamchi vazifa etib belgilab olindi. O‘sib kelayotgan yosh avlodda sog‘lom va mustahkam e’tiqodini shakllantirish ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, ushbu muammoni ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya, sotsiologiya, falsafa, pedagogika, milliy g‘oya, va ma’naviyat asoslari kabi fanlar izchil o‘rganib kelmoqda.

Inson o‘zi yashayotgan jamiyatdagi o‘zgarishlarining faol ishtirokchisi ekan, uning faoliyatini muayyan g‘oyalarga asoslangan e’tiqod, ishonch boshqaradi.

O‘zmir shaxsining kamol topishida. uning ijtimoiylashuv jarayoni (jamiyat me’yorlarini egallashi, ijobiy xulq namunalarini o‘zlashtirishi, “Men-obrazi”ning shakllanishi, yangi ijtimoiy maqomning yuzaga kelishi) muhim o‘rin tutadi.

A.V.Mudrik shaxsning ijtimoiylashuv jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning 3 ta guruhini ajratib ko‘rsatadi:

- makro omillar : koinot, yer kurrasi, dunyo, davlat, mamlakat, jamiyat;

- mezo omillar(mezo - „o‘rta”, „oraliq”): kishilarning etnik belgilarga ko‘ra birlashishi, yashash manziliga ko‘ra, ommaviy axborot tizimiga ko‘ra ijtimoiylashuvi;

- mikro omillar: bevosita ta’sir etadigan ijtimoiylashuv o‘choqlari.

Mazkur ijtimoiylashuv o‘choqlariga quyidagi maskanlar kiradi:

Oila muhiti, tengdoshlar davrasi, tashkilot yoki muassasa xodimlari, mahalla a’zolari, ta’lim maskanlari, mehnat jamoalari, jamoat tashkilotlari.

Sotsiologlarning ta’kidlashicha – mikro omillar shaxsga ijtimoiylashuvning o‘ziga xos „ko‘mak”chilari orqali ta’sir etadi, chunki shaxsning hayoti ular bilan doimo birgalikda va o‘zaro hamkorlikda kechadi, har bir yosh davri uchun ko‘makchilar tarkibi turlicha bo‘ladi.

Bolalar va o‘smirlarga nisbatan ota-onas, aka va opa - singillar, qarindoshlar, tengdoshlar, mahalladoshlar, qo‘shnilar va o‘qituvchi-murabbiylar „ko‘makchi” vazifasini bajarishsa, o‘siprinlik va yoshlik davrida ular safiga turmush o‘rtoqlari, do‘satlari va birga ishlaydigan hamkasblari qo‘shilishadi.

O‘smirlilik yoshi shaxsning balog‘atga yetishi davri bo‘lib, o‘ziga xos «o‘tish» davriga oid xususiyatlari tufayli kamolotning boshqa pog‘onalaridan tubdan farqlanadi. O‘smir organizmidagi anatomik-fiziologik o‘zgarishlar natijasida, uning ruhiy-ichki olamida ham “yangilanishlar” paydo bo‘ladi.

O‘smirlilik davrida og‘ishgan xulq-atvor shakllarining namoyon bo‘lish ehtimoli nihoyatda yuqori bo‘ladi, “o‘tish” davrida o‘smir organizmida yuzaga keladigan morfologik va fiziologik o‘zgarishlar, bola ruhiyatida ham ayrim keskin o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi.

O‘smirlilik davri fanda “inqirozli holatlar davri” deb ham ataladi, chunki ushbu yoshdagi bolalarda o‘zini o‘rab turga ijtimoiy muhitga hamda kattalarga nisbatan tanqidiy munosabat va e’tirozlar kuchayadi. Ularda “kattalik hissi”ning ortishi bilan, o‘z-o‘zini namoyish qilishga bo‘lgan moyillik kuzatiladi.

Ayrim bolalar o‘z bilim darajasining yetarli emasligi va tor dunyoqarashini so‘nggi fasondagi kiyim-kechaklar, tashqi ko‘rinish, qimmatbaho ziynatlar va so‘nggi rusumdagи qo‘l telefonlari bilan to‘ldirishga intiladilar.

Moddiy jihatdan to‘la ta’minlangan bolalarda egoizm(xudbinlik) va egosentrizm, ya’ni har qanday voqeа-hodisaning markazida turish, hammaning diqqat-e’tiborida bo‘lish istagi ustunlik qiladi.

O‘sмирлик davrida e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan eng muhim jihatlardan biri, hammaga birdek qarash asoratidan voz kechish sanaladi. Ota-onalar va pedagoglar o‘sмирлик yoshidagi yigit-qizlarga hamma narsani ta’qiqlash, ularni qo‘rqtish yo‘li bilan emas, balki ularning ruhiyatiga chuqurroq kirib borishlari va ongli munosabatni shakllantirishlari orqali yaqinlashishlari mumkin bo‘ladi.

Bu ijtimoiy muhitni bola asta-sekinlik bilan o‘zlashtiradi, agar bola tug‘ilganidan keyin, asosan oilada rivojlansa, keyingi rivojlanishi turli ijtimoiy muhitlar, ya’ni maktabgacha ta’lim muassasalari, umumta’lim maktablari, mактабдан ташқари та’лим масканлари, tengdoshlar davrasida kechadi.

Bola ulg‘ayib borgan sari, uning ijtimoiy “hududi” kengayib boradi va u doimo o‘zi uchun qulay bo‘lgan, yaxshi tushunadigan va uni shaxs sifatida tan oladigan muhitni topishga harakat qiladi.

Shaxsga taalluqli bo‘lgan eng muhim fazilatlardan biri, u shu tashqi ijtimoiy ta’sirlar, ya’ni obyektlarni o‘z aqli-idroki bilan qabul qiladi, so‘ngra shu ta’sirlarning subyekti sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Odam bolasi tug‘ilgan kunidan boshlab, ya’ni chaqaloqlik davridanoq kattalar faoliyat ko‘rsatadigan ijtimoiy muhitning ta’sir doirasiga tushadi, muayyan bir ijtimoiy guruh a’zosiga aylanadi.

**Ijtimoiy muhit** – kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an’analar, rasm-rusum va udumlar, turli xil dunyoqarashlar olami bo‘lib, undagi ko‘plab ijtimoiy me’yorlarni ko‘pchilik to‘la, ba’zilar qisman qabul etib va amal qiladi.

Kishilik jamiyatidagi ushbu ijtimoiy qoidalar va normalarni qabul qilish ijobiy kechinmalarni yuzaga keltiradi, ularga bo‘ysunmaslik va amal qilmaslik jamiyat tuzilmalari va kishilar tomonidan salbiy baholanadi.

Xulosa shuki, voyaga yetib kelayotgan shaxs – jamiyatga nisbatan barcha tartib-qoidalarni qabul qiluvchi subyekt bo‘lsa, jamiyat-ijtimoiy intizom va tartib, ma’naviyat-ma’rifat va madaniyatning mufassal ko‘rinishidir.

**Shaxs ijtimoiy xulqiga turli tashqi kuchlar ta’sir etib turadi:** siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma’naviy, axloqiy va boshqalar. Bu ta’sirotlar mohiyatan aslida jamiyat a’zolari bo‘lmish shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ayrim alohida yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Shunday qilib, kamol topayotgan shaxs xulqi-atvori turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta’siri ostida shakllanadi va ko‘plab ijtimoiy institutlar (oila, mahalla, o‘quv maskanlari, mehnat jamoalari, norasmiy tashkilotlar, din, san’at, ma’naviyat-ma’rifat, madaniyat va boshqalar) bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi.

Masalan, shaxsdagi turli g‘oyalar, o‘y-fikrlar va hayotiy rejalar mafkuraviy munosabatlar tizimi ta’sirida shakllanib, ular bevosita oila, bog‘cha, maktab hamda boshqa o‘quv va tarbiya muassasalari orqali shaxsga singdirib boriladi.

Agar ijtimoiy ta’sirlar uning e’tiqodi darajasiga ko‘tarilsa, va unda yana yangidan-yangi fikrlar va g‘oyalarning paydo bo‘lishi va o‘sishiga olib kelsa, shaxs taraqqiyoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, u o‘z qobiliyatlari, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida yo o‘qituvchi, yoki shifokor, yoki olim, kashfiyotchi, muhandis bo‘lib, elu-yurtiga xizmat qiladi.

Jamiyat hayotidagi yangi iqtisodiy munosabatlar ham shaxs ongi va uning insoniy xususiyatlari shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Masalan, bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o‘tayotgan O‘zbekiston sharoitini oladigan bo‘lsak, yangicha mulkiy munosabatlar, iqtisodiy o‘zgarishlar, bozor, raqobat, liberallashtirish, ya’ni iqtisodni erkinlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va shunga o‘xshash yangiliklar har bir shaxsnинг

moddiy boyliklar va ularga bo‘lgan shaxsiy munosabatlarida aks etib, uning iqtisodiy ongi, tafakkuri va iqtisodiy xulqi normalarini belgilaydi.

**Ijtimoiy norma** – shaxs hayotidagi shunday kategoriyaki, u jamiyatning o‘z a’zolari xulq-atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilgan harakatga nisbatan talablaridir.

Masalan, o‘zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo‘lishidan qat’i nazar, «Assalomu alaykum» deb kirishi – norma; o‘quvchining o‘qituvchi bergen topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarishi – norma; ayolning o‘z turmush o‘rtog‘ini yoki arning o‘z rafiqasini hurmat qilishi, kelinning qaynonani o‘z onasi deb qabul qilishi – norma; avtobusda yoki boshqa jamoat transportida yoshlarning keksalarga, nogironlarga joy berishi – norma; Yoshi ulug‘ kishilarni e’zozlash – norma. Ijtimoiy normalarga ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Bu normalarni ayrim alohida odam ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo‘lishi ijtimoiy tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilganligi bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muhrlanadi.

Jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy normalar(me’yorlar), “yozilmagan qonunlar” deb ham ataladi. Ular jamiyatda ro‘y berayotgan yangilanishlar, ijtimoiytarixiy taraqqiyot, millatning ijtimoiy-etnik xususiyatlari, milliy madaniyati va qadriyatlari orqali ham shakllanadi.


Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo‘lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi.

**Ijtimoiy sanksiyalar** – ijtimoiy normalarning shaxs xulq-atvorida namoyon bo‘lishini nazorat qiluvchi jazo va rag‘batlantirish mexanizmlari bo‘lib, ularning borligi tufayli shaxs, turli vaziyatlarda xulq-atvor normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri obyektiga aylanib qolmaslikka harakat qiladi.

**Ijtimoiy rollar.** Har bir alohida olingan shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida o‘z xulqi va xatti-harakatlarida namoyon etadi.

Rol – shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, bu shaxsning konkret hayotiy vaziyatlardagi huquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi.

Masalan, talaba rolini oladigan bo‘lsak, uni bajarish – oliy o‘quv yurtida tahsil olish, uning moddiy-texnik bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a’zo bo‘lish, stipendiya olish, ma’muriyatning ijtimoiy himoyasida bo‘lish kabi qator huquqlar bilan birgalikda, o‘sha oliy o‘quv yurtida qabul qilingan ichki tartib-intizom qoidalariga amal qilish, darslarga o‘z vaqtida kelish, baholash tizimi talablari doirasida o‘zlashtirish, amaliyotda bo‘lish, jamoatchilik topshiriqlarini o‘z vaqtida bajarish kabi qator majbiriylarni ham o‘z ichiga oladi.



Rollarning ko‘pligi ba’zan rollar ziddiyatini ham keltirib chiqarishi mumkinki, oqibatda — shaxs ichki ruhiy qiyinchiliklarni ham boshdan kechirishi mumkin. Masalan, turmushga chiqib oliy o‘quv yurtida tahsil olayotgan talabaning, o‘zi uchun yangi bo‘lgan kelin rolini qabul qilishi hamda

“talaba” va “kelin” ijtimoiy rollari orasidagi farq tufayli ruhiy iztirobga tushadi, farzand ko‘rgandan keyin esa ijtimoiy rollar o‘rtasida yangi ziddiyatlar yuzaga keladi: talabalik rolini bajarish uchun mashg‘ulotlarga o‘z vaqtida qatnashish, reyting nazorat topshiriqlarini o‘z vaqtida topshirish; uyda kelinlik vazifasini sidqidildan ado etish, qaynonaning ko‘nglini olish; onalik rolini egallash uchun farzandini parvarish qilish kabi bir qator vazifalar faoliyatni murakkablashtiradi.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va bozor munosabatlari sharoitidagi raqobat muhiti shaxsdan bir vaqtning o‘zida qator qobiliyatlar va malakalarni talab qilmoqdaki, ayniqsa, yoshlar o‘zgaruvchan sharoitlarga tezroq moslashish uchun ba’zan bir-biriga zid xislatlarni ham xulqda namoyon qilishga majbur bo‘lishmoqda. Masalan, yosh oila boshlig‘i, talaba, ota-onalarga moddiy jihatdan qaram bo‘lmaslik uchun, bir vaqtning o‘zida ham itoatkor, intizomli talaba va ishdan keyin esa — chaqqon va uddaburon, tadbirkor, tijoratchilik bilan shug‘ullanishga majbur bo‘lishi mumkin. Bu holat tabiiyki, shaxsdan kuchli iroda, doimiy intiluvchanlik va o‘z ustida muttasil ishslashni talab qiladi.

**Ijtimoiy ta’sirlarning shaxs tomonidan anglanishi.** Ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq-atvorini ma’lum ma’noda boshqarib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi.

Odamning o‘z-o‘zini anglashi, bilishi va o‘z ustida ishlashi avvalo uning diqqati, ongi bevosita o‘ziga, o‘z ichki imkoniyatlari, qobiliyatları, hissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. Ijtimoiy xulq-shaxs tomonidan uni o‘rab turgan odamlar, ularning xulq-atvorlariga e’tibor berishdan tashqari, o‘zining shaxsiy harakatlari va ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali, rollarni muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi.

Shaxsning o‘zi, o‘z xulq-atvorining xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeyini tasavvur qilishidan hosil bo‘lgan obraz «Men»-obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxsning barkamollik mezonlaridan hisoblanadi. «Men»-obrazining ijtimoiy-psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganlik darajasining muhim omillaridan hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, tarbiya shaxsning o‘zi va o‘z sifatlari to‘g‘risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta’rif berish mumkin. Demak, har bir inson o‘zini, o‘zligini qanchalik aniq va to‘g‘ri anglab, tasavvur qila olsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo‘ladi, ya’ni u tarbiyalangan bo‘ladi.

O‘z-o‘zini anglash, o‘zidagi mavjud sifatlarni baholash jarayoni ko‘pincha konkret shaxs tomonidan og‘ir kechadi, ya’ni inson tabiat shundayki, u o‘zidagi o‘sha jamiyat normalariga to‘g‘ri kelmaydigan, no‘maql sifatlarni anglamaslikka, ularni «yashirishga» harakat qiladi, hattoki, bunday tasavvur va bilimlar ong osti sohasiga siqib chiqariladi (avstriyalik olim Z.Freyd nazariyasiga ko‘ra).

Bu ataylab qilinadigan ish bo‘lmay, u har bir shaxsdagi o‘z shaxsiyatini o‘ziga xos himoya qilish mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni ko‘pincha turli xil yomon asoratlardan, hissiy kechinmalardan asraydi.

«Men» — obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o‘sha shaxsni o‘rab turgan tashqi muhit, o‘zgalar va ularning munosabati katta rol o‘ynaydi. Odam o‘zgalarga qarab, go‘yoki oynada o‘zini ko‘rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon psixologiyada refleksiya deb ataladi.

Shaxsning o‘zi haqidagi obrazi va o‘z-o‘zini anglashi yosh va jinsiy o‘ziga xoslikka ega. Masalan, o‘ziga nisbatan o‘ta qiziquvchanlik, kim ekanligini bilish va anglashga intilish ayniqsa, o‘smirlilik davrida rivojlanadi.

Bu davrda paydo bo‘ladigan «kattalik hissi» qizlarda ham, o‘smir yigitlarda ham nafaqat o‘ziga, balki o‘zgalarga nisbatan munosabatini ham belgilaydi.

Qizlardagi «Men» - obrazining yaxshi va ijobiy bo‘lishi ko‘proq bu obrazning ayollik sifatlarini o‘zida mujassam eta olishi, ayollik xislatlarining o‘zida ayni paytda mavjudligiga bog‘liq bo‘lsa, yigitlardagi obraz ko‘proq jismonan barkamollik mezonlari bilan nechog‘li uyg‘un ekanligiga bog‘liq bo‘ladi.

Shuning uchun ham o'smirlikda o'g'il bolalardagi bo'yning pastligi, muskullarning zaifligi va shu asosda qurilgan «Men» — obrazi qator salbiy taassurotlarni keltirib chiqaradi. Qizlarda esa tashqi tarafdan go'zallikka, kelishganlik, odob va ayollarga xos qator boshqa sifatlarning bor - yo'qligiga bog'liq holda «Men» obrazi mazmunan idrok qilinadi.

Qizlarda ham ortiqcha vazn yoki terisida paydo bo'lgan ayrim toshmalar yoki shunga o'xhash fiziologik nuqsonlar kuchli salbiy emotsiyalarga sabab bo'lsa-da, baribir, chiroyli kiyimlar, taqinchoqlar yoki sochlarning o'ziga xos turmagi bu nuqsonlarni bosib ketadigan omillar sifatida qaraladi.

**«Men» — obrazi va o'zini-o'zi baholash.** «Men» — obrazi asosida ham bir shaxsda o'z-o'ziga nisbatan baholar tizimi shakllanadiki, bu tizim ham obrazga mos tarzda har xil bo'lishi mumkin. O'z-o'ziga nisbatan baho turli sifatlar va shaxsnинг orttirilgan tajribasi, shu tajriba asosida yotgan yutuqlariga bog'liq holda turlicha bo'lishi mumkin, ya'ni ayni biror ish, yutuq yuzasidan ortib ketsa, boshqasi ta'sirida — aksincha, pastlab ketishi mumkin.

Maktabda bir fan o'qituvchisining bolaga nisbatan ijobiy munosabati, doimiy maqtovlari uning o'z-o'ziga bahosini oshirsa, boshqa bir o'qituvchining salbiy munosabati ham bu bahoni pastlatmasligi mumkin. Ya'ni bu baho ko'proq shaxsnинг o'ziga bog'liq bo'lib, u subyektiv xarakterga egadir.

O'z-o'ziga baho nafaqat haqiqatga yaqin (adekvat), to'g'ri bo'lishi, balki u o'ta past yoki yuqori ham bo'lishi mumkin.

## 2.2. Shaxs taraqqiyotining davrlarga bo'linishi

XX asr boshlarida vujudga kelgan yirik psixologiya yo'naliishlarining taniqli vakillari inson umrining betakror xususiyatlarini e'tirof etgan holda, ruhiy taraqqiyotning kechishini turli yosh davrlariga bo'lgan holda o'rghanishgan.

Har bir yosh davri o‘zining muhym hayotiy shart-sharoitlari, yuzaga kelgan ehtiyojlari, faoliyat turlari va motivlari, o‘ziga xos qarama-qarshiliklari hamda inqirozli holatlari, bola psixikasidagi yangi sifat o‘zgarishlari bilan ajralib turadi.

Personologik nazariyaning yirik vakili E.Shpranger «O‘spirinlik davri psixologiyasi» nomli asarida o‘spirinlik davriga 13-19 yoshli qizlar, 14-22 yoshli yigitlarni kiritishni tavsiya qiladi. Uning fikricha, aynan ushbu yosh davrida quyidagi asosiy o‘zgarishlar yuz beradi:

- shaxsiy «Men»ni kashf qilish;
- refleksiyaning o‘sishi;
- o‘zining alohida shaxs ekanligini anglash va o‘zining shaxsiy fazilatlari va xususiyatlarini e’tirof etish;
- hayotiy ezgu rejalarining paydo bo‘lishi;
- o‘z shaxsiy hayotini yo‘lga qo‘yishga intilish.

14-17 yoshlardagi o‘spirinlarda vujudga keladigan inqirozli holatlar, o‘zlariga nisbatan kattalarning bolalarcha munosabati doirasidan qutulish tuyg‘usining paydo bo‘lishi, 17-21 yoshdagagi o‘spirinlarda esa, o‘z tengdoshlaridan «ajralish» inqirozi va yolg‘izlik hissining yuzaga kelishi bilan izohlanadi.

Fransuz psixologi Anri Vallon bolaning ruhiy taraqqiyoti va shaxs sifatida ulg‘ayishiga ko‘ra yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi:

- homilaning ona qornidagi davri;
- impulsiv harakat davri – tug‘ilgandan 6 oylikkacha;
- emotSIONallik (hissiy holatlar) davri – 6 oylikdan 1 yoshgacha;
- sensomotor (idrok va harakatning uyg‘unlashuvi) davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha;
- personologizm (shaxsga aylanish) davri – 3 yoshdan 5 yoshgacha;
- farqlash davri – 6 yoshdan 11 yoshgacha;
- jinsiy yetilish va o‘spirinlik davri – 12 yoshdan 18 yoshgacha.

L.S.Vigotskiy bola psixik taraqqiyotida ro'y beradigan inqirozli vaziyatlar, ularnu hal etishga qaratilgan ruhiy yangilanishlarga tayangan holda yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi:

1. Chaqoloqlik davri inqirozi.
2. Go'daklik davri – 2 oylikdan 1 yoshgacha. Bir yoshdagi inqiroz.
3. Ilk bolalik davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha. 3 yoshdagi inqiroz.
4. Maktabgacha davri – 3 yoshdan 7 yoshgacha. 7 yoshdagi inqiroz.
5. Maktab yoshi davri – 8 yoshdan 12 yoshgacha. 13 yoshdagi inqiroz.
6. Pubertat (jinsiy etilish) – 14-18 yosh. 17 yoshdagi inqiroz.

Rus psixolog A.V.Petrovskiy shaxs kamolotiga ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazar bilan yondashib, yosh davrlarining o'ziga xos tasnifini yaratgan, u shaxs shakllanishining prosotsial (ijtimoiy qoidalarga muvofiq) va asotsial (aksilijtimoiy) bosqichlari ham mavjudligini isbotlashga harakat qiladi va shaxsning kamol topishi uchta makrofazadan iborat ekanligini qayd etadi:

- birinchisi – bolalik davriga to'g'ri keladi, unda ijtimoiy muhitga moslashish(adaptatsiya) va ko'nikish ro'y beradi;
- ikkinchisi – o'smirlarga xos yakkahollik(individuallashish);
- uchinchisi – o'spirinlik, ya'ni yetuklikka intilish davrida o'ziga xos holatlarni muvofiqlashtirish(birlashtirish) xususiyatlari.

Shaxsning shakllanishi quyidagi bosqichlarda amalga oshadi:

1. Ilk bolalik – tug'ilganidan 3 yoshgacha.
2. Bog'cha yoshi davri – 3 yoshdan 7 yoshgacha.
3. Kichik maktab yoshi davri – 7 yoshdan 11 yoshgacha.
4. O'rta maktab yoshi(o'smirlik) davri – 11 yoshdan 15 yoshgacha.
5. Yuqori sinf o'quvchisi (ilk o'spirinlik) davri – 15 yoshdan 17 yoshgacha.

### **Shaxs rivojlanishining psixologik-ijtimoiy bosqichlari** (Psixodinamik yo'nalish vakili E.Erikson bo'yicha)

Go‘daklik (tug‘ilganidan bir yoshgacha bo‘lgan davr)	<ul style="list-style-type: none"> <li>Bolada o‘z yaqinlariga nisbatan ishonch tuyg‘usi mustahkamlanadi.</li> <li>O‘zaro ishonch hissining paydo bo‘lish sharti – onaning bolaga mehr berishi va parvarish qilishi hisoblanadi.</li> </ul>
Ilk bolalik ( 1 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan davr)	<ul style="list-style-type: none"> <li>Bolada mustaqillikning ortib borishi.</li> <li>Bolaga haddan ziyod, keragidan ortiq g‘amxo‘rlik ko‘rsatish ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.</li> <li>Bolaning ekinligini cheklash, undan me’yordan ortiq narsalarni talab qilish, unda uyatchanlik, gumonsirash va o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi, bolada ioda kuchining zaifligi kuzatiladi.</li> </ul>
O‘yun yoshi (3 yoshdan 6 yoshgacha)	<ul style="list-style-type: none"> <li>Bolalar turli mashg‘ulotlar bilan qiziqa boshlaydilar.</li> <li>Ota-onalar bolaning mustaqil harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydilar, bu esa tashabbuskorlik va ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishiga zamin yaratadi.</li> </ul>
Maktab yoshi (6 yoshdan 12 yoshgacha)	<ul style="list-style-type: none"> <li>Maktabda ta’lim olish davrida bolalar intizomli bo‘lish qoidalari bilan tanishadilar, jamoa hayotida faol ishtirok etishni o‘zlashtiradilar.</li> <li>Ayrim bolalarda “noqislik hissi” paydo bo‘ladi, o‘z qobiliyatlariga shubha bilan qarash yoki o‘z tengdoshlari orasida o‘z o‘rnini topa omaslik holatlari ushraydi.</li> </ul>
O‘spirinlik (12- 13 yoshdan taxminan 19-20 yoshgacha)	<ul style="list-style-type: none"> <li>Bu yoshda quyidagi hayotiy savollarga javob izlanadi: «Men kimman?», «Men qayerga qarab ketayapman?».</li> <li>Keskin o‘zgarishlar: anatomik-fiziologik, ijtimoiy.</li> <li>Jamiyat qabul qilgan me’yorlardan qoniqmaslik, havotirlanish hissini yuzaga keltirishi mumkin.</li> </ul>
Yoshlik ( 20 yoshdan 25	<ul style="list-style-type: none"> <li>Mazkur bosqichda intimlikka erishish yuz beradi.</li> <li>Bu davrning xavfli jihat, shaxsning haddan ziyod o‘ziga</li> </ul>

yoshgacha)	bino qo‘yishi yoki shaxslararo munosabatlardan qochishi hisoblanadi. Bu yolg‘izlik hissining paydo bo‘lishi, jamiyat hayotidan “uzilish”ga olib kelishi mumkin.
Yetuklik ( 26 yoshdan 64 yoshgacha)	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Samarali faoliyat va sustkashlik o‘rtasidagi tanlov;</li> <li>• Faoliyat mahsuli, katta avlodning yoshlarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatishi uchun yo‘naltiriladi.</li> <li>• Muayyan bir faoliyatda muvaffaqiyatga erisha olmagan kishilar o‘zi-bilan o‘zi bo‘lib qoladi.</li> </ul>
Qarilik (65 yoshdan umrning oxirigacha)	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Mazkur davr uchun, oldingi yosh bosqichlarida erishilgan natijalarni bir-biriga qo‘sish, yig‘indisini hisoblash va baholash xosdir.</li> <li>• Faqat keksalik yoshidagina “o‘tgan hayot yo‘llarida olingan saboqlar” dan xulosalar chiqariladi. Ayrim kishilar o‘z hayotini ro‘yobga chiqmagan imkoniyatlar va xatoliklar davri deb ataydi.</li> </ul>

**Rus psixologi D.B.Elkoninning yosh davrlari tasnifi, har bir rivojlanish pallasida faoliyatning biror bir turining ustunlik qilishiga asoslanadi:**

Ruhiy taraqqiyot bosqichlari	Yosh davrlari	Yetakchi faoliyat turi
1	Go‘daklik davri – tug‘ilgandan bir yoshgacha bo‘lgan davr;	Bevosita hissiy muloqot (ko‘proq onasi bilan)
2	Ilk bolalik davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan davr;	Predmetli faoliyat, predmetlar bilan turli-tuman harakatlar qilish.
3	Maktabgacha yosh(Boqcha yoshi)	Ijtimoiy-maishiy hayotni aks

	davri - 3 yoshdan 6-7 yoshgacha;	ettirgan rolli(voqeaband) o‘yinlar
4	Kichik maktab yoshi davri – 6-7 yoshdan – 10-11 yoshgacha;	O‘quv faoliyati
5	Kichik o‘smirlik davri – 10-11 yoshdan 15-16 yoshgacha;	Ijtimoiy-foydali faoliyat jarayonida tengdoshlari bilan o‘zaro muloqot, shaxslararo intim munosabatlar
6	Katta o‘smirlik yoki ilk o‘spirinlik davri – 15-16 yoshdan 17-18 yoshgacha;	Fan asoslari bo‘yicha o‘quv faoliyati va kasb tanlash.

Ontogenetik taraqqiyotda “yetakchi faoliyat”ni asos qilib olgan rus psixolog D.B.Elkoninning fikricha, “...bolaning xohishi bilan uning amaliy faoliyatdagи ifodalanishi o‘zaro mos tushmay qoladi, shu sababli shunchasi xohish, qat’iy shaxsiy xohish darajasiga ko‘tariladi...”.

Odatda «Men xohlayman», «O‘zim bajaraman» kabi mustaqillikka intilish harakatlari, istak va xohishlarning kuchayishida o‘z ifodasini topadi. Shu tariqa bola ruhiyatida ularning o‘zaro uzbek aloqadorligi, motivlar va ularning o‘zaro kurashi yuzaga kela boshlaydi.

Buning asosiy sababi, maqsadga erishish yo‘lidagi sa’y-harakatlarni mustaqil bajarish istagini tug‘ilishi, «men o‘zim» tuyg‘usi bilan bog‘liq butunlay yangi nuqtayi nazarning vujudga kelishidir.

### **2.3. Psixologiyada shaxs va uning faolligi masalasi**



**Shaxs** – ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning subyekti bo‘lgan individdir. Shaxsga taalluqli bo‘lgan eng muhim tavsif ham, uning kishilik jamiyatidagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorligi, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham obyekt, ham subyekt ekanligida aks etadi.

*Shaxs* – voqelikdagi narsa va hodisalarni, odamlarni ongli ravishda idrok etadi, esda olib qoladi, saqlaydi, xotirlaydi, tasavvur qiladi va fikr yuritadi, ushbu tushuncha eng ko‘p qo‘llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi.

Psixologiya o‘rganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi, insonning ichki ruhiy olami o‘rganishga qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning ijtimoiylashuvi va aynan jamiyat bilan o‘zaro aloqadorligi masalasini chetlab o‘tolmaydi. Shaxs – ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning subyekti bo‘lgan individdir.

Shaxsning jamiyat bilan doimiy munosabatini ushlab turuvchi, o‘z-o‘zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo‘lgan eng muhim va umumiy xususiyat — bu uning faolligidir.

Faollik(lotincha «actus»-harakat, «actus»-faol so‘zlaridan kelib chiqqan) – shaxsning hayotdagi barcha xatti-harakatlarini tushuntirib beradigan kategoriyyadir.

Fanda shaxs faolligining asosan ikki turi farqlanadi:

- **Tashqi faollik** — bu tashqaridan va o‘z ichki istak-xohishlarimiz ta’sirida bevosita ko‘rish, qayd qilish mumkin bo‘lgan harakatlarimiz, mushaklarimizning harakatlari orqali namoyon bo‘ladigan faollik.
- **Ichki faollik** — bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (moddalar almashinuvi, qon aylanish, nafas

olish, bosim o‘zgarishlari) hamda ikkinchi tomondan, bevosita psixik jarayonlar, ya’ni aslida ko‘rinmaydigan, lekin faoliyat kechishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘z ichiga oladi.

Shaxs aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi, o‘zligini namoyon qiladi, inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni faoliyat deb yuritiladi.

**Faoliyat** — inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turlituman ehtiyojlardan kelib chiqadigan hamda tashqi olamni va o‘z-o‘zini o‘zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o‘ziga xos faollik shaklidir.

Bu — ilk yoshdagi bolaning aniq predmetlar mohiyatini o‘z tasavvurlari doirasida bilishga qaratilgan o‘yin faoliyati, bu — moddiy ne’matlar yaratishga qaratilgan mehnat faoliyati, bu — yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy tadqiqotchilik faoliyati, bu — yangi bilimlarni o‘zlashtirish, ko‘nikma va malakalarni egallahsga qaratilgan talabaning o‘quv faoliyatidir.

Shaxs faoliyat tufayli tevarak-atrofdagi olam bilan faol munosabatda bo‘ladi, shaxs faolligi deganda odamning atrofdagi tashqi muhitga ko‘rsatadigan bevosita ta’siri tushuniladi. Tashqi muhit bilan faqat odamlar emas, hayvonlar ham o‘zaro munosabatda bo‘ladilar, lekin hayvonlar tashqi muhitga faqat moslashib yashaydilar, odamlar esa tashqi muhitga faqat moslashib qolmasdan, uni o‘zgartirishga ham qodirlar.

XX asr boshlarida avstriyalik psixiatr Zigmund Freyd (1856-1939) tomonidan psixikani harakatga keltiruvchi kuchlar va shaxs faolligining sabablarini aniqlashga qaratilgan psixoanaliz nazariyasi ishlab chiqilgan. Psixoanaliz nazariyasi asosida, shaxs faolligining manbaini ilk bolalikda paydo bo‘lgan instinkтив(shahvoniy) mayllar tashkil etadi degan g‘oya yotadi.

Freyd odamlar doimo ziddiyat holatida bo‘lishadi va bu ziddiyatlarning sababi butunlay boshqa, psixik hayotning yanada kengroq sohasi bo‘lgan – anglanilmaydigan jinsiy va aggressiv mayllardan iboratdir deb hisoblaydi. U

birinchi marta psixikani hech qachon o‘zaro kelisha olmaydagan instinkt, mulohaza va ong kuchlari o‘rtasidagi jang maydoni sifatida talqin qiladi.

Freyd inson psixikasida dastavval nisbatan avtonom, lekin o‘zaro faoliyatga kirishuvchi ikkita tuzilma, ongsiz «U» va ongli «Men» ni ajratadi, keyinchalik ularga "Oliy Men"ni qo‘sadi.

Shaxs faolligi masalasi hozirgi zamon psixologiya fanida quyidagicha talqin qilinadi: shaxs faolligining asosiy manbai ehtiyojlardir, odamning ehtiyojlari uni faollik ko‘rsatishga undaydi.

**Ehtiyoj** – shaxs faolligining manbai sifatida namoyon bo‘ladigan va uning aniq yashash sharoiti(tashqi va ichki muhit)ga bog‘liqligini ifodalovchi holatdir.

Ehtiyojlar paydo bo‘lishiga ko‘ra, moddiy(tabiiy) va ma'naviy (ijtimoiy) ehtiyojlarga bo‘linadi:

**Tabiiy ehtiyojlar** – biologik ehtiyojlar(tashnalikni qondirish, ovqatlanish, uyqu), jinsiy, nasl qoldirish, tabiiy muhitga moslashish ehtiyojlar.

**Ijtimoiy ehtiyojlar** – muloqot, mehnat qilish, blim olish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish, estetik, axloqiy, ma’naviy-ma’rifiy va madaniy ehtiyojlar.

Ehtiyojlarni biologik hamda ijtimoiy turlarga bo‘lganimiz bilan shu narsani unutmasligimiz lozimki, shaxsdagi turli-tuman biologik ehtiyojlar ham ma’lum darajada ijtimoiylashgan bo‘ladi, ya’ni jamiyat va muhitdagi qadriyatlar, ijtimoiymadaniy normalar va shaxslararo munosabatlар xarakteriga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, birlamchi tabiiy ehtiyoj bo‘lgan oziqlanish(ovqatlanish) ham o‘ziga xos ravishda, ijtimoiylashgan tarzda amalga oshiriladi: nonushta, tushlik, kechki ovqat.

Inson shaxsining faolligi uning qiziqishlarida ham namoyon bo‘ladi.

**Qiziqish**– shaxsning oliy nerv faoliyati orqali tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarini bilish, anglash istagi bilan bog‘liq bo‘lgan alohida munosabatdir.

Qiziqishlar moddiy, ma’naviy, salbiy, ijobiy, davomiy, qisqa muddatli bo‘ladi, qiziqishlar asosida shaxs dunyoqarashi va e’tiqodi tarkib topadi.

**E’tiqod** – shaxsning o‘z qarashlari, hayotiy tamoyillari, dunyoqarashiga mos ravishda harakat qilishga undovchi anglangan ehtiyojlar tizimidir.

Shaxsning xulq - atvori ma'lum bir motivlar negizida shakllanadi.

**Motiv** –ma'lum bir ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan muayyan bir faoliyatga undovchi ichki kuch va moyillikdir.

Agar ehtiyojlar shaxs faolligining mohiyatini tashkil etsa, motivlar uning namoyon bo'lishidan iboratdir. Shaxsning ehtiyojlari motivlar bilan bog'liqdir, shuning uchun motivlar bir - biridan ehtiyojning turiga qarab farqlanadi.

Masalan, moddiy ehtiyojning qondirilishi bilan bog'liq bo'lgan motivlar, ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishi bilan bog'liq bo'lgan motivlardan tubdan farq qiladi. Xulq-atvor motivlari anglangan va anglanmagan bo'lishi ham mumkin, motivlar shaxsning xulq-atvori va turli-tuman faoliyatini harakatga keltiruvchi, undovchi sabablardan iborat bo'ladi.

Faoliyatni va uni tashkil etuvchi predmetli harakatlarni aynan nimalarga yo'naltirilganiga qarab, avvalo tashqi va ichki faoliyat farqlanadi:

- **tashqi faoliyat**– shaxsni o'rabi turgan tashqi muhit va undagi narsa va hodisalarni o'zgartirishga qaratilgan faoliyat bo'lsa;
- **ichki faoliyat** – birinchi navbatda aqliy(ichki psixik) faoliyat bo'lib, u sofi psixik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi.

Ichki(aqliy, psixik) faoliyat tashqi predmetli faoliyatdan kelib chiqadi, dastlab predmetli tashqi faoliyat ro'y beradi, hayotiy tajribalar ortib borgan sari, sekin-asta ushbu harakatlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi. Buni nutq faoliyati misolida oladigan bo'lsak, bola dastlabki so'zlarni tovush chiqarib tashqi nutq orqali ifoda etadi, keyinchalik unda tafakkurning rivojlanishi bilan uzviy holda ichki nutq shakllana boshlaydi, amaliy vazifa oldida o'ylaydigan, mulohaza yuritadigan, o'z oldiga maqsad va rejalar qo'yadigan bo'lib boradi.

Faoliyat jarayonida barcha harakatlar ham ichki-psixologik, ham tashqi-muvofiqlik nuqtayi nazaridan ong tomonidan nazorat qilinadi va boshqarib boriladi, har qanday faoliyat tarkibida ham aqliy, ham jismoniy-motor harakatlar mujassamlashgan bo'ladi.

Agar o'ylanayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi yetakchi

faoliyat aqliy bo‘lgani bilan uning peshonalari, ko‘zлari, hattoki, tana va qo‘l harakatlari juda muhim va jiddiy fikr xususida bir to‘xtamga kelolmayotganidan, yoki yangi fikrni topib, undan mammuniyat his qilayotganligidan darak beradi. Bir qarashda oddiy ishni amalga oshirayotgan, masalan, uzum ko‘chatini ortiqcha barglardan xalos etayotgan bog‘bon harakatlari ham aqliy komponentlardan xoli emas, u qaysi bargning va nima uchun ortiqcha ekanligini anglab, bilib turib olib tashlaydi.

Aqliy harakatlar – shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli-tuman harakatlardir, ular quyidagi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin:

- **perseptiv faoliyat** – voqelikni idrok etish harakatlari orqali, tevarak-atrofdagi narsalar va hodisalar to‘g‘risida yaxlit obraz shakllanadi;
- **mnemik faoliyat** – narsa va hodisalarning mohiyati va mazmuniga aloqador materialni esda olib qolish, esda saqlash va esga tushirishdan iborat murakkab psixik faoliyat turi;
- **fikrlash faoliyati** – aql, zakovat, tafakkur(mushohada yuritish) orqali turli muammoli vaziyatlar, masalalar va jumboqlarni hal etishga qaratilgan faoliyat;
- **imajitiv faoliyat** («image»-obraz so‘zidan olingan) – ijodiy jarayonlarda xayol va fantaziya vositasida ongda berilmagan narsalarning obrazlarini xayolda tiklaydi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, har qanday faoliyat ham tashqi harakatlar asosida shakllanadi va motor komponentlardan iborat bo‘lishi mumkin.

Agar tashqi faoliyat asosida psixik jarayonlarga o‘tish ro‘y bergen bo‘lsa, bunday jarayon psixologiyada **interiorizatsiya** deb ataladi, aksincha, aqlda shakllangan g‘oyalarni bevosita tashqi harakatlarda yoki tashqi faoliyatga ko‘chirilishi **ekteriorizatsiya** deb yuritiladi.

Biror faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud bilimlar va malakalardan foydalana olish **ko‘nikma** deb ataladi. Har bir odam o‘z faoliyati davomida

bilim, ko‘nikma, malaka va odatlarni egallaydi. Malakalar bir necha xil bo‘ladi (yozish, o‘qish, yodlash, yurish, musiqa chalish va b.)

**Malaka** deb avval ongli bajarilib, keyinchalik avtomatlashgan xattiharakatlar tizimiga aytildi. Malakalar sodda va murakkab bo‘ladi. Masalan, mashina haydash, musiqa chalish, kasb egallash murakkab, mix qoqish, o‘tin arralash kabilar sodda malakalar hisoblanadi, malakalar tinimsiz mashq qilish natijasida egallanadi. Agar malakalarimiz qat’iy tarzda bizdagi mavjud bilimlarga tayansa, faoliyatning maqsadi va talablariga ko‘ra harakatlarni muvaffaqiyatli bajarishni ta’minlasa, biz uni ko‘nikmalar deb ataymiz. Shaxsda ko‘nikma va malakadan tashqari odatlar ham bo‘ladi. **Odat** kishi qalbiga chuqur o‘rnashib, uning ehtiyojiga aylanib qolgan harakatlardir. Masalan, erta turish, yuz-qo‘lni yuvish, to‘g‘ri ovqatlanish, ozoda yurish, orastalik, saranjom-sarishtalik kabi odatlar.


Ayrim yoshlarda sigareta chekish, spirtli ichimliklarga ruju qo‘yish, giyohvandlik kabi zararli odatlarga berilish holati uchraydi, bu esa ularning salomatligi va ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Malaka va odatlarning nerv-fiziologik asosini shartli reflekslarning hosil bo‘lish mexanizmi tashkil qiladi. Bu shartli refleks dinamik stereotip tarzidagi, ya’ni takrorlash natijasida mustahkamlangan shartli reflekslar tuzilmasidan iborat.

Inson faoliyatining shakllari, turlari, avvalo, mehnat taqsimoti, odamlar va jamiyat ehtiyojining ortib borishi jarayonida takomillashib boradi. Faoliyat tarkibiy qismlarini inson, uning ehtiyojlari va manfaatlari, faoliyat predmeti, motivlari, faoliyat maqsadlari, amalga oshirish yo‘llari, vositalari va usullari tashkil etadi.

Inson faoliyati murakkab va o‘ziga xos jarayon bo‘lib, shunchaki ehtiyojlarni qondirishdan iborat emas, balki ko‘pincha jamiyatning maqsadi va talablari orqali belgilanadi, shu boisdan maqsadning anglanganligi, unga erishish yo‘lida amalga oshirilgan sa’y-harakatlar inson faoliyatining o‘ziga xos belgisi

hisoblanadi.



## 2.4. Psixologiyada motiv va motivatsiya tushunchalari

Inson faoliyatiga aloqador bo'lgan motiv va motivatsiya tushunchalari qo'zg'atuvchilarning barcha turlarini o'z ichiga oladi:

- motivlar, ehtiyojlar; maqsadlar;
- moyilliklar, qiziqishlar va intilishlar;
- motivlashgan ustanovkalar va boshqalar.

Motiv va motivatsiya keng ma'noda xulq-atvor determinatsiyasi (sababiy bog'lovchisi) sifatida belgilanishiga qaramay, ko'pgina tadqiqotchilar ularni

judu tor ma'noda tadqiq etib o'rganadilar, hatto shartsiz reflektor aktlarining miqdorini, affektiv, stress va ekspressiv reaksiyalarni ham ushbu tizimiga kiritadilar.

Sobiq ittifoq psixologiya maktabida motiv va motivatsiya tizimi inson hayoti va faoliyatiga uzluksiz ravishda yo'naltirilgan, murakkab tuzilishga ega bo'lgan boshqaruvchi sifatida qayd etiladi. Jumladan, S.L.Rubinshteyn motivlashgan tizimning insonni borliqni aks ettirishdagi rolini ko'rsatib, shunday mazmundagi mulohazalarni ta'kidlab o'tadi: birinchi bo'lib kuzatish obyektlari emas, balki shaxsning ehtiyoj obyektlari va shaxsning xattiharakatlari turadi, motivlashgan ustakovkalarning faollikkaga oid o'ziga xosligi ham shunday tuzilishga ega bo'ladi.

S.L.Rubinshteyn "...ong – bu faqatgina aks etish emas, balki insonning tashqi muhitga nisbatan munosabati hamdir" deb yozadi, shu bilan birga ongning rolini ko'rsatish bilan bir qatorda psixikaning ko'p qirralilagini, ruhiy jarayonlarning vujudga kelish hamda kechish holatlarini tushuntirib berishga erishgan.

Sobiq ittifoq psixologiya maktabi vakillari motiv va motivatsiyaning bosqichli konsepsiyasini ishlab chiqishda quyidagilarga tayanganlar:

- ongning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan inson xulq-atvorini boshqarishning murakkab tizimiga ega ekanligi;
- ontogenezda shaxsning individual shakllanish jarayoni va uning genetik dalillarga asoslanganligi.

**Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi.** Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o'zini qanday tutishi, egallagan ijtimoiy maqomi sababsiz, o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq-atvorini tushuntirish uchun «motiv» va «motivatsiya» tushunchalari qo'llaniladi.

«Motivatsiya» tushunchasi «motiv» tushunchasiga qaraganda kengroq ma'no va mazmunga ega bo'lib, motivatsiya – shaxsning xulq-atvori, uning bog'lanishli yo'nalishi va faolligini izohlab beruvchi psixologik sabablar

majmuasini bildiradi. Mazkur tushuncha u yoki bu shaxs xulqini tushuntirib berish zarur bo‘lganda qo‘llaniladi, ya’ni: «nega?», «nima uchun?», «nima maqsadda?», «qanday manfaat yo‘lida?» kabi savollarga javob qidirish – shaxsni faollikka undagan sabablar tizimi – motivatsiyani qidirish demakdir.

Shaxsning jamiyatdagi odamlar orasidagi xulqi va o‘zini tutishi sabablarini o‘rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, uning ikki jihat farqlanadi:

- ichki sabablar, ya’ni xatti-harakat egasining subyektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo‘ljallar, istaklar, qiziqishlar va hokazolar);
- tashqi sabablar — faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari, ya’ni konkret holatlarni kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan tashqi stimullar.

Shaxs xulq-atvorini ichki psixologik sabablar tufayli boshqarish shaxsiy dispozitsiyalar deb ataladi. Ular shaxs tomonidan anglanishi yoki anglanmasligi ham mumkin. Ya’ni ba’zan shunday bo‘ladiki, shaxs o‘zi amalga oshirgan ishi yoki o‘zidagi o‘zgarishlarga nisbatan shakllangan munosabatning haqiqiy sababini o‘zi tushunib yetmaydi, «Nega?» degan savolga «O‘zim ham bilmay qoldim, bilmayman», deb javob beradi. Bu anglanmagan dispozitsiyalar yoki ustakovkalar deb ataladi. Agar shaxs biror kasbga ongli tarzda qiziqib, uning barcha sir-asrorlarini egallash uchun astoydil harakat qilsa, bunda vaziyat boshqacharoq bo‘ladi, ya’ni dispozitsiya angangan, ongli hisoblanadi.

**Motiv** – aniq tushuncha bo‘lib, shaxsning ma’lum bir xulq-atvorga nisbatan moyilligi yoki hozirligini tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi.

Nemis olimi Kurt Levin motivlar muammosi, ayniqsa, shaxsdagi ijtimoiy xulq motivlari borasida katta keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, shu narsani aniqlaganki, har bir odam o‘ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok etish va baholashga moyil bo‘ladi, vaziyat xususidagi baholar ham turlicha bo‘ladi.

Bundan tashqari, bir shaxsning o‘zi ham o‘zidagi holat, kayfiyatga bog‘liq holda bir xil vaziyatni alohida hollarda turlicha idrok qilishga moyil bo‘ladi.

Shuning uchun ham odamning ayni paytdagi real harakatlarini o'sha ma'lum sharoitdagi ichki va tashqi stimullarga uning bergen bahosi yoki reaksiyasi sifatida qaramay, balki unda shunga o'xhash holatlarni idrok qilishga ichki bir hozirlik – dispozitsiyaning mavjudligi bilan izohlash to'g'ri bo'ladi.

Shaxs xulqining motivatsiyasi turli sharoitlardan orttirilgan tajribaga tayangan holda, ongli tahlillar, hattoki, ijtimoiy tajriba normalarining ta'sirida shakllanadigan sabablar jamlanmasini ham o'z ichiga oladi.

S.L.Rubinshteynning motivga ehtiyoj nuqtayi nazaridan yondashuvi, mazkur nazariyaning yanada boyishiga hissa bo'lib qo'shildi, uning fikriga ko'ra "ehtiyoj" tushunchasi instinkt atamasiga qarama-qarshi ravishda ilmiy psixologiya fanining asosiy tushunchalari qatoridan salmoqli joy egallashi zarur bo'ladi. Ana shunda "ehtiyoj" tushunchasi negizida, insonning xulq motivatsiyasi instinkt va mayldan qiyosiy jihatdan farq qilib mutlaqo boshqacha talqinga ega bo'ladi. Shu boisdan, muallif inson faoliyatini "maqsad va motiv"ning o'zaro munosabatiga asoslangan holda tahlil qiladi, shaxsning yo'nalishi va motivi o'rtasidagi uyg'unlikka katta ahamiyat beradi, ushbu qarashlar, motivatsiyaning rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etgan holda, uni o'rghanishga keng yo'l ochib beradi.

Odam psixikasining taraqqiy etishini faoliyat negizida chuqur o'rgangan rus psixologi A.N.Leontyev motivatsiya masalasini ham chetlab o'tmagan, motivatsiya konsepsiyasining to'laqonli ifodasi uning "Psixikaning rivojlanish muammolari" asarida bayon qilinadi, keyinchalik bu masalaga muallif o'zining "Faoliyat. Ong. Shaxs" monografiyasida takroran murojaat qiladi, inson ongingin namoyon bo'lishini tahlil qilish vositasi orqali motivatsiya muammosiga yondashadi, hayotiy omillarning xatti-harakat motiviga aylanishi mukammal tahlil qilinadi,

Amerikalik psixolog R.Vudvortsning motivlar nazariyasi uning "Dinamik psixologiya" asarida bayon qilingan bo'lib, unda ehtiyoj o'zgacha tarzda talqin qilinadi. 1958 -yilda chop qilingan "Xulq dinamikasi" asarida esa Vudvorts o'z qarashlarini qayta ifodalab, biologik nuqtayi nazar negizida motivlarning yangi

nazariyasini ishlab chiqadi, uning fikricha, xulq - ehtiyoj va kognitiv jarayonlar orqali aniqlanadi, xulq kodiga tug‘ma va egallangan mexanizmlar o‘z ta’sirini o‘tkazadi, ehtiyojlar tug‘ma va egallangan omillar orqali belgilanadi.

L.Festingerning motivatsiya nazariyasi “Kognitiv dissonans nazariyasi” degan kitobida bayon etiladi. Ushbu nazariya o‘z ichiga ijtimoiy psixologiya hamda biologiya masalalarini qamrab oladi. Axborotlar mavjud, bunda tazyiq, rozilik, yon berishlik uchraydi, insonga kelib tushayotgan axborotlarda kognitiv dissonans (norozilik) vujudga keladi, axborot haqqoniy bo‘lishiga qaramay, shaxs o‘z pozitsiyasini himoya qilish uchun uni qabul qilishni istamaydi.

Yirik ilmiy yondashuvlardan biri A.Maslouning “personologik” konsepsiysi bo‘lib, u o‘zining “Motivatsiya va shaxs” kitobida individning uzluksiz kamolotga intilishini yetakchi motiv sifatida baholaydi. Maslouning fikricha, motivlarni aniqlovchi, bir necha darajalardan tashkil topgan ehtiyojlar piramidasi mavjuddir, xulq ehtiyoj va qobiliyatlarga bog‘liq, ichki va tashqi motivlar orqali belgilanadi.

Muallif tomonidan ehtiyojlarning quyidagi darajalari ko‘rsatiladi:

- birinchi daraja – fiziologik – ozuqaga, suvga, gomeostazni saqlashga nisbatan ehtiyoj;
- ikkinchi daraja – ozodlikka, xavfsizlikka nisbatan ehtiyoj;
- uchinchi daraja – sevgi (muhabbat)ga nisbatan ehtiyoj;
- to‘rtinchi daraja – maqsadga, erishuvga yo‘naltirilgan ehtiyoj;
- beshinchi daraja o‘zini-o‘zi faollashtirishga nisbatan ehtiyoj.

A.Maslouning ta’kidlashicha, yangi ehtiyoj ko‘rsatib o‘tilgan darajalarining barchasi qoniqtirilgandan so‘ng paydo bo‘lishi mumkin, ehtiyojlar piramidasidagi eng yuqori o‘rindagi ehtiyoj turi – bu o‘z-o‘zini faollashtirishdir.

## **2.5. Muvaffaqiyatga intilish hamda mag‘lubiyatdan qochish motivlari**

Odamlarning mehnat faoliyatiga ichki psixologik motivatsiyasi, kasbiy xulq-atvorining mazmunan boy bo‘lishi, kasbga nisbatan ongli va to‘g‘ri motivatsiyani shakllanishini ta‘minlaydi, shu o‘rinda Abraham Maslouning motivlar ierarxiyasi hamda D.Maklellandning motivatsiya konsepsiyalari katta ahamiyatga ega.

D.Makklellandning motivatsiya nazariyasida turli ehtiyojlar va ularga mos motivlar ajratib korsatilgan:

- hukmronlik qilish ehtiyoji, muvaffaqiyatga erishish ehtiyoji va aloqadorlikka sazovor bo‘lish ehtiyoji.
- Har bir ehtiyoj turi o‘ziga xos turtkiga sabab bo‘ladi va ularning har birida shaxsning tavakkal qilishi darajasi turlicha bo‘ladi.

Masalan, hukmronlik qilishga nisbatan ehtiyoj hayot mobaynida shakllangan bo‘lib, bunda ta’lim va tarbiyaning roli katta, insonda o‘zgalar faoliyatini nazorat qilish, ularga ta’sir ko‘rsatish istagi yorqin tarzda aks etadi. Shu tarzda yuqori motivatsiyaga ega insonlarni muallif ikki guruhga ajratadi:

- Birinchi toifa hukmronlikka hokimiyatga qiziqqani uchun intiladi, chunki ular uchun o‘zgalar ustidan nazorat qilish jarayoni juda qiziqarli va ular shuni istaydilar, bunday toifa uchun korxonaning manfaati, uning maqsadlari ahamiyatsiz, muhim kimlarnidir ustidan hukmron bo‘lish g‘oyasi ustunlik qiladi.
- Ikkinci toifa odamlar uchun jamoaning manfaatlari va unga erishish yo‘lidagi ishlarni ko‘pchilik bo‘lib hal qilish muhim. Lavozimga erishgach, darhol guruh yoki jamoa bilan kelishib, hamkorlikda umumiy vazifalarni bajarishni boshlaydi va o‘zi ham muammolarni hal qilish, qarorlar qabul qilishda bevosita faol ishtirok etadi, bunda o‘zining shaxsiy manfaatlarini, obro‘-e’tibor qozonish kabilarni keyingi o‘rinlarga qo‘yadi.

Muvaffaqiyatga erishish ehtiyoji boshlangan ishni samarali ado etish yo‘li bilan qondiriladi. Bunday inson o‘z oldiga murakkab masalalarni qo‘yib, uni yaxshi bajarib, o‘zgalar e’tirofiga intiladi. Agar u rahbar bo‘lsa, o‘zi tashabbus

ko'rsatib, so'ngra niyatiga yetish, kam tavakkal qilib, oqilona yo'llarni belgilashni nazarda tutadi. Agar rahbar nimadandir xavotirlansa, tavakkal qilishi darajasi yuqori bo'lsa, tashabbus ko'rsatadi, lekin bajarishni boshqalarga yuklab, o'zi chetda turishni afzal ko'radi. Asosiy niyati nima qilib bo'lsa ham o'z obro'siga putur yetkazmaslik.

D.Makklelland nazariyasiga Dj.Atkinsonning g'oyalari yaqin turadu, uning fikricha, muvaffaqiyatga erishish ehtiyoji boshqa bir ehtiyoj – mag'lubiyatdan qochish bilan birgalikda qaralishi lozim. Mualliflar birgalikda subyektiv jihatdan ma'qul ko'rildigan tavakkal qilish nazariyasiga asos solishadi. Hayotiy amaliyotdan ma'lum bo'ladiki, samarali faoliyat yuritadigan rahbarlar hech qachon juda yuqori darajada ham, o'ta quyi darajada ham tavakkal qilmas ekanlar.

Ular, tavakkalning eng maqbul, o'rtacha darajasida faoliyat yuritib, o'zlarini turli muvaffaqiyatsizliklardan saqlaydilar, noaniqliklar ko'p bo'lgan, tavakkal qilishga to'g'ri keladigan vaziyatlardan imkoniboricha o'zlarini olib qochadilar, shu sababli ham ularda mag'lubiyatga uchrash holati kam bo'ladi.

Odamlarda bir-biriga bog'liqlik, aloqadorlikka sazovor bo'lish ehtiyoji mavjud bo'lib, ushbu ehtiyoj shaxsning do'stona munosabatlarga intilishida namoyon bo'ladi. Bunday odamlar hamkasblari, do'stlari va o'zidan yuqori turganlarning doimiy e'tirofi va e'tiboriga sazovor bo'lishni istaydilar.



Affiliatsiya insonning boshqa insonlar davrasida, guruhida bo'lish istagiga bog'liq hodisa.

Ayniqsa, odam xavotirli, xavfli va stressli vaziyatlarni his qilganda unda affiliatsiya ehtiyoji ortib boraveradi. Affiliatsiya motivatsiyasi - muloqotga intilish, bilishga qiziqish, o'zini-o'zi ta'kidlash, manfaatli hamkorlik kabi maqsadlar,

ehtiyojlar, motivlar majmuasidan iborat bo‘lib, shaxsning mehnat faoliyati davomida anglangan muloqot jarayoniga o‘tishga undaydi.

So‘nggi yillarda affiliatsiya motiviga e’tibor ortib bormoqda.

So‘zning ma’nosи inglizcha to affiliate – birlashmoq, birlashtirmoq, insonni boshqa odamlar davrasida bo‘lishga intilishi ma’nosini bildiradi.

R.Myurreyning ilmiy izlanishlarida: “...affiliatsiya deganda har ikkala tomonga ijobiy ta’sir etuvchi o‘zaro muloqot mazmuniga ega bo‘lgan ijtimoiy ta’sirlarning ma’lum bir turi, do‘stona munosabatlarni o‘rnatish va bog‘lanishni his qilish, guruhlarga birlashish” kabi motivatsiya sifatida talqin etiladi.

➤ A.Maslouning fikriga ko‘ra, affiliatsiya motivi insoniyat ehtiyojlari ierarxiyasining eng yuqori darajasiga mansubdir. Shu bilan birga insoniyat uchun birinchi darajali va fundamental motiv hisoblanib, odamlar bilan o‘zaro ta’sir doirasidagina rivojlanishi mumkin.

➤ Megrabyan affiliatsiya motivining ikki xil tomonini ajratib o‘tadi: affiliatsiyaga ehtiyoj (simpatiya, muloqotdagi qo‘llab-quvvatlash) va rad etilishdan qo‘rqish (muloqot o‘rnatilmasligi yoki rasmiyligicha qolishi).

➤ X.Xekxauzenning fikricha, affiliatsiyaga ehtiyoj universal hisoblanib, yosh, gender va etnik mansublikdan qat’i nazar barcha insonlarga xos bo‘lgan ehtiyojdir.

Ammo ushbu ehtiyojning xarakteri va mazmuni ta’lim-tarbiya, ijtimoiylashuv sharoitlari va ma’naviy tomonlarga bog‘liq.

Klassik va zamonaviy psixologik adabiyotlar tahliliga ko‘ra, affiliatsiya motivi o‘z ichiga insonlar bilan muloqot o‘rnatishga ehtiyoj, guruh a’zosiga aylanish, atrofdagilar bilan o‘zaro ta’sir doirasiga kirishish, yordam ko‘rsatish va qabul qilish kabi ehtiyojlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Atoqli xorijiy psixologlar maktabi doirasida affiliatsiya motivi bevosita va bavosita yondashishlar orqali o‘rganilgan bo‘lsa-da, lekin mahalliy sharoitda sof ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar bu borada hali olib borilmagan.

Yuqoridagi fikrlar umuman shaxs xulq-atvorining motivlariga oid fikrlar bo‘lsa, ijtimoiy psixologiya o‘z predmeti nuqtayi nazariga ko‘ra ijtimoiy xulq-atvor motivlariga alohida e’tibor qaratadi.

Xulqning ijtimoiy motivlariga doir yana bir yechim g‘arbda asos solingan eksperimental yondashuv bilan bog‘liq, o‘tgan asrning 70 chi yillarida Ch. Makklintok<sup>4</sup> o‘z hamkasblari bilan ijtimoiy xulq motivlarining 6 turini ajratib, tajriba ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarini sinovdan o‘tkazadilar:

- kooperatsiya, hamkorlik;
- individuallik;
- raqobat;
- altruizm;
- agressiya;
- tenglik.

Ko‘rib turganimizdek, har bir motivning mohiyati o‘ziga xos mazmunga ega, ular har bir sharoitda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lsa-da, ularning amaliyotda mavjudligi, har birimizda ijtimoiy xulqning namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Har bir motivning ishlab chiqarish sharoitlarida xodimlar xulqida qanday aks etishini o‘rganish fan uchun ham, amaliyot uchun ham katta ahamiyatga ega.

Har qanday motivlarning ortida shaxsning ehtiyojlari yotadi, ya’ni maqsadli hayotda shaxsda avval u yoki bu ehtiyojlar paydo bo‘ladi va aynan ularning tabiatي hamda zaruratiga bog‘liq tarzda xulq motivlari namoyon bo‘ladi.

## **2.6. Shaxsning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillar**

Bolaning shaxs sifatida ulg‘ayishida turli-tuman omillar ta’sir ko‘rsatadi, ayniqsa ikkita asosiy omil alohida o‘rin tutadi:

- biologik (tabiiy);
- ijtimoiy muhit (hayot sharoiti, ta’lim va tarbiya);

<sup>4</sup>Битянова М.Р. Социальная психология: Учебное пособие. 2 - е изд., –СПб.: Питер, 2008. С. 152

Eng asosiy biologik omil sifatida irsiyat nazarda tutiladi.

Bola qanday irsiy belgilar bilan tug‘iladi?

- odamga xos bolgan bosh miyaning tuzilishi va nerv tizimi;
- odamlar uchun umumiy bo‘lgan jismoniy belgilar;
- nutq apparatining odamga xos bo‘lgan shakli va tuzilishi;
- odam asab tizimining anatomik va fiziologik tuzilishi.

Irsiy belgilar jamlanmasi – genofond, qobiliyat nishonalari (kurtaklari) deb ham yuritiladi, ular asosida umumiy va maxsus qobiliyatlar rivojlanadi.

Irsiyat (nasliy xususiyatlar)ning moddiy asosi – DNK (dezoksiribonukleyin kislotasi) hisoblanadi, aynan u hujayradagi genetik ma’lumotni saqlash va yetkazib berish fuknsiyasini bajaradi. Genlar – barqaror tuzilmalar bo‘lib, ular ichki sabablar va tashqi qo‘zg‘atuvchilar ta’siriga nisbatan chidamli bo‘lishadi.

Shuni ta’kidlash o‘rinliki, bola tug‘ilganidagi hamma belgilarni faqat irsiyat orqali izohlash ham nojoizdir. Boladagi ayrim tug‘ma xususiyatlar va ularning belgilari, homiladorlik davrida orttirilgan bo‘lishi ham mumkin.

Onaning homiladorlik davridagi jismoniy va ruhiy holati, turmush tarzi, ruhiy iztiroblari, noto‘g‘ri qo‘llangan dori-darmon vositalari ayrim analizatorlar faoliyatida muayyan bir o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi, bu esa o‘z navbatida bolaning ruhiy taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Biologik omil juda katta ahamiyatga ega, lekin tabiiy xususiyatlar bola ruhiy taraqqiyotini to‘la belgilab bera olmaydi, shaxs sifatida ulg‘ayish, komillikka erishish uchun odam bo‘lib tug‘ilishning o‘zi kifoya qilmaydi.

Shaxsga xos bo‘lgan psixik xususiyatlar, shaxsning ma’naviy qiyofasi, axloqiy sifatlari to‘laqonli ravishda nasldan-naslga o‘tmaydi, odam faqat ijtimoiy muhitning hal qilivchi ta’siri ostidagina shaxs sifatida shakllanadi.

Umuman olganda, muhit psixik taraqqiyot omili sifatida – murakkab va keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Bolaning psixik taraqqiyotiga tabiiy muhit ham muayyan tarzda o‘z ta’sirini ko‘rsatadi:

- havo, suv, quyosh;

- tortishish kuchlari, elektromagnit maydonlari;
- tabiat va o'simliklar dunyosi, iqlim sharoitlari.

Bola psixik taraqqiyotining asosiy sharti – uning kishilik jamiyatidagi hayotidir. Faqat odamlar bilan o'zaro muloqot jarayonidagina bola insonga xos xulq-atvorni o'rganadi, maishiy hayot va mehnat predmetlari bilan muomala qilishni o'zlashtiradi, nutqni egallaydi; katta avlod vakillari asrlar davomida to'plangan madaniy-ma'rifiy qadriyatlar va axloq mey'orlarini yetkazib beradilar.

“..Jamiyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti mobaynida kishilar tomonidan yaratilgan narsalar va hodisalarni egallah jarayoni, - deya ta'kidlaydi A.N.Leontyev, – aynan shunday jarayon-ki, unda individda faqat odamga xos bo'lgan qobiliyatlar va funksiyalarning shakllanishi yuz beradi...”<sup>5</sup>

Bolaning rivojlanishi uni o'rab turgan muhit yoki mikromuhit (oila, ota-onas, tengdoshlar, qarinloshlar, qo'shnilar), keng ma'noda olganda ijtimoiy muhit(makromuhit), hayotiy vaziyatlar, turli-tuman ommaviy axborot vositalari ko'magi va bilvosita ta'siri ostida kechadi.

Ta'lif va ruhiy taraqqiyotning o'zaro munosabati doirasida 3 ta nuqtayi nazar mavjuddir:

- birinchi nuqtayi nazarga ko'ra ta'lif va ruhiy taraqqiyot, alohida mustaqil jarayonlardir, lekin ta'lif miyaning yetuklik darajasiga ko'ra belgilanadi. Shunga ko'ra ta'lif – taraqqiyot jarayonida vujudga kelgan imkoniyatlardan foydalanishdir. V.Shternning yozishicha, ta'lif taraqqiyot ortidan yuradi va unga moslashadi;
- ikkinchi nuqtayi nazarga ko'ra (U.Djems, E.Torndayk) ta'lif va ruhiy taraqqiyot bir-biriga qo'shilib ketuvchi jarayonlardir;
- uchinchi yondashuv vakillari dastlabki nuqtayi nazarlarni umumlashtirgan holda uni yangi ilmiy farazlar bilan boyitishdi: ta'lif faqat taraqqiyotning ortidan izma-iz yurmaydi, balki undan oldinda yurishi ham mumkin. Bu yangi g'oyani rus psixolog L.S.Vigotskiy ilgari surgan.

---

<sup>5</sup> Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. М., 1972, с.42.

**Shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni.** Bolaning shaxs sifatida ulg‘ayib, kamol topishida uning ijtimoiylashuv jarayonlari muhim o‘rin tutadi. A.V.Mudrik shaxsning ijtimoiylashuv jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning uchta guruhini ajratib ko‘rsatadi:

- makroomillar (koinot, yer kurrami, dunyo, davlat, jamiyat);
- mezoomillar (mezo-, „o‘rta”, „oraliq”) kishilarning etnik belgilarga ko‘ra birlashishi, yashash manziliga ko‘ra, ommaviy axborot tizimiga ko‘ra ijtimoiylashuvi;
- mikroomillar - kishilarga bevosita ta’sir ko‘rsata oladigan ijtimoiylashuv o‘choqlari (Oila, tengdoshlar davrasi, tashkilot, muassasa, mahalla, ta’lim maskanlari, mehnat jamoalari, jamoat tashkilotlari).

Mikroomillar shaxsga ijtimoiylash jarayonining o‘ziga xos „ko‘mak”chilari orqali ta’sir etadi, chunki uning hayoti ular bilan o‘zaro hamkorlikda kechadi, har bir yosh davri uchun ko‘makchilar tarkibi turlicha bo‘ladi. Bolalar va o‘smirlarga nisbatan ota-onanaka-uka va opa-singillar, qarindoshlar, tengdoshlar, qo‘snilar, o‘qituvchilar „ko‘makchi” vazifasini bajarishsa, o‘spirinlik va yoshlik davrida ular safiga ularning turmush o‘rtoqlari, hamkasblar qo‘shilishadi. Yetuklik yoshida o‘z farzandlari, keksa yoshda esa, oila a’zolari ham mikroomillar jumlasiga kiradi

Maktabgacha yoshdagagi bolaning psixikasi o‘yin faoliyati, ta’lim olishi, predmetli faoliyatni egallashi, tajribalarni o‘rganishi, mehnatga oid ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi va ijtimoiy faoliyat jarayonida o‘sib boradi. O‘yin faoliyati, ayniqsa rolli o‘yinlar maktabgacha yoshdagagi bolalar faoliyatining yetakchi turi bo‘lib, bolalarning psixik taraqqiyotida o‘yinning roli nihoyatda kattadir, mazkur faoliyat turi har bir yosh bosqichida bolaning tevarak-atrofdagi dunyoni va kishilar o‘rtasidagi munosabatlarni bilib olishini ifodalaydi.

Bolalarning moddiy dunyoga, kishilarga, o‘ziga bo‘lgan munosabatining o‘zgarib borishi uning turli-tuman o‘yinlarida namoyon bo‘ladi, bolalarning yangi, turli ehtiyojlari, istak-xohishlari va qiziqishlari bevosita o‘yinda ifodalanadi.

Amerikalik psixolog, gumanistik psixologayaning asoschilaridan biri Karl Rodjers (1902-1987), o‘zining shaxsning shakllanishiga doir ta’limotida o‘z-o‘zini baholash tushunchasiga katta e’tibor beradi, bolaning kattalar va o‘z tengdoshlari bilan o‘zaro faoliyatida o‘zi haqidagi tasavvuri hosil bo‘ladi, fikrini ilgari suradi.

K.Rodjers, shaxslararo munosabatlar tizimidagi vaziyatlarga, xususan, o‘qituvchi va o‘quvchi muomala munosabatiga katta ahamiyat beradi, faqat shaxslararo samimiy muomala sharoiti ta’lim sifatini oshirib, shaxsning ijtimoiy-ruhiy rivojlanishidagi to‘siqlarni bartaraf etish mumkin, deb hisoblaydi.

K.Rodjers ta’lim berishning an’anaviy usulidan ko‘ra, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modelni ilgari suradi, modeldagи eng muhim yo‘nalishlar quyidagilardir:

- o‘qituvchi o‘z-o‘ziga va tarbiyalanuvchilarga hurmat bilan qarashi, ta’lim va tarbiya oluvchilar ongli, ixtiyoriy ravishda bilim olishga intilishlarini zarur;
- ta’lim va tarbiya uchun ham tarbiyalanuvchi, ham tarbiyachi-murabbiy, o‘qituvchi birdek javobgar hisoblanadi;
- bolalarga bilim asoslari va tarbiya berishda o‘qituvchi o‘zining shaxsiy tajribasiga tayanadi;
- sinfda asta-sekinlik bilan o‘quv-bilish jarayonida, o‘zaro munosabatlarda sog‘lom muhit yaratish, unda ta’lim oluvchilarning o‘zlari ham bevosita ishtirok etishlari zarur;
- O‘quv-tarbiya jarayonini chuqr o‘zlashgirish, bolani hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtiradi, shaxs o‘z hissiy kechinmalari, intilishlari, salohiyati orqali o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘nalgan bo‘ladi.

Hozirgi kunda shaxsning har tomonlama kamol topishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillar tasnifi ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning ta’siri uyg‘unlikda aks etadi:

***Shaxsning shakllanishiga ta'sir  
ko'rsatadigan omillar***

Irsiyat

Ijtimoiy muxit

Ta`lim va  
tarbiya

Shaxsiy faoliyat

### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari:**

- Individ, shaxs, individuallik tushunchalarini izohlab bering?
- Shaxs tuzilmasiga doir yondashuvlar tahlili?
- Shaxsning shakllanishiga ijtimoiy muhitning ta'siri?
- O'smirlik davrida shaxs sifatida ulg'ayishning o'ziga xos psixofiziologik alomatlari?
  - Shaxs xulqiga ta'sir etadigan ijtimoiy mexanizmlar?
  - Shaxs hayotida ijtimoiy normalarning o'rni va ahamiyati?
  - Ijtimoiy sinksiyalar va ijtimoiy rollar haqida tushuncha?
  - Shaxsning "Men-obrazi" haqida tushuncha?
  - Yosh davrlarini tasniflash nazariyalari?
  - L.S.Vigotskiyning ruhiy taraqqiyotning kechishiga oid qarashlari?
  - E.Eriksonning yosh davrlarini tasniflash nazariyasi?
  - D.B.Elkoninning ruhiy taraqqiyotni davrlashtrish tasnifi?
  - Shaxs faolligi: tashqi va ichki faollikning mazmni?
  - Shaxs faolligining asosiy manbai – ehtiyojlar haqida tushuncha?
  - Faoliyat va uning turlari?
  - Shaxsning ko'nikma, malaka va odatlari?
  - Psixologiya maktablarida motiv va motivatsiya sohasiga doir olib borilgan tadqiqotlar tahlili?
    - A.Maslouning ehtiyojlar piramidasи?
    - D.Makkellelandning motivatsiya nazariyasi?
    - Shaxs taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadigan omillar: tabiiy va ijtimoiy omillarning o'zro aloqadorligi?

**Mavzu bo‘yicha test savollari:**

1. Shaxs fazilatlarining o‘ziga xos va takrorlanmas birikmasi?
  - a. Instinktlar.
  - b. Individuallik.
  - c. Ishtiyoy va qiziqishlar.
  - d. Anglanilmagan motivlar.
2. Tashqi predmetli harakatlardan ichki ruhiy(aqliy) harakatlarga o‘tish jarayoni bu...?
  - a. Eksteriorizatsiya.
  - b. Interiorizatsiya.
  - c. Refleksiya.
  - d. Identifikatsiya.
3. Ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq faoliyatga undovchi, unga mazmun beradigan ichki kuch bu...?
  - a. Induksiya.
  - b. Refleksiya.
  - c. Motiv.
  - d. Identifikatsiya.
4. Individning asosiy va eng muhim belgisi bu...?
  - a. Obyekt ekanligi.
  - b. Subyekt ekanligi.
  - c. Ijtimoiy zotga masubligi.
  - d. Tabiiy zotga mansubligi.
5. Shaxsga taalluqli bo‘lgan eng muhim tasnif ...?
  - a. Shaxs-faqat tabiiy ehtiyojlariga ega bo‘lgan zot.
  - b. Shaxs-ijtimoiy munosabatlar mahsuli, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham obyekt, ham subyektdir.
  - c. Shaxs-biologik zotdir.

- d. Shaxs-o‘z faolligini ishtiyoq va mayllar orqali belgilaydigan jamiyat a’zosi.
6. Jamiyatning o‘z a’zolari xulq-atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilgan harakat talablari ...?
- Ijtimoiy motiv.
  - Ijtimoiy norma.
  - Ijtimoiy muhit.
  - Ijtimoiy majburiyat.
7. Ichki (psixik, aqliy) harakatlardan, tashqi predmetli harakatlarga o‘tish jarayoni bu ...?
- Anglanilmagan mayllar.
  - Qiziqish va ishtyoqlar.
  - Eksteriorizatsiya.
  - Interiorizatsiya.
8. Dastlab ong ishtirokida bajarilib, keyinchalik avtomatlashgan xatti-harakatlar tizimi bu...?
- Bilimlar.
  - Ko‘nikma.
  - Malakalar.
  - Odatlar.
9. Yosh davrlari tasnifida ruhiy yangilanishlar uchun “yetakchi faoliyat”ni asos qilib olgan rus psixolog ...?
- S.L.Rubinshteyn.
  - L.S.Vigotskiy.
  - D.B.Elkonin.
  - A.N.Leontyev.
10. Gumanistik psixologiyaning yirik vakili, “Ehtiyojlar piramidasi” muallifi ...?
- Z.Freyd.

- b. A.Maslou.
- c. E.Erikson.
- d. S.Xoll.

### **III bob. SHAXSNING IJTIMOIY BORLIQNI BILISHI. BILISH MEZONLARI VA ULARNING ADEKVATLIGI**

- 3.1. Bilish jarayonlari. Diqqat to‘g‘risida umumiy tushuncha, uning xossalari va turlari.
- 3.2. Sezgi turlari va ularning tasnifi.
- 3.3. Idrokning xossalari va qonuniyatlari.
- 3.4. Xotira jarayonlari, turlari va qonuniyatlari.

#### **3.1. Bilish jarayonlari. Diqqat to‘g‘risida umumiy tushuncha, uning xossalari va turlari**

Bizni o‘rab turgan voqelikdagi narsalar va hodisalarning sir-asrorlarini, o‘z-o‘zimizni anglab yetishimizni bilish jarayonlari ta’minlab beradi, ong tuzilmasi yaxlit bir butunlikni tashkil etsada, alohida jarayonlardan iborat bo‘ladi.

Bilish jarayonlari bir-biriga uzviy bog‘liq holda aks etadi, ularni bir-biridan ajratgan holda tasavvur qilishning o‘zi qiyin. Masalan, ko‘rib idrok qilib turgan narsangiz haqida fikr yuritmasangiz uning mohiyatini bilasizmi? Diqqat bilan tinglagan ma’lumotni eslab qolasiz, muammoli vaziyatni hal etishda, diqqat, idrok va xotira obrazlari, mantiqiy tafakkur hamda irodaviy harakatlar zarur bo‘ladi.

Hatto, tasodifan qo‘limizga sanchilib ketgan zirapchaga nisbatan javob reaksiysi ham og‘riq sezgilari va emotsiyalardan tashqari, zirapchaning bu yerda qanday paydo bo‘lganligini aniqlashga qaratilgan “nima uchun?”, “qanday?” kabi savollarga javob qaytarish uchun aqliy jarayonlarini keltirib chiqaradi.

Murakkab axborot-kommunikatsiya tizimi, yangi kompyuter texnologiyalari rivojlanib borayotgan hozirgi davrda odamning bilish

jarayonlari, psixik holatlari va alohida psixologik xususiyatlariga qiziqish yanada ortib bormoqda.

### **Diqqat to‘g‘risida umumiyl tushuncha**

Odamga bir vaqtning o‘zida bir qancha qo‘zg‘atuvchilar ta’sir etib turadi, lekin odamga ta’sir etayotgan bu narsa va hodisalarning hammasi bir xil aniqlikda aks ettirilmaydi hamda barchasi ongimizga qadar yetib bormaydi. Ulardan ayrimlari aniq yaqqol aks ettirilsa, boshqa birlari shunchaki juda xira tarzda aks etadi yoki umuman aks ettirilmaydi.

Bu esa ana shu odamga ta’sir etayotgan narsalar va hodisalarga diqqatning qay darajada qaratilishiga bog‘liqdir, diqqatimiz yo‘naltirilgan narsalar va hodisalar aniq va to‘la aks ettiriladi.

Diqqat tushunchasiga izoh berishda, olimlar tomonidan bir qator fikrlar bildirib o‘tilganligini ta’kidlash mumkin.

P.I.Ivanov “Diqqat - ongni bir nuqtaga to‘plab, muayyan bir obyektga faol tarzda qaratilishidir”, - degan fikrni bildiradi.

F.N.Dobrinin, N.V.Kuzmina, M.V.Gamezo, N.F.Gonobolinlarning fikriga ko‘ra, diqqatning vujudga kelishi, ongning bir nuqtaga to‘planishi va ong doirasining torayishini ko‘rsatadi.

E.B.Pirogovning ta’kidlashicha, diqqat individning hissiy, aqliy yoki harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini taqozo etadigan darajada ongning yo‘naltirilganligi hisoblanadi.

Odam ruhiy faoliyatining yo‘nalganligi va tanlovchanlik tabiat, diqqatning mohiyatini tashkil etadi. Diqqat bilish jarayonlaridan farq qilgan holda alohida mazmunga ega emas, u xuddi ruhiy jarayonlarning ichida va ulardan ajralmagan holatda namoyon bo‘ladi, bilish jarayonlarining kechish dinamikasini ifodalab beradi.

Diqqat inson faoliyatining barcha turlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning va ularni samaradorligini ta'minlovchi muhim shartlardan biridir.



Agar diqqat, bilish jarayonlarining aks ettirish jarayonida ishtirok etayotgan bo'lsa, uni jarayon sifatida e'tirof etamiz. Faoliyatni egallash, uni amalga oshirishdagi diqqatni esa, faoliyat deb baholaymiz.

Diqqat shunday muhim xususiyatki, u odamning turli-tuman faoliyatlarida albatta ishtirok etadi. Eng sodda faoliyat turlaridagi sa'y-harakatlardan tortib, eng murakkab hisoblangan aqliy faoliyatni ham diqqatning ishtirokisiz bajarish mutlaqo mumkin emas.

Diqqatning inson hayotidagi o'rni benihoya kattadir.

### **Diqqatning nerv-fiziologik asoslari**

Odamga har bir daqiqada ta'sir qilib turadigan qo'zg'atuvchilar turlicha reflekslarga sabab bo'ladi, chunki har qanday refleks organizmning tashqi ta'sirotga beradigan javob reaksiyasidir.

Rus fiziologi I.M.Sechenovning qarashlariga ko'ra, diqqat reflektor tabiatga ega. Ushbu g'oyani rivojlantirgan I.P.Pavlov quyidagi fikrni ilgari suradi: diqqat, maxsus oriyentirovka refleksi natijasida yuzaga keladigan optimal(maqbul) qo'zg'alish o'chog'i bilan uzviy aloqadordir.

Diqqatning nerv-fiziologik asosida oriyentirovka yoki tekshirish deb ataladigan maxsus refleks yotadi, ushbu refleksni akademik I.P.Pavlov maxsus ibora bilan «bu nima?» refleksi deb ham ataydi.

Ana shu refleks, odatda organizmga to'satdan biron bir yangi narsaning ta'siri yoki haddan tashqari kuchli ta'sirot orqali hosil bo'ladi. Orijentirovka yoki tekshirish refleksi diqqatning fiziologik asosi hisoblanadi, chunki bu refleks bosh miya yarim sharlarining po'stida kuchli qo'zg'alish jarayonidan iborat bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda har bir daqiqada organizmga turli

narsalarning ta'siridan hosil bo'lgan qo'zg'alishlarga nisbatan oriyentirovka yoki tekshirish refleksi ayni chog'da nisbatan kuchli (ya'ni optimal) qo'zg'alish manbaini yuzaga keltiradi.

Bosh miya yarim sharlarining po'stida paydo bo'ladigan kuchli qo'zg'alish manbai nisbatan uzoqroq saqlanib turadigan mustahkam qo'zg'alish bo'ladi. Ana shu nuqtayi nazardan akademik I.P.Pavlov "diqqatning fiziologik asosini bosh miya po'sti qismidagi optimal qo'zg'alish manbai tashkil qiladi", deb ta'kidlagan. Biz ushbu fikrning tasdig'ini akademik I.P.Pavlovning quyidagi so'zlaridan bilib olishimiz mumkin.

«Miya yarim sharlarining optimal qo'zg'alishga ega bo'lgan qismida – deydi I.P.Pavlov, – yangi shartli reflekslar osonlik bilan hosil bo'ladi va differensiallashuvlar muvaffaqiyatli ravishda amalga oshadi. Shunday qilib, optimal qo'zg'alishga ega bo'lgan joyni, ayni chog'dagi bosh miya yarim sharlarining ijodiy faoliyatga layoqatli qismi desa bo'ladi».

I.P.Pavlov tomonidan kashf etilgan nerv jarayonlarining induksiya qonuni, diqqatning fiziologik asoslarini tushunib olish uchun katta ahamiyatga egadir. Induksiya qonuniga muvofiq, bosh miya po'stining bir joyida maydonga kelgan qo'zg'alish jarayonlari bosh miya po'stining boshqa joylarida tormozlanish jarayonlarini yuzaga keltiradi.

Bosh miya po'stining ayrim bir joyida yuzaga kelgan tormozlanish jarayoni bosh miya po'stining boshqa joylarida kuchli qo'zg'alish jarayonlarini paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ayni shu paytda har bir soniyada miya po'stida qo'zg'alish jarayoni uchun optimal, ya'ni nihoyatda qulaylik bilan harakatlanuvchi biror bir kuchli qo'zg'alish manbai mavjud bo'ladi.

Diqqatning fiziologik mexanizmlarini tushuntirib berishda A.N.Uxtomskiying qo'shgan hissasi ham salmoqli bo'ldi. A.N.Uxtomskiy tomonidan ilgari surilgan dominantlik tamoyili ham, diqqatning fiziologik asoslarini aniqlash uchun katta ahamiyatga ega.

Dominantlik tamoyiliga muvofiq miyada qo‘zg‘alishning har doim ustun turadigan hukmron o‘chog‘i mavjud bo‘ladi, bu hukmron qo‘zg‘alish o‘chog‘i aynan shu damda miyaga ta’sir qilib, unda yuzaga kelayotgan hamma qo‘zg‘alishlarni qandaydir ravishda o‘ziga tortib oladi va buning natijasida boshqa qo‘zg‘alishlarga nisbatan uning hukmronligi yanada oshib boradi.

Nerv tizimi faoliyatining tabiatini qo‘zg‘alishning hukmron bo‘lishi yoki dominantning mavjudligi bilan asoslanadi.

### **Diqqat turlari**

Odam ayrim narsalarga o‘z diqqatini ongli ravishda o‘zi xohlab yo‘naltirsa, boshqa bir narsalar bizning diqqatimizni beixtiyor, ya’ni bizning xohishimizdan tashqari holda jalb qiladi.

Kishi psixik faoliyatining muayyan bir obyektga yo‘naltirilishi va to‘planishida ifodalanadigan diqqat quyidagi turlarga bo‘linadi:

- ixtiyorsiz diqqat;
- ixtiyoriy diqqat;
- ixtiyoriydan so‘nggi(muvofiqlashgan) diqqat.

Ixtiyorsiz diqqat deb, to‘satdan ta’sir qilgan biron bir kuchli qo‘zg‘atgich yoki muayyan bir sabab tufayli bizning xohishimizdan tashqari hosil bo‘ladigan diqqatga aytildi.

Odamning ko‘z o‘ngida paydo bo‘ladigan juda yorqin rangli vositalar, o‘zining tashqi ko‘rinishi jihatidan odatdagи narsalardan keskin farq qiluvchi yaltiroq narsalar, to‘satdan paydo bo‘lgan kuchli tovush, biror narsaning keskin harakati va shu kabilar ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiruvchi sabablar bo‘lishi mumkin. Masalan, dars mashg‘uloti paytida ko‘chadagi mashinaning keskin signal berishi, sirena tovushi, to‘satdan yuz bergen shovqin-suron hammaning diqqatini beixtiyor o‘ziga jalb qiladi.

Ixtiyorsiz diqqat odamning turli-tuman ehtiyojlari va qiziqishi bilan ham bevosita bog‘liqidir, shuning uchun ham, ba’zan qornimiz ochgan paytda

ovqatning mazali hidi diqqatmizni tezda o‘ziga tortib oladi yoki charchoq eltgan vaqtida yangragan yoqimli musiqa darhol butun diqqat-e’tiborimizni o‘ziga jalb qilib oladi.

Ixtiyorsiz diqqatning nerv-fiziologik asosini oriyentirovka yoki “bu nima?” refleksi tashkil etadi, chunki tevarak-atrofimizdagи narsa va hodisalarning salgina o‘zgarishi ham oriyentirovka refleksini yuzaga keltiradi, «nima gap?» degan ma’noda atrofimizga razm sola boshlaymiz.

Oldindan belgilangan, qat’iy bir maqsad asosida va ongli ravishda diqqatimizni ma’lum bir narsalar va hodisalarga qaratishimiz ixtiyoriy diqqat orqali amalga oshiriladi.

Odamning bajaradigan turli-tuman faoliyatları asosan ixtiyoriy diqqatning ishtiroki bilan amalga oshiriladi, shuning uchun barcha faoliyat turlari, ya’ni o‘yin, o‘qish va mehnat faoliyatlarida ixtiyoriy diqqatning roli juda kattadir. Ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz diqqatga nisbatan uzoq muddat mobaynida davom etadi, kishidan irodaviy zo‘r berish, ya’ni zarur bo‘lgan kuch-g‘ayrat sarf qilishni talab etadi.

Ixtiyoriy diqqatning nerv-fiziologik asosida, miya yarim sharlarining po‘sida vujudga keladigan optimal qo‘zg‘alish manbai bilan bir qatorda ikkinchi signallar tizimining faoliyati yotadi.

Ixtiyoriy diqqatning yuzaga kelishida insonga xos bo‘lgan nutq faoliyatining roli g‘oyat kattadir, chunki ko‘pchilik hollarda ta’lim va tarbiya jarayonida, mehnat faoliyati davomida nutq orqali turli vazifalar qo‘yish bilan ixtiyoriy diqqat ishga solinadi.

Shuni aytish lozimki, ixtiyoriy diqqat har doim ixtiyorsiz diqqat bilan almashinib turadi. Ixtiyoriy diqqat vaqtida odam tez charchaydi, chunki ixtiyoriy diqqat odamdan deyarli har doim iroda kuchini sarflashni talab etadi. Iroda kuchini sarflash orqali, ya’ni odam o‘zini majbur qilish orqali diqqatni safarbar qilishi odamni charchatadi.

Ixtiyorsiz diqqatda esa, irodaviy zo'r berish, uning kuchini ishga solish talab etilmaydi, shuning uchun ixtiyorsiz diqqatda odam charchamaydi.


Ta'lim va mehnat jarayonida ixtiyoriy diqqatning, vaqtiga bilan ixtiyorsiz diqqatga almashinib turishi yaxshi samara beradi.

Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatdan tashqari uning yana bir alohida turini, ya'ni ixtiyoriyidan so'nggi diqqatni ko'rsatib o'tish mumkin.

Bu tushuncha psixologiyaga N.F.Dobrinin tomonidan kiritilgan.

Agar maqsadga qaratilgan faoliyatda shaxs uchun diqqatning ixtiyoriy to'planganidagi kabi faqat faoliyat natijasi emas, balki uning mazmuni va jarayonning o'zi qiziqarli va ahamiyatli bo'lsa ixtiyoriyidan so'nggi diqqat deb tushunish mumkin. Bu holda faoliyat kishini shu qadar qiziqtirib yuboradiki, u diqqatni obyektga qaratish uchun irodaviy kuch sarflamasa ham bo'laveradi.

Masalan, talaba imtihonga tayyorlanish mobaynida qiyin kitobni qisqacha mazmunini yozib chiqar ekan, oldiniga o'zini diqqat-e'tiborli bo'lishga, chalg'imaslikka majbur qiladi, lekin keyinchalik u ishga shunday qiziqib ketishi mumkinki, oqibatda uni kitobdan chalg'itish qiyin bo'ladi.



**Diqqatning kuchi va barqarorligi.** Diqqatning kuchi va barqarorligi inson hayotida juda katta ahamiyatga ega, diqqatning kuchli va barqaror bo'lishi bir qancha sabablarga bog'liqdir. Birinchidan, diqqatimiz qaratilgan narsaning xususiyatlari, biz uchun ahamiyatiga, ikkinchidan, diqqatimiz qaratilgan narsa

bilan amalga oshiriladigan faoliyatlarimizga, uchinchidan, nerv tizimining ayrim xususiyatlariga bog‘liqdir. Diqqatning kuchi va barqarorligi albatta subyektiv, ya’ni odamning ayni chog‘dagi ruhiy holatiga ham bog‘liq bo‘ladi.

Masalan, bemor kishi yoki boshiga og‘ir tashvish tushgan odamning ruhiy ichki kechinmalari tufayli diqqatning kuchi va barqarorligi pasayadi.

**Diqqatning ko‘lami.** Kishilar o‘z diqqatining ko‘lami jihatidan ham bir-birlaridan farq qiladilar, ayrim odamlar diqqatining ko‘lami keng bo‘lsa, boshqa bir odamlar diqqatining ko‘lami torroq bo‘ladi. Diqqatning ko‘lami ayni bir vaqtida odamning idrokiga sig‘ishi mumkin bo‘lgan narsalar miqdori bilan belgilanadi. Idrok qilish jarayonida diqqatimiz qaratilgan narsalardan qanchasini ongimizga sig‘dira olishimiz diqqatning ko‘lamini tashkil etadi.

**Diqqatning bo‘linishi(taqsimlanishi).** Odamning diqqati bir vaqtning o‘zida faqat bir narsagagina emas, balki ikkita yoki uchta narsaga ham birdaniga qaratilishi mumkin, shunday paytlarda diqqatning bo‘linishi talab qilinadi.

Diqqatning bo‘linishi (taqsimlanishi) deganda, biz ayni bir vaqtida diqqatimizni ikki yoki undan ko‘proq narsaga qaratishimizga aytamiz, agar diqqatimiz bitta narsaga qaratilgan bo‘lsa, ya’ni diqqatimiz bir narsa ustida to‘plangan bo‘lsa, uni konsentratsiyalashgan (to‘plangan) diqqat deb yuritiladi.

Diqqatning bo‘linuvchanlik xususiyati hayotda juda katta ahamiyatga ega, chunki bir qancha mehnat turlari diqqatning bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lishlikni talab qiladi. Bunday xususiyat pedagoglar uchun ham juda zarur sanaladi. Masalan, tarbiyachi bolalar bilan biror bir mashg‘ulot yoki suhbat o‘tkazayotgan paytida, o‘z diqqatini bir necha narsalarga, ya’ni gapi rayotgan gapiga, fikrning mazmuniga, bolalarning qulq solib o‘tirishlariga va bundan so‘ng yana nimalar haqida gapirishga qarata olishi lozim.

**Diqqatning ko‘chishi.** Odamning diqqati har doim bir narsadan ikkinchi bir narsaga, bir faoliyatdan ikkinchisiga ko‘chib turadi, bu diqqatning ko‘chuvchanligi deb yuritiladi, ushbu xususiyat diqqatning bo‘lunuvchanlik xususiyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Yuqorida aytib o‘tganimizdek,

diqqatning ayni bir vaqtida birdaniga bir necha narsaga qaratilishi, ya’ni diqqatning bo‘linishi o‘z mohiyati jihatidan diqqatning bir narsadan ikkinchi narsaga juda tez ko‘chishidan iboratdir. Masalan, hikoya o‘qib berish mashg‘ulotida bolalar o‘z diqqatlarini hikoya eshitishdan surat ko‘rishga, undan so‘ng yana eshitishga bemalol ko‘chira olishlari kerak.

O‘quvchilar yoki talabalar o‘z diqqatlarini bir darsdan boshqa bir yangi darsga ko‘chira olishlari talab etiladi, aks holda o‘quvchilar o‘tgan dars ta’sirida bo‘lib, yangi darsning mazmunini sifatli o‘zlashtira olmaydilar.

Diqqat har doim ham bir narsadan ikkinchi narsaga, bir faoliyat turidan boshqa bir faoliyat turiga osonlik bilan ko‘chavermaydi. Ba’zan qiyinchiliklarga to‘g‘ri kelib qoladi, albatta buning o‘z sabablari bor. Masalan, bunday sabablardan biri – diqqatimiz ko‘chirilishi lozim bo‘lgan narsalar yoki harakatlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar mavjudligi sanaladi, ko‘chirilishi lozim bo‘lgan narsa va hodisalar o‘rtasida mazmuniy bog‘liqlik bo‘lsa, diqqatimiz osonlik bilan ko‘chadi.

Odamning qiziqishlari va ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lgan narsalarga ham diqqat yengillik bilan ko‘chadi.

Diqqatning yuqoridagi asosiy xususiyatlari, kishilarning turli-tuman faoliyatlarida ishtirok etadi, shuning uchun odam atrofidagi tashqi muhitga, undagi turli-tuman o‘zgarishlarga tez moslasha oladi.

### **3.2. Sezgi turlari va ularning tasnifi**

Bizni o‘rab turgan tashqi olamdagи narsa va hodisalarning ko‘plab belgi va xususiyatlari mavjud. Narsalar o‘zining rangi, ta’mi, hidi, qattiq yoki yumshoqligi, tekis yoki notekisligi, harorati kabi xossalari bilan farqlanib turadi, narsa va hodisalarning turli xil belgi va xususiyatlarini biz o‘z sezgi a’zolarimiz orqali ongimizda aks ettiramiz.

Tevalar-afrofimizdagi narsa va hodisalarning turli xil belgi hamda xususiyatlari, bizning sezgi a'zolarimizga doimiy ravishda ta'sir etib turadi, natijada bizda turli-tuman sezgilar hosil bo'ladi.

Yorug'lik nurlarining ko'zimizga ta'sir qilishi natijasida ko'rish sezgisi, har xil tezlik va kuchlanishdagi havo to'lqinlarining qulog'imizga ta'sir etishi natijasida eshitish sezgisi, nafas olish paytida havo bilan birga burun bo'shlig'iga kirgan har turli modda va zarrachalarining ta'siri natijasida hid biliш, biror narsani qo'limiz yoki badanimizga tegib ta'sir etishi natijasida teriktaktil sezgilar har doim hosil bo'ladi.

Tevalar-afrofimizdagi narsa va hodisalarning sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etishi natijasida, ularning ayrim belgi va xususiyatlarini miyamizda aks ettirilishi sezgi deb ataladi.

Sezgi bilish jarayonlari ichida oddiy psixik jarayon hisoblanib, tashqi olamdagи narsa va hodisalarni aks ettiradi. Tashqi olamdan kelayotgan qo'zg'atuvchilarining muayyan retseptorlarga bevosita ta'sir etishi orqali, ularning ayrim belgi va xususiyatlarni va organizmning ichki holatini aks ettiradi. Ma'lumki, insonda sezishning dastlabki bosqichi hissiy bilishdan boshlanib, keyinchalik u mantiqiy bilishga o'tadi.

Sezgi oddiy psixik jarayon bo'lsa ham, uning yuzaga kelishi o'z-o'zidan amalga oshmaydi, buning uchun dastlabki davrda:

- sezgi a'zolariga ta'sir etadigan narsa va hodisaning bo'lishi;
- sezuvchi apparat, ya'ni analizatorning mavjud bo'lishi talab etiladi.

Masalan, havo haroratining issiq yoki sovuqligi, jismning qattiq yoki yumshoqligi va boshqalarini sezamiz.

Sezgi va idrok o'zaro yaqin, bir-biriga bog'liq jarayonlardir, lekin narsa va hodisani idrok qilishdan oldin uni sezish lozim, shu boisdan sezgilar moddiy olamning sezgi a'zolarimizga ta'siri natijasidir.

Sezgilar, har bir soniyada axborotlar oqimini qabul qiladi va qayta ishlab miyaga yetkazib beradi, shu sababli odam tevarak-atrofdagi tashqi olamni va o‘z ichki holatini adekvat (o‘zaro mos) tarzda aks ettira oladi.

Sezgi a’zolari tashqi olamdagи narsa va hodisalarni inson ongiga yetkazib beradigan asosiy yo‘llardan biridir.

### **Sezgilarning nerv – fiziologik asoslari**

Sezgilar faqatgina tashqi ta’sirlar natijasida hosil bo‘lmay, balki organizmning ichki holatida ham amalga oshiriladi. Sezgi nerv tizimining u yoki bu qo‘zg‘atuvchidan ta’sirlanuvchi reaksiyalari tarzida hosil bo‘ladi va har qanday psixik hodisa kabi reflektorlik xususiyatiga egadir.

Sezgilarning nerv - fiziologik asosini, qo‘zg‘atuvchining o‘ziga aynan mos keladigan analizatorga ta’siri natijasida hosil bo‘ladigan nerv jarayoni tashkil etadi, akademik I.P.Pavlovning ko‘rsatishicha, sezgilarning nerv-fiziologik asosida analizator apparati yotadi.

**Analizator** – tashqi va ichki muhitdan keladigan ta’sirotlarni qabul qilib olib, fiziologik jarayon bo‘lgan qo‘zg‘alishni psixik jarayonga, ya’ni sezgilarga aylantiruvchi nerv yo‘llari tizimi hisoblanadi.

Analizator apparati uch qismdan tashkil topgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- periferik (retseptor) – tashqi quvvatni nerv jarayoniga o‘tkazadigan maxsus transformator qismi;
- analizatorning periferik bo‘limining markaziy analizator bilan bog‘laydigan yo‘llarni ochadigan afferent (markazga intiluvchi) va efferent (markazdan qochuvchi) nervlar;
- analizatorning periferik bo‘limlaridan keladigan nerv signallarining qayta ishlanishi sodir bo‘ladigan qobiq osti va qobiq bo‘limlari.

Analizatorning qobiq bo‘limida retseptor hujayralarining asosiy qismi jamlangan o‘zak, ya’ni markaziy qism va qobiqning turli joylarida ma’lum miqdorda mavjud tarqoq hujayra qismlaridan tarkib topgan tashqi qism bo‘ladi.

Analizatorning o‘zak qismida retseptordan markazga intiluvchi nervlar joylashgan bo‘lib, ko‘plab hujayralardan iborat bo‘ladi, ushbu qism analiz va sintez qilish funksiyasini bajaradi.

Analizator nerv jarayonlarining yoxud reflektor yoyining butun yo‘lining asosiy manbasi va eng muhim qismini tashkil etadi.

Reflektor yoyi retseptordan ta’sirotni miyaga olib boruvchi nerv yo‘llari va effektordan tarkib topgan bo‘ladi.

### **Sezgilarning tasnifi**

Sezgilar qaysi a’zolar yordamida hosil qilinishiga qarab, quyidagi turlarga, ya’ni ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta’m bilish, teri, muskul–harakat, organik sezgilarga ajratiladi. Ular sezgi a’zolari qayerda joylashganligiga qarab tavsiflanadi.

Jahon psixologiyasi fanining so‘nggi yutuqlari asosida sezgilarni turli shakllarda tasniflash mumkin. Sezgilar tasnifining dastlabki ko‘rinishi ingliz olimi Ch.Sherringtonga tegishli bo‘lib, u retseptorning qayerda joylashganligiga qarab, sezgilarni uchta turga bo‘ladi.

1. Tashqi muhitdagi narsa va hodisalarining belgi va xususiyatlarini aks ettirishga qaratilgan, retseptorlari tananing sirtqi qismida joylashgan sezgilar, ya’ni **eksteroseptiv** sezgilar.

2. Odamdagi ichki tana a’zolarining fiziologik holatlarini aks ettiruvchi hamda retseptorlari ichki tana a’zolarida, to‘qimalarda joylashgan sezgilar, ya’ni **interoseptiv** sezgilar.

3. Odam tanasi va gavdasining holati, uning harakatlari haqida ma’lumot (axborot, xabar) beruvchi, muskullarda, bog‘lovchi paylarda, mushaklarda joylashgan sezgilar, ya’ni **propriozeptiv** sezgilar.

Interotseptiv sezgilar insonning tashqi ko‘rinishi, kayfiyati va emotsiyal reaksiyalari orqali ko‘zga tashlanadi, ilk yoshdagi bolalarda esa xattiharakatning keskin o‘zgarishiga sabab bo‘ladi, chunki bolada tana a’zolarining ichki holatini anglash imkoniyati hali to‘la shakllanmagan.

Interotseptiv sezgilar organizmdagi ichki jarayonlarni o‘zaro o‘rin almashtirish muvozanatini ta’minlab turishning asosi hisoblanadi. Bu jarayonni bir so‘z bilan aytganda, organizmdagi jarayonlarning o‘zaro o‘rin almashib turishi, ya’ni gomeostaz (barqarorlik) deb ataladi.

Shuningdek, mazkur sezgilar insonda yuzaga keladigan tomir urishi, jismoniy va psixik zo‘riqishlar haqida axborot berib, irsiy, insinkтив mayllarni qondirish bilan bog‘liq vazifani ham bajaradi.

Interotseptiv sezgilarning fiziologik mexanizmlari K.M.Bikov, V.N.Chernigovskiylar tomonidan atroficha o‘rganilgan bo‘lib, ularning fikriga ko‘ra, bu shartli reflektor faoliyatidan kelib chiqadi

Propriotseptiv sezgilar gavdaning fazodagi holati to‘g‘risida signallar bilan ta’minlab turadi, ular inson tana harakatining boshqaruvchisi hisoblanadi va uning afferent asosini tashkil qiladi.

Periferik retseptorlar muskullar, pay va bo‘g‘imlarda joylashgan bo‘lib, maxsus tanachalar shakliga ega bo‘ladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, gavdaning fazodagi holati, sezgirligi statik sezgilarda ham o‘z ifodasini topadi.

Uchta katta guruhgaga bo‘lingan (ekstrotseptiv, propriotseptiv, interotseptiv) sezgilarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- ko‘rish sezgilari;
- eshitish sezgilari;
- hid bilish sezgilari;
- ta’m bilish sezgilari;
- teri sezgilari;
- muskul – harakat (kinestetik) sezgilar;
- statik(tayanch-harakat) sezgilar;

- organik sezgilar.

### Ko‘rish sezgilarি

Odamlar tomonidan rang va yorug‘likni sezish, ko‘rish sezgilarini orqali amalga oshiriladi va ranglar **xromatik** va **axromatik** turlarga bo‘linadi. Psixofiziologik qonunga ko‘ra, yorug‘lik nurlari uchburchak shisha prizma orqali o‘tib singanda hosil bo‘ladigan ranglar **xromatik ranglar** deb atalib, ular kamalak ranglari jilosini, ya’ni qizil, zarg‘aldoq, sariq, yashil, havo rang, ko‘k, binafsha ranglarni qamrab oladi.

Oq rang, qora rang, kulrang va ularning turlicha ko‘rinishlari **axromatik ranglar** deb nomlanadi.

Hozirgi zamon psixologiya fanida odamning yorug‘lik va ranglarni sezishi, faqat to‘r pardasidagi fiziologik jarayonlar bilangina emas, balki bosh miya po‘stida yuzaga keladigan boshqa psixik jarayonlar bilan ham uzviy ravishda bog‘liq ekanligi to‘g‘risida ma’lumotlar paydo bo‘ldi.

Zamonaviy ma’lumotlarga binoan tayoqchalarda ko‘rish purpuri degan maxsus modda borligi isbotlangan. Ko‘zga yorug‘lik ta’siri etganda ko‘rish purpuri kimyoviy yo‘l bilan parchalanib, tarkibiy qismlarga bo‘linadi va mazkur jarayon ko‘rish nervini qo‘zg‘atib, yorug‘lik sezgisini hosil qiladi, qorong‘ulikda esa purpur o‘zining funksional holatini qayta tiklaydi.

### Eshitish sezgilarи

Eshitish sezgilarini tovushlarni eshitishdan iborat bo‘lib, musiqa ohangiga monand hamda shovqin-suronli tovushlarni aks ettiradi. Odatda, tovushlar oddiy va murakkab turlarga ajratiladi, ularning dastlabkisi bir tonli, ikkinchisi esa bir necha tondan tashkil topadi.

Tonlardan biri asosiy ton hisoblanib, u tovushning balandigini, kuchini belgilaydi, boshqalari keluvchi tovushlar sanalib, ular obertonlar deb nomlanadi. Musiqa asboblaridan taralayotgan tovushlarning o‘ziga xosligi musiqa fani tilida

tembr deb ataladi. Hatto nutq tovushlari ham ohangli tovushlar (unli tovushlar) yoki jarangli va jarangsiz undosh tovushlardan tashkil topgan bo‘ladi.

Odamning eshitish organi bir soniyada 16 martadan 20000 martagacha tebranishli tovushlarni qabul qila oladi.

### **Hid bilish sezgilar**

Hid bilish sezgilar, tevarak-atrofdan taralayotgan turli-tuman hidlarni aks ettirib beradi, ularning asosiy organi burun kavagining yuqori qismi hisoblanib, bu yerda hid bilish hujayralari hamda sezuvchi nerv tarmoqlari joylashgan va ular shilliq pardalarga qoplangan bo‘ladi.

Hidli moddalar sezuvchi nervni qo‘zg‘aydi. Hid bilish markazi bosh miya yarim sharlari orqa yuzasining pastki qismida mavjud deb taxmin qilinadi. Hidli moddalar hid bilish hujayralariga gaz holatida ta’sir etib, kimyoviy reaksiyalar yo‘li bilan ularni qo‘zg‘atadi.

Oddiy gaz holatidagi hidli moddalar, havo bilan nafas olish jarayonida burun bo‘shlig‘iga kirib keladi va hid bilish sezgisi yuzaga keladi, natijada aks ettirish holati sodir bo‘ladi.

### **Ta’m bilish sezgilar**

Ta’m bilish sezgilar shirin, achchiq, nordon, sho‘rang singari belgilarni sezish holatlari orqali tavsiflanadi.

Ta’m bilish sezgilarining asosiy organi til bo‘lib, tilning yuzasi va tanglayning yumshoq qismidan tashkil topgan. Tilning shilliq pardasida maxsus ta’m bilish so‘rg‘ichlari mavjud bo‘lib, ularning tarkibi tayoqchasimon hujayralardan tuzilgan maxsus ta’m bilish “kurtaklari”ga ega.

Ta’m bilish so‘rg‘ichlari til yuzasida bir tekis taqsimlanmaganligi sababli, uning orqa qismi achchiqni, uchi shirin ta’mni, chetlari esa nordon mazani sezadi. Ta’m bilish so‘rg‘ichlarining hujayrali qismlarida maxsus sezuvchi

nervlarning chekka uchlari joylashgan, ular ta'm bilish organidagi qo'zg'alishni bosh miyaga uzatib turadi va ta'mni sezish hosil bo'ladi.

### **Teri sezgilari**

Teri sezgilari tarkibida tuyish va harorat turlari mavjud bo'lib, ularning bunday nomlanishi retseptorlarning tarkibi va organizmning tashqi shilliq pardalarida joylashganligidan dalolat beradi.

Tuyish sezgilari ikki xil axborotni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lib, birinchisi tanadagi teri yuzasiga tegish va tarqalishni tuyish sezgilari, ikkinchisi esa narsalarning silliqligi yoki g'adir-budurni tuyish bilan tavsiflanadi. Odatda tana a'zosiga narsalarning tegishini sezish tashqi qo'zg'atuvchi kuchayganda siqiq sezgiga aylanadi, u yanada kuchayib borganda esa og'riq sezgisiga aylanadi.

Tuyish sezgilari organi teridagi va tashqi shilliq pardalardagi tuyish tanachalaridan iborat bo'ladi. Tanachalarning ichki qismida va qisman tashqarisida tuyish nervining chekka tarmoqlari mavjud bo'lib, ular terida va shilliq pardalarda bir tekis taqsimlangan bo'ladi, barmoqlarning uchlarida, til uchida va lab qismida ular juda zich joylashgan, xuddi shu boisdan ularning sezgirlik darajasi boshqalarga qaraganda kuchli bo'ladi.

Tuyish sezgilarining sezgirlik darajasini aniqlashda esteziometr asbobidan foydalanish mumkin.

Tuyish sezgilarining markazi bosh miya po'stining orqadagi markaziy nuqtasida joylashgan deb taxmin qilinadi, tuyish sezgilarining tashqi, fizik sababi biron-bir narsaning teriga bevosita tegishi hisoblanadi.

### **Muskul – harakat sezgilari, statik sezgilar**

Muskul-harakat sezgilariga og'irlilik kuchi, qarshilik, odam tana organlarining harakatini bilish(his qilish) sezgilari kiradi.

Ular odam tanasining turli-tuman organlaridagi – muskullar, paylar, mushaklar va bo‘g‘imlardan iborat bo‘ladi.

Tana a’zolari tarkibida sezuvchi nervlarning chekka tarmoqlari mavjud bo‘lib, ular ta’sirida harakat va statik sezgilar vujudga keladi.

Muskul – harakat sezgilarining fizikaviy sababi, muskullarga ta’sir etuvchi narsalarning mexanik kuchi va gavda harakatlaridir.

Statik sezgilar, odam gavdasining fazodagi tayanch holatini sezish va uning muvozanatini saqlash sezgilari deb ham ataladi.

### **Organik sezgilar**

Organik sezgilarning retseptorlari, qizilo‘ngach, me’da, ichak, qon tomirlari, o‘pka va shu kabi ichki organlarda joylashgan bo‘ladi.

Ichki organlarda yuz beradigan fiziologik jarayonlar organik sezgilarga xos retseptorlarning qo‘zg‘atuvchilari hisoblanishadi.

Organik sezgilarga quyidagilar kiradi:

- og‘riq sezgilar;
- chanqoq sezgilar;
- noxush tuyg‘ular;
- ochlikni sezish.

### **3.3. Idrokning xossalari va qonuniyatları**

**Idrok haqida tushuncha.** Idrok sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik-bilish jarayoni bo‘lib, idrok - ruhiy holatlar, xususiyatlar, xossalari va egallangan bilimlar, tajribalar, ko‘nikmalarni bir vaqtning o‘zida aks ettirishda ishtirok etadi. Idrok birmuncha murakkabroq, to‘laroq aks ettirish jarayoni bo‘lib, sezgi a’zolarimizga ta’sir etib turgan narsa va hodisalarini butunligicha, ya’ni yaxlit holda aks ettirishdan iboratdir.

Masalan, olmani ko‘rgan paytimizda uning shakli, rangi, ta’mi, hidi va navi bilan birgalikda bir butun narsa(meva) tarzida idrok etamiz, idrok qilish jarayonida deyarli barcha sezgilarimiz ishtirok etadi.

Tevarak-atrofimizdagи narsa va hodisalarining obrazlarini ongimizda **bir butun, yaxlit holda aks ettirishimiz idrok** deb ataladi.

Biz narsa va hodisalarining ayrim belgi va xususiyatlarini sezamiz, bir butun holda idrok qila olamiz. Idrok qo‘zg‘atuvchilarning ayrim xususiyatlarini aks ettiruvchi sezgilardan farq qilib, narsani bir butunligicha, uning hamma xususiyatlari bilan birgalikda aks ettiriladi, biroq idrok ayrim sezgilarning oddiy yig‘indisidan iboratdir, degan xulosa chiqarib bo‘lmaydi.

Idrok o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lgan hissiy bilishning, sifat jihatidan yangi, yuqoriq bosqichi sanaladi.

Idrokning muhim xususiyatlaridan biri – bu faol ravishda **bevosita aks ettirish** imkoniyatining mavjudligidir. Odatda insonning idrok qilish (perseptiv) faoliyati, uning o‘zlashtirgan bilimlari, to‘plagan tajribalari, shuningdek, murakkab analitik-sintetik harakatlari tizimi zamirida yuzaga keladi.

Idrok jarayonida deyarli barcha sezgilarimiz ishtirok etsa ham, idrok sezgilarimizning oddiy yig‘indisidan iborat deb bo‘lmaydi.

Idrok jarayonida turli sezgilarimizdan tashqari, odamning shu paytgacha orttirilgan **turmush tajribasi** ham ishtirok etadi. Odam o‘z turmush tajribasida juda ko‘p narsa va hodisalarni takror-takror idrok qilgani tufayli odamning idroki anglanigan harakatlarga egadir.

Idrok jarayoni shunchaki oddiy aks ettirishdan iborat emas. Idrok jarayonida odamning diqqati, xotirasi, tafakkuri, xayoli, hissiyoti va irodasi ishtirok etadi, biz o‘z diqqatmizni qaratganimizdagina, narsa va hodisalarni aniq idrok eta olamiz. Idrokda har doim **tanish jarayoni** ishtirok etadi.

Mashhur rus fiziologi I.M.Sechenovning ta’kidlashicha, odam hozirgi idrokidan hosil bo‘lgan obrazlarni, oldin idrokida paydo bo‘lgan va xotirasida saqlanib qolgan obrazlar bilan taqqoslab ko‘radi. Agar hozirgi idrokdan hosil

bo‘lgan obraz ilgari xuddi shu narsani idrok qilishdan vujudga keltirilgan obrazga to‘la mos kelsa, ayni choqda idrok qilayotgan narsasini taniydi.

Idrok jarayonida nutq va tafakkur qatnashadi, biror narsa yoki hodisani idrok qilayotganimizda, narsalarning nomini atash bilan idrokimizning mazmunini ravshanlashtiramiz. Agar idrok jarayonida narsalarning nomini atay olmasak, ya’ni idrok qilayotgan narsalar bizga notanish qandaydir yangi narsalar bo‘lsa, unday paytda idrok jarayonidagi tafakkur faollashib ketadi. Odam idrok qilayotgan narsasi nima ekanligi haqida o‘ylay boshlaydi.

Idrok jarayonida xayolning qatnashishi shunda ko‘rinadiki, odam o‘zidan nimadir narsalarni qo‘shib, idrok qilayotgan narsasidan hosil bo‘lgan obrazning mazmunini birmuncha kengaytiradi. Masalan, osmondagи bulutlarga qarab, ularning shaklini nimalargadir o‘xshatish mumkin. Idrok jarayonida xayolning ishtirok qilishi, xususan, bolalarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Idrok jarayonida his-tuyg‘ularning ishtirok etishi, idrok qilayotgan narsa yoki hodisalarga nisbatan yuzaga keladigan munosabatlarimizda aks etadi.

Odam idrok qilayotgan hamma narsalarga nisbatan bir xilda munosabatda bo‘lmaydi, agar u ilgari biron bir narsa yoki hodisani idrok qilayotgan paytda qattiq xafa bo‘lgan, kayfiyati buzilgan bo‘lsa, ikkinchi marta idrok qilganda ham o‘sha hissiy kechinmalar yana paydo bo‘lishi mumkin.

Odam qattiq qo‘rquv hissini boshdan kechirayotgan paytda ham, idroki yanglish bo‘ladi, ya’ni kuchli hissiy holat ta’sirida ayrim narsalar boshqacha bo‘lib ko‘rinadi: Masalan, tunda qorong‘i ko‘chada qo‘rqib kelayotgan odamga ro‘parasidagi to‘nka, poylab o‘tirgan odamga o‘xshab ko‘rinadi, "Qo‘rqqanga qo‘sha ko‘rinar" degan xalq maqoli bejiz aytilmagan. Odamning kayfiyati chog‘, xursand paytida, idrok qilayotgan narsalari chiroyli va yoqimli bo‘lib tuyuladi.

Ma’lumki, idrok sezgi a’zolari asosida vujudga keladi. Har bir idrok jarayonida bir necha sezgi a’zosi ishtirok etadi, lekin ulardan biri eng muhim o‘rinda turadi. Masalan, suratni idrok qilishda ko‘rish organi, musiqa va nutqni idrok qilishda eshitish organi yetakchilik qiladi. Idrok jarayonida qaysi sezgi

a'zosining yetakchilik o'rniga qarab, idrokni bir necha turlarga ajratish mumkin: ko'rish idroki, eshitish idroki, hid bilish idroki, ta'm bilish idroki va boshqalar. Bundan tashqari idrokning aralash turi ham mavjud bo'lib, bunda bir necha analizatorlar birgalikda ishtirok etadi. Tevarak -atrofdagi narsa va hodisalar bir-biriga bog'liq bo'lib, ular muayyan makonda va ma'lum vaqtida sodir bo'ladi.

Idrokning murakkabligi quyidagilarda ifodalanadi:

- ✓ Har bir idrok tarkibiga ayni vaqtida bir necha sezgilar kiradi. Masalan, qovunni idrok qilishda sezgilar ishtirok etadi, qovunning shakli va rangini aks ettiruvchi ko'rish sezgisi, hidini aks ettiruvchi hid bilish sezgisi, mazasini aks ettiruvchi ta'm bilish sezgisi va boshqalar. Ular ishtirokida narsaning barcha xossalari bir butun holda aks ettiriladi, bu esa idrokning pertseptiv tomonini tashkil qiladi.
- ✓ Har bir idrok tarkibiga kishining o'tmishda olgan bilim, ko'nikma va malakalari va hosil qilingan tajribalari kiradi.

### **Idrokning xossalari**



**Kuzatish va kuzatuvchanlik.** Idrokning o'ziga xos juda muhim xususiyatlaridan yana biri kuzatuvchanlidir, umuman olganda idrok jarayoni kuzatish va kuzatuvchanlik bilan uzviy bog'liq hisoblanadi.

Kuzatishning muvaffaqiyati oldindan qo'yiladigan tayyorgarlikka, kishining bilim va tajribalariga, diqqatining kuchiga va fikrlash faolligiga bog'liq.

Kishining tizimli ixtiyoriy idrok qilish qobiliyati **kuzatuvchanlik** deyiladi, kuzatuvchanlik shaxsning shunday xislatidirki, bunda u narsa va hodisalarining unchalik sezilmaydigan muhim xarakterli xususiyatlarini payqay oladi.

**Idrokda figura va fon.** Odam nimani idrok qilsa, uni **figura va fonda** aks ettiradi. **Figura** – shunday narsaki, uni anglash, ajratish, ko'rish, eshitish va tuyish mumkin. **Fon** esa aksincha, noaniqroq, umumiyoq narsa bo'lib, aniq obyektni

ajratib olishga yordam beradi. Idrok qilinayotgan figura, uni o‘rab turganlarga nisbatan **obyekt** hisoblanib, obyektning atrofdagilari esa **fon** deyiladi.



Juda ko‘p hollarda obyektni fondan tez va aniq ajratib olish uchun uni alohida rang, shakl va belgilar bilan ta’kidlab qo‘yiladi.


Masalan, transport vositalaridan taksilar sariq rangda bo‘lib, yo‘l xizmati xodimlari va temir yo‘l ishchilari to‘q sariq rangli maxsus kiyim kiyadilar. Idrokning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri idrok jarayoniga butun psixik hayot mazmunining (ya’ni butun ma’naviy boyligining) ta’sir etishidir. Yuqorida aytilganidek, idrok jarayoni odamning turmush tajribasi bilan bog‘liq ekan, binobarin, idrok jarayoniga bilim boyligi odamning ishonch, e’tiqodlari, dunyoqarashi, qiziqish va ehtiyojlari hamda kasbi ta’sir qiladi.



Psixologiyada odamning yoshi, bilimi, kasbi va hayot tajribalarining idrok jarayoniga ta’sir etishi appersepsiya deb yuritiladi.

**Appersepsiya** – idrok jarayonini shaxsning oldingi bilimlari, shaxsiy va ijtimoiy tajribalari, qiziqishlari, motivatsiyasi, ehtiyojlari va odatlari, umuman ruhiy hayotining mazmuni bilan belgilanishidir.

Appersepsiya hodisasi tufayli odamlar, bir-birlaridan muayyan darajada tafovutlanadilar, ya’ni ular aynan bir xil narsani o‘zining bilimi, saviyasi, nuqtayi nazari, dunyoqarashi va ijtimoiy kelib chiqishiga asoslangan holda turlicha idrok qiladilar hamda aks ettiradilar.



Masalan, daladagi gullab turgan paxtani oddiy bir talaba bilan tajribali agronom idrok qiladigan bo‘lsa, albatta, ularning idroklari, ya’ni pax-tani aks ettirishlarida juda katta farq mavjuddir. Talaba paxtani, oddiy bir paxta o‘simgili sifatida idrok etsa, agronom paxtaning qanday navi, taraqqiyotning qaysi bosqichda ekanligi, taxminan qancha hosil

berishi va shu kabilar bilan birga chuqur hamda to‘la idrok etadi.

**Appersepsiya** tushunchasi ba’zi hollarda idrokning aniqligi, to‘liqligi, ravshanligi, predmetliligi, tanlovchanlik kabi sifatlarning ma’nosи o‘rnida qo‘llanilgan. Appersepsiya hodisasi barqaror va vaqtincha (muvaqqat) deb yuritiluvchi ikki turga ajratiladi.

Barqaror appersepsiya hodisasi shaxsning dunyoqarashi, qat’iy maslagi, motivatsiyasi, qiziqishi, bilim saviyasi, madaniy darajasi, xulq-atvori, ma’naviyati va kasbiy tayyorgarligiga bog‘liq bo‘lib, u o‘ta murakkab tuzilishga egadir.

Muvaqqat (vaqtincha) appersepsiya turi esa shaxsning faqat idrok qilish jarayonidagi emotSIONAL holati, ya’ni uning kayfiyati, shijoati, stress, affekt ko‘rinishidagi hissiy kechinmalarida o‘z ifodasini topadi.

Idrok xususiyatining yana bir o‘ziga xos xususiyati uning konstantlidir. Idrokning **konstantligi** deganda biz, idrok qilishdan ongimizda hosil bo‘lgan obrazning real voqelikdagi bizga ta’sir etib turgan narsaning tabiiy holatiga har jihatdan mos bo‘lishini tushunamiz. Ma’lumki, narsalarning hajmi (katta yoki

kichikligi) shu narsalarni qanday masofadan (uzoqdan yoki yaqindan) idrok qilayotganimizga qarab o‘zgarib turadi.

Ko‘rishda masofa, rang, shakl, hajm konstantliklari ro‘y beradi. Qalamni 20 va 1sm masofadan idrok qilish, doskani 1 va 10 m masofadan idrok qilish, oq qog‘oz yoki quyoshda, xona ichida, koridorda ham oq idrok qilinadi.

Konstantlik hodisasida, obyektning doimiyligi va o‘zgarmasligi aks etadi, ular haqiqatan qanday mavjud bo‘lsa, shunday ko‘radi. Bu kishining turmush tajribasi, turli-tuman faoliyati davomida shakllanadi.

**Illyuziyalar.** Idrok jarayonining navbatdagi yana bir o‘ziga xos xususiyati, idrok qilishda ba’zan yuz beradigan illyuziya hodisasidir. **Illyuziya** – bizga ta’sir qilayotgan narsalarni yanglish idrok qilish demakdir. Odatda ikki xil illyuziya farqlanadi:

- a) obyektiv illyuziya;
- b) subyektiv illyuziya.

**Obyektiv illyuziya** – hamma odamlar uchun umumiy xarakterga ega bo‘lib, uni geometrik illyuziya deb ham yuritiladi. Obyektiv illyuziya biz idrok qilayotgan narsalarning o‘zaro bir-biriga ta’siri tufayli yuz beradi. Illyuziyaning bu turi har xil geometrik shakllarni idrok qilishda juda yaqqol ko‘rinadi.



Masalan, uzunligi baravar bo‘lgan ikkita gorizontal to‘g‘ri chiziq chizilsa, bu chiziqlarning uchlariga tashqariga qaratilgan va ichkariga qaratilgan chiziq kattaroq bo‘lib ko‘rinadi. Idrok jarayonida yuz beradigan illyuziyaning bu turiga juda ko‘plab misol keltirish mumkin.

**Subyektiv illyuziyalar** odamning ayni chog‘dagi hissiy holati bilan bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, odamning hissiy holatida ro‘y beradigan o‘zgarishlar idrok jarayoniga ta’sir qiladi.

Masalan, yuqorida aytib o‘tilganidek, odam kechasi yolg‘iz ko‘chada qo‘rqib ketayotgan bo‘lsa, har bir sharpa uning qo‘rquv hissini kuchaytirib yuboradi, natijada uning ro‘parasidan chiqib qolgan butalgan daraxt qandaydir dahshatli mavjudotga o‘xshab ko‘rinadi.

**“Jonli doiralar” illyuziyasi.** Katta va kichik doiralar chizilgan rasmlar aylanmaydi, lekin kitobni qo‘lga olib, uni o‘ngdan chapga yoki chapdan o‘ngga bir necha soniya aylantirsak, doiralar go‘yo aylanayotgandek tuyuladi.

Hayotda keng tarqalgan har xil ins-jins, devlar, ajinalar va shu kabi nojins narsalar haqidagi ko‘plab gaplar kuchli qo‘rqinch hissi, vahimaga berilish ta’sirida noto‘g‘ri idrok qilish, ya’ni subyektiv illyuziya tufayli vujudga



kelgandir.

### Gallyutinatsiya

Voqelikdagi narsa va hodisalarning tana a’zolarini qabul qilish analizatorlarga bevosita ta’sir etmasdan inson ongida turli obrazlarning (ovozlarning eshitilishi, sharpalarning sezilishi) xayolan, fikran paydo bo‘lishidan iborat idrokning psixopatologik (ruhiy xastalik) hodisasiga **gallyutsinatsiya** deyiladi. Gallyutsinatsiya hodisasi muvaqqat ruhiy xastalikning alomati, ba’zan qo‘rqinch hissi mahsuli hisoblanib, bosh miya katta yarim sharlari qobig‘idagi qo‘zg‘alish jarayonlarining nuqsonli sust (patologik) harakati natijasida, asab tizimining zararlanishi, zaiflashuvi, haddan tashqari toliqishi tufayli yuzaga kelishi mumkin. Gallyutsinatsiya hodisasi bir necha xil ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin: a ) yo‘q narsalarning ko‘zga ko‘rinishi; b) turli tovushlarning eshitilishi;

d) sharpalar va o‘tkir hidlarning sezilishi kabilar.

Gallyutsinatsiya hodisasi, ko‘pincha kuchli isitma, alahsirash, bezovtalik va xavotirlanish hissi, hayajondan darak beruvchi alomatlarda ifodalananadi, asab tizimidagi buzilishlar oqibatida ro‘y berishi mumkin.

### **Idrok etilayotgan obyektning figura va fonda aks etishiga misollar:**




Agar diqqat bilan rasmning qora rangli shakliga qarasak, chunki eng avval ana shu shakl ko‘zga tashlanadi, zero, u oq fonga nisbatan hajman kichikroq, unda saksofon musiqiy asbobini chalayotgan kishining tasvirini ko‘ramiz. Agar diqqatimizni shaklga nisbatan hajman kattaroq bo‘lgan oq fonga qaratsak, rasmda bizga qarab turgan ayol yuzini ko‘rishimiz mumkin.

Ushbu rasmda ham avvalgi rasmda bo‘lgani kabi ikki kishi tasvirlangan. Biri – yosh ayol. Uni biz rasmning oq foniga e’tibor berib ko‘rishimiz mumkin. Ikkinchisi – keksa ayol. Uni esa qora shakllarga qarab payqay olamiz.



Ushbu rasmda psixologiyada juda mashhur bo‘lgan tasvirlardan biri ifodalangan. Uning siri oddiy. Agar diqqatimiz markazidagi oq rangli shaklga qaratilsa, kimdir ajoyib guldanni, yana ba’zilar oddiy ko‘zani ko‘rishi mumkin. Bordi-yu, diqqatimiz qora fonga qaratilsa, u yerda biz bir-biriga tikilib turgan ikki kishining yuzini ko‘ramiz.



### **Idrok etish qonuniyatları**

Idrok jarayonining xossalardan kelib chiqqan holda, professor V.Karimova o‘zining “Psixologiya” o‘quv qo‘llanmasida idrok etishning bir nechta qonuniyatlarini ko‘rsatib o‘tadi va alohida tavsif beradi.

•**Figura va fonning ilgarigi harakatga bog‘liqligi qonuni.** Bu qonunning ma’nosи: odam ilgarigi tajribasida bo‘lgan, bevosita to‘qnash kelgan narsalarini idrok qilishga moyil bo‘ladi. Agar biror predmetni u ilgari figura sifatida idrok qilgan bo‘lsa, demak, keyingi safar ham uni aynan figuraday idrok qiladi, agar fon sifatida idrok etgan bo‘lgan bo‘lsa, tabiiyki fonday qabul qiladi.

•**Idrokning konstantliliги qonuni.** Bu qonun ma’lum ma’noda oldingisiga bog‘liq, ya’ni bunda ham ilgarigi tajriba katta rol o‘ynaydi. Ma’nosи: odam o‘ziga tanish bo‘lgan narsalarni o‘sha xossa va xususiyatlari bilan o‘zgarishsiz idrok qilishga moyildir. Masalan, samolyot ichida o‘tirib yerga qaraganmisiz? Avtomobil yo‘llari, ularda harakat qilayotgan mashinalar kichkina ko‘rinadi, lekin biz ularni hozir kichrayib qolgan, deb idrok qilmaymiz. Aslida ko‘z qorachig‘imizdagи aks kichkina bo‘lsa-da, ularni o‘zimiz «to‘g‘rilab» alohida predmetlar sifatida idrok qilaveramiz.

•**Kutishlar va taxminlarning idrokka ta’siri.** Ko‘pincha bizning idrokimiz ayni paytda biz nimalarni kutayotganimizga bog‘liq bo‘lib qoladi. Biz ko‘p hollarda o‘zimiz ko‘rgimiz kelgan narsalarni ko‘ramiz, eshitgimiz kelgan narsani eshitamiz. Masalan, sonlar qatorida paydo bo‘lgan V harfi uzoqdan albatta 13 soniday idrok qilinadi yoki aksincha harflar orasidagi 13 «V» ga juda

o‘xshaydi. Kechasi yolg‘iz qolib kimnidir kutayotgan bo‘lsangiz, har qanday juda sekin sharpa ham oyoq tovushlariga o‘xshayveradi.

• **O‘zgarmas ma’lumotning idrok qilinmasligi qonuni.** Bu qonunning mohiyati shundaki, muntazam ta’sir etuvchi ma’lumot ongda uzoq ushlab turilmaydi. Masalan, o‘tirganda soatning chiqqillashini eshitganmisiz? Ha, tovush eshitiladi, lekin ma’lum vaqt o‘tgandan so‘ng go‘yoki u yo‘q bo‘lib qolganday eshitilmaydi, biz soatning tovushini idrok etmay qo‘yamiz. Shunga o‘xhash kichik tajribalar barcha idrok turlarida sinab ko‘rilgan.

• **Anglanganlik qonuni.** Idrok qilayotgan shaxs uchun figuraning anglanganligi, uning zarurati va ma’nosini katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Agar biz kuzatayotgan predmet, eshitayotgan nutq yoki his qilayotgan narsamiz ma’nosiz, tushunarsiz, noaniq bo‘lsa, biz juda tez charchaymiz va toliqamiz. Masalan, xitoy tilini bilmaydigan odam shu tilda so‘zlashuvchilar orasiga tushib qolsa, juda qiynaladi, ya’ni bizga barcha narsalarda biror ma’no va mazmun kerak. Odam odatda tushunadigan narsalarinigina idrok qiladi, hattoki, ma’ruzachining tushuntirayotgan ma’ruzasidagi faktlar sizning tushunchalariningiz va bilim doirangizdan uzoq bo‘lsa, professorga qarab o‘tirgan bo‘lsangiz ham uning gaplari qulog‘ingizga kirmaydi.

• **Taxminlarni tekshirish jarayonida idrok qilish.** Biz idrok jarayonida ilgarigi tajribaga tayanganimiz bilan ko‘pincha adashamiz, ba’zan esa o‘zimiz uchun yangiliklar ochib, tajribani yanada boyitamiz. Ilgarigi tajriba va kelajakni bashorat qilish insonga xos xususiyat bo‘lib, bizning sezgi organlarimiz orqali keladigan ma’lumotlarning ko‘lami va imkoniyatlarini yanada oshiradi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, idrok-tashqi muhit to‘g‘risidagi taxminlarimizni isbot qilishga qaratilgan faol jarayondir.

### **3.4. Xotira jarayonlari, turlari va qonuniyatlar**

Tashqi olam qo‘zg‘atuvchilari ta’siri ostida, bosh miya yarim sharlar po‘stlog‘ida yuzaga keladigan obrazlar izsiz yo‘qolib ketmaydi va ular uzoq muddat saqlanishi mumkin.

Shaxsning o‘tmish tajribalarini esda olib qolishi, esda saqlashi va birin-ketin esga tushirishi xotira jarayonining mohiyatini tashkil etadi.

Xotira jarayonlari tufayli kishining bilish imkoniyatlari kengayib boradi. Bilish jarayoni sifatida xotira, shaxsning yaxlitligi va psixik rivojlanish darajasini ta’minlab beradi.

Xotira samaradorligi quyidagi holatlardan kelib chiqadi:

- esda olib qolish harakatlarining yakunlanganlik darjasи;
- shaxsning qiziqish va moyilliklari;
- shaxsning muayyan bir faoliyatga nisbatan munosabati;
- hissiy bardam kayfiyati;
- irodaviy zo‘r berishi.

Xotirani o‘rganishga doir ko‘plab tadqiqotlarda aniqlanishicha, asab tizimi turli-tuman qo‘zg‘atuvchilardan qolgan izlarni uzoq muddatgacha yuqori aniqlikda saqlay olar ekan.

Xotiraning vujudga kelish shart-sharoitlari va harakatga keltiruvchi kuchlari masalasi juda murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, fiziologiya, biokimyo va psixologiya kabi fanlarning predmeti hisoblanadi:

- fiziologlar axborotlarning saqlanish jarayonini nerv o‘ramlari (assotsiatsiyalar) tuzilmasi bilan bog‘laydilar;
- bioximiklar ribonuklein kislota(RNK) tarkibining o‘zgarishi va turli bioximik tuzilmalarga asoslanadilar;
- psixologlar xotira odam faoliyatining o‘ziga xosligi va shaxs yo‘nalganligiga bog‘liq deb ta’kidlaydilar.

Shaxs o‘zining faoliyati uchun muhim bo‘lgan narsalar va hodisalarni yaxshi eslab qoladi, aksincha kishiga unchalik katta ahamiyatga ega bo‘lmagan narsa, voqea yoki hodisalar esda olib qolinmaydi va unutib yuboriladi.

Professor E.G‘oziyev, bilish jarayoni sifatida xotira tushunchasiga quyidagicha tavsif beradi: “...Xotira atrof-muhitdagi voqelik (narsalar)ni bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va faol holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo‘l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, unutish hamda tanish hissidan iborat psixik jarayon. Alovida va umumiylig namoyon qiluvchi ijtimoiy hodisa, barcha taassurotlarni ijobiy qayta ishslashga yo‘naltirilgan mnemik faoliyatdir”.

Shaxsning yo‘nalganligi qiziqish va moyilliklarda ifodalanadi, qiziqishlar xotira jarayonlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Biz u yoki bu narsalar yoki hodisalarni unchalik esda olib qolmaymiz, ushbu holat ularga nisbatan qiziqish yo‘qligini ko‘rsatadi. Masalan, o‘quvchilar hamma fanlarni bir xilda mukammal o‘zlashtira olmaydilar, bu o‘quvchilarining o‘qitilayotgan fanga bo‘lgan qiziqishlarining turli-tumanligi bilan izohlanadi. Esda olib qolish jarayoniga kishining emotsiyal munosabati ham katta ta’sir ko‘rsatadi, kishi uchun hayajonli qo‘zg‘alishni vujudga keltiruvchi narsalar ongda chuqr iz qoldirib, uzoq saqlanadi.

Xotira samaradorligi, kishining irodaviy sifatlariga ham bog‘liq bo‘lib, iroda kuchi zaif, faoliyatga yuzaki yondashadigan kishilar o‘z xotirasining yomonligidan shikoyat qiladilar, aksincha iroda kuchini sarflaydigan, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga astoydil kirishadiganlar puxta va chuqr eslab qoladilar.

Samarali xotira kishining umumiyligini madaniyatiga, bilim saviyasiga, uquvlari va fikrlash qobiliyatiga, ko‘nikma va odatlariga ham bog‘liqdir.

Xotiraning kuchi, barqarorligi va samaradorlik darajasi bevosita ravishda shaxsning psixologik xususiyatlari bilan bog‘liqdir, shaxs o‘z oldiga qo‘ygan

maqsad va vazifalar asosida o‘zining xotira jarayonlarini ongli ravishda tartibga soladi va boshqaradi.

Xotira sohasida quyidagi asosiy jarayonlar mavjud:

- esda olib qolish;
- esda saqlash;
- esga tushirish;
- unutish.

Ushbu jarayonlar shaxsning turli-tuman faoliyatida aks etadi. Ma’lum bir narsalar va hodisalarни esda olib qolish, esda saqlash va qayta esga tushirish ruhiy hayot faoliyati davomida alohida, ya’ni shaxsiy tajribalarni to‘plash bilan bog‘liqdir. Ma’lum axborotning faoliyatda qatnashmay qolishi uni yoddan chiqarish, unutishga olib keladi.

### **Xotira turlari**

Xotira shaxs hayoti va faoliyatining barcha sohalarida ishtirok etadi, shuning uchun xotira jarayonlari turli-tuman ko‘rinishlarda aks etadi.

Xotirani turlarga ajratish, uni tasniflashga doir turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lib, bunda xotira jarayonlarining qaysidir bir jihatи asos qilib olinadi. A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan «Umumiy psixologiya» darsligida quyidagi tasnifni kuzatish mumkin:

1. Faoliyatda ko‘proq sezilib turadigan psixik faollikning xususiyatiga qarab: harakat, emotsiyal, obrazli va so‘z mantiq xotira.
2. Faoliyatning maqsadlariga ko‘ra: ixtiyorsiz va ixtiyoriy xotira.
3. Materialni qancha vaqt esda olib qolish va esda saqlash muddatiga ko‘ra: qisqa muddatli, uzoq muddatli va operativ xotira.

**Harakat xotirasi** – inson faoliyatining har bir turida ruhiy faollikning u yoki bu ko‘rinishlari ustunlik qiladi, mazkur ruhiy faollik turlarining har biri tegishli sa’y-harakatlar, hissiy kechinmalar, turli-tuman obrazlar, fikr va mulohazalarda aks etadi.

Turli harakatlar va ularni bajarish tartibi, tezligi, sur'ati, izchilligi va boshqalarni esda olib qolish, mustahkamlash va yana qayta esga tushirishdan iborat xotira turi harakat xotirasi deb ataladi.

Ko'pchilik o'zida harakat xotirasining mavjudligi va katta hajmdagi ish bajarayotganligini payqamasligi mumkin. Mazkur xotira turi, yurish, yozish, ifodali harakatlarni bajarish malakalari bilan bir qatorda amaliy mehnat malakalarini shakllantirishning negizini tashkil etadi.

Agar insonda harakat xotirasi bo'limganda edi, unda amaliy faoliyat ko'nimalarini egallash imkonini bo'lmas edi. Jismoniy mashqlarni bajarish, yurish, yugurish, chaqqonlik, abjirlik va egiluvchanlik kabi bir qator alomatlar harakat xotirasining mavjudligidan darak beradi.

**Hissiy xotira.** Voqelikdagi narsalar va hodisalar hamda o'z-o'zimizga bo'lgan munosabatdan kelib chiqadigan yoqimli hamda yoqimsiz kechinmalarni esda olib qolish, esda saqlash va yana qayta esga tushirishdan iborat xotira turi hissiy xotira turi deb ataladi.

Boshimizdan kechirgan va xotiramizda saqlanib qolgan his-tuyg'ular harakatga undovchi va o'tmishda salbiy kechinmalarga ega bo'lgan harakatlardan saqlab turuvchi signal tarzida namoyon bo'ladi.

**Obrazli xotira.** Shaxsdagi tasavvurlar va tabiat manzaralari, tovushlar, ta'mlar, ranglar va shakllar bilan bog'liq bo'lgan narsalar va hodisalarning aniq obrazlarini, ularning xususiyatlari va bog'lanishlarini esda olib qolish, ongda mustahkamlash hamda zarurat tug'ilganda esga tushirishdan iborat xotira turi obrazli xotira deb ataladi.

Psixologiya fanida obrazli xotiraning bir necha turlari ajratib ko'rsatiladi va ular quyidagilardan iborat.

Obrazli xotiraning shakli izchil obrazlardan iboratdir. Izchil obrazlarning aks etish hodisasini quyidagi tajribada kuzatish mumkin: agar sinaluvchiga bir necha daqiqa oddiy qo'zg'atuvchi yuborilsa, jumladan 10-15 sekund yorqin qizil kvadratga qarab turish taklif etilsa, so'ng uning oldidan kvadrat olib qo'yilsa, u

qizil kvadrat o‘rnida xuddi shunday geometrik shakl izini ko‘rishda davom etadi. Ba’zan bir necha soniyada paydo bo‘lib, goho butunlay yo‘qolishi uchun qaytadan paydo bo‘lishi ham mumkin.

Odamlarning individual-psixologik xususiyatlariga qarab, izchil obrazlarning aniqligi va davomiyligi turlicha bo‘lishi ko‘zga tashlanadi.

Izchil obrazlar xotira jarayonining sodda izlariga misol bo‘la oladi, ular xotiraning murakkab turidan farqlanadi.

Izchil obrazlardan eydetik obrazlarni farqlanadi, eydetik obrazlar o‘z vaqtida nemis psixologiya maktabi vakillari aka-uka Yenishlar tomonidan izohlab berilgan. Ba’zi odamlar tomonidan kuzatilgan suratlar ularning ko‘z o‘ngidan olib qo‘yilsa ham, suratning obrazi(siymosi) uzoq vaqtgacha saqlanish xususiyatiga ega bo‘lgan.

Tajribalarning ko‘rsatishicha, eydetik obrazlar uzoq vaqt inson ongida saqlanishi mumkin, mabodo ularning yo‘llari yopilib qolgan bo‘lsa ham, lekin hech qanday qiyinchiliklarsiz ularning siymosi qayta tiklanishi mumkin.

Rus psixologiyasida eydetik obrazlarning namoyon bo‘lish hodisasi A.R.Luriya tomonidan ko‘p yillar davomida o‘rganilgan va shunga ko‘ra eydetik xotiraning individual-tipologik xususiyatlari chuqr ta’riflab berilgan. Eydetik obrazlar tasavvurda harakatlanish xususiyatiga ega bo‘lib, subyektlarning oldiga qo‘yilgan vazifa va uning tasavvurlari ta’siri ostida o‘zgartirish mumkin ekan.

Tasavvur obrazlari xotiraning yanada murakkabroq turi bo‘lib, ularning eydetik obrazlaridan asosiy farqi shundan iboratki, bunda narsalar va hodisalar haqidagi tasavvurlar fikrlash orqali qayta ishlanadi, asosiy xususiyatlari ajratib olinadi hamda ma’lum bir toifaga kiritiladi. Masalan, odam gul obrazini faqatgina esga tushirmaydi, balki gulni muayyan bir so‘z yoki tushuncha bilan nomlaydi, uning turini aniqlab, belgi va xususiyatlarni ham ajratib ko‘rsatadi.

Professor V.Karimova “Psixologiya” o‘quv qo‘llanmasida ham xotira mavzusini keng ma’noda yoritib, xotira tiplari, uning noyobligi va o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tadi.

**Xotira** – bu tajribamizga aloqador har qanday ma’lumotni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bilan bog‘liq murakkab jarayondir. Xotira har qanday tajribamizga aloqador ma’lumotlarning ongimizdagi aksidir.

Odatda biz biror bir materialni o‘qiydigan bo‘lsak, uni hech bir o‘zgarishsiz eslab qolishga harakat qilamiz, lekin ajablanarlisi shundaki, vaqt o‘tib borgan sari material ma’lum o‘zgarishlarga yuz tutib, xotirada dastlabki paytdagisidan boshqacharoq bo‘lib saqlanadi. Ba’zi bir material yoki ma’lumot xohlasak ham xotiradan o‘chmaydi, boshqasini esa juda xohlasak ham kerak paytda yodimizga tushira olmaymiz.

Inson xotirasining yaxshi bo‘lishi, ya’ni hissiy kechinmalarimiz, ko‘rgan-kechirganlarimizning mazmuni to‘laroq miyamizda saqlanishi quyidagi omillarga bog‘liq:

- esda saqlab qolish bilan bog‘liq harakatlarning yakunlanganlik darajasiga;
- shaxsning o‘zi shug‘ullanayotgan ishga nechog‘lik qiziqish bildirayotganligi va shu ishga moyilligiga;
- shaxsning bevosita faoliyat mazmuni va ahamiyatiga munosabatining qandayligiga;
- shaxsning ayni paytdagi kayfiyatiga;
- irodaviy kuchi va intilishlariga.

Xotira jarayonlari shaxsning faoliyatdagi yutuqlariga bog‘liq bo‘lgani uchun ham, uning tabiat, qanday kechishiga ko‘plab olimlar ahamiyat bergenlar. Masalan, nima uchun odam u yoki bu ma’lumotni xotirada saqlaydi, degan savolga turli olimlar turlicha javob beradilar. Masalan, fiziologlar uning sababini miyada hosil bo‘ladigan nerv bog‘lanishlari – assotsiatsiyalar bilan

bog'lashsa, bioximiklar-ribonuklein kislota (RNK) va boshqa bioximik o'zgarishlar oqibatidadir, deb tushuntiradilar.

Psixologlar xotirani inson faoliyati, uning shaxs uchun ahamiyati va motivlar xarakteri bilan bog'laydilar, chunki shaxsning yo'nalganligi, uning hayotdagi mavqeい va qobiliyatlarining rivojlanganlik darjasini aynan xotirasining mazmuniga bog'liq.

Amaliy nuqtayi nazardan xotiraning samaradorligi va uni o'quv va mehnat faoliyati jarayonida oshirish katta ahamiyatga ega, chunki ko'pincha odamlar orasida ishchanrog'i, o'quvchi yoki talabalar orasida bilimlirog'i ham bir qarashda xotirasining kuchi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Buyuk bobokalonimiz, sohibqiron Amir Temurning xotirasi haqida afsonalar yuradi. Masalan, u o'z qo'l ostidagi beklarning nafaqat ismini, balki otasining ismlarini ham yoddan bilarkan, uchrashuvlarda bevosita nomini aytib murojaat qilarkan. Bu fazilat ham uning o'z qo'l ostidagilar orasida obro'sining balandligiga ta'sir ko'rsatgan.

Amerika Prezidenti Avraam Linkoln ham ana shunday fenomenal xotirani o'z yaqinlari va ish yuzasidan u bilan bog'liq bo'lgan xodimlarga nisbatan namoyon etib, lol qoldirgan ekan.

Xotiraning samaradorligi eslab qolishning ko'lami va tezligi, esda saqlashning davomiyligi, esga tushirishning aniqligi bilan bog'lanadi, odamlar ham aynan shu sifatlarga ko'ra farqlanadilar:

- materialni tezda eslab qoladiganlar;
- materialni uzoq vaqt esda saqlaydiganlar;
- istagan paytda osonlik bilan esga tushiradiganlar.

Ba'zi odamlarning xotirasiga xos jihatlarni tug'ma deb atashadi, to'g'ri olyi nerv tizimining ishslash xususiyatlari xotiraning o'ziga xos uslubini belgilashi mumkin. Hayotda ko'pincha shaxsning bilish jarayonlari va sezgi organlarining ishslash qobiliyatlariga bog'liq tarzda ajralib turadigan xotira tiplari haqida gapirishadi.

Masalan, ayrim odamlar ko‘rgan narsalarini juda yaxshi eslab qoladi, demak, ularning *xotirasi ko‘rgazmali* — *obrazli* bo‘lib, ko‘zi bilan ko‘rmaguncha, narsaning mohiyatini tushunmaydi, boshqalar esa o‘zicha fikrlab, nomini aytib, mavhum tarzda tasavvur qilmaguncha, eslab qolishi qiyin bo‘ladi, ular *so‘z - mantiq xotira* tipi vakillaridir. Ba’zi odamlar bevosita his qilgan, «yuragidan» o‘tkazgan, o‘zlarida biror yorqin emotSIONAL obraz qoldirgan narsalar va hodisalarni yaxshi eslab qoladilar, bu — *emotsional xotiradir*. Yana bir xotira egalari borki, ularni *fenomenal xotira* sohiblari deb atashadi. Bunday kishilar bir vaqtning o‘zida nisbatan katta hajmdagi ma’lumotlarni esda saqlab qolib, yana qayta esga tushira olganlar. Tarixiy shaxslar orasida Yuliy Sezar, Napoleon, Motsart, Gauss, shaxmat ustasi Aleksandr Alyoxin kabi insonlar xotirasi ana shunday noyob bo‘lganligi haqida ma’lumotlar bor.

Taniqli, rus psixologи va neyropsixologи A.R.Luriya ham ana shunday xotira sohiblaridan biri, asli kasbi jurnalist bo‘lgan Shereshevskiyning xotirasini uzoq vaqt mobaynida o‘rgangan. U, Dantening «Illohiylik komediyasi»dan olingan parchani bir marta qarab olgandan so‘ng, 15 daqiqadan so‘ng so‘zmaso‘z aytib bera olgan ekan.

Shunisi xarakterli ediki, komediya unga notanish bo‘lgan italyan tilida yozilgan edi, ko‘pchilikni qanday qilib yaxshi, mustahkam esda saqlab qolish muammosi qiziqtirsa, Shereshevskiy uchun qanday qilib unutish masalasi murakkab edi, uni xotira obrazlari doimo qynar, ko‘rgan narsalari ko‘z oldida gavdalанaverar ekan. Qanday qilib eslab qolasiz? degan savolga u shunday javob bergan: “...men «materialni» o‘zimga tanish va sevimli bo‘lgan Moskva ko‘chalariga joylashtiraman, hatto bir marta material bo‘lagi «ko‘chaning» salqin yerida qolib ketib, esga tushishi ancha qiyin bo‘lgan...”.

### **Har bir fenomenal xotira egasining o‘ziga xos uslubi bo‘lar ekan**

**Shu o'rinda xotiraning  
sakkizta qonuni ko'rsatib  
o'tilgan:**

Anglanganlik qonuni

Qiziqish  
qonuni

Ilgarigi bilimlar  
qonuni

Eslab qolishga  
tayyorlik qonuni

Assotsiatsiyalar  
qonuni

Birin-ketinlik qonuni

Kuchli taassurotlar  
qonuni

Tormozlanish qonuni

**Anglanganlik qonuni.** Oddiy, lekin murakkab qonun, ya'ni berilgan materialni qanchalik chuqur anglasak, shunchalik uni mustahkam xotirada muhrlagan bo'lamiz.

**Qiziqish qonuni.** Anatol Frans: "Bilimlarni yaxshi hazm qilish uchun uni ishtaha bilan yutish kerak" deganda, albatta, olinayotgan ma'lumotga jonli qiziqish bilan munosabatda bo'lishimiz va uni yaxshi ko'rishimiz kerakligini nazarda tutgan.


**Ilgarigi bilimlar qonuni.** Ma'lum mavzu yuzasidan bilimlar qanchalik ko'p bo'lsa, yangisini esda saqlab qolish shunchalik oson bo'ladi. Masalan, ilgari o'qigan biror kitobni qaytadan o'qib, uni yangidan o'qiyotganday his qilsangiz, demak, siz ilgarigi tajribangiz yetishmaganligidan uni yaxshi o'zlashtira olmaganligingizni his qilishingiz mumkin. Demak, eski bilimlar ham tajribaga aylangandagina, yangilariga zamin bo'la oladi.

**Eslab qolishga tayyorlik qonuni.** Biror materialni eslab qolishdan avval, bo'lg'usi aqliy ishga qanday hozirlik ko'rgan bo'lsangiz, shunga mos tarzda eslab qolasiz. Masalan, fizika o'qituvchisining barcha darslari sizga doimo ma'qul bo'lgan bo'lsa, siz: "Bugun ham yangi narsa o'rganib chiqaman", deb o'zingizni ishontirasiz va oqibatda natija ham yaxshi bo'ladi. "Bir amallab imtihon topshirsam, keyin qutulaman", deb darsga tayyorlangan bo'lsangiz, imtihon tugagach, go'yoki miyangizni birov "yuvib qo'yganday" tasavvur hosil bo'ladi.

**Assotsiatsiyalar qonuni.** Bu qonun haqida miloddan avval Arastu ham yozgan edi. Qonunning mohiyati shundaki, bir vaqtda shakllangan tasavvurlar xotirada ham yonma-yon bo‘ladi. Masalan, ayni konkret xona o‘sha yerda ro‘y berган hodisalarni ham eslatadi.

**Birin-ketinlik qonuni.** Harflarni alfavitdagi tartibda yodda aytish oson, uni teskarisiga aytish qiyin bo‘lganidek, xotirada ham ma’lumotlarni ma’lum tartibda joylashtirishga va kerak bo‘lganda, tartib bilan birin-ketin tiklash maqsadga muvofiqdir.

Esda olib qolish va unutish tezligiga ko‘ra xotiraning quyidagi tiplari mavjud:



**Kuchli taassurotlar qonuni.** Eslab qolinadigan narsa to‘g‘risidagi birinchi taassurot qanchalik kuchli bo‘lsa, unga aloqador obraz ham shunchalik yorqin bo‘ladi. Bundan tashqari, siz uchun ahamiyatli va jozibali ma’lumotlar oqimida eslanayotgan material ham yaxshi esga tushiriladi.

**Tormozlanish qonuni.** Har qanday muayyan ma’lumot o‘zidan oldingi ma’lumotni tormozlaydi. Shuning uchun uning o‘chib ketmasligi uchun yangini esda saqlashdan avval mustahkamlash choralarini ko‘rish kerak.

#### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari:**

- Shaxsning hayot faoliyatida bilish jarayonlarning o‘rnii va ahamiyati?

- Diqqat haqida tushuncha bering?
- Diqqatning bilish jarayonlariga aloqadorligini izohlang?
- Diqqatning fiziologik asoslarini kimlar ishlab chiqqan?
- Diqqatning turlari haqida ma'lumot bering?
- Diqqat xususiyatlarini izohlang va misol keltiring?
- Diqqatning kishi hayotidagi o'rni va ahamiyatini misollar orqali tushuntirib bering?
  - Sezgi bilish jarayonlarining eng oddiy shakli sifatida?
  - Analizatorning tuzilishini izohlab bering?
  - Sezgilarining tasnifi?
  - Eksteroseptiv sezgilarining turlari?
  - Idrok haqida tushuncha bering?
  - Sezgi va idrokning o'zaro farqini ko'rsatib bering?
  - Idrokning xossalari haqida tushuncha bering?
  - Figura va fonning idrok etilishini izohlang?
  - Appersepsiya hodisasiga misol keltiring?
  - Xotiraning shaxs hayotidagi o'rni va ahamiyatini izohlab bering?
  - Xotira turlari haqida tushuncha bering?
  - Mantiqiy xotiraga misollar keltiring?
  - Fenomenal xotira sohiblari haqida ma'lumot bering?
  - Xotira qonuniyatlarini izohlab bering?

### **Mavzu bo‘yicha test savollari:**

1. Ixtiyorsiz diqqatning nerv-fiziologik asosini nima tashkil qiladi (I.P.Pavlov bo‘yicha)?
  - a. Sharthli refleks.
  - b. Ko‘nikma.
  - c. “Bu nima?” refleksi.
  - d. Odat.
2. Oldindan belgilangan maqsad asosida va ongli ravishda diqqatimizni ma’lum bir narsalar va hodisalarga qaratishimiz diqqatning qaysi turi orqali amalga oshiriladi ...?
  - a. Ixtiyorsiz.
  - b. Ixtiyoriy.
  - c. Ixtiyoriydan so‘nggi.
  - d. Tashqi.
3. Ko‘zlangan maqsad asosida, faqat irodaviy zo‘r berishsiz ongimizni zarur obyektga yo‘naltirish bu ...?
  - a. Ixtiyorsiz diqqat.
  - b. Ixtiyoriy diqqat.
  - c. Ixtiyoriydan so‘nggi, muvofiqlashtirilgan diqqat.
  - d. Tashqi diqqat.
4. Tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalarning sezgi a’zolarimizga bevosita ta’sir etishi natijasida, ularning ayrim belgi va xususiyatlarini miyamizda aks ettirilishi ... ?
  - a. Idrok deb ataladi.
  - b. Sezgi deb ataladi.
  - c. Xotira deb ataladi.
  - d. Tafakkur deb ataladi.

5. Aytingchi, ochlikni sezish, chanqash, ko‘ngil ozishi sezgi turlarining qaysi biriga taalluqli...?

- a. Tuyish sezgisi.
- b. Organik sezgi.
- c. Eksteroretseptiv sezgi.
- d. Ta’m bilish sezgisi.

6. Odamning yoshi, bilim darajasi, kasbi va hayot tajribalarining idrok jarayoniga ta’sir etishi qaysi hodisa orqali izohlanadi ...?

- a. Agglyutinatsiya.
- b. Appersepsiya
- c. Illyuziya.
- d. Gallyutinatsiya.

7. Voqelikdagi narsa va hodisalarni yanglish, noto‘g‘ri idrok etish bu ...?

- a. Illyuziya.
- b. Appersepsiya.
- c. Konstanlik.
- d. Gallyutinatsiya.

8. Idrok qilishdan ongimizda hosil bo‘lgan obrazning real voqelikdagi narsani tabiiy holatiga har jihatdan mos bo‘lishi, idrok etishning qaysi xossasi orqali izohlanadi ...?

- a. Illyuziya.
- b. Appersepsiya.
- c. Konstantlik.
- d. Gallyutinatsiya.

9. Bu qonun haqida miloddan avval Arastu ham yozgan edi, uning mohiyati shundaki, bir vaqtda shakllangan tasavvurlar xotirada ham yonma-yon bo‘ladi ...?

- a. Anglanganlik qonuni.

- b. Assotsiatsiyalar qonuni.
  - c. Figura va foning ilgarigi harakatga bog‘liqligi qonuni.
  - d. Kuchli taasurotlar qonuni.
10. Kishidagi noyob, fenomenal xotiraning sir-asrorlarini chuqr o‘rgangan rus psixologi ...?
- a. A.N.Leontyev.
  - b. S.L.Rubinshteyn.
  - c. S.R.Luriya.
  - d. D.B.Elkonin.

**IV bob. TAFAKKUR VA MUSTAQIL  
FIKRLASH SHART-SHAROITLARI.**

**IJODIY VA MANTIQIY FIKRLASH – SOG’LOM MA’NAVIYAT VA  
E’TIQODNI TARBIYALASH OMILI SIFATIDA**

- 4.1. Tafakkur haqida tushuncha.
- 4.2. Tafakkur operatsiyalari.
- 4.3. Tafakkur shakllari.
- 4.4. Tafakkur turlari.
- 4.5. Tafakkur va boshqa psixik jarayonlar.

**4.1. Tafakkur haqida tushuncha**

Tafakkur inson aqliy faoliyatining eng yuksak shaklidir. Tafakkur orqali biz sezgi a’zolarimiz orqali bevosita aks ettirib bo’lmaydigan narsa va hodisalarni ongimizda aks ettiramiz. Umuman olganda, tashqi muhitdagi narsa va hodisalar o’rtasida ko’z bilan ko’rib, qulqoq bilan eshitib bo’lmaydigan ichki munosabatlar hamda qonuniyatlar mavjud. Ana shu ichki bog’lanish hamda qonuniyatlarni biz tafakkur orqali bilib olamiz.

**Tafakkur** deb narsa va hodisalar o’rtasidagi eng muhim bog’lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi.

Aynan tafakkur orqali biz moddiy olamdagи narsa va hodisalarning mohiyatini bilish imkoniga ega bo’lamiz, dunyoni bilishda bevosita sezish, idrok, tasavvur va bilvosita tafakkur muhim rol o’ynaydi.

Tafakkur faoliyati muayyan maqsadga qaratilgan alohida ongli jarayon sifatida yuzaga keladi. Bosh miyaning biron bir markazidagi faoliyat emas, balki butun bosh miya po’stining faoliyati tafakkur jarayonlarining fiziologik asosini tashkil etadi. Tafakkurning murakkab faoliyati uchun analizatorlar o’rtasida vujudga keladigan murakkab bog’lanishlar muhim ahamiyatga ega.

Analizatorlarning bosh miya po'stidagi markazlari bir-biridan keskin ajralgan holda emas, balki bir-biriga tutashib, bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketganligi sababli, tafakkur maxsus nerv-fiziologik mexanizmlarga ega bo'ladi. Bunda ikkinchi signallar tizimidagi nerv bog'lanishlari, birinchi signallar tizimidagi nerv bog'lanishlarga tayangan holda faoliyat olib boradi.

Tafakkur – voqelikni bilish, anglash quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi, tafakkur sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir.

Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilalar vujudga keladi va ular shaxs ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi.

Insonning fikrlash faoliyati nutq shaklida namoyon bo'ladi. Inson o'zining tafakkuri, nutq faoliyati hamda ongli xatti-harakati bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. Inson o'z tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bilvosita tarzda aks ettiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqealar va hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko'rish imkoniyatiga ega.

## **4.2. Tafakkur operatsiyalari**

Tafakkur jarayoni insonning bilishga bo'lgan ehtiyojlari, tevarak-atrofdagi olam va turmush to'g'risidagi o'z bilimlarini kengaytirishga va chuqurlashtirishga intilishi sababli vujudga keladi. Fikr qiluvchi kishining tafakkuri – obyektni anglashi, bilishi tafakkur jarayonining xarakterli xususiyatidir. Odam o'zi idrok qilayotgan narsalar to'g'risida fikr yuritadi. Odamning fikrlash faoliyatida analiz va sintez, taqqoslash, abstraksiyalash, umumlashtirish, tasniflash va tizimga solish kabi aqliy jarayonlar(operatsiyalar) muhim o'rin tutadi.

**Analiz** – shunday bir tafakkur operatsiyasidirki uning yordami bilan biz narsa va hodisalarni fikran yoki amaliy jihatdan qismlarga ajratamiz, xususiyatlarini tahlil qilamiz. Tahlil davomida yaxlit, bir butun narsa yoki hodisa qismlarga ajratiladi, dars jarayonida analiz yordamida ko‘pgina amallarni bajaradilar.

Tabiat va jamiyatdagi bilim va tajribalarni inson tomonidan o‘zlashtirish analizdan boshlanadi. Masalan, savodga o‘rgatishda nutqni tahlil qilish, gapni so‘zlarga, so‘zlarni bo‘g‘inlarga, bo‘g‘inlarni tovushlarga ajratishdan boshlanadi.

**Sintez** – shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, biz narsa va hodisalarning tahlil davomida ajratilgan ayrim qismlarini, bo‘laklarini sintez yordami bilan fikran va amaliy ravishda birlashtirib, butun holiga keltiramiz.

Sintez elementlarning, narsa va hodisalarning qismlari va bo‘laklarini bir butun qilib qo‘sishdan iborat aqliy faoliyat sanaladi. Masalan, birinchi sinf o‘quvchisi, o‘zi o‘rgangan harflardan foydalanib bo‘g‘in, bo‘g‘inlardan so‘z, so‘zlardan gap, gaplardan qisqa matn yoki hikoya tuzadi.

Analiz va sintez o‘zaro aloqadorlikka ega bo‘lgan yagona jarayonning ikki tomonidir, analiz qilinmagan bo‘lsa, uni sintez qilib bo‘lmaydi, har qanday analiz narsalarni bir butun, yaxlit holda bilish asosida amalga oshirilishi mumkin.

**Taqqoslash** – ushbu fikrlash operatsiyasi vositasi bilan obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir-biriga o‘xshashligi va bir-biridan farqi aniqlanadi.

Taqqoslash operatsiyasi ikki xil yo‘l bilan amalga oshishi mumkin:

- amaliy jihatdan aniq narsalarni bevosita solishtirish;
- nazariy jihatdan tasavvur qilinayotgan obrazlarni va narsalarni ongda fikran taqqoslash.

Inson tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarning barchasini bevosita aks ettirish, qo‘l bilan paypaslash imkoniyatiga ega emas. Shu sababli, taqqoslash

orqali to‘planadigan bilimlarning aksariyati qo‘l bilan ushslash, ko‘z bilan kuzatish evaziga emas, balki fikr yuritish orqali, mantiq yordamida anglaniladi.

Ular o‘rtasidagi o‘xhash jihatlar va farqli alomatlar nazariy taqqoslash asosida ajratib olinadi, inson o‘zi olayotgan keng ko‘lamdagi axborotlarning farqli tomonlarini fikran taqqoslash yordamida anglab yetadi.

Jumladan, o‘quvchilar ham o‘zlari fikr yuritayotgan narsalar va hodisalarni fikran solishtirib ko‘radilar. Ba’zan katta yoshdagi kishilar bir necha yillik hayotiy tajribalar orqali, o‘z tengdoshlarining fe’l-atvori, qiziqishi, yurish-turishi va muomalasidagi o‘xhashlik va farqlarni ajratib beradilar.

**Abstraksiya** – ushbu operatsiya yordamida moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini farqlab olinadi, abstraksiya jarayonida obyektdan ajratib olingan belgi, alomatning o‘zi tafakkurning mustaqil obyekti bo‘lib qoladi. Abstraksiya operatsiyasi tahlil natijasida vujudga keladi. Masalan, sinf devorini tahlil qilish jarayonida uning faqat bir belgisini, ya’ni oqligini ajratib olish mumkin va oq devor to‘g‘risida emas, balki devorning oqligi to‘g‘risida, keyin esa umuman oqlik haqida fikr yuritish mumkin.

Abstraksiya – mustaqil bilim olish faoliyatini takomillashtiradi.

**Umumlashtirish** – tafakkurda aks etgan bir turkum narsalarning, o‘xhash muhim belgilarning shu narsalar to‘g‘risidagi bitta tushuncha qilib, fikrda birlashtirish demakdir. Narsa va hodisalarni umumlashtirish, abstraksiyalash operatsiyasidan ajralgan holda sodir bo‘lmaydi, har qanday umumlashtirish asosida abstraksiyalash jarayoni yotadi.

Agar abstraksiyalashda narsa va hodisalarning o‘xhash va muhim belgilari tasodifiylardan fikran ajratib olinsa, umumlashtirishda ajratib olingan o‘xhash, umumiylar va muhim belgilarga suyangan holda narsa va hodisalar birlashtiriladi.

**Konkretlashtirish** – hodisalarni ichki bog‘lanish va munosabatlardan qat’i nazar bir tomonlama ta’kidlashdan iborat fikr yuritish operatsiyasidir.

Umumiylar mavhum belgi va xususiyatlarni yakka obyektlarga tatbiq etish orqali ifodalanadigan fikr yuritish operatsiyasi insonning barcha faoliyatida

ishtirok etadi, voqelik qanchalik yaqqol shaklda ifodalansa, odam uni shunchalik oson anglab yetadi. Insonlar dastavval tevarak-atrofni aniq belgilariga asoslanib to‘laqonli aks ettirishgan, yaqqol obrazlarga suyanib tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo‘lishgan, shu boisdan to hozirgi kunga qadar aniqlik belgisi har qanday inson zoti uchun eng yaqin belgi bo‘lib hisoblanadi.

Tadqiqotlarining ko‘rsatishicha, konkretlashtirish ikki xil vazifani bajaradi:

➤ Birinchidan, umumiy abstrakt belgini yakka obyektga tatbiq etish amalga oshiriladi. Masalan, biz “oq” deganimizda ko‘z oldimizga oppo qor, oq qog‘oz, oq paxta va shu kabilalar kelishi mumkin.

➤ Ikkinchidan, konkretlashtirish umumiy va yakka belgilar kamroq bo‘lgan umumiyligi ochishda ifodalanadi. Masalan, biz olma, nok, olxo‘rini mevalar qatoriga, kiyim javoni, stol-stul, divan, kreslo va shu kabilarni mebellar qatoriga qo‘shamiz.

**Tizimlashtirish** – bir turkum ichidagi narsalarning bir-biriga o‘xhashligi va boshqa turkumdagи narsalardan farq qilishiga qarab narsalarni turkumlarga ajratish tizimi hisoblanadi. D.I.Mendeleyev tomonidan yaratilgan “Kemyoviy elementlarning davriy tizimi” jadvali bunga yorqin misol bo‘la oladi. Bunda olim kemyoviy elementlarni atom og‘irligining ortib borishiga, kemyoviy sifatlarning bir tipligiga va boshqa belgi va alomatlariga qarab tartib bilan joylashtirib chiqqan.

**Tizimga solish** – tizimga solish shundan iboratki, bunda ayrim narsalar, faktlar, hodisa va fikrlar muayyan tartibda makondagi, vaqttagi tutgan o‘rniga yoki mantiqiy tartibda joylashtiriladi. Shu sababli makon, xronologiya va mantiqiy belgilar asosida tizimga solish turlariga ajratiladi. Mebelning xonadagi joylashtirilishi, daraxtning boqqa o‘tkazilishi, makoniy tizimga namuna bo‘la oladi. O‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqealarning vaqtga qarab tizimga solishning namunasi bo‘la oladi. Matematikaga, falsafaga, mantiqqa doir darsliklarda ilmiy materiallarning joylashtirilishi mantiqiy tizimga solish namunasidir.

Maktab ta'limida o'zlashtirilgan bilimlarni tizimga solish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu ish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Bilimlar dastlab predmetlarning boblari, qismlari bo'yicha, so'ng yaxlit holda o'quvchi ongida tizimlashadi. Tizimlashtirishning ikkinchi bosqichida bir-biriga o'xhash predmetlarga oid bilimlar fikran tartibga solinadi. Uchinchi bosqichda bir necha predmetlar yuzasidan to'plangan bilimlar ma'lum tartibga tushadi, ularning o'xhash va farqli tomonlari ajratiladi. Tizimga solishning to'rtinchi bosqichida darsdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda egallangan bilimlarni tizimlashtirish nazarda tutiladi.

Demak, insonning bilish faoliyatida mavzulararo, predmetlararo bilimlarni tizimlashtirish yuzaga keladi. Binobarin, bilimlarning tizimga solinishi aqliy rivojlanishning dastlabki pog'onasi hisoblanadi.

Psixologiya fanini to'liq o'zlashtirish uchun ham talaba o'z tafakkurining mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanishni bilishi kerak.

#### **4.3. Tafakkur shakllari**

Nutq faoliyati, fikr yuritishning asosiy vositasi, nutq tafakkur jarayonida hukm, xulosa chiqarish va tushunchalar shaklida ifodalanib keladi.

#### **Hukmlar**

Narsa va hodisalarining belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr hukm deb ataladi.

Hukmlar obyektiv voqelikni aks ettirilishiga qarab chin yoki xato bo'ladi. Narsa va hodisalarda voqelikda haqiqatan o'zaro bog'liq bo'lган belgilar, alomatlar hukmlarda bog'liq ravishda ko'rsatib berilsa yoki voqelikda bir-biridan ajratilgan narsalar hukmlarda ajratib ko'rsatilsa bu chin hukm deb ataladi. Masalan, metallar elektr tokini o'tkazuvchidir, metallar qizdirilganda kengayadi degan hukmlar chin hisoblanadi, chunki elektr tokini o'tkazish, qizdirilganda kengayishi metallarga xos xususiyatdir.

Moddiy olamda haqiqatga bog‘liq bo‘lmagan narsa, hukmda bog‘liq qilib ko‘rsatilsa, bunday hukm xato hukm deb ataladi. Masalan, hozir tashqarida yomg‘ir yog‘ayapti; yer quyosh atrofida aylanmaydi, degan misollar xato hukmlar doirasiga kiradi.

Hukm quyidagi turlarga bo‘linadi:

- hukmlarning sifatiga ko‘ra: tasdiqlovchi yoki inkor qiluvchi hukmlar;
- hukmlarning miqdoriga ko‘ra: yakka, juz’iy, xususiy va umumiy hukmlar;
- hukmlarning munosabatiga ko‘ra: shartli, ayruvchi, va qat’iy hukmlar.

Hukm taxminiy ko‘rinishga ega bo‘lishi ham mumkin, aks ettiriladigan narsa va hodisalar belgisining nechog‘lik muhim bo‘lishi yoki voqelikka mos kelish-kelmasligiga bog‘liq. Masalan, ertaga yomg‘ir yog‘ishi mumkin.

Hukmlarda tasdiqlangan yoki inkor qilingan narsalar, hodisalar, alomatlar hukmning mazmunini tashkil qiladi. Narsa va belgining bog‘liqligi aks ettirilgan hukm tasdiqlovchi hukm deb ataladi. Yakka narsa va hodisa to‘g‘risidagi hukm yakka hukm deb ataladi. Masalan, Toshkent – O‘zbekiston Respublikasi poytaxti.

Belgining biror turkumga taalluqlilagini tasdiqlovchi yoki inkor qiluvchi hukm juz’iy hukm deb ataladi. Bir turkumdagi narsa va hodisalarning hammasi to‘g‘risida tasdiqlab, yoki inkor qilib aytilgan hukm umumiy hukm deb ataladi.

Hukmda narsa va hodisa belgisining borligini muayyan sharoitlarda tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan hukm shartli hukm deb ataladi. Masalan, o‘quvchi darsni diqqat bilan tinglamasa, yangi materialni o‘zlashtira olmaydi.

Hukmda narsalar va hodisalar bir necha belgiga nisbatan berilib, shu belgilardan farqi bitta unga tegishli bo‘lsa, bunday hukmga ayruvchi hukm deb ataladi. Masalan, jismlar yo qattiq, yoki suyuq, yoki gazsimon holda bo‘ladi.

## Xulosa chiqarish

Bir qator hukmlarning mantiqiy bog‘lanishi natijasida hosil bo‘lgan yangi hukm insonning bilish faoliyatida alohida ahamiyatga ega.

Xulosa chiqarish shunday tafakkur shaklidirki, bu shakl vositasi bilan biz ikki yoki undan ortiq hukmlardan yangi hukm hosil qilamiz.

➤ Masalan: Har qanday harakat materiya harakatidir, issiqlik harakat shaklidir, degan ikkita hukmni olaylik. Ushbu ikkita hukmdan: issiqlik materiya harakatidir degan yangi hukm chiqariladi.

Xulosa chiqarish: induktiv, deduktiv va analogiya turlariga bo‘linadi.

**Induktiv xulosa chiqarish** – bu xulosa chiqarishning shunday mantiqiy usulidirki, bunda bir necha yakka va ayrim hukmlardan umumiyligini hukmga o‘tiladi yoki ayrim fakt va hodisalarini o‘rganish asosida umumiyligini qonun va qoidalarni yaratiladi. Masalan: temir elektr tokini o‘tkazadi, po‘lat elektr tokini o‘tkazadi, mis elektr tokini o‘tkazadi, rux elektr tokini o‘tkazadi. Demak, barcha metallar elektr tokini o‘tkazadi, degan umumiyligini xulosa chiqaramiz.

**Deduktiv xulosa chiqarishda** umumiyligini va yakka hukmlardan yakka yoki juz’iy hukm keltirib chiqariladi. Misol uchun: barcha metallar elektr tokini o‘tkazadi. Temir metall. Demak, temir ham elektr tokini o‘tkazadi.

**Analogiya** deb narsa va hodisalarining bir-biriga o‘xshash bo‘lgan ba’zi belgilariga ko‘ra hukm yuritishdan iborat xulosa chiqarish shakliga aytiladi. Analogik usuldagagi xulosa chin, taxminiy hamda yolg‘on bo‘lishi mumkin.

Analogik xulosa chiqarishda, bir-biriga o‘xshash bo‘lgan juz’iy yoki yakka hukmlarga asoslanib, juz’iy yoki yakka hukm keltirib chiqaramiz.

Analogik yo‘l bilan xulosa chiqarganda murakkab qonuniyatlar va bilimlar o‘zlashtirilmasada, turmushning turli sohalarida undan foydalanib kelinadi.

## Tushunchalar

Tafakkur tushunchalar shaklida ifodalanadi.

Tushuncha narsa va hodisalarining eng muhim belgi va xususiyatlarini aks ettiradi, tushunchalar hukmlardan tarkib topadi. Tushunchalar odamning

turmush tajribasi va bilimlarining ortib borishi orqali shakllanadi. Ana shu jihatdan olganda maktabdagi o‘qish jarayonida bolada asosan tabiat va jamiyat hodisalari haqida tushunchalar hosil qilinadi, bolalarda hali tushunchalar juda oz bo‘ladi.

Tushunchalar mohiyati jihatidan konkret va abstrakt tushunchalarga ajratiladi:

➤ Alovida olingan bir butun narsaga aloqador tushuncha konkret tushuncha deb ataladi. Masalan, stol, stul, divan, qayrag‘och, traktor va boshqalar.

➤ Moddiy borliqdagi narsalardan fikran ajratib olingan ba’zi xususiyat, sifat, holatlarga, shuningdek narsalar o‘rtasidagi ichki munosabatlarga, qonuniyatlarga qaratilgan tushunchalar abstrakt tushuncha deb ataladi. Masalan, oqlik, uzunlik, balandlik, kenglik, harakat, yorug‘lik, qiymat va boshqalar.

Tushunchalar ko‘lami jihatidan uch turga:

yakka, umumiylar va to‘planma tushunchalarga bo‘linadi.

Yakka tushunchalar yakka narsa va hodisalar haqidagi tushunchadir. Bunday tushunchalarga sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Sirdaryo tushunchalarini misol qilib keltirsa bo‘ladi. Yakka tushunchalarning xususiyati shuki, bu tushunchalarda hamisha aniq obraz mavjud bo‘ladi.

Umumiy tushunchalarda bir jinsda bo‘lgan ko‘p narsa va hodisalar gavdalantiriladi. Masalan, kitob, mifik, yulduz, talaba va boshqalar.

To‘planma tushunchalar bir jinsda bo‘lgan narsa va hodisalar to‘plami haqida yaxlit fikr yuritiladigan tushunchadir. Masalan, paxtazor, kutubxona, yig‘ilish va hokazolar. To‘planma tushunchalarning bir qanchasi birdaniga tatbiq qilinganda umumiylar to‘planma tushunchalar bo‘ladi. Masalan, Alisher Navoiy nomidagi davlat muzeyi tushunchasi, yakka to‘planma tushunchaga oiddir. Guruh, jamoa, xalq, millat va boshqalar, umumiylar to‘planma tushunchasiga misol bo‘la oladi. Yetti og‘ayni yulduzlar to‘plami, Hamza teatri jamoasi, Paxtakor futbol jamoasi kabilar yakka to‘planma tushunchalar jumlasiga kiradi.

Fikr yuritishda tushuncha bilan so‘z o‘zaro bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. Bir tomondan so‘z yordamisiz tushuncha vujudga kelmaydi, ikkinchi tomondan so‘z tushunchaning moddiy asosini tashkil etadi. Tushunchalar bir yoki undan ortiq so‘zlardan iborat bo‘lishi mumkin. Masalan, xalq degan tushuncha bir so‘zdan, o‘zbek xalqi ikki so‘zdan qahramon o‘zbek xalqi uch so‘zdan, ozodlik uchun kurashgan xalq, degan tushuncha to‘rtta so‘zdan tashkil topgan.

Tushunchalar fikr yuritishning asosiy jarayonlari, ya’ni tasniflash, umumlashtirish va abstraksiyalash yordami bilan vujudga keladi. So‘zlar, belgilar, ramzlar, atamalar tafakkur jarayonida tushunchalarning mazmunini aks ettiradi.

#### **4.4. Tafakkur turlari**

Muayyan ijtimoiy muhitda turmush kechirayotgan odamlarning ehtiyojlari, xatti-harakat motivlari, qiziqishlar, intilishlar, mayllar, aqliy qobiliyatlar, hatto faoliyatlar ham turli -tumandir. Xuddi ana shu boisdan ularning tafakkuri ham har xil holatlarda vaziyatlarda turlicha tarzda vujudga keladi, namoyon bo‘ladi.

Psixologiya fanida tafakkur turlari topshiriq xususiyatiga, fikr yoyiqligiga, fikrning teranlik darajasiga qarab, quyidagicha shartli klassifikatsiya qilinadi.

#### **Professor E.G‘oziyevning “Umumiy psixologiya” darsligida tafakkur turlari quyidagicha tasniflangan:**

Tafakkur turlari	
Shakliga ko‘ra	Ko‘rgazmali-harakat, ko‘rgazmali-obrazli,
Topshiriq xarakteriga ko‘ra	Nazariy, amaliy, ixtiyorsiz, ixtiyoriy
Fikr yoyiqligiga ko‘ra	Konkret, abstrakt, realistik, autistik intuitiv, diskursiv
Fikrning teranlik darajasiga ko‘ra	Reproduktiv, produktiv, ijodiy, vizual, fazoviy

**Professor V.Karimovaning “Psixologiya” o‘quv qo‘llanmasida tafakkur turlari quyidagi ko‘rinishda tasvirlangan:**

Tafakkur turlari	
Shakliga ko‘ra	Ko‘rgazmali-harakat, ko‘rgazmali-obrazli, mantiqiy
Ko‘riladigan masalaning xarakteriga ko‘ra	Nazariy, amaliy
Ijodiylik elementiga ko‘ra	Konvergent, divergent
Yangiligi va noyobligiga ko‘ra	Reproduktiv, produktiv (ijodiy)

A.V.Petrovskiy tomonidan tafakkurning ko‘rgazmali-harakat, ko‘rgazmali-obrazli, mavhum-nazariy tafakkur turlari ajratib ko‘rsatilgan.

**Ko‘rgazmali-harakat tafakkur turi.** Tarixiy taraqqiyot davomida odamlar o‘z oldilarida turgan maqsadni dastlab amaliy faoliyat doirasida hal qilganlar, keyinchlik undan nazariy faoliyat ajralib chiqqan. “Psixologiya” lug‘atida ko‘rgazmali-harakatli tafakkur – bevosit amaliy tafakkurning yordami bilan amalga oshiriladigan fikrlash turi, deb tavsiflanadi.

Psixik faoliyat emas, balki amaliy faoliyatning o‘zi birlamchidir, amaliy faoliyatning taraqqiy etishi davomida nazariy fikr yuritish ajralib chiqqan. Faqat butun insoniyatning tarixiy taraqqiyoti emas, balki har bir bolaning psixik taraqqiyot jarayoni ham dastavval nazariy emas, balki amaliy faoliyatdir.

**Ko‘rgazmali-obrazli tafakkur** turi ham psixologik adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Professor E.G‘oziyevning fikricha, bevosita idrok qilinayotgan predmetlar emas, balki faqat tasavvur qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikrlashdan iborat tafakkur turi - ko‘rgazmali-obrazli tafakkur deb ataladi. V.Karimova tomonidan ko‘rgazmali-obrazli tafakkur ko‘rgan-kechirgan narsalar va hodisalarining aniq obrazlari ko‘z oldimizda gavdalangan chog‘da ularning mohiyatini umumlashtirilib bilvosita aks ettirishimizdir, deb talqin qilinadi.

Ko‘rgazmali-obrazli tafakkur sodda shaklda ko‘pincha bog‘cha yoshidagi bolalarda, ya’ni 4-7 yoshgacha bo‘lgan bolalarda paydo bo‘ladi. Bu yoshdagisi

bolalarda tafakkurning amaliy harakatlar bilan aloqasi avvalgidek to‘g‘ri va bevosita bo‘lmaydi. Shuning uchun ular narsa va hodisalarning ko‘zga yaqqol tashlanib turuvchi alomatiga, xususiyatiga, tashqi belgisiga e’tibor qiladilar, lekin ularning ichki bog‘lanishlari hamda o‘zaro munosabatlarini bildirib keladigan muhim asosiy sifatlariga ahamiyat bermaydilar. Masalan, ularning nazarida odamlar bo‘yining baland va pastligi ularning yoshini belgilaydi.

Tafakkur faolligiga qarab ixtiyorsiz (intuitiv) va ixtiyoriy (analitik) tafakkur turlariga ajratiladi. Intuitsiya deb mantiqiy tafakkur yordamida ko‘p vaqtlar davomida hal qilinmagan aqliy vazifalarning to‘satdan, kutilmaganda hal qilinib qolishi jarayoniga aytildi.

Ko‘pincha ixtiyoriy tafakkur jarayoni mulohaza, muhokama, isbotlash, gipoteza kabi shakllarda namoyon bo‘ladi. Masalan, matematika, fizika, kimyo, psixologiya va boshqa fanlardagi misol va muammolarni yechish jarayoni.

Tafakkur jarayoni ixtiyorsiz yuz berishi ham mumkin, lekin bu holda ular ixtiyoriy tafakkurga suyangan tarzda vujudga keladi. Jumladan, odamning amaliy, maishiy va hokazo faoliyatlarida ixtiyorsiz ravishda qator savollar paydo bo‘lishi va ularga beixtiyoriy javoblar axtarish hollari uchrab turadi.

Fikr yuritishi lozim bo‘lgan narsa-hodisalarni idrok yoki tasavvur qilish mumkin bo‘lsa, bunday tafakkur konkret tafakkur deb ataladi. U o‘z navbatida yaqqol-predmetli va yaqqol-obrazli tafakkur turlariga ajratiladi.

Agar fikr yuritish obyekti bevosita idrok qilinsa, bunday tafakkur **yaqqol-predmetli tafakkur** deyiladi. Fikr yuritilayotgan narsa va hodisalar faqat tasavvur qilinsa, bunday tafakkur **yaqqol-obrazli tafakkur** deb ataladi.

**Abstrakt tafakkur** narsalarning mohiyatini aks ettiruvchi va so‘zlarda ifodalovchi tushunchalarga tayanib fikr yuritishdir. Algebra, trigonometriya, fizika, chizma geometriya, oliy matematika masalalarini yechish mahalida fikr yuritish, mulohaza bildirish, abstrakt tafakkurga xos misollardir.

Hodisalarni izohlashga, faraz qilishga qaratilgan tafakkur **nazariy tafakkur** deb ataladi. Tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni yoritib borish va

shu bog‘lanishlarni nazariy jihatdan fikr yuritish yo‘li bilan izohlash kabi jarayonlarni nazariy tafakkur yordamida amalga oshirish mumkin. Izohlash paytida narsa va hodisalar, xossa va xususiyatlar ma’lum turkumdag‘i tushunchalar qatoriga kiritiladi va ularning farq qiladigan belgi va alomatlari fikran ajratib ko‘rsatiladi.

Nazariy tafakkurni ayni bir paytda abstrakt tafakkur deb nomlash an’ana tusiga kirib qolgan. Bunday nom bilan atashga asosiy sabab nazariy tafakkurning umumiylar hukmlarda ifodalanishidir. Masalan, diqqat barcha psixik jarayon va holatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish garovidir.

Nazariy tafakkur orqali voqelikdagi umumiylar va muhim bog‘lanishlarni, xossalarni, qonuniyatlarni anglab yetish imkoniyati mavjud. Shuning uchun quyosh va oy tutilishini, osmon jismlari harakatini, ob-havo ma’lumotlarini, yer qimirlash o‘choqlarini, favqulodda yuzaga keladigan voqealarning sodir bo‘lishini ancha oldindan aytib berish, taxmin qilish mumkin bo‘ladi.

Abstrakt tafakkur orqali narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish mumkin bo‘lmagan xususiyatlari, o‘zaro munosabatlari aniqlanadi, u yoki bu sohaga oid qonuniyatlar ochiladi, sabab-oqibat bog‘lanishlari aks ettiriladi.

**Ijodiy tafakkur** – murakkab bilish faoliyatidan biri bo‘lib, tadrijiy ravishda izchil o‘zaro bog‘langan jarayonlardan tashkil topadi, dastavval savollar tug‘iladi, vazifa aniqlanadi, masalani yechish va savollarga javob qidirish jarayoni vujudga keladi. Inson oldida turgan aniq vazifa yoki masala bu bajarilishi yoki hal qilinishi zarur bo‘lgan vazifa ko‘pincha ifodalanishi shart bo‘lgan maqsadni ham aks ettirib keladi. Maqsad esa insonning izlanayotgan noma’lum voqelikni topishga guman va hayajon, shubha hislaridan xalos etishga qaratilgan maylidir.

Ijodiy tafakkur turi o‘zining samaradorligi va dolzarbligi, universalligi bilan boshqa fikr yuritish jarayonlaridan farq qiladi, yangi-yangi muammolarni o‘ylab chiqish jarayoni bo‘lib, insonning bilish faoliyatida yetakchi rol o‘ynaydi.

#### **4.5. Tafakkur va boshqa psixik jarayonlar**

Tafakkur boshqa psixik jarayonlardan ajralgan holda mavjid bo‘lmaydi, aksincha, tafakkur nutq faoliyati, idrok, xotira, xayol kabi bilish jarayonlari, hissiy kechinmalar va irodaviy harakatlar bilan chambarchas bog‘langan.

Biz idrok qilayotgan tashqi voqelik, biz duch keladigan turli-tuman vaziyatlar tafakkurning dastlabki va doimiy obyektlari sanaladi, narsa va hodisalarni idrok etish mobaynida turli savollar paydo bo‘ladi, savollar esa tafakkur(fikrlash) faoliyatini yanada jonlantiradi, muhokamalarga sabab bo‘ladi.

Odamning tafakkur qilishi, faqat idrok doirasi bilangina cheklanib qolmaydi, balki oldin idrok etilgan narsalar va hodisalar to‘g‘risidagi bilim, tajriba hamda mavjud tasavvurlarga asoslanadi. Fikr yuritishda esga tushirish jarayoni muhim o‘rin tutadi, xotira tasavvurlari, turli g‘oyalar va fikrlarni esga tushirish jarayonida yangi savollar paydo bo‘lgach va tafakkur operatsiyalari ishga tushadi.

Yuzaga kelgan jumboqlar va savollarga odatda xotiramizga murojaat qilgan holda javob qidiramiz va topamiz, chunki ilgari hosil bo‘lgan muvaqqat bog‘lanishlar (assotsiatsiyalar) tafakkur jarayonlarida katta rol o‘ynaydi.

Xayol tafakkur singari bilish jarayonlaridan biri hisoblanib, u insonning ichki va tashqi xususiyatlari va izlanishli faoliyatida, muayyan darajaga ega bo‘lgan muammoli vaziyatning vujudga kelishi va uning hal qilinishida ishtirok etadi.

Xayol yordami bilan inson tomonidan kutilmagan tasavvur obrazlari yaratiladi, go‘yoki bu jarayonda ijodiy faoliyatning modeli ishlab chiqiladi, Odamning har qanday izlanishi, mehnat va ijodiy faoliyati xayoliy jarayonlarni o‘z ichiga qamrab oladi, dastlabki xayoliy obrazlar voqelikdan uzoq bo‘lishiga qaramasdan, yangi g‘oyalar va kashfiyotlar uchun turtki vazifasini bajaradi.

Shaxs tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan har qanday faoliyat mahsuli oldindan tasavvur qilinadi, timsol shaklda ko‘z oldiga keltiriladi.

Xayolning bilish jarayoni sifatidagi asosiy vazifasi shundan iboratki, u amaliy faoliyat boshlanmasdan turib, uning mahsulini oldindan tasavvur qilish

va ularning timsollar tariqasida vujudga keltirishdan iboratdir. Inson shaxsiy faoliyatida ayrim qiyinchiliklar vujudga kelsa, ularni bartaraf qilish uchun odam o‘ylanadi, fikriy obrazlarni yaratadi, ularga yangi qo‘s Shimchalar kiritadi.

Xayol bilish jarayonlari bilan uzviy aloqada hukm suradi, ularni aks ettirish imkoniyatining to‘larraq ro‘yobga chiqishiga yordam beradi. Xayol tafakkur bilan bevosita aloqada bo‘ladi, xuddi shu boisdan ularning har ikkalasi ham bashorat qilish, oldindan payqash, sezish, istiqbol rejasini tuzish imkoniyatiga ega.

Shuning uchun ular o‘rtasida bir qator o‘xshashliklar va ayrim farqlar mavjud bo‘lib, ushbu holatlarda o‘z ifodasini topadi:

- xayol tafakkur singari muammoli vaziyatda, masala va topshiriqlar yechish jarayonida tug‘iladi;
- yangi yechimlar, usullar hamda vositalar qidirishda va ularni saralashda umumiylig mavjud;
- xayolning ham, tafakkurning ham paydo bo‘lishi shaxsning yuzaga kelgan ehtiyojlariga bevosita bog‘liq;
- ehtiyojlarni qondirishning dastlab xayoliy obrazlari yaratiladi, uning natijasida vaziyatni yorqin tasavvur qilish imkoni tug‘iladi;
- xayolda oldindan aks ettirish jonli tasavvurlar tarzida, yaqqol timsollar shaklida vujudga kelsa, tafakkurda ular umumlashmalar, tushunchalar bilvositalik xususiyati orqali ro‘yobga chiqadi.

### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari:**

- Tafakkur – bilishning eng yuksak shakli sifatida?
- Tafakkur jarayonlari: analiz, sintez, taqqoslash, abstraksiyalash, umumlashtirish, tasniflash, tizimlashtirish, konkretlashtirish singari aqliy operatsiyalarni izohlab bering?
- Tafakkur shakllari: hukm, xulosa chiqarish va tushunchalar haqida ma'lumot bering?
- Tafakkur shakllariga misollar keltiring?
- Tafakkur turlarini ko'rsatib o'ting?
- Tafakkurning idrok, xotira va xayol kabi bilish jarayonlari bilan o'zaro aloqadorligini izohlab bering va misollar keltiring?

### **Mini-keyslarni o'qing va tahlil qiling**

1. Imtihon paytida, seminar mashg'ulotlarida faol ishtirok qilgan talaba hayajonlanib, egallagan bilimlarini vaqtincha unutib o'zini yo'qotib qo'yadi. Kuchli hayajon, salbiy emotsiyalar uning tafakkurini cheklab qo'yadi, ya'ni fikrni bayon qilishda inertlik paydo bo'lib, keyinchalik butunlay tormozlanishga aylanadi. Ba'zi talabalar aksincha, imtihindan hayajonlanib fikrlari ravshanlashadi. Hayajonlanish, kuchli tashqi ta'sir natijasida uyqudag'i ayrim neyronlar uyg'onib, fikr yuritish jadallahish ketishi mumkin. Shuning uchun o'qitish jarayonida talaba va o'quvchilarning aqliy faoliyatini to'g'ri baholashda, ularning individual- tipologik xususiyatlarini e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

2. Tafakkur jarayoni ixtiyorsiz yuz berishi ham mumkin, lekin bu holda ular ixtiyoriy tafakkurga suyangan tarzda vujudga keladi. Jumladan, odamning amaliy, maishiy hayotida ixtiyorsiz ravishda bir qator savollar paydo bo'lishi va ularga beixtiyoriy javoblar axtarish hollari uchrab turadi. Bunday paytlarda inson fikr yurityaptimi yoki yo'qmi buni bilish qiyin, vaholanki, u o'zicha go'yo savollarga

javob topadiganday, shirin his-tuyg‘ularni boshdan kechirayotganday bo‘ladi, shuning uchun ko‘pincha yechim “tilimning uchida turibdi” deyiladi.

3.Shimoliy Amerikalik bir hindu o‘z kulbasiga qaytib kelgach, shamol tegib tursin deb daraxtga osib ketgan dudlangan go‘sht parchasi o‘g‘irlanganligini fahmlaydi. U o‘sha joyni diqqat bilan kuzatib bo‘lganidan keyin o‘g‘rining izidan tushadi. Hindu o‘z yo‘lida uchragan har bir kishidan: kattagina yoshdagi, oq tanli, o‘rta bo‘yli, kalta qurolli kishini – orqasidan dumis juda uzun va jundor kichik bir kuchukni ergashtirib ketayotgan kishini ko‘rmadingizmi, deb so‘rar edi. Ko‘pchilik kishilar chindan ham yo‘lda shunday kishini ko‘rmaganliklarini aytishar edi-yu, lekin shu zahoti umrida ko‘rmagan bir kishini qanday qilib bunchalik bat afsil tasvirlab bera olganiga hayron bo‘lib, undan sababini so‘rashar edi.

«O‘g‘rining bo‘yi uncha baland emasligini osib qo‘yilgan go‘shtni u ola olmay, oyoqlari ostiga toshlarni taxlab chiqqanidan bildim, - deb javob beradi hindu; uning kattagina yoshdagi, keksaroq kishi ekanligini o‘rmonga to‘kilgan daraxt barglariga tushib qolgan izlariga, uning qisqa-qisqa qadam tashlaganligiga qarab bilib oldim, oq tanli ekanini tovonlarini qiyshiq bosishidan bildim, hindular hech qachon bunday yurmaydilar. Uning quroli kalta bo‘lishi kerak. Buni men shundan bildimki, o‘g‘ri qurolini daraxtga suyab qo‘yanida, daraxt po‘slog‘ining ozgina joyini qirqib olibdi. O‘g‘rining kuchugi katta emasligini uning izlariga qarab bilsa bo‘ladi; dumining serjun ekanini egasi go‘sht o‘g‘rilayotganda kuchuk qumda o‘tirib, dumini likkillatganda qolgan belgilarga qarab bilib oldim».

- Hinduning idrok qilishini qanday sifatlar bilan ta’riflab berish mumkin?
- Idrok qilish va tafakkur o‘rtasidagi aloqani izohlab bering?

4. Yuqori sinf o‘quvchisi shunday faktini tan oldi: «Men kimyo juda muhim fan ekanligini yaxshi tushunaman va yaxshi o‘qishga harakat qilaman, lekin negadir shu fanni yoqtirmayman, u bilan shug‘ullanish menga unchalik qiziqarli

emas. Bu darsni tayyorlashga juda ko‘p vaqtim ketadi. Mavzuni bir necha marta o‘qiyman, lekin baribir ijobiy natijaga erishganim yo‘q».

### **Savollar:**

- O‘ziga sira yoqmasa ham zo‘r berib kimyo fanini o‘qigan bu o‘quvchida, uning shaxsiga xos qanday xususiyatlar namoyon bo‘ladi?
- O‘zlashtirilgan bilimlarning xotirada uzoq vaqt saqlanib turishi uchun qanday usullardan foydalanish zarur.

## **Test topshiriqlari**

1. Moddiy dunyodagi narsalar va hodisalarning asosiy qonuniyatlari, sharoitlari, ularning o‘zaro bog‘lanishlarining tafakkurimizda to‘liq aks ettirilishi bu tafakkurning ...?

- a) mazmundorligi;
- b) mustahkamligi;
- \*c) chuqurligi;
- d) kengligi.

2. Bu shunday tafakkur operatsiyasiki, unda narsa va hodisalarni fikran qismlarga ajratiladi va tahlil qilinadi ...?

- \*a) analiz;
- b) sintez;
- c) taqqoslash;
- d) klassifikatsiya.

3. Narsa va hodisalarning ayrim qismlarini fikran yoki amaliy ravishda birlashtirib butun holga keltirish bu ...?

- a) analiz;
- \*b) sintez;
- c) taqqoslash;
- d) tasniflash.

4. Qanday operatsiya vositasi bilan obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir-biriga o‘xhashligi va bir-biridan farqi aniqlanadi?

- a) analiz;
- b) sintez;
- \*c) taqqoslash;
- d) taniflash.

5. Narsa va hodisalarning belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr nima deb ataladi?

a) xulosa chiqarish;

\*b) hukm;

c) tushuncha;

d) konkret tushuncha.

6. Tafakkur - narsa va hodisalarni qanday aks ettirish ...?

\*a) umumlashtirib, vositali yo‘l bilan aks ettirish;

b) bevosita tarzda aks ettirish;

s) tartibga keltirish va aks ettirish;

d) mazmunini anglash va aks ettirish.

7. Umumlashtirish bu ...?

a) moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini farqlab olib, ana shu xususiyatlardan narsa va hodisalarning muhim bo‘lmagan ikkinchi darajali xususiyatlarini fikran ajratib olish;

\*b) tafakkurda aks etgan bir turkum narsalarning, o‘xhash hamda muhim belgilarini shu narsalar to‘g‘risidagi bitta tushuncha qilib, fikrda birlashtirish;

s) obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir-biriga o‘xshashligi va bir-biridan farqli tomonlarini aniqlash;

d) narsa va hodisalarni fikran yoki amaliy jihatdan tahlil qilish.

8. Abstraksiya (mavhumlashtirish) bu ....?

\*a) moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini farqlab olib, ana shu xususiyatlardan narsa va hodisalarning muhim bo‘lmagan ikkinchi darajali xususiyatlarini fikran ajratib olish;

b) tafakkurda aks etgan bir turkum narsalarning, o‘xhash hamda muhim belgilarini shu narsalar to‘g‘risidagi bitta tushuncha qilib, fikrda birlashtirish;

s) obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir-biriga o‘xshashligi va bir-biridan farqli jihatlarini aniqlashtirish;

d) narsa va hodisalarni fikran yoki amaliy jihatdan tahlil qilish.

9. Tasniflash bu ...?

- a) moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini farqlab olib, ana shu xususiyatlardan narsa va hodisalarning muhim bo‘limgan ikkinchi darajali xususiyatlarini fikran ajratib olish;
- b) tafakkurda aks etgan bir turkum narsalarning, o‘xhash va muhim belgilarini, shu narsalar to‘g‘risidagi bitta tushuncha qilib, fikrda birlashtirish;
- s) obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir-biriga o‘xhashligi va bir-biridan farqli jihatlarini aniqlashtirish;
- \*d) bir turkum ichidagi narsalarning bir-biriga o‘xhashligi va boshqa turkumdagи narsalardan farqiga qarab narsalarni turkumlarga ajratish tizimi.

#### 10. Konkretlashtirish bu ...?

- a) tafakkurda aks etgan bir turkum narsalarning o‘xhash hamda muhim belgilarini shu narsalar to‘g‘risidagi bitta tushuncha qilib, fikrda birlashtirish;
- b) obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir-biriga o‘xhashligi va bir-biridan farqli jihatlarini aniqlashtirish;
- \*s) hodisalarning ichki bog‘lanish va munosabatlaridan qat’i nazar, bir tomonlama ta’kidlashdan iborat fikr yuritish;
- d) bir turkum ichidagi narsalarning bir-biriga o‘xhashligi va boshqa turkumdagи narsalardan farqiga qarab narsalarni turkumlarga ajratish tizimi.

#### 11. Ontogenezda shakliga ko‘ra, tafakkur turlarini rivojlanish ketma-ketligini aniqlang?

- a) mavhum tafakkur, ko‘rgazmali-obrazli tafakkur, ko‘rgazmali-harakat tafakkuri;
- b) mavhum tafakkur, ko‘rgazmali-harakat tafakkuri, ko‘rgazmali-obrazli tafakkur;
- c) ko‘rgazmali-obrazli tafakkur, ko‘rgazmali-harakat tafakkuri, mavhum tafakkur;
- \*d) ko‘rgazmali-harakat tafakkuri, ko‘rgazmali-obrazli tafakkur, mavhum tafakkur.

12. Ontogenetika tafakkur shakllarining rivojlanish ketma-ketligini aniqlang?

- a) xulosa chiqarish, tushuncha, hukm;
- \*b) tushuncha, hukm, xulosa chiqarish;
- c) tushuncha, xulosa chiqarish, hukm;
- d) tushuncha, xulosa chiqarish, hukm.

### 13. Tafakkur turlari o‘rtasidagi mutanosiblikni aniqlang?

1	Ko‘rgazmali-harakat, ko‘rgazmali-obrazli	A	Topshiriq xarakteriga ko‘ra
2	Nazariy, amaliy, ixtiyorsiz, ixtiyoriy	B	Fikrning teranlik darajasiga ko‘ra
3	Konkret, abstrakt, realistik, autistik,intuitiv, diskursiv	V	Shakliga ko‘ra
4	Reproduktiv, produktiv, ijodiy, vizual, fazoviy	G	Fikr yoyiqligiga ko‘ra

Javoblar

1-B	2-A	3-G	4-B
-----	-----	-----	-----

### 14. Quyidagi tushunchalar o‘rtasidagi mutanosiblikni aniqlang?

1	Xulosa chiqarish	A	Tafakkur sifati
2	Nazariy tafakkur	B	Tafakkur jarayoni
3	Tizimlashtirish	V	Tafakkur turi
4	Mustaqilligi	G	Tafakkur shakli

Javoblar

1-G	2-V	3-B	4-A
-----	-----	-----	-----

### 15. Quyidagi tushunchalar o‘rtasidagi mutanosiblikni aniqlang?

1	moddiy dunyodagi narsa-hodisalarning asosiy	A	Tafakkur tezligi
---	---	---	------------------

	qonunlari, qonuniyatlari, xossalari, sifatlari ularning o‘zaro bog‘lanishlari, munosabatlari, tafakkurimizda to‘liq aks etganligi		
2	qo‘yilgan savolga va muammoga to‘liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi	B	Tafakkurning mustaqilligi
3	muayyan vaqt ichida ma’lum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g‘oyalar, tavsifnomalar yaratilgan hamda nazariy va amaliy vazifalar hal qilinadi	V	Tafakkurning chuqurligi
4	kishining shaxsiy tashabbusi bilan o‘z oldiga aniq maqsad, yangi vazifalar qo‘ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz, gipoteza qilish, natijani ko‘z oldiga keltira olishi, qo‘yilgan vazifani hech kimning ko‘magisiz, ko‘rsatmasiz o‘zining aqliy izlanishi tufayli turli yo‘l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyat	G	Tafakkur mahsuldorligi

### Javoblar

1-V	2-A	3-G	4-B
-----	-----	-----	-----

### 16. Berilgan fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlang?

Nº	Fikrlar	Ha	Yo‘q
1	Tafakkur faqat insongagina xos bo‘lgan yuksak bilish jarayoni	+	
2	Tafakkurning fiziologik asosini ikkinchi signallar tizimi tashkil etadi	+	
3	Tafakkur nasliy yo‘l bilan o‘tadigan xususiyat		+

4	Tafakkur va nutq bir-biri bilan uzviy bog‘liq	+	
5	Tafakkur voqelikni bevosita aks ettirish		+

Har bir to‘g‘ri javob 0,2 balldan baholanadi. Jami- 1 ball

17. Qaysi qatorda xulosa chiqarish turlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) juz’iy, taxminiy, shartli tasdiqllovchi;
- b) yakka, konkret, umumiy, abstrakt, xususiy, to‘planma;
- \*c) induktiv, deduktiv, analogik;
- d) yakka, juz’iy, xususiy analogik.

18. Ikki yoki undan ortiq hukmlardan yangi hukm hosil qilish, bu ...?

- \*a) xulosa chiqarish;
- b) tushuncha;
- c) hukm;
- d) induktiv xulosa chiqarish.

19. Narsa va hodisalarning umumiy va muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli bu ...?

- a) xulosa chiqarish;
- \*b) tushuncha;
- c) hukm;
- d) induktiv xulosa chiqarish.

20. Inson tomonidan bevosita idrok qilinayotgan narsalar emas, balki tasavvur qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikrlashdan iborat tafakkur turi bu ...?

- a) amaliy;
- \*b) nazariy;
- c) ko‘rgazmali-obrazli;
- d)fazoviy.

21.Qaysi qatorda tafakkur tushunchasiga to‘g‘ri ta’rif berilgan?

- a) insonning fikrlash faoliyati bo‘lib, tevarak-atrofdagi hodisalarini to‘la anglashga yordam beradi;
  - b) muammoli vaziyatni hal qilishga qaratilgan fikrlash faoliyati;
  - c) narsa va hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlik, munosabat va farqli jihatlarini ongda aks ettirilishi;
- \*d)barcha javoblar to‘g‘ri.

22.Tafakkur–bu oriyentirlash-tadqiqot faoliyatini oriyenterovka jarayonidir, ya’ni oriyentirovka jarayoni, oriyentirovka faoliyati. Mazkur fikr muallifi qaysi qatorda ko‘rsatilgan?

- \*a) P.Ya.Galperin;
- b) A.V. Petrovskiy;
- c) S.L.Rubinshteyn;
- d)A.N.Leontyev.

23. Tafakkur shakllarini qaysi fan sohasi o‘rganadi ...?

- a) Falsafa;
- \*b) Mantiq;
- c) Psixologiya;
- d) Kibernetika.

24.Ulug‘ rus olimi D.I. Mendeleyevning hikoya qilishicha, elementlarning davriy jadvalini tuzish vaqtida uch kechayu uch kunduz tinim bilmay mehnat qilgan, ammo bu vazifani nihoyasiga yetkaza olmagan. Undan so‘ng charchagan olim ish stoli ustida uyquga ketgan va ushbu elementlar tarkibli joylashtirilgan jadvalni tushida ko‘rgan. D.I.Mendeleyev uyqudan uyg‘onib, bir parcha qog‘ozga tushida ayon bo‘lgan jadvalni ko‘chirib chiqqan. Sizningcha mazkur jarayon qaysi tafakkur turining mahsuli hisoblanadi?

- a) amaliy;
- \*b) ixtiyorsiz/intuitiv;
- c) ixtiyoriy/analitik;
- d) abstrakt tafakkur.

25."Agar siz tabiatdagi biron bir narsani aniq tarzda tushunib olishni istasangiz, uning o‘ziga juda o‘xhash bo‘lgan narsalardan tafovutini toping va uning o‘zidan juda uzoq bo‘lgan narsalar bilan ayrim o‘xhashligini aniqlang. Siz narsaning eng muhim belgilarini payqab olasiz va tushunib yetasiz" ushbu fikr qaysi tafakkur operatsiyasining mazmunini olib berishga qaratilgan?

- a) analiz;
- b) sintez;
- \*c) taqqoslash;
- d) umumlashtirish.

## V bob. SHAXSNING HISSIY VA IRODAVIY JIHATLARI

- 5.1. Hissiyot haqida tushuncha.
- 5.2. Hissiy kechinmalarining ifodalanishi.
- 5.3. Yuksak hislarning psixologik tavsifi.
- 5.4. Iroda haqida tushinchasi.
- 5.5. Irodaviy aktning tuzilishi.
- 5.6. Shaxsning irodaviy sifatlari.

### **5.1. Hissiyot haqida tushuncha**

Odam atrofidagi turli-tuman narsalar va hodisalarni idrok etish orqali, aks ettirar ekan, ularga nisbatan ma'lum bir munosabatda bo'ladi. Kishilar idrok etayotgan(ko'rayotgan, eshitayotgan, his qila-yotgan) amalda bajarayotgan, o'layotgan, orzu qilgan narsalar va hodisalarga befarq bo'lmaydilar.

Ayrim narsalar, voqeа-hodisalar, kishilar va ularning fe'l-atvori, amallari bizni quvontiradi, boshqalari xafa qiladi yana boshqalari g'azab, nafratimizni uyg'otadi. Ba'zan xavf-xatar ostida qolganimizda qo'rquvni his qilamiz, kimnidir ustidan g'alaba qozonish yoki mavjud qiyinchilikni yengib o'tish zavq uyg'otadi.

Hissiyot orqali bizda tug'iladigan ichki kechinmalar va munosabatlar aks ettiriladi, hissiy kechinmalar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki tashqi olamdagи narsa va hodisalarning ta'siri bilan, ularga bog'liq ravishda yuzaga keladi.

**Emotsiya** – shaxsning voqelikka o'z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog'liq bo'lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalaridir. Keltirilgan ta'riflardan ko'rinadiki, hissiyot tushunchasi emotsiyaga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, shaxsning kundalik hayoti, turmush tarzidagi barcha jabhalarni qamrab oladi.


His-tuyg‘ular o‘zining yuzaga kelish nuqtayi nazaridan odamning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, odamning organik(ovqarlanish, tashnalikni qondirish) ehtiyojlarini qondirishi bilan bog‘liq bo‘lgan emotsiyalar odamda rohatlanish, qanoatlanish tuyg‘usini yuzaga keltiradi. Hayotiy zarur bo‘lgan ehtiyojlarni o‘z vaqtida qondira olmaslik odamning ruhini tushirib, kayfiyatini buzadi, azoblanish, toqatsizlanish hissiga sabab bo‘ladi.



Odamning hissiy kechinmalari mazmuni hamda shakllari, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot, jamiyatdagi sharoit bilan bog‘liq bo‘ladi. Ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davrida odamning ehtiyojlari o‘zgarib boradi, natijada odamda borgan sari yangi hissiyot, chunonchi, ma’naviy, axloqiy va estetik hislar paydo bo‘ladi.

His-tuyg‘ular ham boshqa bilish jarayonlari kabi odamning turli-tuman faoliyati davomida namoyon bo‘ladi. Masalan, mehnatsevarlik hissini yuzaga keltirish uchun ma’lum muddat davomida ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanish talab etiladi, u yoki bu faoliyat davrida yuzaga kelgan hissiyot ana shu faoliyatning o‘ziga ta’sir qilib, uni o‘zgartiradi. Masalan, xohlamasdan o‘zini majbur qilib ishlayotgan odam bilan o‘zi xohlab sidqidildan mehnat qilayotgan odamning ish unumidorligi o‘rtasida juda katta farq mavjud. Odamning kayfiyati yaxshi, xursand, ruhi tetik bo‘lganda ishi ham barakali bo‘ladi, aksincha, odamning dili xufton, qandaydir tashvishli yoki g‘amgin bo‘lganda qo‘li ishga bormaydi.

- Eng oddiy emosiyalar asosida shartsiz reflekslar, miya po’stlog‘i ostida ro'y beradigan jarayonlar yotadi, ularni bosh miya katta yarim sharlari po’stlog‘ining faoliyati orqali nazorat qilinadi.
- Katta yarim sharlar po’stlog‘idagi shartli reflekslar, muvaqqat aloqalar tizimlari ancha murakkab his-tuyg‘ularning fiziologik asosi sanaladi.



Ana shu jihatdan olganda hissiyotning inson hayotidagi roli juda kattadir. Hissiyot boshqa bilish jarayonlariga ham ta’sir qiladi, masalan, odamning ruhi tetik, xursand bo‘lgan paytda, narsa va hodislarni idrok etishi jonli, esda olib qolishi hissiy kechimalarga boy, tafakkuri o‘tkir, nutqi burro bo‘ladi.

Jahon psixologiyasida «hissiyot» bilan «emotsiya» atamalari (ayniqsa chet mamlakatlarda) bir xil ma’noda ishlatiladi, lekin ularni aynan bir xil holat deb tushunish mumkin emas. Mazkur kamchilik aksariyat hollarda, ayniqsa

ommabop adabiyotlarda, xorijiy mamlakatlarda chop etilgan qo'llanmalarda uchraydi.

Odatda, tashqi alomatlari yaqqol namoyon bo'ladigan his-tuyg'ularni ichki kechinmalarda ifodalanishdan iborat psixik jarayon yuzaga kelishining aniq shaklini emotsiya deb atash maqsadga muvofiq. Masalan, ranglarning o'zgarishi, yuzdagi tabassum, lablarning titrashi, ko'zlarning yarqirashi, kulgu, yig'i, g'amginlik, ikkilanish, sarosima va boshqalar emotsiyaning ifodasidir.

Vatan tuyg'usi, javobgarlik hissi, mas'uliyat, vijdon, mehr-oqibat, sevgi-muhabbat singari yuksak xislatlarni emotsiya tarkibiga kiritish g'ayritabiyy hodisa hisoblanar edi. Ushbu hissiy kechinmalar o'zining mohiyati, kuch-quvvati, davomiyligi, ta'sirchanligi, yo'nalganligi bilan bir-biridan keskin farq qilishlariga qaramay, ularni oddiy emotsiya sifatida talqin qilish to'g'ri kelmaydi. Shu boisdan ularning o'zaro eng muhim farqi shundaki, biri ijtimoiy (hissiyot), ikkinchisi esa (emotsiya) individual, xususiy ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlab o'tilgan mulohazalarga qaramasdan, hissiyat bilan emotsiyaning o'zaro bir-biridan qat'iy cheklab qo'yish ham ba'zi anglashilmovchilikni keltirib chiqarishi mumkin. Faoliyat, xulq-atvor, muomala subyekti o'zining shaxsi hamda jamiyati uchun ahamiyatli hisoblangan narsalar va hodisalarini aks ettiruvchi munosabati hissiyotda mujassamlashadi.

Shaxsning individual hayoti va faoliyatiga aloqador omillar, qo'zg'ovchilar, turtkilarni ifodalovchi hamda kelib chiqishi instinctlar, shartsiz reflekslar, irsiy belgilari (ovqatlanish, jinsiy, himoyalanish, qo'rqish va boshqalar) bilan bog'liq sodda hissiy holatlar «emotsiya» deyiladi. Emotsiyalar nafaqat insonlarga, balki jonli mavjudodlarga ham taalluqli ruhiy (psixik) holatlardir. Hayvonlardagi emotsiyalar o'zgarishi murakkab bo'lgan tabiiylik (irsiy) alomatlarga asoslanuvchi sodda tuzilishga egadir.

Odam bilan hayvon emotsiyalari o'zlarining yuzaga kelish mohiyati, tuzilishi, sifati va shakliga ko'ra keskin farqlanadi. Emotsiyalar tashqi ko'rinishga xosligi, muvaqqat xususiyatga ega ekanligi, vaziyat asnosida yuzaga

kelishi bilan ham hissiyotdan farqlanadi. Shuni aytib o‘tish joizki, his-tuyg‘ular hayvonot olamiga xos kechinma emas, u aql-zakovat subyekti sanalgan insongagina xos bo‘lib, hamdardlik tuyg‘ulari shaxsdagi mukammallik negizidir.

Hissiyot bilan emotsiya (uning yuksak darajalari nazarda tutiladi) inson shaxsining ijtimoiy hayotiy shart-sharoitlarida yuzaga kelgan, odamning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida shakllangan (evolutsion yo‘sinda), muayyan ijtimoiy muhitda(jamiyatda) yashaydigan kishilar tomonidan o‘zlashtirilgan g‘oyalar, me’yorlar, qonun-qoidalar, qadriyatlarni aks ettiruvchi anglangan his-tuyg‘ular, murakkab ichki kechinmalarni vujudga kelish jarayonidir.

## 5.2. Hissiy kechinmalarning ifodalanishi

**Hissiy ton (tus).** Hissiy kechinma aksariyat hollarda emotsional tus sifatida vujudga keladi, shaxsning o‘ziga xos munosabatni namoyon qiluvchi narsalar, hodisalar va harakatlarning alohida xususiyati sifatida gavdalanadi. Masalan, yoqimli suhbatdosh, kulgili hangoma, badbo‘y hid, ma’nosiz film, qiziqarli mashg‘ulot, iboli qiz, odobli bola, badfe’l xulq va boshqalar.

Emotsional ton yoki hissiy tus (masalan, affektiv ton) ba’zi hollarda ko‘pchilik shaxslarda deyarli bir xil taassurot kasb etishi mumkin, jumladan, og‘riq hissi yoqimsiz(noxush) hissiy ton bilan ajralib turadi. Masalan, kimyoviy moddalar birikmasidan tarqalgan hidlar barcha ruhan sog‘lom insonlar uchun yoqimsiz bo‘lib, jirkanish hissini uyg‘otadi. Shuningdek, ba’zi ranglar omuxtasi, shilimshiq pardalarning qo‘zg‘olishi, idish-tovoqlarninig shaqirlashi, beton qorishmasidagi shag‘alning tovushi, metallni egovlashdagi g‘ijirlash xuddi shunday iz qoldiradi.

Hissiy ton shaxs ehtiyojlarini atrofdagi narsalar va vaziyatlar qoniqtirishi yoki qoniqtirmasligi, faoliyatning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz kechishini yaqqol namoyish etishga xizmat qiladi. Shaxsning psixologik xislatalriga binoan hissiy ton alohida o‘rin tutadi, ayrim kishilar boshqalar uchun

befarq tuyulgan narsalarga ham o‘ziga xos munosabatni namoyish qiladilar, masalan, jun matoga qo‘l orqali tegishni, xom baliq, dog‘langan yog‘ hidlarini yoqtirmaydilar.

Shuni alohida ta’kidlash o‘rinliki, ko‘rish, eshitish, hidlash, kinestetik (harakat) sezgilar hamda idrok jarayoniga taalluqli hissiy ton muhim amaliy ahamiyatga ega. Masalan, xonalar, ish joyi, transport vositalarining rangi tufayli yuzaga kelgan hissiy ton(yoqimli yoki yoqimsiz) mehnat faoliyatining samaradorligiga, ishchi-xodimlarning kayfiyatiga sezilarli ta’sir o‘tkazadi.

Kimyoviy o‘g‘itlar, sabzavotlarning yoqimsiz hidi, ishlab chiqarishdagi shovqinlar, tovushlar hissiy ton jihatidan mehnat unumдорligini pasaytiradi. Ish joyidagi yorug‘ va shinam xonalar, yaratilgan qulay sharoit, kishilardagi ruhiy xotirjamlik, yoqimli munosabatlar muvaffaqiyat garovi hisoblanadi.

**Emotsiyalar.** Emotsional kechinmalar tashqi qiyofada yaqqol ifodalanadi, biz odamning tashqi ko‘rinishiga qarab turib, undagi quvonch yoki g‘amginlik, achchiqlanish yoki vazminlik, g‘azab yoki mehr hissini ajrata olamiz. His-tuyg‘ularning tashqi alomatlari ifodali harakatlar deb ataladi.

*Birinchidan*, emotsiyalar nafas olish a’zolarining ishlarida o‘zgarish yasaydi. Masalan, yoqimli his-tuyg‘ular ishga tushganda nafas olish tezligi va doirasi ortadi, yoqimsiz his-tuyg‘ular ustun kelganda kamayadi, qo‘zg‘alish vaqtida nafas olish harakatlari tezlashadi hamda chuqurlashadi.

*Ikkinchidan*, emotsiyalar imo-ishoralarda, kishining yuz ifodasi (mimika)da hamda butun gavdaning turli-tuman ma’noli harakatlarida aks etadi.

*Uchinchidan*, gumoral harakatlardagi, ya’ni organizmning qon tarkibidagi va boshqa suyuqliklardagi kimyoviy o‘zgarishlarni va shu bilan birga modda almashishida kechadigan yanada chuqur o‘zgarishlarni o‘z tarkibiga oladi.

Har bir kishi o‘z emotsiyasining tashqi ifodalanishini ma’lum darajada o‘zgartirishi mumkin, yuz ifodasi, gavda harakatlari, imo-ishoralar, ko‘z qarashlari tovushning ohangi muhim ahamiyatga ega, shunchaki xo‘mrayish,

tabassum qilish, yelka qisish kabi ifodali harakatlar ham kishining muddaosini anglatadi.

**Kayfiyat.** Shaxsning kuchsiz yoki o‘rtacha kuchga ega bo‘lgan, birmuncha uzoq davom etadigan, nisbatan barqaror umumiyligi emotsiyonal holati kayfiyat deb ataladi. A.V.Petrovskiyning “Umumiyligi psixologiya” kitobida, kayfiyat - ancha vaqt davomida kishining butun xatti-harakatiga tus berib turadigan umumiyligi hissiy holatini ifoda etadi, deb ta’kidlanadi. Professor E.G‘oziyevning fikricha, kayfiyat shaxsning ruhiy jarayonlariga muayyan vaqt davomida tus berib turuvchi emotsiyonal holatdir.

Odamning xursand yoki g‘amgin kayfiyati hech qachon o‘z-o‘zidan sababsiz yuzaga kelmaydi, amalga oshirilayotgan biror ishning mavaffaqiyatli tugashi tetik kayfiyatni yuzaga keltiradi, ishning oldinga yurmasligi yoki ishga berilgan salbiy baho o‘z kuchiga ishonmaslik kayfiyatini tug‘diradi.

Kayfiyatning xush yoki noxush bo‘lishi, odamning salomatligi, uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit(oiladagi o‘zaro munosabatlar, do‘stlar davrasi, hamkasblar), ish faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarga bog‘liq hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, odam o‘z kayfiyatining quli bo‘lib qolmasligi, balki uni boshqarishi lozim bo‘ladi, kayfiyatini idora qila biladigan odamlarning doimo ruhi tetik, kayfiyati chog‘ va faoliyati samarali bo‘ladi.

- **KAYFIYAT** - zaif yoki o`rtacha kuchga ega bo`lgan va odatda ancha barqaror emosional holatdir. Fransuz yozuvchisi Mopassan bunday degan edi: "Bizning vaqtি chog`ligimizni qayg`uga, laqmaligimizni azobga aylantiradigan o`sha sirlи ta`sirlar qaerdan kelib chiqadi? Men juda xursand bo`lib uyg`onaman, qo`shiq aytgim keladi. Buning sababi nima? Daryo bo`ylab pastga tushaman va unchalik ko`p sayr qilmay, to`satdan uyga g`amgin bo`lib qaytaman... buning sababi nima?". Bu sababsiz bo`lib tuyulgan tipik kayfiyat namunasi.



**Affektlar.** Affekt – yuqori sur’atda tez paydo bo‘lib, kuchli shiddat bilan o‘tadigan nisbatan qisqa muddatli emotsiyonal holatdir.

A.V.Petrovskiyning “Umumiy psixologiya” darsligida affekt holatining haddan ziyod tez kechishi, shaxsni tez qamrab olishi, jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirishi orqali jarayonlar ustidan irodaviy nazorat buzilishiga yetaklovchi, organizm a’zolari funksiyasini izdan chiqaruvchi emotsiyonal holatga aytildi.

Affekt lotincha so‘z bo‘lib, ruhiy hayajon ma’nosini anglatadi.

Affektlar ko‘pincha to‘satdan paydo bo‘ladi va ba’zan bir necha daqiqa davom etadi. Affekt holatida ongning tasavvur qilish, fikrlash doirasi torayadi, odamning harakatlari kutilmagan tarzda portlash singari to‘satdan boshlanib ketadi, ba’zan affektlar tormozlanish holati tarzida ham namoyon bo‘ladi va ushbu holatda organizm bo‘shashib, karaxt ahvolga tushadi. Bunday holat ko‘pincha odam birdaniga qo‘rqanida, o‘zini yo‘qotib qo‘yish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Affekt holatini boshdan kechirganda shaxs insoniy qadriyatlardan uzoqlashadi, qilayotgan harakatining oqibati to‘g‘risida ham o‘ylamaydi, kuchli zo‘riqish oqibatida mayda kuchsiz harakatlar barham topadi, jahl, g‘azab, nafratlanish va ba’zan o‘ch olish hissi ustunlik qiladi.

Affektiv holatlar odatda mas’uliyatsizlik, axloqsizlik, mastlik alomatlarida o‘z kuchini ko‘rsatadi, kuchli hayajon o‘tib bo‘lgandan keyin shaxsning ruhiyatida charchoq holati hukm suradi, holsizlanish, loqayd munosabat yuzaga keladi.



**Stress holatlar .** Stress – inson organizmining haddan tashqari zo‘riqishi natijasida paydo bo‘ladigan tanglik holatidir.

Stress inglizcha stress so‘zidan olingan bo‘lib, jiddiylik, keskinlik, zo‘riqish degan ma’no anglatadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keskin vaziyat tufayli vujudga keladigan emotsiyal holatlarni tadqiq etish psixologiya, fiziologiya, tibbiyot fanlarida keng qo‘lamda amalga oshirila boshlandi.

Stress – og‘ir jismoniy va aqliy yuklamalar, ishning me’yordan oshib ketishi, xavfli vaziyatlar tug‘ilganida zaruriy chora-tadbirlarni zudlik bilan topishga intilganda vujudga keladigan hissiy zo‘riqishlardir.

Psixologiya faniga stress tushunchasini olib kirgan olim kanadalik fiziolog G.Selye (1936) sanaladi. U stressni tadqiq qilishda moslashuv alomati masalasiga, uning faoliyatga ijobiy hamda salbiy ta’sir etishiga alohida ahamiyat bergen. Shuningdek, ekstremal (favqulodda) vaziyatlarda yuzaga kelgan stressning o‘ziga xosligi, faoliyatni qayta tashkil qilishgacha olib borishi, shunga o‘xhash sharoitlarda shaxs xulqini bashorat etish imkoniyatlari o‘rganilgan.

Tadqiqotchi U.Kennonning gomeostaz (yunoncha - o‘xhashlik ma’nosini bildiradi) haqidagi ta’limotida stress holati o‘rganilgan. Gomeostazda moslashish yaqqol o‘z ifodasini topadi, uning fikriga ko‘ra, faoliyat shakllarini amaliyotga tatbiq etishda nerv tizimi va miya funksiyasini oqilona ta’minlab turish va saqlashda gomeotaz muhim o‘rin tutadi.

Stress holatida shaxsning alohida psixologik xususiyatlari, turmush tarbiyasi, shakllangan malakasi muhim rol o‘ynaydi, keskin vaziyatlarning oldini olishda shaxsning oliy nerv faoliyati, asab tizimi xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi, yuksak his-tuyg‘ular (mas’uliyat, burch, javobgarlik hissi va boshqalar) stress holatida xatti-harakatlarning buzilishini oldini olishga xizmat qiladi.

• **STRESS** – odamni kuchli, chuqur larzaga keltiradigan his-tuyg‘ular oqibatidagi emotsiyal holat. Ushbu holat kuchli psixik zo‘r berishlarda: xavf - xatar vaqtida, ortiqcha jismoniy va aqliy mehnat qilishda, faoliyatning juda qiyin va mas’uliyatli damlarida vujudga keladi.



### **5.3. Yuksak hislarning psixologik tavsifi**

Kishilik jamiyati bilan hayvonot olami o‘rtasida psixologik tafovutlar yuksak hislarda o‘z ifodasini topadi. Yuksak hislar ongli harakatlarni bajarishning obyektiv sharoitlari, yo‘nalishlari. mazmuni bilan uyg‘unlashgan shaxs emotsiyal holatining barqaror, murakkab tarkibida paydo bo‘ladi va kechadi.

Boshdan kechirilayotgan turli-tuman emotsiyalar, affektlar, kayfiyat va ruhiy zo‘riqish(stress) holatlarda aks etadigan, o‘zaro uyg‘unlikni ifodalaydigan yaqqol kechinmalar yuksak hislar deb ataladi. Ular o‘z tarkibiga sodda shakldagi hislarni ham qamrab oladi, lekin yuksak insoniy his-tuyg‘ular oddiy hislar yig‘indisidan iborat emas, o‘zining mazmuni, sifati, shakli bilan alohidalikka ega.

Shaxsda berilgan topshiriqni bajarish bilan bog‘liq javobgarlik hissi, turli-tuman shaklda, har xil ma’noda boshdan kechiriladi:

- tashvishlanish emotsiyasi (bir tomondan xursandlik, ikkinchi tomondan esa qo‘rquv hissini boshdan kechirish) sifatida;
- o‘z kuchi va imkoniyatiga ishonch hissining yuzaga kelishi tariqasida;
- belgilangan vazifaga jiddiy e’tibor qaratmaydigan tengdoshlaridan g‘azablanish emotsiyasi sifatida;

- shart-sharoitlarni hisobga olishga nisbatan shubhalanish sifatida.

Mazkur tahlildan ko‘rinib turibdiki, javobgarlik hissining mohiyati his tuyg‘ularning oddiy yig‘indisidan iborat emas, balki jamoa a’zolarining manfaatlarini hisobga olgan holda voqelikni anglashdir.

Masalan, kitob o‘qish orqali yuzaga keladigan rohatlanish hissi bilan, kitobni o‘qib tugatishdagi shodlik hissini farqlash lozim bo‘ladi.

Psixologiya fanida yuksak hislar quyidagi turlarga ajratiladi:

- ❖ mehnat faoliyati davomida kechiriladigan hislar – praksik hislar (yunoncha-*praxis* so‘zidan olingan bo‘lib, ish, faoliyat, yumush degan ma’noni anglatadi);
- ❖ intellektual hislar (lotincha *intellectus* degan so‘zdan olingan bo‘lib, tushunish, aql degan ma’noni bildiradi);
- ❖ axloqiy hislar (lotincha *moratis* so‘zidan olingan bo‘lib, axloqiylik degan ma’noni anglatadi);
- ❖ estetik hislar (yunoncha *aistesis* degan so‘zdan olingan bo‘lib, hissiy idrok, hissiy degan ma’noni aks ettiradi).

**Praksik hislar.** Shaxsning amaliy hayotining istalgan tarmog‘i, maqsadga muvofiq ongli faoliyati shaxsning ularga nisbatan muayyan munosabatda bo‘lishning muhim sohasiga aylanib qoladi.

Mehnat faoliyatida shaxs:

- biror maqsadni anglaydi;
- uni e’tirof etadi yoki inkor etadi;
- maqsadga erishish yo‘llarini baholaydi;
- unga tatbiq etish usullari va vositalarini ma’qullaydi yoki ma’qullamaydi;
- ularning tanlanganligiga shubhalanadi;
- inson munaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik hissini boshdan kechiradi.

Mehnat shaxs hayotining negizi hisoblanib, uning mehnatga bo‘lgan ijobiy emotsiyonal munosabatlari orasida yuksak hislar – muhim o‘rin tutadi. Mehnat

jasorat tuyg‘usi, shodlik makoni, ijobiy kayfiyat manbai, muvaffaqiyatning tantana hissidan tashkil topgandir. Mamlakatimizda mehnat zo‘r qoniqish, ko‘tarinki his-tuyg‘uni vujudga keltiradi, shuningdek, u anglashilgan ehtiyoj, farovonlik manbaidir. Xalqimiz mehnat muvaffaqiyati bilan kelajagi buyuk davlatimiz ravnaqiga hissa qo‘shadi.

**Axloqiy hislar.** Axloqiy hislarda shaxsning boshqa odamlarga, mehnat va maktab jamoasiga hamda o‘zining ijtimoiy burchiga munosabatlari yaqqol mujassamlashadi. Inson axloqiy hislarini butun vujudi bilan his qilar ekan, albatta ijtimoiy axloq tamoyillari va me’yorlariga asoslangan holda kishilarning xatti-harakatlarini, psixik xususiyatlarini, shaxsning xulq-atvorini baholaydi.

Yuksak his-tuyg‘ularning eng oliy darajasi **Vatan tuyg‘usi** bo‘lib, bu tuyg‘u inson bolasining ilk yoshlik davridanoq uning qalbiga singib boradi.

**Vatan hissi**, shu ona-Vatanning egasi bo‘lgan xalqni bilish, uning qadriga yetish, tan olish hamda uning buyukligini e’tirof etishdan boshlanadi.

Vatan va xalq egizak tushunchalar bo‘lib, birini his qilish uchun ikkinchisini bilish va anglash lozim bo‘ladi, shuning uchun O‘zbekiston deganda, o‘zbek xalqini tushunamiz, o‘zbek millatisiz O‘zbekistonni tasavvur qila olmaymiz.

Vatan hissi – bu o‘zbek xalqini sevmoq, hurmat qilmoq, qadriga yetmoq va e’tirof etmoqdir, xalqimiz uchun shu yurt, shu muqaddas tuproqni sevish, uning qadriga yetish – buyuk ne’mat va shu bilan birga, yuksak mas’uliyat hamdir.

Axloqiy hislar tarkibiga mas’uliyat, javobgarlik, fidoiylik, vijdon,adolat, iffat, or-nomus, g‘urur, o‘rtoqlik, do‘stlik kabi tuyg‘ular kiradi.

**Intellektual hislar.** Mazkur hislarda shaxsning haqqoniy jonli, mantiqiy mushohadalari, ajablanarli, shubhali, goh tushunarli, goho tushunib bo‘lmaydigan, ba’zida hayratda qoldiradigan fikrlarga nisbatan munosabatlari ifodalananadi.

Intellektual hislarga hayajonlanish, ajablanish, shubhalanish, qiziqish, qiziquvchanlik, shodlanish, ishtiyoqmandlik va boshqalarni kiritish mumkin.

Xayratlanish va ajablanish – shaxs bilish faoliyatining ajralmas qismi sanaladi, ushbu emotsional holatga berilgan shaxs dunyoning sir-sinoatlarini bilishga intiladi, haqiqatni izlash faoliyatini amalga oshiradi.

**Estetik hislar.** Ma'lumki, estetik hislarga hamisha tayangan axloqiy hislar o'zlarining taraqqiyotini maqsadga yo'naltirilgan holda amalga oshiradi.

Shaxs tabiat va jamiyatning turli omillariga hamda ularning san'atkorona aks ettirilishiga go'zallik yoki xunuklik, fojiali yoki dramatik, oljanob yoki razil, nozik va dag'al, xushbo'y yoki noxush, yoqimli yoki yoqimsiz hodisalar, holatlar sifatida munosabatda bo'ladi. Estetik hislar muayyan mezondagi baholarda, nafosat me'yorlarida, ma'lum ta'b va didda ro'yobga chiqadi va o'ziga xos badiiy lazzatlanish, go'zallikni his etish holatida kechadi.

Ushbu tuyg'ular ijobiy va salbiy sifatlar orqali ajralib turadi, nafis go'zallik, nafosatni qalban his qilish shaxsning madaniy saviyasini belgilaydi.

#### **5.4. Iroda haqida tushincha**

Odamning shaxs sifatidagi faollik xususiyati, o'z ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan harakatlari faqat instinkтив emas, balki oqilona, ongli harakatlardir, chunki odam biron-bir maqsadni ko'zlab harakat qiladi, maqsadga erishish yo'lida yordam bera oladigan vositali yo'l va usullarni oldindan qidirib topadi, to'siqlar va qiyinchiliklarni yengish uchun ongli ravishda kuch-g'ayratini ishlata oladi.

Odam faqat madaniy-ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishdagina emas, balki tabiiy-biologik ehtiyojlarini qondirishda ham ongli ravishda ish tutadi.

Odam tevarak-atrofdagi narsalarni o'zgartirib o'ziga moslashtirar ekan, yangilik yaratadi, ijod qiladi, shu yangilikni tevarak-atrofdagi voqelikka qo'shadi, voqelikni o'zgartiradi va to'ldiradi, odam harakat qilmasdan tura olmaydi. Ana shu jihatdan olganda odamning barcha harakatlarini ikki turkumga ajratish mumkin:

birinchisi ixtiyorsiz harakatlar bo'lsa, ikkinchisi ixtiyoriy harakatlardir.

Odamning ixtiyorsiz harakatlari qat'iy bir maqsadsiz, ya'ni reflektor tarzda yuzaga keladi. Masalan, yo'talish, aksa urish, ko'zning ohib yumilishi va shu kabilar. Ushbu harakatlarni odam oldindan o'ylab rejalashtirmaydi, ixtiyorsiz harakatlar har qanday sharoitda yuz berishi mumkin.

Irodaviy harakatlarda har doim maqsad aniq bo'ladi, odam o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqadigan natijalarni ham oldindan tasavvur eta oladi. Ana shuning uchun har qanday qiyinchiliklarni yengib bo'lsa ham o'z maqsadini amalga oshirishga intiladi. Masalan, yangi uy qurayogan odam, mazkur faoliyat natijasi qanday bo'lishini oldindan tasavvur qila oladi, shuning uchun har qancha qiyinchilik bo'lsa ham uni yengib o'tib, ishni davom ettiradi.

Odamning irodaviy harakati to'la determinizm, ya'ni sababiy bog'lanish qonuniga bo'ysunadi, shu bilan birga irodaviy harakatlarning bevosita sabablari sifatida, ushbu harakatlarni belgilab beradigan hayotiy vaziyatlar bo'lishi mumkin.

Odamning irodaviy faoliyati obyektiv voqelik bilan uzviy bog'liq holda kechadi, uning muhim xususiyatlaridan biri, irodaviy harakatlarni odam hamma vaqt shaxs sifatida amalga oshiradi, irodaviy faoliyat tufayli shaxs har tomonlama o'zini anglaydi, o'zining hayot yo'li va taqdirini belgilashi mumkin bo'ladi.

Oldindan rejalashtirilmagan xatti-harakatlarni **irodaviy harakatlar** deb bo'lmaydi. Ko'p hollarda iroda faqat muayyan bir vaziyat yoki qiyinchilik ustidan g'alaba qozonish emas, balki o'z-o'zini yengish hamdir, bu ayniqsa, muvozanatsiz, hissiy qo'zg'aluvchan, sust kishilarga xos bo'lib, ular o'zlarining tabiiy xarakterologik xususiyatlari bilan kurashishlariga to'g'ri keladi.

Hech bir muammo irodaning ishtirokisiz hal etilmaydi, odam o'zining iroda kuchisiz katta muvaffaqiyatlarga erisha olmaydi. Odamzod boshqa tirik mavjudotlardan o'zining ongi va aqli bilangina emas, balki irodasining mavjudligi bilan ham ajralib turadi.

Irodaviy harakatlarning nerv - fiziologik asosida bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ining shartli reflekslar hosil qilishdan iborat bo'lgan murakkab faoliyati yotadi. Irodaviy harakatlar har doim ongli harakatlar bo'lgani uchun ham, bosh miya po'stlog'ida yuzaga keladigan eng maqbul (optimal) qo'zg'alish o'choqlariga bog'liq bo'ladi. Bu haqda akademik I.P.Pavlov shunday deb yozgan edi: "Mening tasavvurimcha, ong ayni shu chog'da xuddi shu sharoitning o'zida ma'lum darajada maqbul (optimal) qo'zg'alishga ega bo'lgan bosh miya katta yarim sharlarining ayrim joylaridagi nerv faoliyatidan iborat".



### **Irodaning nerv-fiziologik asoslari**

Bundan tashqari, irodaviy harakatlar ongli amalga oshirilishi tufayli ikkinchi signallar tizimining faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Ma'lumki, odam ayrim nojo'ya harakatlardan o'zini-o'zi so'zlar(ichki nutq, mantiqiy fikrlash) orqali ushlab qoladi, shuning uchun irodaviy, ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirishda ikkinchi signallar tizimining roli juda kattadir.

Akademik I.P.Pavlov ikkinchi signallar tizimiga baho berib, "...bu signallar tizimi insonlar xulq-atvori va ixtiyoriy harakatlarning yuksak

boshqaruvchisidir...” – degan edi, shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, irodaiy harakatlarda ikkinchi signallar tizimi, birinchi signallar tizimiga asoslangan holda ishlaydi.

### **5.5. Irodaviy aktning tuzilishi**

Ixtiyoriy harakatning dastlabki nuqtasi harakat maqsadining vujudga kelishi va o‘rtaga qo‘yilishi bo‘lib, uning tuzilishini quyidagicha izohlash mumkin.

**Maqsad** – kishining aynan ma’qul deb topgan ish harakati va uning narijasini tasavvur etishidan hosil bo‘lgan obraz(timsol) hisoblanadi.

Maqsadni tasavvur qilish odatda shu maqsadga erishish istagi va uni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lib, quyidagicha ifodalanadi, xatti-harakatdan kutilgan maqsad turlicha tasavvur etilishi mumkin. Maqsad qanchalik yaqqol ifodalangan bo‘lsa, unga erishish yo‘lidagi intilish ham shuncha aniq bo‘ladi.

Maqsadni ko‘zlash, avvalo kishining ehtiyojlariga bog‘liq, ko‘pincha kishining maqsadni ko‘zlashi va biron-bir narsaga intilishi tevarak-atrofdagi tabiiy vaziyatga yoki xuddi shu paytda kishi yashayotgan jamiyatdagi ijtimoiy normalarga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, kishi qiyin vaziyatga tushib qolsa, ushbu noqulay vaziyatdan bir amallab chiqish, qutulishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi, buning uchun vaziyatni ma’lum darajada o‘zgartirish talab etiladi.

Odamda yuzaga keladigan ehtiyojlar, darrov yaqqol tasavvur qilinadigan maqsad tarzida hosil bo‘la qolmaydi, ko‘ngildan kechayotgan ehtiyoj va intilishlar turli darajada anglanishi va turlicha tasavvur qilinishi mumkin.

Masalan, odamda paydo bo‘ladigan ehtiyoj va intilishlari ba’zan istak tarzida ko‘ngildan kechadi - kishi hozirgi ahvoldan noroziligini his qilib turadi, lekin maqsadga qanday erishish, unga doir yo‘l-yo‘riqlarni aniq bilmaydi. Ko‘ngildan o‘tayotgan istak paytida kishi qanday maqsad sari intilayotganini anglab yetmas ekan, uni bevosita amalga oshirish mumkin bo‘lmaydi.

Ehtiyoj ko‘ngildan kechib, ehtiyojni qondirishga intilish maqsadi ham anglaniladi, bunday anglanilgan ehtiyojlar tilaklar, orzu-havaslar deb ataladi, ammo odam o‘z intilishlarining maqsadini tasavvur qilganda ham shu maqsadga yetishish yo‘llari va vositalarini hali tasavvur qila olmasligi mumkin. Bunday to‘la anglanilmagan intilishlar (tilaklar, havaslar) ba’zan xayol surish, ba’zan esa amalga oshmagan orzu ko‘rinishida aks etadi. Ayrim odamlar maqsadga erisha olmagani tufayli armon qiladilar, o‘zlarini ham, tevarak-atrofdagi kishilarni ham ayplashga urinadilar, aslini olganda ular ko‘pincha yaxshi orzular qanotida parvoz qilishadi, lekin amalda yetarli darajada samarali faoliyat ko‘rsata olishmaydi.

Har bir kishining anglab, ko‘ngildan kechiradigan ehtiyojlari ko‘p, uning irodaviy harakatlari va intilishlari ham shunga mos bo‘ladi, mavjud ehtiyojlar kishining xilma-xil maqsadlarda doimo zohir bo‘lib turadi va unda ushbu maqsadlarga erishish va ularni ro‘yobga chiqarish istagi tug‘iladi. Maqsad qo‘yish bilan bir vaqtda, unga erishish uchun qanday yo‘l tutish, qaysi usul hamda vositalardan foydalanish, to‘sqliarni yengib o‘tish masalasi kelib chiqadi.

Bir necha maqsadlar ko‘ngilga kelib, shulardan biriga turli yo‘l va usullar orqali erishish mumkin bo‘lsa, kishi muayyan bir maqsadni tanlab olishi va shu maqsadga yetish uchun zarur bo‘lgan yo‘lni tanlab olishi kerak. Shunga ko‘ra, shaxs o‘zining ijtimoiy foydali mehnat faoliyatida, o‘quv faoliyatida, kundalik hayotdagi shaxsiy ishlarida, boshqa kishilarga bo‘lgan munosabatida ham o‘zining maqsad sari intilishlari va ixtiyoriy harakatlarini oldindan rejalashtirib oladi.

Irodaviy faoliyatni rejalashtirish murakkab aqliy faoliyat bo‘lib, aniq, muayyan va yaqqol maqsadni belgilash, shuningdek maqsadga erishish uchun eng to‘g‘ri usul va vositalarni qidirib topishdan iborat bo‘ladi, rejalashtirish jarayonida mumkin va zarur bo‘lgan harakatlar, yuzaga keladigan qiyinchiliklar va to‘sqliar hisobga olinadi, ish-harakat natijalariga dastlabki baho beriladi.

**Harakat motivlari va motivlar kurashi.** Kishi biron maqsadni, ayniqsa, shu maqsadga yetish uchun biron yo‘l va usulni tanlar ekan, nega boshqa maqsadni emas, aynan shu maqsadni tanlashi kerak, ushbu maqsadga nima uchun boshqa yo‘llar bilan emas, shu yo‘llar orqali boriladi degan savolni ko‘ngildan o‘tkazadi.

Ko‘zlangan maqsad va unga yetishish yo‘llarining ma’qul yoki ma’qul emasligini belgilab beradigan sabablar ish-harakat motivlari deb ataladi. Kishi nega ushbu maqsadni aniqlashtirib olganligi, maqsadga erishishda xuddi shu vositalar bilan ish ko‘rishni istaganligi yoki ish ko‘rmoqchi bo‘layotganining sababi nima degan savolga olingan javob motivning mazmunini tashkil etadi.

Irodaviy (ixtiyoriy) harakatlar, g‘ayriixtiyoriy (iroda kuchidan tashqari) harakatlardan farq qilib, motiv tufayli sodir bo‘ladi. Inson irodaviy faoliyatining motivlari xilma-xil bo‘lib, kishining intilishi va xohishlari qaysi ehtiyojlardan kelib chiqsa, avvalo shu ehtiyojlar ixtiyoriy motivlarga kiradi. Maqsad va unga erishish yo‘llarini tanlash, ko‘pincha ehtiyoj mazmuni va ahamiyatiga bog‘liqdir.

Bir necha maqsad yoki ularga olib boruvchi bir necha yo‘l bo‘lgan taqdirda ularning ma’qul yoki ma’qul emasligi chandalab ko‘riladi, maqsad va uni amalga oshirish yo‘llarini belgilab beradigan har qanday narsa harakat motivi deb ataladi. “Motiv – deb yozadi rus psixolog I.P.Ivanov, – kishi nima uchun o‘z oldiga boshqa bir maqsadni emas, balki aynan shu maqsadni qo‘yishi kerak, nima sababdan u o‘z maqsadiga erishmoq uchun boshqa bir yo‘llar bilan emas, balki xuddi shu yo‘l bilan harakat qilishi kerak degan savolga javobdir”.

Maqsad va unga erishish yo‘llarini tanlash jarayonida odatda tafakkur va hissiyot ishtirok etadi. Kishi motivlarni muhokama qilish va asoslab berishda, odatda ayni hodisa yuzasidan fikr yuritganda yoki o‘zining xatti-harakatlarida doimo asos bo‘ladigan ma’lum bir faktlar, tamoyil va qoidalardan foydalanadi, motivni shu tariqa muhokama qilish va asoslab berish motivatsiyalash deb ataladi.

Maqsad va unga erishish yo‘lini tanlash jarayonida hissiyot turtki rolini o‘ynaydi, his-tuyg‘ular ayrim tasavvur va motivlarni yorqin, jonli va jozibali qilib ko‘rsatadi, kishining intilishlarini faollashtiradi yoki susaytiradi, hissiyot biron bir maqsadga erishishda, o‘ziga xos harakat yo‘lini tanlab olishga undaydi.

Maqsadga erishish yo‘llarini va vositalarini tanlash, ba’zan ichki kurash sharoitida kechadi, turli kuchga ega bo‘lgan bir necha motivlar maydonga chiqadi, shuning uchun ham bu jarayon motivlar kurashi deb yuritiladi.

Ko‘pincha motivlar kurashi tafakkur(aql) va hissiyot o‘rtasidagi kurashdan iborat bo‘ladi. Motivlar kurashi, masalan, burch hissi va unga zid bo‘lgan shaxsiy manfaatdorlik tuyg‘usi o‘rtasidagi kurash tarzida boradi.

Motivlar ko‘pincha bir-biriga qarshi ta’sir ko‘rsatadi, qarorga kelish va uni ijro etishni paysalga solib, iroda jarayonini susaytiradi. Motivlarning bunday kurashida kishida ichki konflikt holati vujudga keladi, ana shunday ichki ziddiyat holati, ushbu ziddiyatdan qutilishga intilish, shu bilan birga holatdan qutilishni yengillashtiruvchi yo‘llarni axtarish bilan bog‘liq bo‘ladi.

**Qarorga kelish.** Maqsadga yetishish yo‘llari hamda vositalarini tanlash jarayoni rejalarshirish, motivlar kurashiga bog‘liq tarzda amalga oshadi va qarorga kelish bilan yakunlanadi. Qarorga kelish – muayyan bir maqsadni va shu maqsadga erishish yo‘lida harakat usullaridan birini tanlab olishdir. Motivlar kurashida motivlardan biri hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Masalan: Ishdan so‘ng, kechki payt qayerga borish kerak – teatrgami (chipta olib qo‘yilgan) yoki yaqin o‘rtog‘ining tug‘ilgan kunigami (tug‘ilgan kun bugun yodiga tushdi) – kishi motivlar kurashi natijasida, o‘zi borishi lozim deb hisoblagan joy haqidagi bir qarorga keladi.

Kishi ba’zan tez qarorga keladi, bu qarorning bajarilishi mumkinligiga ishonadi, buni qat’iyat deb ataymiz, ba’zan motivlar kurashi uzoq vaqtga cho‘zilib ketadi va qaror ishonchszilik hamda ikkilanish bilan qabul qilinadi. Masalan, o‘rta maktabni bitirgan ayrim yigit-qizlar oliy o‘quv yurtiga hujjat topshirish yoki ishga kirishni tez hal qiladilar, boshqalari esa juda uzoq vaqt ikkilanib yuradilar.

Biror qarorga kelish sur'ati bir qancha sabablarga, jumladan, ehtiyojga, hal qiluvchi motiv kuchiga, vaziyatga, hissiyot va tafakkur darajasiga, shaxsning turmush tajribasi, alohida tipologik xususiyatlariga, boshqa kishilarning nasihat, iltimos, taklif va tavsiyalariga qulog solishiga ham bog'liq bo'ladi.

**Qarorni ijro etish.** Qaror unga muvofiq keladigan choralar ko'rish va harakat qilish uchun qabul qilinadi, qarordan harakatga o'tish ijro etish deyiladi, irodaviy jarayonda eng muhim narsa - qabul qilingan qarorni ijro etishdir.

Irodaviy harakatlar ikki xil bo'ladi: jismoniy va aqliy harakatlar.

➤ Jismoniy harakatlarga har xil mehnat faoliyatida amalga oshiriladigan operatsiyalar, o'yin faoliyati, sport mashg'ulotlari va boshqalar kiradi.

➤ Aqliy harakatlarga esa o'quv faoliyati tarkibiga kiradigan masala yechish, yozma ishlar, dars tayyorlash, ilmiy tadqiqot ishlari va shu kabilar kiradi.

Ko'p vaqt davomida takrorlanib, o'zlashib ketgan ko'nikma va malakalar orqali bajariladigan harakatlar ham murakkab irodaviy harakatlar sanaladi.

Qarorni ijro etish odatda ma'lum vaqt, muddat bilan bog'liq bo'ladi, qaror kechikmasdan, belgilangan vaqtda ijro etilsa, bu irodaning ijobiy sifatidan dalolat beradi, irodaviy harakatlardagi ishchanlik va puxtalikni bildiradi.



**Irodaviy zo'r berish.** Qabul qilingan qaror to'g'ridan-to'g'ri, avtomatik ravishda amalga oshirilavermaydi, qarorni amalga oshirish uchun ongli ravishda irodaviy zo'r berish kerak bo'ladi. Irodaviy zo'r berish va irodaviy harakat maqsadga erishish yo'lida uchraydigan to'siqlarni yengishda namoyon bo'ladi,

kishining irodasi katta to'siqlarni yengib o'tishiga to'g'ri kelganda, yaqqol ko'zga tashlanadi, to'siqlar ichki va tashqi shaklda namoyon bo'lishi mumkin.



### 5.6. Shaxsning irodaviy sifatlari

Irodaviy harakatlar inson yashab turgan ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar, turmush tarzi bilan belgilanadi. Jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning, shaxslararo muomalaning o'zgarishi bilan shaxsning o'z oldiga qo'yadigan maqsadlari ham, odamni faoliyatga undovchi motivlar ham o'zgaradi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinniki, irodaviy harakatlar odamning bilish jarayonlari(sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol), his-tuyg'ular sohasi bilan uzviy aloqadorlikda, ularning o'zaro bir-biriga ta'sir o'tkazishi tufayli ijtimoiy hayotda, shaxsning turmush tajribalari orqali shakllanadi va takomillashib boradi.

Shaxsning asosiy irodaviy sifatlari qatoriga maqsadga intiluvchanlik, o'zini tuta bilish, chidamlilik, sabr-toqat, qat'iyatlilik, jasurlik, intizomlilik, sabot va matonatlilik, mustaqillik, mardlik kabilarni kiritish mumkin.

- Maqsadga intiluvchanlik – shaxsning o‘zidagi barcha kuch-g‘ayrati, shijoatini o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga qaratish, o‘zining xatti-harakatlarini ko‘zlangan maqsadga erishishga safarbar qila olish, har qanday qiyinchilik va to‘siqlarga qaramay maqsadni amalga oshirish uchun intilish sifati hisoblanadi.
- O‘zini tuta bilish – odamni o‘zining xulq-atvori, xatti-harakatlari, histuyg‘ularini boshqara olishida aks etuvchi iroda sifati.
- Chidamlilik – maqsadga erishish yo‘lida odamning ko‘pincha sovuq va issiqqa, ochlik hamda tashnalikka, betoblik va boshqa shu singari qiyinchiliklarga ham qaramasdan, to‘siqlarni yengib o‘tib, maqsadini ro‘yobga chiqarishga intilishda aks etadigan irodaning sifati.
- Qat’iyatlilik – shaxsning vaziyatni tezda baholay olishi, o‘z vaqtida asosli, o‘ylangan va mustahkam qaror qabul qilishi, hech qanday ikkilanishsiz uni bajarishga kirishishida aks etadigan iroda sifati.
- Jasurlik – odamning sog‘lig‘i yoki hayoti uchun xavfli, favqulodda va murakkab sharoitda ham, zarur qaror qabul qilishi va uni bajarishning uddasidan chiqa olishida namoyon bo‘ladigan iroda sifati.
- Intizomlilik – jamiyatda qabul qilinga axloq normalari va qoidalarga, qonunlarga amal qilish, milliy urf-odatlar, umuminsoniy qadriyatlarga ixtiyoriy, ongli ravishda bo‘ysunishda ifodalanuvchi iroda sifati.
- Sabotlilik – shaxsning o‘zi qabul qilgan qarorini bajarish va o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishish uchun, ko‘p vaqt, iroda kuchi hamda ma’lum bir qiyinchiliklarni yengib o‘tish talab etilishiga qaramasdan, og‘ishmay intilishida namoyon bo‘ladigan irodaviy sifati.
- Mustaqillik – insonning o‘zini muayyan bir biror qarorga kelishi va uni amalga oshirishi, qarorni amaliyotga tatbiq etishning usul va yo‘llarini o‘zi mustaqil tanlashi, har bir ishda o‘zining bilimlari, dunyoqarashi va e’tiqodiga amal qilishida aks etadigan iroda sifati.

- Mardlik – insonga xos bo‘lgan oliy maqsadlarni ko‘zlab ish ko‘radigan, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishda qat’iylik, vazminlik, sabr-toqat, matonat, bardoshlilik va dadillik kabi xislatlar jamlanmasini o‘zida aks ettiradigan shaxsning irodaviy sifati.

### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari:**

- His-tuyg‘ular haqida umumiy tushuncha?
- Odam va hayvonot dunyosidagi emotsiyalarning ifodalanishi?
- Hissiy kechinma shakllari?
- Hissiy ton va insoniy emotsiyalarning ifodalanishi?
- Kayfiyat, affekt va stress holatlarning psixologik tavsifi?
- Insonga xos bo‘lgan yuksak hislarning aks etishi?
- Irodaviy sohaning psixologik tavsifi?
- Irodanining fiziologik asoslari?
- Irodaviy aktning tuzilishi?
- Maqsadni anglash va motivlar kurashi haqida tushuncha?
- Qaror qabul qilish va uni ijro etishning mohiyati?
- Irodaviy zo‘r berish haqida tushuncha?
- Shaxsning irodaviy sifatlari?

### **Mavzu bo'yicha test savollari:**

1. Shaxsning voqelikka o'z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog'liq kechinmalar bu ...?
  - a. Emotsiyalar.
  - b. Affektlar.
  - c. Stress holatlar.
  - d. Ehtiroslar.
2. Shaxsning kuchsiz yoki o'rtacha kuchga ega bo'lgan, birmuncha uzoq davom etadigan, nisbatan barqaror umumiy emotsiyonal holati bu ...?
  - a. Stress.
  - b. Affekt.
  - c. Kayfiyat.
  - d. Hissiy ton.
3. Stressni tadqiq qilishda moslashuv alomati masalasiga, uning faoliyatga ijobiy va salbiy ta'sir etishiga alohida ahamiyat bergen tadqiqotchi ...?
  - a. Z.Freyd.
  - b. G.Selye.
  - c. J.Piaje.
  - d. U.Shtern.
4. Yuqori sur'atda va tez paydo bo'lib, kuchli shiddat bilan o'tadigan nisbatan qisqa muddatli emotsiyonal holat bu ...?
  - a. Kayfiyat.
  - b. Hissiy ton.
  - c. Emotsiya.
  - d. Affekt.
5. Mas'uliyat, javobgarlik, fidoiylik, vijdon,adolat, iffat, or-nomus, g'urur, o'rtoqlik, do'stlik kabi tuyg'ularni aks ettiruvchi hislar ...?
  - a. Praksik hislar.

- b. Axloqiy hislar.
  - c. Inellektual hislar.
  - d. Estetik hislar.
6. Odamning o‘z ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan ongli harakatlari, to‘siqlar va qiyinchiliklarni yengishga qaratilgan faoliyati ...?
- a. Hissiyot.
  - b. Iroda.
  - c. Tafakkur.
  - d. Idrok.
7. Akademik ... ikkinchi signallar tizimiga baho berib, “...bu signallar tizimi insonlar xulq-atvori va ixtiyoriy harakatlarning yuksak boshqaruvchisidir...” degan edi?
- a. I.M.Sechenov.
  - b. A.R.Luriya.
  - c. N.V.Bexterev.
  - d. I.P.Pavlov.
8. Maqsadga erishish yo‘llari va vositalarini tanlash, turli kuchga ega bo‘lgan bir necha motivlarning maydonga chiqishi bu ...?
- a. Maqsadni ko‘zlash.
  - b. Motivlar kurashi.
  - c. Qaror qabul qilish.
  - d. Qarorni ijro etish.
9. Odamni o‘zining xulq-atvori, xatti-harakatlari, his-tuyg‘ularini boshqara olishida aks etuvchi iroda sifati bu ...?
- a. Chidamlilik.
  - b. Mustaqillik.
  - c. Qat’iyatlilik.
  - d. O‘zini tuta bilish.

10. Shaxsning vaziyatni tezda baholay olishi, o‘z vaqtida asosli qaror qabul qilishi va uni bajarishga kirishishida aks etadigan iroda sifati ...?
- a. Chidamlilik.
  - b. O‘zini tuta bilish.
  - c. Qat’iyatlilik.
  - d. Mustaqillik.

**VI bob. SHAXSNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK  
XUSUSIYATLARI VA ULARNI DIAGNOSTIKA QILISH.  
TEMPERAMENT, XARAKTER VA QOBILIYATLARNI BILISHNING  
AHAMIYATI**

- 6.1. Temperament tiplarining dastlabki tasnifi.
- 6.2. Abu Ali ibn Sinoning kishi mijozи to‘g‘risidagi qarashlari.
- 6.3. Oliy nerv faoliyati tiplari va odam asab tizimining alohida xususiyatlari.
- 6.4. Temperament tiplari.
- 6.5. Xarakter haqida tuchuncha.
- 6.6. Xarakterning tarkibi.
- 6.7. Xarakter aksentuatsiyasi.
- 6.8. Qobiliyatlar va ularning turlari.

**6.1. Temperament tiplarining dastlabki tasnifi**

Temperament lotincha “temperamentum” degan so‘zdan olingan bo‘lib, “aralashma, nisbat” degan ma’noni anglatadi. Ayrim manbalarda temperament tushunchasi Klaudio Galen tomonidan kiritilgan degan fikrlar uchraydi, ba’zilarida esa temperament to‘g‘risidagi dastlabki ta’limot yunon olimi Gippokrat (miloddan oldingi 460 – 356- yillarda yashagan) tomonidan yaratilganligi qayd etiladi, uning temperament tipologiyasi to hozirgi davrgacha ham qo‘llanilib kelinmoqda.

Qadimgi yunon olimi Gippokratning ta’limotiga binoan, insonlarning temperament xususiyatlari jihatidan o‘zaro bir-biridan farqlanishi, ularning tana a’zolaridagi suyuqliklar(xiltlar)ning turlicha nisbatda joylashuviga bog‘liq ekanligi tasavvur qilinadi. Gippokratning ta’biricha, inson tanasida to‘rt xil suyuqlik(xilt) mavjud bo‘lib, ular o‘t yoki safro (yunoncha “hole”), qon

(lotincha sanguis yoki sanguinis), qora o‘t (yunoncha melas “qora”, hole “o‘t”), balg‘am (yunoncha “phlegma”) kabilardan iboratdir.

Gippokratning fikricha:

1. O‘ting xususiyati – quruqlikdir, uning vazifasi-tana a’zolarida quruqlikni saqlab turish yoki badanni quruq tutishdir.
2. Qonning xususiyati – issiqlikdir, uning vazifasi tanani isitib turishdir.
3. Qora o‘ting xususiyati – namlikdir, uning vazifasi badan namligini saqlab turishdir.
4. Balg‘amning (shilimshiq moddaning) xususiyati – sovuqlikdir, uning vazifasi badanni sovutib turishdan iboratdir.

Gippokrat ta’limotiga muvofiq har bir inson tanasida shu to‘rt xil suyuqlik mavjud bo‘lib, ulardan bittasi ustuvorlik kasb etadi. Mazkur aralashmalardan qaysi biri salmoqliroq bo‘lsa, shunga qarab insonlar temperament jihatdan farqlanadilar, masalan, xolerikda – sariq o‘t suyuqligi, sangvinikda – qon suyuqligi, flegmatikda –balg‘am, melanxolikda qora o‘t – suyuqligi ustun bo‘lishi ta’kidlanadi.

Gippokratning to‘rt xil moddalar aralashmasi, ya’ni temperament tushunchasi va uning tipologiyasi (sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik) ramziy ma’noda hozirgi zamon psixologiyasida ham qo‘llanilib kelinmoqda.

## **6.2. Abu Ali ibn Sinoning kishi mijozи to‘g‘risidagi qarashlari**

Abu Ali ibn Sinoning ruhiyot ilmi (psixologiya) sohasidagi ta’limoti uning tirik organizmlardagi hayotiy, tabiiy – fiziologik jarayonlarni tushuntirib berishida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Buyuk olim o‘zining psixologiya sohasiga oid risolalarida qanday masala yuzasidan ilmiy tadqiqot ishi olib borilmasin, avvalo, o‘sha tekshirilayotgan obyekt mavjudmi yoki yo‘qmi shuni aniqlash lozimligini uqtiradi. Abu Ali ibn Sino agar har qanday narsa va hodisa, ichki yoki tashqi sabablar bilan harakatga

keladigan bo'lsa, insonning yashashi va harakatida ham biron ta sabab bo'lishi kerak, bunday sabablardan biri «ruhiy quvvatdir», deb ko'rsatadi.

Aristotel singari Abu Ali ibn Sino ham odam tanasi va «ruhiy quvvatlar» materiya bilan shaklan bir-biridan ajralmagan holda mavjud ekanligini ta'kidlaydi, shuning uchun ham Abu Ali ibn Sino psixik faoliyat bilan odam salomatligining o'zaro bir-biriga ta'sir etish kuchi katta ekanligini isbot qilishga harakat qiladi. Bu sohada u mavhum fikr yuritish bilan chegaralanib qolmay, balki o'z kuzatishlarga tayanib, hayvonlar ustida oddiy, ammo asosli tajribalar o'tkazadi.

Kishi ruhiy holatlarining organizmga ta'siri, har qanday ruhiy jarayonning fiziologik asoslari bilan bog'liq ekanligini, organizmga tashqi muhitning ta'sir kuchi katta bo'lishini isbotlash uchun Ibn Sino ikkita qo'zi olib, ulardan birini och bo'ri yaqiniga bog'lagan, ikkinchisini esa bo'riga ko'rsatmay, oddiy, tinch sharoitda saqlagan. Har ikkalasiga ham bir xil miqdorda, hatto tarozida o'lchab ozuqa bergen. Ko'p o'tmay bo'riga yaqin bog'langan qo'zi bo'rining hamlalaridan uzoq vaqt qo'rquvda bolganligi sababli juda ham ozib ketgan va yaxshi boqilishiga qaramay, kasallikka uchrab nobud bo'ladi, oddiy sharoitda saqlangan qo'zi esa kundan-kun semirib, tetik yashayvergan.

«Instinkt» deydi Abu Ali ibn Sino, shunday quvvatdirki, bu hayvon ongida mantiqsiz vujudga keladi... «insonga esa ongli, mantiqan fikrlash xosdir. Miya kishining fikrlash a'zosidir. Ibn Sino miya «sezeluvchi suratlarni idrok qiladi yoki saqlaydi..., xayolda saqlangan suratlarni jamlab yoki taqsimlab ish yuritadi va shu bilan birga sezgi orqali kelgan suratlarga o'xshaganlarni vujudga keltiradi», - deya ta'kidlaydi.

Sog'lom turmush tarzi va salomatlikni saqlashda Abu Ali ibn Sino asosan yettita narsaga e'tiborni kuchaytirish zarurligini uqtirib o'tadi:

- mijozni mo'tadil qilish;
- yejiladigan va ichiladigan ovqatlarni tanlash;
- tanani chiqindidan tozalash;
- to'g'ri tuzilishni saqlash;

- burun orqali olinadigan havoni yetarli va yaxshi olish;
- kiyimga e’tibor berish;
- jismoniy va ruhiy harakatlarni tartibga solish (shu harakat jumlasiga uyqu va uyg‘oqlik ham kiradi).

- mijoz – elementlarning eng mayda bo‘laklaridagi qarama-qarshi kuchlarning bir-biriga ta’siri, ma’lum bir chegaraga yetganda paydo bo‘lgan kayfiyatdir;
- yuqorida aytib o‘tilgan elementlarning dastlabki turi to‘rt xil bo‘ladi: issiqlik, sovuqlik, namlik va quruqlik.

Mijoz ikkiga bo‘linadi:

- birinchisi, haqiqiy mo‘tadil mijoz (shartsiz refleks), bunda mijoz egasidagi qarama-qarshi kayfiyatlarning miqdorlari teng bo‘ladi;
- ikkinchisida (shartli refleks) qarama-qarshi kayfiyatlar orasida mijoz mutlaqo o‘rtada bo‘lmay, ikki tomonning biriga, ya’ni sovuqlik yoki issiqlikka, namlik yo quruqlikka yoki har ikkalasiga moyilroq bo‘ladi.

### **6.3. Oliy nerv faoliyati tiplari va odam asab tizimining alohida xususiyatlari**

Temperamentning fiziologik asoslarini aniqlashga ulkan hissa qo‘sghan olimlardan biri rus fiziologi I.P.Pavlov(1849-1936), temperament tiplari ham shartli reflektor faoliyatning individual xususiyatlarini keltirib chiqaruvchi omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, degan xulosaga keladi. I.P.Pavlov ta’limoti bo‘yicha, shartli reflekslar paydo bo‘lishining individual xususiyatlari, asab tizimida ro‘y beradigan nerv jarayonlari xossalardan kelib chiqadi.

Nerv jarayonlarining quyidagi uchta xossasi oliy nerv faoliyati tipini aniqlash imkoniyatini beradi:

1. Nerv jarayonlarining kuchi. Asab tizimining kuchli qo‘zg‘atuvchilarga dosh bera olish qobiliyati, u nerv hujayralarining ishchanligi va chidamliligi orqali tavsiflanadi.

2. Asab tizimidagi qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining muvozanatlashganlik darajasi;

3. Asab tizimidagi qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining almashinish tezligi yoki nerv jarayonlarining harakatchanligi.

I.P.Pavlov shartli reflektor faoliyatning alohida xususiyatlari va asab tizimi xossalaring o‘zaro bog‘liqligini qayd etadi, oliy nerv faoliyatining quyidagi tiplarini ajratadi:

1. Kuchli, muvozanatsiz, harakatchan tip.

2. Kuchli, muvozanatlashgan, harakatchan tip.

3. Kuchli, muvozanatlashgan, inert(sustkash) tip.

4. Kuchsiz, muvozanatsiz, inert(sustkash) yoki harakatchan tip.

I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati tiplari haqidagi g‘oyalari rus psixologlari Ye.M.Teplov va V.D.Nebilitsin tomonidan rivojlantirildi va psixologiyadagi yangi yo‘nalish – differensial psixofiziologiyaga asos solindi, ular eksperimental tadqiqotlar orqali asab tizimining bir qator muhim xossalarni aniqlaganlar.

- labillik – qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonining vujudga kelish va kechish tezligi.

- dinamika(jo‘shqinlik) – shartli reflekslarning hosil bo‘lish yengilligi va tezligi.

- konsentratsiya(to‘planish) – qo‘zg‘atuvchilar taqsimotining me’yor ko‘rsatkichi.



Ular odam asab tizimida ro'y beradigan nerv-fiziologik jarayonlarning nozik qirralarini o'rghanishga, maxsus uskunalar yordamida o'zgarishlarni qayd etish va olingan natijalarni matematik statistika metodlari orqali hisoblashni tatbiq etdilar. Shuningdek, B.M. Teplov ilmiy maktabi vakillari tomonidan ijobjiy va tormozlovchi shartli reflekslarning hosil bo'lish tezligini ko'rsatib beruvchi individual xususiyatlar turkumi ham tavsiflab berilgan.

Asab tizimining umumiy tiplarini kelib chiqishi yuzasidan fikr yuritganda, I.P. Pavlovning ta'limotini eslash maqsadga muvofiqdir, chunki irsiyat yo'li bilan shartlangan tip – bu genotip hisoblanadi.

Hozirgi kunda temperament tipi deganda, ma'lum bir kishilar uchun umumiy bo'lgan alohida xususiyatlarning oddiy yig'indisi emas, balki mazkur xususiyatlarning o'zaro bog'liqligi e'tiborga olinadi.

1. Senzitivlik(lotincha Sensus–sezish, his qilish degan ma'noni anglatadi). Senzitivlik, bu nisbatan kuchsiz tashqi qo'zg'atuvchilarga ham javob reaksiyalarining hosil bo'lishi, o'ta yuksak sezgirlik.

2. Reaktivlik. Bu to'g'rida aynan bir xil kuch bilan ta'sir etuvchi tashqi va ichki taassurotlarga shaxs qanday kuch bilan emotSIONAL reaksiya qilishiga qarab

munosabat bildiriladi. Reaktivlikning yorqin ro'yobga chiqishi-emotsionallik, ta'sirlanuvchanlikda ifodalanishidir.

3. Faollik. Bu borada inson qanday faollik darajasi bilan tashqi olamga ta'sir etishi va maqsadlarni amalga oshirishda obyektiv hamda subyektiv qarama-qarshiliklarni faollik bilan yengishga qarab fikr yuritiladi.

4. Reaktivlik bilan faollikning o'zaro munosabati. Odamning faoliyati ko'p jihatdan nimaga bog'liqligiga binoan, chunonchi tasodifiy tarzdagi tashqi va ichki sharoitlarga (kayfiyatga, favquloddagi hodisalarga) yoki maqsadlarga, ezgu niyatlarga, xohish-intilishlariga ko'ra fikr bildirish nazarda tutiladi.

5. Reaksiya tempi. Turli xususiyatli psixik reaksiyalar va jarayonlarning kechish tezligiga, nutq sur'atiga, farosatliligiga, aql tezligiga asoslanib xulosa chiqariladi.

6. Harakatlarning silliqligi va unga qarama-qarshi sifat rigidlik (qotib qolganlik), shaxsning o'zgaruvchan tashqi taassurotlarga qanchalik yengillik va chaqqonlik bilan muvofiqlashishiga (silliqlik bilan moslashishga), shuningdek, uning xatti-harakatlari qanchalik sust va zaifligiga (rigidligi qotib qolganligicha) nisbatan baho berishdan iboratdir.

7. Ekstrovertlik va introvertlik. Shaxsning faoliyati va reaksiyasi ko'p jihatdan kechinmalarga bog'liq, chunonchi favquloddagi tashqi taassurotlarga (ekstravertlik) yoki aksincha, timsollarga, tasavvurlarga (introvertlik) taalluqligiga asoslangan holda munosabat ifodasidir.

#### **6.4. Temperament tiplari**

Ta'kidlash lozimki, psixik faoliyat dinamikasi nafaqat temperament tipi, balki motivlar, psixik holatlar va his-tuyg'ularga ham bevosita bogliqdir.

**Sangvinik** – juda faol, qiziquvchan bo'lib, atrofdagi narsalar uning diqqatini tez jalb etadi, imo-ishoralari yorqin, uning chehrasiga qarab kayfiyatini anglab olish qiyin emas. Serg'ayrat va ishchan, uncha toliqmaydi, intizomli, xatti-harakati jo'shqin, nutq sur'ati tez, yangilikni tez payqaydi, aql-idroki teran,

qiziqishlari, kayg‘iyati va intilishlari o‘zgaruvchan. Ko‘nikma va malakalarni tez egallaydi, dilkash, muloqotga kirishuvchan, tashqi ta’sirlarga hozirjavob. Ekstravert, yangi odamlar, vaziyatga tez ko‘nikadi. Ishga tez kirishib, tezda sovishi mumkin, bir yo‘nalishda uzoq ishlamaydi, va’da berib bajarmasligi mumkin.

**Holerik** – sust senzitivlik xususiyatiga ega, juda faol va reaktiv. Ko‘pincha betoqat va serzarda, qiziqqonlikni namoyish qiladi. Tez qo‘zg‘aluvchan, lekin ko‘proq rigid, qiziqishlari, intilishlari barqaror, xatti-harakatlarda qat’iylik mavjud bo‘lsa-da, biroq diqqatni to‘plashda qiynaladi, nutq sur’ati tez. Egiluvchan emas, diqqatning ko‘chishida qiyinchiliklar mavjud. Ekstravert, yuz mimikasi boy, imo-ishoralardan ko‘p foydalanadi, qat’iyatli, yuqori darajada harakatchan.

**Flegmatik** – senzitivligi sust, his-tuyg‘usi kam o‘zgaruvchan, kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin. Vazmin, kamharakat, imo-ishorasi, mimikasi ko‘zga yaqqol tashlanmaydi, serg‘ayrat, ishchan, faol, chidamli. Nutq va harakati sust, diqqatni ko‘chirishi qiyin. Introvertlashgan, kam gap, ichimdagini top deydigan toifasidan, yangilikni sekin qabul qiladi. Sabr-toqatli, o‘z-o‘zini boshqara oladi, bir ishdan ikkinchisiga sekin o‘tadi, yangi ish, vaziyatga sekin ko‘nikadi.

**Melanxolik** – senzitivligi yuksak darajada rivojlangan, tortinchoq, g‘ayratsiz, arazchan, xafaqon, jimgina yig‘laydi, kam kuladi, qat’iyligi va mustaqilligi zaif, tez toliqadi, ishchan emas. Diqqati barqaror, his-tuyg‘ularini boshqalardan yashiradi, sust o‘zgaruvchan. Introvert, ko‘p holatlarda rigidlikni namoyish etadi. Uyatchan, tez xafa bo‘ladi, mimika va imo-ishoralari yorqin emas, faolligi sust, o‘zining kuchiga unchalik ishonmaydi, arzimagan narsalardan tushkunlikka tushishi mumkin. Odamlarni tinglay oladi, empativlik hissi kuchli.

Shaxsning qaysi temperament tipiga mansubligi, hissiy-emotsional jihatdan barqaror yoki beqarorligi, o‘z-o‘ziga beradigan bahosining pastligi, adekvatligi, yuqoriligi, ichki dinamik streotipler unda, tevarak-atrofda ro‘y berayotgan

voqe-a-hodisalarga, odamlarga nisbatan o‘ziga xos munosabatlar tizimini shakllantiradi va ayrim ruhiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘ladi.

Taniqli psixologlardan biri G.Yu.Ayzenk o‘zining shaxs tuzilishi modelida shaxsning ichki ruhiy olamini quyidagicha ifodalaydi:

### **Ekstrovert**

sermulozamat dilkash hamdard quvnoq harakatchan yetakchilikka moyil gapdon samimiyl <b>Sangvinik</b> <b>Barqaror</b>	faol xushchaqchaq tirishqoq o‘zgaruvchan bezovta tajovuzkor tinib-tinchimas serjahl <b>Xolerik</b> <b>Nevrotik</b>
<b>Flegmatik</b> bosiq, vazmin kamgap ishonsa bo‘ladigan o‘zini tuta oladigan o‘ychan ehtiyotkor sust	<b>Melanxolik</b> ta’sirchan kayfiyati o‘zgaruvchan tartib-intizomli chuqur mulohazali tushkunlikka moyil serandisha kamgap-odamovi

### **Introvert**

## **6.5. Xarakter haqida tuchuncha**

Har bir odam, boshqalardan o‘zining alohida psixologik xususiyati orqali ajralib turadi, ushbu jarayonda asosiy e’tibor xarakterga qaratiladi. Xarakter atamasi, yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib “tamg‘a, belgi“ degan ma’noni anglatadi. Ijtimoiy hayotda faoliyat ko‘rsatayotgan har qanday shaxs o‘zining alohida-psixologik xususiyatlari tufayli boshqalardan ajralib turadi va bu farqlar uning xarakter xislatlarida o‘z ifodasini topadi. Xarakter deganda, mazkur shaxs uchun tipik hisoblangan, faoliyat usullarida namoyon bo‘ladigan, shaxsning turli sharoitlarga munosabati bilan belgilanadigan xususiyatlari tushuniladi.


**Xarakter** – ijtimoiy muhit ta’sirida tarkib topib, shaxsning atrofdagi voqelikka va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatida ifodalanadigan, muayyan sharoitda tipik xulq-atvor usullarini belgilab beradigan barqaror individual psixik xususiyatlar yig‘indisidir (yunonchadan «xislat», «belgi», «tamg‘a»). Xarakter shaxsning o‘ziga xos bo‘lgan sifatlarini belgilab beradi, kishining biror hayotiy vaziyat sharoitida o‘zini qanday tutishini oldindan ko‘rish imkonini beradi.

Xarakter tug‘ma bo‘lmaydi, faqat layoqat nishonalari tug‘ma bo‘lishi mumkin, ular asab tizimining xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi, xarakter kishining hayot sharoiti va faoliyat shakllariga bog‘liq holda tarkib topadi, o‘zgarishi va tarbiyalanishi mumkin. Oila muhitida, ta’lim va tarbiya maskanlarida, katta hayot maktabi sharoitida ta’lim-tarbiya, jamoaviylik, ijtimoiylashuv ta’sirida salbiy xarakter xususiyatlarini tuzatish, ijobiy xarakterni shakllantirish mumkin.

Xarakterning tarkib topishida munosabatlarning o‘rni xususida rus psixologi V.S.Merlin quyidagi ikkita qismni ajratadi:


## **1. Emotsional-kognitiv**

Tashqi ijtimoiy muhitning turli tomonlarini shaxs qanday emotsional his qilishi va o‘zini qiyofasida ushbu olamning emotsional manzarasini yaratishi.



## **2. Motivlashgan-irodavyi**

Ma’lum bir harakatlarni amalga oshirish va xulq-atvorni ro‘yobga chiqarishga undovchi kuchlar



Bizning o‘zaro munosabatlarimiz ma’lum bir ma’no va mazmun kasb etgan munosabatlar bo‘lib, ularning har birida bizning hissiy kechinmalarimiz aks etadi va xarakterimiz namoyon bo‘ladi. Xarakterda o‘zlashtirilayotgan hayotiy timsollar, shaxsning xulq-atvori va faoliyatida tipologik, o‘ziga xos xususiyatlar sifatida tarkib topishni ta’minlovchi vositalar «Men»ning poydevori hisoblanadi.

## **6.6. Xarakterning tarkibi**

Shaxs xarakterining tuzilishi, ayrim xususiyatlarni tasodifiy yig‘indisidan iborat emas, balki o‘zaro bir-biriga bog‘liq, yaxlit tizimdan tarkib topadi. Odam xarakteridagi xislatlarining muayyan qismidan xabardorlik, boshqalarini tashxis qilish imkoniyatini yaratadi. Misol uchun, shaxs xarakterida shuhratparastlik ma’lum bo‘lsa, uning ko‘ngli qoraligi yuzasidan taxmin qilish mumkin yoki inson kamtarin bo‘lsa, uning albatta ko‘ngilchan ekanligi xayolimizga keladi.

Hozirgi zamon psixologiyasida shaxsning turli-tuman munosabatlari orqali belgilanadigan xarakter xususiyatlarining to‘rtta tizimi farqlanadi:

• **Mehnat faoliyatida namoyon bo‘ladigan xarakter xususiyatlari** – mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, mehnat faoliyatiga ijobiy munosabat, mas’uliyat, dangasalik, qo‘nimsizlik va boshqalar.

• **Boshqa insonlarga va jamoga nisbatan bo‘lgan munosabatlarda namoyon bo‘ladigan xarakter xususiyatlari** – insoniylik, odoblilik, mehribonlik, jonsaraklik, dilkashlik, jamoaviylik, g‘amxo‘rlik, rahm-shafqatlilik, talabchanlik va boshqalar.

• **Odamning o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatida aks etadigan xarakter xususiyatlari** – kamtarlik, kamsuqumllilik, mag‘rurlik, o‘ziga bino qo‘yish, o‘z-o‘zini tanqid qilish, manmanlik va boshqalar.

• **Narsalar va hodisalarga bo‘lgan munosabatlarda namoyon bo‘ladigan xarakter xususiyatlari** – tartiblilik, oqillik, saranjom-sarishtalik, saxiylik, ziqlalik, tejamkorlik, pokizalik va boshqalar.

Xarakter odamning **xatti-harakatlari va amallarida** namoyon bo‘ladi, uning ongli va maqsadga qaratilgan harakatlari, kim ekanligidan darak beradi.

Xarakterning tarkib topishi muayyan qonuniyatlar ta’sirida amalga oshib, uning har bir xislati shaxsning munosabatlar tizimiga bog‘liq bo‘ladi, ular o‘z navbatida ijtimoiy munosabatlar orqali belgilanadi. Nasliy xususiyatlari bir xil egizaklarda ham, turlicha ijtimoiy muhitda har xil xarakter xislatlari shakllanishi tadqiqotlarda isbotlangan. Shu sababli, keng qamrovli ijtimoiy munosabatlar shaxsning faqat ijtimoiy-tipik xususiyatlarini emas, balki xarakterning individual-tipologik xususiyatlarining tarkib topishiga ham katta ta’sir o‘tkazadi.





Oilaviy muhitdagi shaxslararo munosabatlar, farzandlarning soni, yoshidagi farqi, oiladagi psixologik muhit, nizoli vaziyatlarning ko‘rinishi, ota-onalar va farzandlarning o‘zaro munosabatlariga asoslangan holda xarakterning o‘ziga xos xususiyatlari shakllantirib boriladi, shuningdek bolalar bog‘chasidagi, mактабдаги шахслараро муносабатлар ҳам ҳарактернинг алоҳидаги хислатларини тарқиб тоғтиради.

Mehnat jamoalarida, norasmiy guruhlarda ҳам ҳарактерда сезиларли о‘згаришлар ro‘y beradi, ayniqsa ilk o‘spirinlik davrida shakllangan ҳарактер хислатлари жуда барқарор bo‘lib, уларга айрим о‘згаришлар кiritish жуда қишин kechadi.

### **6.7. Xarakter aksentuatsiyasi**

Nemis psixiatri K.Leongardning fikricha, 20-50% kishilarda ба’зи ҳарактер xususiyatlari shu darajada kuchliki, ба’zan bir xil tipdagи ziddiyat va hissiy portlashlarga olib kelishi mumkin. Ҳарактер aksentuatsiyasi turli darajada namoyon bo‘ladi, o‘smirlar orasida ҳарактер aktsentuatsiyasi ko‘p (50-80%) uchraydi.



Xarakter xususiyatlarining miqdoriy ifodalanishi, ya’ni ayrim belgilarning haddan tashqari kuchli namoyon bo‘lishi shaxs xulqatvori me’yorining eng oxirgi marrasiga borib, patologik belgilar bilan chegaralanish holatida kuzatiladi.

Bu holat psixologiyada **xarakter aktsenttuatsiyasi**, ya’ni me’yordan ortishi deb ataladi.

**Xarakter aksentuatsiyasi** olimlar tomonidan turli xil ko‘rinishlarda ifodalab berilgan, ularning ayrimlari haqida to‘xtalib o‘tamiz:

➤ **Gipertim tip** – bu toifadagilar o‘ta kirishimli, so‘zamol bo‘ladilar, imo-ishoralar, mimika va pantomimika orqali his-tuyg‘ularini namoyon qiladilar. Bu toifadagi odamning o‘z xizmat va oilaviy majburiyatlariga yetarli tarzda jiddiy e’tibor bermasliklari tufayli atrofidagilar bilan qisqa kelishmovchiliklar yuzaga keladi. Ularning ijobiy tomonlari ishchanlik, ertangi kunga ishonch, tashabbuskorlik kabi sifatlari orqali namoyon bo‘ladi. Ularning salbiy xislatlari – yengiltabiatlik, jizzakilik, o‘z majburiyatlariga befarq munosabatda bo‘lish kabi sifatlardir.

➤ **Distim tip** – bu toifadagilar kamgap, tortinchoq bo‘lishadi. Ularning aksariyati uyda o‘tirishni xohlashadi. Ular sershovqin davralarni yoqtirmaydilar va atrofdagilar bilan kamdan-kam nizoga boradilar. Ularning ijobiy xislatlari: jiddiylik, haqiqatgo‘ylik, sofdillik. Salbiy tomonlari: sustkashlik, shaxsiyatparastlik, fikrlash doirasi torligi.

➤ **Sikloid tip** – bu toifadagilarning kayfiyati tez-tez, davriy ravishda o‘zgarib turadi, oqibatda ularning atrofidagi odamlar bilan muomalasi ham bir xilda kechmaydi. Ular kayfiyati chog‘ligida yaxshi suhbatdosh, kayfiyati yomon bo‘lganda esa tundroq bo‘lib qoladilar.

➤ **Ta’sirchan tip** – bu toifadagilar muomalada tortinchoq, ko‘p hollarda tund va injiq bo‘lib nizoga moyildirlar. Ayrim holatlarda faollik ko‘rsatadilar,

xotirjam bo‘lganda sofdil, kayfiyati yomon bo‘lganida esa injiq, jahldor, o‘zlarini idora eta olmaydilar.

➤ **Kuchaytiruvchi tip** – kamgap, aql o‘rgatishni yoqtiradi, yuqori natijalarga erishishni xohlaydi, tez xafa bo‘ladi, shubhalanuvchan, qasoskor. Kichik muammolarni kattalashtirishga, bo‘rtirishga moyil.

➤ **Pedant tip** – ziddiyatlarga kam qo‘shiladi, ko‘pincha passiv holatda bo‘ladi, atrofdagilarga ko‘plab rasmiy talablar qo‘yadi, tartibli, jiddiy ishonchli xodim.

➤ **Xavotirli tip** – kamgap, odamovi, o‘ziga ishonmaydi, ziddiyatlardan o‘zini olib qochadi, tinchliksevar, o‘z-o‘zini tanqid qiladi. Topshiriqlarni vaqtida bajaradi.

➤ **Emotiv tip** – tor doiradagi kishilar bilan muloqotga kirishishni yoqtiradilar, xafa bo‘lsa tashqaridan sezdirmaslikka harakat qiladi, mehribon, g‘amho‘r, mas’uliyatni his qiladi. Boshqalarni yutug‘idan ham quvonadi.

➤ **Namoyishkor tip** – muloqotga tez kirishadi, yetakchilikka intiladi, hokimiyat va maqtovni yoqtiradi, boshqalarni o‘ziga jalb qila oladi, noyob tafakkur va xulq-atvorga ega.

➤ **Ekzalt tip** – o‘ta muloqotga kirishuvchan, ko‘p gapisadi, qiziquvchan, do‘stlari va yaqinlarga e’tiborli, boshqalarga yordam beradi, did-farosatli, samimiyl.

➤ **Ekstrovertlashgan tip** – muloqotga kirishuvchan, do‘stlari ko‘p, ziddiyatlardan o‘zini olib qochadi, boshqalarni diqqat bilan eshitishi mumkin, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajaradi.

➤ **Introvertlashgan tip** – o‘zaro muloqotga kirishishga qiynaladi, «ichimdagini top» toifasidan, falsafiy fikr yuritishni yoqtiradi, qat’iyatli, e’tiqodi mustahkam, qaysar, tafakkuri qotib qolgan.

**David G.Mayers bo‘yicha quyidagi xarakter tiplarini o‘rganish mumkin:**

 **Boshqaruvchi tip:** Bu tipdagi insonlar o‘ziga ishongan va g‘ayratli, ularga ijtimoiy manfaatlar, boshqalarning baxtu-saodati ahamiyatsiz, ular uchun tashqi olam ustidan hukmronlik qilish xosdir, asosiy hayotiy muammolarini ular dushmanlik, antiijtimoiy tarzda hal etadilar (jinoyatchilar, narkomanlar, qonunbuzarlar).

 **Oluvchi tip:** tashqi olamga tekinxo ‘rlik va o‘zining ehtiyojlarining ko‘p qismini boshqalar hisobiga qondirishga intiluvchi odamlar. Ularda ijtimoiy manfaatlar yo‘q, ular boshqalardan ko‘proq narsa olishga intiladilar, faolligi yuqori emas, boshqalarga azob-uqubat keltirish ehtimoli kamroq.

 **Qochuvchi tip:** ushbu insonlarning ijtimoiy qiziqishlari, shaxsiy muammolarni hal etishdagi majburiy faolligi sust, ular muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqadilar va hayotiy muammolarini yechishdan qochadilar. Ular qiyinchilik yoki omadsizlik tug‘diradigan barcha narsadan qochadilar.

 **Ijtimoiy tip:** Ularni ijtimoiy manfaatlar bog‘lab turadi va yuqori faollikka ega, ular boshqalarga g‘amxo ‘rlik ko‘rsatadi, hayotiy muammolarini hal etishga o‘zlarining hissalarini qo‘shishadilar.<sup>6</sup>

## 6.8. Qobiliyatlar va ularning turlari

Qobiliyat – insonning shunday psixologik xususiyatiki, bilim, ko‘nikma va malakalarini egallash ushbu xususiyatlarga bog‘liqdir, lekin xususiyatlarning o‘zi bilim va ko‘nikmalarga taalluqli bo‘lmaydi. Odamning qobiliyati bilim, ko‘nikma va malakalarga nisbatan qandaydir imkoniyat tarzida namoyon bo‘ladi.

---

<sup>6</sup>David G. Mayers Psychology, © 2010 by Worth Publishers 320-321 b.



## Qobiliyat turlari :



**Umumiy qobiliyatlar** mavjud bo'lgan kishi faoliyatning turli xillari bilan muvaffaqiyatli shug'ullanma oladi. Umumiy qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilar odatda barcha fanlardan yaxshi va qiyalmay qo'yadilar.



**Maxsus qibiliyatlar** kishiga qandaydir bir faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanish imkonini beradi.

**Qobiliyat** – shaxsning ma'lum bir faoliyatdagi muvaffaqiyatini, faoliyatning muayyan bir turini osonlik bilan egallay olishni ta'minlaydigan alohida, psixik xususiyati sanaladi. Inson qobiliyatlar yordamida bilim, ko'nikma va malakalarini nisbatan oson egallaydi va biron bir faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanadi. Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi.

**Layoqat nishonalari va qobiliyat.** Ayrim olimlar qobiliyat tug'ma bo'ladi va avloddan-avlodga o'tadi deb hisoblaydilar, to'g'ri ayrim oilalardagi kishilarning qobiliyatları avloddan-avlodga o'tib keladi, sulola davom etadi, lekin qobiliyatlar to'g'risida butunlay qarama-qarshi nuqtayi nazar ham mavjud bo'lib, ular tug'ma sifatlarni inkor qilib, ta'lim-tarbiya hamda shart-sharoitga urg'u beradilar.

Har bir kishida tug'ma layoqat nishonalari mavjud bo'ladi, chunki kelgusida qobiliyatni rivojlantirishga bo'lgan moyillik shu tarzda aks etadi. Ta'kidlash o'rinniki, tabiiy layoqat nishonalari muvaffaqiyatli faoliyatning to'la-to'kis kechishi uchun zarur shart-sharoit bo'la olmaydi, layoqat nishonalarini rivojlantirish kerak, bu esa ta'lim va tarbiya jarayonida ro'y beradi.

Bundan tashqari, layoqat nishonalari ko‘p qiymatlidir, ya’ni tegishli sharoitlar mavjud bo‘lganda faoliyatga qarab layoqat nishonalari asosida turli qobiliyatlar rivojlanishi mumkin bo‘ladi. Layoqat nishonalari kishining go‘yo «mudrab yotgan» kuchlari bo‘lib, agar kishi tegishli faoliyat bilan shug‘ullanmasa, bu imkoniyatlarni «uyg‘otishi» mumkin emas.

Qobiliyatlarni o‘sirish, ularni ro‘yobga chiqarish uchun zarur ijtimoiy shart-sharoit: moddiy ta’minot, ijtimoiy muhit, o‘qish imkoniyatlari va boshqalar zarur bo‘ladi, qulay sharoitlar mavjud bo‘lganda ayrim kishilarda qibiliyatlar juda erta rivojlanadi. Odatda, musiqa va tasviriy san’atga bo‘lgan layoqat ancha erta paydo bo‘ladi, birmuncha keyinroq adabiy qobiliyatlar yuzaga chiqa boshlaydi.

Layoqat va qobiliyatni bir-biridan farqlay olish lozim. Layoqat bu odamni faoliyatga bo‘lgan intilishi, qobiliyat esa ushbu faoliyatni bajara olish imkonidir.

Tabiiy anatomik-fiziologik layoqat nishonalari qobiliyatlarning fiziologik asosini tashkil qiladi, keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarining majmuasi – iste’dod deb ataladi.

**Qobiliyatning sifat va miqdor tavsifi.** Psixologiyada qobiliyat individual-psixologik xususiyatlar sifatida tavsiflanadi va uning asosida har bir insonning boshqa insondan tafovutlanadigan xislatlari, fazilatlari yotadi.

### **Qobiliyat bosqichlari:**

**Iste’dod:** qobiliyatlar uchun zarur bo‘lgan tug‘ma yoki orttirilgan zehn, layoqatlar yig`indisi

**Talant:** qobiliyatlarni yuqori rivojlanish darajasi, faoliyatni mustaqilligi, noyobligi

**Daholik(geniallik):** shaxsni eng yuksak darajadagi ijodiyot bilan o‘zini namoyon qilish hodisasi

**Qobiliyatlarning tarkib topishi va rivojlanishi** – bu ko‘nikmalar natijasi bo‘lib, ular qancha mustahkamlansa rivojlanish shuncha tez boradi.

Qiziqishlar qobiliyatlarning rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi. Faoliyatga bo‘lgan qiziqishni motivatsiya orqali qo‘llab-quvvatlash faoliyat maqsadini odam uchun zarur ehtiyojga aylantiradi.



Shuning uchun har bir shaxsdan bir xil natija, bir xil sifat kutish mumkin emas, chunki insonlar o‘z qobiliyati bo‘yicha bir- biridan muayyan darajada farq qiladi. Binobarin, ular o‘rtasida sifat va miqdor jihatidan farqlar ko‘p bo‘lishi mumkin. Qobiliyatning sifat tavsifi shaxsnинг qaysi individual-psixologik xususiyatlari faoliyat muvaffaqiyatining majburiy sharti tariqasida xizmat qilishini anglatadi. Ularning miqdoriy tavsifi esa faoliyatga qo‘yiladigan talablarga shaxs tomonidan qay yo‘sinda bajarish imkoniyati mavjudligini bildiradi, ya’ni mazkur inson boshqa odamlarga qaraganda malaka, bilimlardan nechog‘lik tez, oson, puxta foydalana olishini namoyon qiladi.

Qobiliyat xususiyatlarining sifat jihatidan talqin qilinishida, birinchidan, maqsadga turlicha yo‘llar orqali erishishga imkon beruvchi «o‘zgaruvchan miqdor» majmui tariqasida, ikkinchidan, faoliyat muvaffaqiyatini ta’minlovchi shaxsnинг individual-psixologik xislatlari (fazilatlari)ning murakkab majmuasi ko‘rinishida gavdalanadi.

*Hayotda ko‘zi ojiz musiqachi, artist, shoir, rassom, muhandis va boshqa shu kabi kasb egalari ko‘p uchraydi. Hatto eshitish qobiliyati past yoki umuman yo‘qligi ham kasbiy-musiqaviy qobiliyatning rivojlanishiga keskin xalaqit bermasligi mumkin. Bu psixologik hodisa (bir qobiliyatni boshqa qobiliyat yordamida o’stirish, ya’ni kompensatorlik xususiyati) har bir shaxs uchun kasb tanlash va qayta kasb tanlash (ikkinci yoki uchinchi kasbni egallash ishtiyoqi) sohasida mislsiz keng ko‘lamdagи imkoniyatlarni ochadi. Qobiliyatli shaxslar*

*ijtimoiy turmushning turli jabhalarida o‘z o‘rnini topa oladi hamda yutuqlarga erishadi, hatto bir necha faoliyat turida muvaffaqiyat qozonishi ham mumkin.*<sup>7</sup>

Rus fiziolog olimi, akademik I.P.Pavlov o‘z ta’limotida «badiiy», «fikrlovchi», «o‘rta» tiplarga ajratilgan shaxslarning ana shu uchta tipdan bittasiga taalluqli ekanligini tavsiflab beradi. Muallif ushbu tipologiyani yaratishda oliv nerv faoliyatining birinchi va ikkinchi signallar tizimidan iborat ekanligi to‘g‘risidagi ta’limotga asoslanadi.

➤ Birinchi signallar tizimi analizatorlar orqali yuzaga keladigan obrazlar, emotsiyalardan va ikkinchi signallar tizimini til va nutq faoliyati tashkil etadi, mavjus obrazlar haqida so‘zlar orqali signal berishdan iboratdir.

➤ Ikkinchi signallar tizimi I.P.Pavlov tomonidan «signallarning signali» deb nomlangan edi. Ushbu tipologiyani quyidagicha tushuntirish mumkin:

•1. Shaxs faoliyatida birinchi signallar tizimining signallari nisbatan ustunlik qilsa, bu inson «*badiiy*» tipga taalluqlidir.

•2. Agar «signallarning signali» (nutq faoliyati: so‘zlar) nisbatan ustuvor bo‘lsa, bu shaxs «*fikrlovchi*» tipga mansubdir.

•3. Agar har ikkala signallar aralashib ketgan bo‘lsa (ulardan birining ustunligi sezilmasa), bu inson “*aralash*” tipga mansub odamdir.

Tipologyaning o‘ziga xos tomonlari qisqacha ifodalanganda yoki tavsif qilinganida quyidagilar namoyon bo‘ladi:

1. «*Badiiy tip*» uchun bevosita taassurotlar jonli tasavvur, yorqin idrok, histuyg‘ular (emotsiyalar) natijasida vujudga keladigan obrazlar yorqinligi xosdir.

2. «*Fikrlovchi tip*» uchun mavhum fikrlar, mantiqiy tizimlar, nazariy mulohazalar va muammolarning ustunligi muvofiq keladi.

Badiiy tipning mavjudligi aqliy faoliyat zaifligi yoki aqlning yetishmasligini bildirmaydi, lekin obrazlar(tasavvur)ning fikrashdan ustuvorligi haqida boradi. Ma’lumki, kishilar hayoti va faoliyatida til va tafakkurning o‘rni

---

<sup>7</sup>David G. Mayers Psychology, © 2010 by Worth Publishers 463-b.

hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, shaxs tomonidan tevarak-atrofdagi borliqni aks ettirish so‘zlar(nutq faoliyati) hamda fikrlash(tafakkur) vositasida ro‘yobga chiqariladi.

### **Mavzu yuzasidan nazorat savollari:**

- Temperament tiplarining qadimgi tasnifi(Gippokrat bo‘yicha)?
- Abu Ali ibn Sinoning ruhiyat ilmi va mijozи to‘g‘risidagi qarashlari?
- Odam asab tizimining alohida xususiyatlari(I.P.Pavlov)?
- Oliy nerv faoliyati tiplari va temperament?
- Temperament tiplarining umumiyl tavsifi?
- Temperamentning xolerik tipi?
- Temperamentning sangvinik tipi?
- Temperamentning flegmatik tipi?
- Temperamentning melanxolik tipi?
- Xarakter haqida tushuncha?
- Xarakterning tarkibi?
- Xarakter xususiyatlari?
- Xarakter aksentuatsiyasi?
- Qobiliyatlar haqida tushuncha?
- Qobiliyatning turlari?
- Layoqat nishonalarini va ularning rivojlanishi?
- Iste’dod, talent va daholik tushunchalarini izohlang?

### **Mavzu bo‘yicha test savollari:**

1. Gippokrat ta’limotiga ko‘ra, “odam tanasida qon suyuqligi ustunlik qilsa” temperamentning qaysi tipi haqida so‘z boradi...?
  - a. Xolerik.
  - b. Sangvinik.

c. Flegmatik.

d. Melanxolik.

2. Gippokrat ta'limotiga ko'ra, "odam tanasida sariq o't(safro) suyuqligi ustunlik qilsa" temperamentning qaysi tipi haqida so'z boradi...?

a. Xolerik.

b. Sangvinik.

c. Flegmatik.

d. Melanxolik.

3. Oliy nerv faoliyatining "Kuchli, muvozanatlashgan, inert" tipi(I.Pavlov) temperamentning qaysi tipiga mos keladi...?

a. Xolerik.

b. Sangvinik.

c. Flegmatik.

d. Melanxolik.

4. Senzitivligi yuksak darajada rivojlangan, tortinchoq, g'ayratsiz, arazchan, xafaqon, jimgina yig'laydi, kam kuladi, qat'iyligi va mustaqilligi zaif, tez toliqadi, ishchan emas. Boshqalarni tinglay oladi, empativlik darajasi kuchli. Ushbu shaxs temperamentning qaysi tipiga mos keladi...?

a. Xolerik.

b. Sangvinik.

c. Flegmatik.

d. Melanxolik.

5. Odamning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatida aks etadigan xarakter xususiyatlari ... ?

a. Mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, qo'nimsizlik ....

b. Kamtarinlik, mag'rurlik, manmanlik ....

c. Dilkashlik, jamoaviylik, mehribonlik ....

d. Saranjom-sarishtalik, tartiblilik, tejamkorlik ....

6. Boshqa insonlarga va jamoaga nisbatan bo‘lgan munosabatlarda namoyon bo‘ladigan xarakter xususiyatlari ...?
- Mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, qo‘nimsizlik ...
  - Kamtarinlik, mag‘rurlik, manmanlik ...
  - Dilkashlik, jamoaviylik, mehribonlik ...
  - Saranjom-sarishtalik, tartiblilik, tejamkorlik ...
7. Narsalar va hodisalarga bo‘lgan munosabatlarda namoyon bo‘ladigan xarakter xususiyatlari ...?
- Kamtarinlik, mag‘rurlik, manmanlik ...
  - Dilkashlik, jamoaviylik, mehribonlik ...
  - Tartiblilik, tejamkorlik, oqillik ...
  - Tashabbuskorlik, yalqovlik, mehnatsevarlik ...
8. Xarakter aksentuatsiyasi bo‘yicha “muloqotga juda tez kirishadigan, yetakchilikka intiladogan, hokimiyat va maqtovni yoqtiradigan, boshqalarni o‘ziga jalg qila oladigan, noyob tafakkur va xulq-atvorga ega bo‘lgan” shaxs tipi ...?
- Gipertim tip.
  - Distim tip.
  - Namoyishkor tip.
  - Ekzalt tip.
9. Xarakter aksentuatsiyasi bo‘yicha “o‘ta muloqotga kirishuvchan, ko‘p gapiradi, qiziquvchan, do‘satlari va yaqinlariga e’tiborli, boshqalarga yordam beradi, did-farosatli, samimiy” shaxs tipi ...?
- Gipertim tip.
  - Distim tip.
  - Namoyishkor tip.
  - Ekzalt tip.
10. Shaxsning muvaffaqiyatini, faoliyatning muayyan bir turini osonlik bilan egallay olishini ta’minlaydigan alohida, psixik xususiyati ...?

- a. Xarakter.
- b. Qobiliyat.
- c. Temperament.
- d. Iroda.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

### **I. Huquqiy-me'yoriy hujjatlar:**

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т: Ўзбекистон, 2018.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони (07.02.2017-йил. ПФ-4947).

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида»ги Фармони (05.06.2017-йил ПФ-5106).

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори (20.04.2017-йил ПҚ-2909).

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги босқичга кўтариш тўғрисида»ги Қарори (28.06.2017 йил ПҚ-3160).

6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Олий таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги № 242-сонли Қарори.

7. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни ва Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 йил.

### **II. Rahbariy adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатый тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Т.: “Ўзбекистон”, 2017 й. 45-б.
2. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017, 488 б.
3. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. Асарлар I-жилд.- Т:Ўзбекистон, 2017, 592 б.
4. Ш.Мирзиёев. Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза.31-бет.Тошкент. Ўзбекистон, 2018. 64 бет.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи, 2018 йил 29 декабр. №318.

### **III. Asosiy adabiyotlar:**

1. Венгер Л.А., Мухина В.С., Психология.– М.: «Просвещение».1988.
2. Гамезо М.В., Домашенко И.А., Атлас по психологии. –М.: 2004.
3. Жалилова С.Х., Ҳайдаров Ф.И., Ҳалилова Н.И. Касб психологияси. – Т.: 2010.
4. Курс общей, возрастной и педагогической психологии. Выпуск 3. Под ред. Гамезо М.В.. М. «Просвещение». 1982.
5. Бодалев А.А. Восприятие и понимание человека человеком. Издательство МГУ. 1982.
6. Краткий психологический словарь. Сост. Л.А.Карпенко.под общей ред.А.В.Петровского. –М.: Политиздат.1985.
7. Кон И. Психология ранней юности. – М.: 1994.

8. Рогов Е.А., Настольная книга практического психолога. – М.: 1999.
9. Немов Р.С. Практическая психология.– М.: 1998.
10. Психология.Словарь.– М.: 1990.
11. Каримова В.М., Психология. Абдулла Қодирий нашриёти. –Т.: 2002.
12. Каримова В.М..Ижтимоий психология. – Т.: 2007.
13. Нуримбетова Э.Ж. Ички ишлар органлари ходимларининг касбий шаклланиш динамикасининг ижтимоий-психологик хусусиятлари// Психология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. Т. 2019.
14. Турғунбоева А.Ғ. Бўлажак педагогларда ижтимоий перцепция шаклланишининг психологик хусусиятлари // Психология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. Т. 2020.
15. Davletshin M.G., Do'stmuhamedova Sh., Mavlonov M., To'uchiyeva S., Djumabayeva M., Yosh va pedagogik psixologiya. –Т.: 2007.
16. Shoumarov G'.B.. Oila psixologiyasi. – Т.: Sharq nashriyoti. 2008.
17. G'oziyev E.G'., Psixologiya. –Т.: 2008.
18. Ivanov P.I., Zufarova M., Umumiyl psixologiya.–Т.: 2008.
19. Nishanova Z.T., Qurbonova Z.B..Psixodiagnostika. –Т.: 2008.
20. Haydarov F., Halilova N., Umumiyl psixologiya. –Т.: 2010.
21. Halilova N., Safayev N., Qurbonova Z., Differensial psixologiya. – Т.: 2012.
22. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. –Т.: Talqin nashriyoti.2006.
23. Otajonov M.,Psixoanaliz asoslari. –Т.: O'zbekiston.2004.
24. David G. Mayers Psychology,© 2010 by Worth Publishers.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I bob. Psixologiya fanining dolzarb vazifalari, predmeti .....</b>	<b>6</b>
1.1.Kasbiy psixologiya fanining tarixiy rivojlanish bosqichlari.....	6
1.2.Kasbiy psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari.....	14
1.3.Kasbiy psixologiya fanining tadqiqot metodlari va boshqa fanlar bilan boq‘liqligi .....	29
1.4.Zamonaviy psixologiya fanining asosiy yo‘nalishlari .....	41
Mavzu bo‘yicha test savollari .....	50
<b>II bob. Psixologiyada shaxs va jamiyat muammosi.</b>	
<b>Shaxs taraqqiyotiga ta’sir etuvchi omillar.....</b>	<b>52</b>
2.1. Psixologiyada shaxs va jamiyat .....	52
2.2. Shaxs taraqqiyotining davrlarga bo‘linishi .....	62
2.3. Psixologiyada shaxs va uning faolligi masalasi .....	66
2.4. Psixologiyada motiv va motivatsiya tushunchalari.....	72
2.5. Muvaffaqiyatga intilish hamda mag‘lubiyatdan qochish motivlari .....	76
2.6. Shaxsning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillar.....	79
Mavzu bo‘yicha test savollari .....	85
<b>III bob. Shaxsning ijtimoiy borliqni bilishi.</b>	
<b>Bilish mezonlari va ularning adekvatligi .....</b>	<b>87</b>
3.1. Bilish jarayonlari. Diqqat to‘g‘risida umumiyl tushuncha, uning xossalari va turlari .....	87
3.2. Sezgi turlari va ularning tasnifi .....	94
3.3. Idrokning xossalari va qonuniyatlari.....	100
3.4. Xotira jarayonlari, turlari va qonuniyatlari .....	109
Mavzu bo‘yicha test savollari .....	119
<b>IV bob. Tafakkur va mustaqil fikrlash shart-sharoitlari.</b>	
<b>Ijodiy va mantiqiy fikrlash – sog‘lom ma’naviyat va e’tiqodni tarbiyalash omili sifatida.....</b>	<b>121</b>

4.1. Tafakkur haqida tushuncha .....	121
4.2. Tafakkur operatsiyalari .....	122
4.3. Tafakkur shakllari.....	125
4.4. Tafakkur turlari.....	129
4.5. Tafakkur va boshqa psixik jarayonlar .....	132
Mavzu bo‘yicha test savollari .....	136
<b>V bob. Shaxsning hissiy va irodaviy jihatlari .....</b>	<b>142</b>
5.1. Hissiyot haqida tushuncha.....	142
5.2. Hissiy kechinmalarning ifodalanishi.....	145
5.3. Yuksak hislarning psixologik tavsifi.....	150
5.4. Iroda haqida tushinchcha .....	153
5.5. Irodaviy aktning tuzilishi .....	155
5.6. Shaxsning irodaviy sifatlari.....	160
Mavzu bo‘yicha test savollari .....	163
<b>VI bob. Shaxsning individual psixologik xususiyatlari va ularni diagnostika qilish.</b>	
<b>Temperament, xarakter va qobiliyatlarni bilishning ahamiyati.....</b>	<b>165</b>
6.1. Temperament tiplarining dastlabki tasnifi .....	165
6.2. Abu Ali ibn Sinoning kishi mijozи to‘g‘risidagi qarashlari .....	166
6.3. Oliy nerv faoliyati tiplari va odam asab tizimining alohida xususiyatlari .....	167
6.4. Temperament tiplari .....	170
6.5. Xarakter haqida tuchuncha.....	172
6.6. Xarakterning tarkibi .....	173
6.7. Xarakter aksentuatsiyasi.....	175
6.8. Qobiliyatlar va ularning turlari.....	177
Mavzu bo‘yicha test savollari .....	182
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....</b>	<b>184</b>



## GLOSSARIY

**Adaptatsiya** (*lot.adaptatio-moslanmoq*) – Sezgi organlari (analizatorlar)ning ta'sir kuchiga moslashishi natijasida sezgirlikning o'zgarishi. **Adaptatsiya** hodisasida sezgirlik, ortish tomoniga ham kamayish tomoniga ham o'zgarishi mumkin; kuchli ta'sirotdan kuchsiz ta'sirotga o'tganda sezgirlik ortadi, aksincha bo`lsa sezgirlik kamayib boradi.

**Adekvat aks ettirish** (*lot.adaequatus - tenglashtirilgan*) – ob`yektiv voqelikdagi narsa va hodisalarni ongimizda sezgi, idrok, tasavvur yoki tafakkur kabi bilish jarayonlari orqali to'liq aks ettirilishi. Ongimizdagi mavjud obrazlarning aks ettirilayotgan narsalarga aynan mos, o'xshash bo'lishi.

**Akkomodatsiya** (*lot.accomodatio-moslashuv, kelishuv*) - ko'z gavhari o'zgarishi natijasida ko'zni turli masofadagi predmetlarni to'g'ri idrok qilishga moslashuvi(ko'z gavhari yaqinidagi predmetlar idrok etilganda dumaloq, uzoqdagi narsalarni idrok qilinganda esa yassi shaklga kiradi).

**Altruizm** (*lot. boshqa*) – boshqa kishilarga xolisona g'amxo'rlik ko'rsatish, o'z manfaatlardan voz kechib, boshqa kishilarga yaxshilik qilish.

**Ambivalentlik** (*lot. - har tomonlama kuchga ega*) – kishida muayyan bir ob`yektning o'ziga nisbatan, bir vaqtning o'zida paydo bo'ladigan qaramaqarshi xissiy-irodaviy kechinmalar. Masalan, muhabbat va rashk tuyg`usi.

**Amneziya** (*yun. A-inkor yuklamasi, mnema-xotira*) - xotira faoliyatini qisman buzilishi yoki to'liq yo'qolishidan iborat psixopatalogik nuqson. A. holati turli kasalliklar yoki bosh miya qobig'ining zararlanishi natijasida sodir bo'ladi.

**Analizator** - tashqi va ichki muhitdan keladigan ta`sirotlarni qabul qilib olib, fiziologik qo'zg'alishni psixik aks ettirishga aylantirib beruvchi nerv tizimi.

**Analogiya** (*yun. analogia-moslik, o'xshashlik*) - narsa va hodisalarining bir-biriga o'xshash bo'lgan ayrim belgilari qarab fikr yuritishdan iborat xulosa chiqarish shakli. Analogik xulosa chin yoki hato bo'lishi ham mumkin.

**Anomaliya (yun. anomalia-notekislik)** - anatomik, fiziologik va psixik funksiyalarning normal taraqqiy etmaganligidan iborat patopsixologik nuqson.

**Antropoliya (yun.antropos - odam, logos - ta`limot)** - odamning kelib chiqishi, biologik tabiatini o'rganadigan fan. A.ning vazifasi odamning kelib chiqishini, qadimgi va hozirgi morfologik tiplarini, anatomik-fiziologik, irsiy, irqiy, jinsiy hamda yosh xususiyatlarini o'rganishdan iboratdir.

**Artikulyatsiya (lot. Articulation-dona-dona qilib, aniq talaffuz qilish)** - nutq faoliyati organlari(lablar, til, yumshoq tanglay, tovush paychalari)ning muayyan nutq tovushlarini talaffuz qilish uchun zarur bo'lган faoliyat.

**Astenik hislar** - kishining faoliyati, g'ayrat va shijoatini susaytiradigan salbiy hislar, kechinmalar. Astenik hislar odatda kishi umidsizlikka tushganda, ruhiy tushkunlikka uchragan paytlarda namoyon bo'ladi.

**Affekt (lot.affectus - ruhiy hayajon, extiros) – affekt, jazava.** Affekt holatida ichki organlar faoliyati o'zgaradi, keskin ifodali harakatlar paydo bo'ladi, kishining ong doirasi torayadi, xulqini nazorat qilish qobiliyati yo'qoladi. Kuchli jo'shqin, nisbatan qisqa muddat ichida organizmni qamrab oladigan xissiy xolatlar (qahr, g'azab, jazava, talvasa, qo'rquv, quvonch va boshqalar), affekt xolatida xarakatlar mantiqiy tafakkurga emas, balki xissiyotga bo'ysunadi.

**Akmeologiya (grekcha. gullab, yashnash, cho`qqi)** – shaxs taraqqiyotidagi yetuklik, shaxsning o'z hayoti va faoliyatida, ijodida yuqori ko'rsatkichlarga erishishi bilan xarakterlanuvchi, shaxsning yuksaklikka intilishi bilan bog'liq somatik, fiziologik, psixologik va ijtimoiy xolati. Har tomonlama kamolotga erishish, yoshga ham aloqador bo`lib, taxminan 35-40 yoshlarga to`g'ri keladi.

**Autizm (grekcha. o'zim)** – ushbu atama Shveytsariyalik psixatr E.Bleyler (1857-1939) tomonidan kiritilgan bo'lib, o'zaro munosabat shakllarining buzilishi, real voqelikdan o'z ichki dunyosiga berilishni ifodalaydi, autizm odatda shizofreniyadagi psixik buzilishlarga bog'lanadi. Autizmnинг klinik

bo'lмаган шакли ham uchraydi, unda shaxsning boshqalardan chegaralanib, o'z ichki kechinmalariga berilishi, odamovilik hamda begonalanushuvi kuzatiladi.

**Aqliy ish qobiliyat** - Aqliy mexnatning biror turini bajarish uchun zarur bo'lgan jismoniy va psixik funksional imkoniyatlar yigindisi.

**Amaliy faoliyat** - insoniyatning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida tabiatni va ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyati.

**Binokulyar idrok (lot. bini-ikki, aculus-ko'z)** - narsa va hodisalarni, ularning fazoda tutgan o'rni, shakli, holati va bir-biriga nisbatan munosabatlarini ikki ko'z yordamida (monokulyar idrokdan farq qilib) idrok qilish.

**Biografik metod** - psixologiyaning ilmiy-tadqiqot metodlaridan biri bo'lib, muayyan bir shaxsning tarjimai holi, tutgan kundaliklari, tavsifnomasi, yozishmalar, esdaliklari va xatlari biografik metodning o'rganish materiallari bo'lib xizmat qiladi. Alovida olingan shaxsning tarjimai xolini, uning xayot yo'llini o'rganishga asoslangan tadqiqot uslubi.

**Biogenetik qonun** - organizm o'z individual taraqqiyoti(ontegenez)da, ayniqsa embrional bosqichda o'z turiga oid xususiyatlar (filogenez)ni takrorlab o'tadi. Dastlab bu xodisaga Ch.Darvin o'z e'tiborini qaratdi, qonun sifatida E.Gekkel (1866) ishlab chiqdi. Amerikalik psixologlar S.Xoll, Dj.Bolduinlar esa biogenetik qonunni psixik tarraqqiyotning yosh davrlariga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirib o'tkazishga xarakat qiladilar.

**Bioritmlar (grekcha. hayat va o'lcham, me'yor)** – bioritmlar fiziologik va psixik jarayonlarning kechishida davriy ravishda ro'y beradigan o'zgarishlar. Bioritmik o'zgarishlar sutkalik, oylik, mavsumiy, yillik tarzda ro'y berib turadi. Masalan, sutka davomida biologik uyqu bedorlik xolati bilan almashinib turadi.

**Bixevorizm (inglizcha. behavior - xulq-atvor)** - psixologiyada XX asr boshlarida vujudga kelgan oqim. Ushbu oqimning yirik vakillari Djon Uotson va E.Torndayk xisoblanib, ular ongni inkor etib, xulq va tashqi muxit o'rtasidagi bog'liqlikni (S - R) o'rganishni taklif etadilar. Bixevorizm namoyondalari

dastlabki tajribalarini xayvonlarda o'tkazishadi, so'ng aniqlangan qonuniyatlarni to'g'ridan-to'g'ri odamga ko'chirib o'tkazishadi. Tashqi qo'zg'atuvchilar orqali odamda xulq-atvor xislatlarini shakllantirish mumkin deb xisoblashadi, ammolar maqsad, motiv, tasavvur, tafakkur, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini idora etish va boshqalarga yetarli baho bera olishmaydi.

**Bolalar psixologiyasi** - psixologiyaning bolalik davridagi psixik taraqqiyot shart-sharoitlari va xarakatlantiruvchi kuchlari, xissiy, irodaviy va bilish jarayonidagi qonuniyatlar, bolani shaxs sifatida kamol topishini o'rganuvchi alohida tarmog'i. **B.p.** yosh va pedagogik psixologiya, biologiya, fiziologiya, tibbiyot, pedagogika, oila psixologiyasi kabi fanlar bilan uzviy bog'liq.

**Bilim** - shaxsing bilish faoliyati mahsuli, tabiat, jamiyat va inson tafakkuriga oid xodisalar haqidagi to'g'ri tasavvurlari hamda tushunchalar tizimi.

**Bilishga qiziqish** - shaxsning voqelikdagi narsa va xodisalar, ularning belgi va xususiyatlarini, o'zaro munosabatlari mohiyatini, shuningdek, turli qonuniyatlarni bilib olishga nisbatan doimiy barqaror individual xususiyati.

**Gipoteza (grekcha. asosnoma, faraz)** – **gipoteza, faraz.** Muammoli savolga ehtimol tutilayotgan javob, isbot va dalil talab etadigan dastlabki xulosa. Faraz umumiy va xususiy bo'ladi, ular o'zaro almashinib turadilar.

**Gomeostaz** - organizm ichki muxitidagi doimiylikni ushlab turish va saqlash (tana xarorati, qon bosimi va boshqalar). Odamda ushbu muvozanatni buzilishiga qarshi biologik, fiziologik va psixologik mexanizmlar shakllangan bo'ladi.

**Deviant xulq (lotincha. deviatio - og'ish)** - deviant tushunchasi og'ish, chetga chiqish degan ma'noni bildiradi, xulqi og'ishganlar deb ham ataladi. Og'ishgan xulq-atvor jamiyatda qabul qilingan huquqiy va axloqiy normalarga zid bo'lgan hatti-harakatlar yig'indisidan iborat. Og'ishgan xulq-atvorga boshqa kishilarga nisbatan tajovuzkorona hatti-harakatlar, jinoyatchilik, giyohvandlik, tamaki mahsulotlari chekish, daydilik, o'z joniga qasd qilish kabilar kiradi.

**Delinkvent xulq** - delinkvent so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, «qonun buzuvchi» degan ma'noni anglatadi. Delinkvent xulq kishilarning o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida qonunga zid bo'lgan usullarni tanlash, ruhiy tanglikni bartiraf etish maqsadida jismoniy kuch ishlatalish, qurollardan foydalanish, ruhiy zarba berish, jismonan yo'qotish va boshqa hatti-harakatlari yig'ingdisidan iborat.

**Zexn** – shaxs qobiliyatlarining tarkib topishi va rivojlanishi uchun asos bo'ladigan anatomik-fiziologik imkoniyatlari, iste'dod nishonalari, qobiliyat kurtaklari.

**Individuallik - alohidalik, o'ziga xoslik.** Odamning individ va shaxs sifatida o'ziga xosligi, individuallik tashqi qiyofada, gavda tuzilishida, ifodali xarakatlarda, xarakter xislatlarida, temperament tipida, qiziqish va qobiliyatlarda, extiyojlarda, iroda va xis-tuyg'ularda, ruhiy xolatlarda aks etadi.

**Insayt (inglizcha.** tushunish, oydinlashuv, kutilmagan topqirlilik) - muammo yechimining birdan oydinlashuvi, tushuncha geshtaltpsixologiya tomonidan muomalaga kiritilgan. Muammoning yechimi ba'zan, yorqin yulduzday yarq etib paydo bo'ladi, Bu holat psixologiyada *insayt-oydinlashuv* deb ataladi.

**Instinkt (lotincha. Insinctus-uyg'onish)** – xayvon va odamga tegishli bo'lgan tug'ma, murakkab, maqsadga muvofiq reaksiyalar (xulq-atvor namunalari) yig'indisi, instinkt nasldan-naslga o'tishi, tabiiy jonzotlarning ma'lum bir turga tegishliligi, tashqi muxitga moslashuvi hamda biologik extiyoj orqali izohlanadi, I.P.Pavlov instinktning shartsiz-reflektor tabiatiga e'tibor qaratadi.

**Intellekt(lotincha. tushunish, bilish) - aql-zakovat.** Keng ma'noda – odamning aqliy qobiliyati, barcha bilish jarayonlari yig'indisi, tor ma'noda - aql, tafakkur. Shaxsning intellekt tuzilmasida quyidagi tarkibiy qismlar yetakchi sanaladi: tafakkur, xotira va muammoli vaziyatlarda oqilona fikr yuritish.

**Intellektual xislar** - insonga xos bo'lgan oliv tuyg'u - intellektual xislar, bilish faoliyati jarayonida, ayniqsa yangi va qiyin vazifalarni hal etishda namoyon bo'ladi. Intellektual xislarga quyidagilar kiradi: yangilikni xis etish, qiziquvchanlik, xayratlanish, gumon, faraz, qoniqish, zavqlanish va boshqalar.

**Interiorizatsiya (lotincha. ichki)** – tashqi, predmetli xatti-xarakatlarning ichki, aqliy xarakatlarga aylanish jarayoni. J.Piajening fikricha, interiorizatsiya nutqning shakllanishi orqali ro'y beradi. Har qanday faoliyat tashqi harakatlar asosida shakllanadi va motor komponentlardan iborat bo'ladi.

**Introversiya** – alohida kishinig o'z ichki dunyosiga berilganligi va unga yo'nalganlik xislati. Introvertlar odatda yopiq, ichimdagini top, kamgap, o'z-o'zini tahlil qilishga moyil bo'ladi, yangi shart-sharoitlarga qiyinchilik bilan moslashadi.

**Ijtimoiy malakalar** – jamiyat ijtimoiy xayotida faol ishtirok etish, kishilar bilan o'zaro munosabatga kirishish va jamoa orasida o'zini tuta bilish malakalari.

**Individual munosabat** – xar bir alohida olingan shaxsning aqliy, madaniy va bilim darajasini e'tiborga olish, yoshi, jinsi, kasbi xamda alohida psixologik xususiyatlarini xisobga olgan xolda munosabatda bo'lish.

**Individual tajriba** – alohida olingan xar bir Shaxsning o'z hayoti va faoliyati davomida orttirgan tajribasi.

**Individual xususiyatlar** - ma'lum bir Shaxsning faqat o'ziga xos bo'lgan alohida psixologik xususiyatlari.

**Individuallik** - xar bir alohida olingan Shaxsning, boshqalardan farqlab turadigan Shaxsiy xususiyatlari, o'ziga xos jihatlari yigindisi.

**Inertlik** – sustkashlik, muayyan bir faoliyatni egallash yoki amalga oshirishda sust, befarq munosabatda bo'lishda aks etadigan asab tizimi tipi.

**Insoniylik** – kishilar bilan o'zaro muomala va munosabatlarda, insonga xos bo'lgan ijobiy fazilatlarga ega bo'lgan xarakter xislati.

**Intizomlilik** – jamiyat qo’ygan ijtimoiy me`yorlar, tartib va xulq-atvor qoidalariga tizimli ravishda amal qilishda aks etadigan ijobiy xarakter xislati.

**Iroda kuchi** - shaxsning o’z oldiga qo’ygan maqsadining aniqligi, uni amalga oishirish uchun intilishi, maqsadga erishish yo’lida qaror qabul qilish tezligi va uni o’z vaqtida ijro etishi bilan belgilanadigan iroda sifati.

**Irodaviy zo’r berish** – maqsadga erishish yo’lida ob’yektiv va suby’ektiv qiyinchiliklar va to’siqlarni yengib o’tishda namoyon bo’ladigan iroda kuchi.

**Ixtiyoriy xarakatlar** - impulsiv va avtomatlashgan xarakatlardan farq qilib, maqsadga muvofiq ravishda bajariladigan ongli xarakatlar.

**Ixtisoslashgan mexnat** - muayyan bir kasbga doir maxsus bilimlar, ko’nikmalar va malakalarni talab etadigan faoliyat turi.

**Ish qobiliyati** - shaxsning muayyan bir faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo’lgan jismoniy xamda psixik funksiyalari yigindisi.

**Kashb** - shaxsning kishilik jamiyatni a’zosi sifatida yashash manbai bo’lib xizmat kiladigan doimiy mashg’ulot yoki faoliyat turi.

**Kashb kasalligi** - muayyan bir kasb soxasida uchraydigan, aynan ushbu kasbning ko’pchilik vakillariga xos bo’lgan kasallik.

**Kasbga yo’naltirish** - yoshlarning qiziqishi, layoqati, qobiliyatları va jamiyatning turli xil kasblarga bo’lgan ehtiyojiga muvofiq holda kasb tanlashga yordam beruvchi maqsadli faoliyatdir.

**Kashb tanlashga yo’llash** - pedagoglar, psixologlar, tibbiyot xodimlari va boshqa soha mutaxassislarining, yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashiga yordam berishidan iborat tadbirlar tizimi.

**Kasbiy qiziqishlar** - shaxsning ma’lum bir kasbga nisbatan doimiy, barqaror va motivlashgan qiziqishidan iborat alohida xususiyati.

**Kasbga layoqatlilik** - shaxsning muayyan bir kasbiy faoliyatga yaroqlilik darajasini ko’rsatuvchi jismoniy va psixik sifatlar yigindisi.

**Kasbiy tayyorgarlik** - muayyan bir kasb bo'yicha muvaffaqiyatli ishlash imkoniyatini ta'minlab beradigan, maxsus kasbiy bilim, ko'nikma, malaka, kasbiy sifatlar, mexnat tajribasi va ijtimoiy xulq normalariga ega bo'lish.

**Kasbga tegishli ma'lumot** - mexnat faoliyatining ma'lum bir soxasi uchun zarur bulgan maxsus kasbiy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va malakalar tizimi.

**Kasbiy axborot** – axolining turli toifalarini zamonaviy ishlab chiqarish turlari, mexnat bozorining xolati, xo'jalik majmuasining malakali kadrlarga bo'lgan extiyojlari, kasblar bozorining kelajakdagi rivojlanishi, kasblarni o'zlashtirishning shakllari va sharoitlari, mexnat faoliyati jarayonida kasbiy malakaviy o'sish va o'z-o'zini takomillashtirish imkoniyatlari bilan tanishtirish;

**Kasbiy maslaxat** – insonga o'zining psixologik xususiyatlari va imkoniyatlari, xamda jamiyatning extiyojlarini xisobga olgan xolda kasbiy yo'llini tanlash bo'yicha ongli ravishda qaror qabul qilish maqsadida kasbiy o'zligini aniqlashda yordam ko'rsatish;

**Kasbiy tanlov** – insonga psixologik, psixofiziologik, tibbiy tashxis asosida o'zining psixologik, fiziologik xususiyatlariga ko'proq mos bo'lgan turli kasbiy yo'nalishlar to'g'risida tavsiyalar berish;

**Kasbiy saralash** – insonning ma'lum bir kasbiy faoliyat(ish o'rni)ga tegishli me'yoriy talablarga mos ravishda kasbiy loyiqlik darajasini aniqlash;

**Kasbiy ishlab chiqarish va ijtimoiy moslashuv** – xodimning kasbiy shakllanishiga, unda tegishli ijtimoiy va kasbiy sifatlarning faol ijodiy mexnatga va moxirlikning yuqori darajasiga erishishga bo'lgan yo'nalish va extiyojlarning shakllanishiga yordam beruvchi tadbirlar tizimi.

**Malaka** - ongli faoliyatning ko'p takrorlanishi, amalda bajarilgan mashqlar natijasida avtomatlashgan xarakatlar tizimi.

**Mashq** - aqliy yoki jismoniy xarakatlarni puxta egallash, sifatini yaxshilash maqsadida ongli ravishda takrorlashdan iborat harakatlar tizimi.

**Metod** - tabiat va jamiyat xodisalarini tekshirish usuli, ularga yondashishda ilmiy bilishning rejali yo'li, xarakat usuli va tartibi.

**Mexnat** – ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomida tarkib topgan, maqsadga muvofiq yo'naltirilgan, moddiy va ma'niviy ne'mat yaratishga qaratilgan ongli faoliyat turi.

**Mexnat qobiliyati** - shaxsning muayyan bir mexnat turini muvaffaqiyatli amalga oshirishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan jismoniy xamda psixik funksional imkoniyatlari yigindisi.

**Mexnat madaniyati** – mexnat faoliyatihni to'g'ri tashkil qilishga doir bilimlar, ko'nikmalar va malakalar tizimidan iborat bo'lgan shaxs fazilati.

**Mutaxassis** - shaxsning muayyan bir kasbga nisbatan yaroqlilik darajasi, tayyorgarlik saviyasi, ma'lum bir kasbiy faoliyat sohasida muvaffaqiyatli ishlay olishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi.

**Odat** – kishining kundalik faoliyatida ko'p takrorlanishi natijasida ongimizga o'rashib qolgan va bajarilishi shaxsning doimiy ehtiyojiga aylanib ketgan hatti-xarakatlarning o'ziga xos alohida shakli hamda ko'rinishi.

**Oligofreniya (yun.oligos - kam, oz miqdorda, phren-aql)** – embrionning onani xomiladorlik davrida taraqqiyotni buzilishi natijasida sodir bo'ladigan tug'ma aqli zaiflik, psixik funksiyalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi.

**Organik sezgilar** - organizmning ichki muhitida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni aks ettiruvchi sezgilar. M: ochlik, chanqoq, og'riq sezgilari.

**Patopsixologiya** - bosh miyaning zararlanishi yoki uning yetarli darajada rivojlanmaganligi natijasida kelib chiqadigan psixik kasalliklarni o'rganuvchi psixologiyaning maxsus sohasi.

**Pedagogik psixologiya** - psixologiyaning yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishning pedagogik muammolarini, ta`lim va tarbiya berish jarayonining psixologik qonuniyatlarini o'rganuvchi alohida sohasi.

**Persepsiya (lot. perception - qabul qilish, idrok etish)** – idrok etish. Ob`yektiv voqelikni, undagi narsa va hodisalarni sezgi organlarimiz orqali bevosita ravishda yaxlit, bir butun holda aks ettirish.

**Passivlik** – atrofdagi narsalar va xodisalarga, kishilarga nisbatan befarq munosabatda bo'lish va jismoniy yoki psixik faoliyatsizlikdan iborat xolat.

**Professiografiya** - inson Shaxsiga qo'yiladigan psixofiziologik talablar nuqtai-nazaridan kasblar va uning ixtisosliklarini umumlashma tavsiflanishi.

**Professiogramma** - professiografiya natijasi professiogramma bo'lib, bir kasb doirasidagi ixtisosliklarning insonga, odamlar guruhiga qo'yishi mumkin bulgan talablari asosidagi tavsifnomalardir.

**Psixik charchash** - psixik funksiyalarning xaddan tashkari kuchli yoki mutassil ishlashi natijasida ish qobiliyatining vaqtincha pasayishi.

**Psixogramma** - muayyan bir kasb yoki ixtisos sohasiga xos bo'lgan eng muhim shaxsiy sifat va xususiyatlarning yozma yoki jadval tarzda ifodalanishi.

**Psixologik tafsifnoma** - ma'lum bir kishining ma'lumoti, mutaxassisligi, aqliy, axlokiy irodaviy sifatlari, qiziqishlari, dunyoqarashi, e'tiqodi, individual psixologik xususiyatlari ob'ektiv ravishda tasvirlab yozilgan Shaxsiy xujjat.

**Psixika (yun. psychioks -ruhiy, jonga oid)** – psixika, ruhiyat. Yuksak darajada tashkil topgan materiya, ya`ni miyaning xossasi, tashqi ob`yektiv olamni aks ettirish; real, ob`yektiv borliqning miyadagi in`ikosi.

**Psixoanaliz** - ruhiy xastalikni davolash usuli va psixologik ta'limot. Psixoanaliz nazariyasi 20-asr boshlarida avstriyalik psixiatr Zigmund Freyd (1856-1939) tomonidan ishlab chiqilgan. Psixoanaliz asosini, inson xulqining negizini lazzat olishga intilish instinkti (libido), ayniqsa ilk bolalik davrida paydo bo'lgan jinsiy mayllar shaxs faolligini belgilaydi degan g'oya tashkil etadi.

**Rivojlanish** - taraqqiyot; oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tib borishdan iborat jarayon: psixik taraqqiyot; jismoniy taraqqiyot; aqliy taraqqiyot; ijtimoiy taraqqiyot va x.k.

**Reaksiya** – tirik organizmning muayyan tashqi yoki ichki qo`zg`a-tuvchilarga nisbatan qaytaradigan javob harakatlari.

**Reallik (lot. realis - moddiy)** – mavjud borliq; inson ongidan tashqarida mavjud bo`lgan ob`yektiv voqelik, borliq.

**Sangvinik** – temperament tipi, shaxsning tez, kuchli, lekin beqaror emotсional qo`zg`aluvchanligi va psixik jarayonlari orqali aks etadigan alohida xususiyati.

**Simpatiya** – muayyan bir narsa-xodisa yoki Shaxsga nisbatan ichki moyillik, yoqtirish hissidan iborat emotсional xolat.

**Sub`yekt** – tevarak atrofimizdagi ob`yektiv dunyoni biluvchi, uni o`zining ehtiyojlari va qiziqishlariga moslab o`zgartiruvchi ongli Shaxs.

**Talant (yun. talanton** – qimmatbaho, kamyob narsa) – muayyan bir faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilishini, ijodiy ruhni ta`minlaydigan iqtidor hamda istedod yig`indisidan iborat bo`lgan qobiliyatning eng yuqori darajasi.

## **QAYDLAR UCHUN**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

**UO‘K: 159.9:174(075)**

**KBK 88.4ya73**

**Kasbiy psixologiya Sh.X.Abdullayeva. – T., 2020.**

**ISBN 978–9943–6351–8–0**

**Taqrizchilar:**

**D.I.Ilxamova**

*psixologiya fanlari nomzodi dotsent;*

**A.A.Shayusupova**

*pedagogika fanlari nomzodi dotsent.*

Darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi  
2020-yil 14-avgustdagи “418”-sonli buyrug’iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

(30.05.2019 yil 10-sonli majlis qarori).

Босишига рухсат этилди: 11.09.2020

Бичими 60x84 1/16 Шартли 12,5 б.т.

50 нусхада босилди. Буюртма №

Тошкент давлат шарқшунослик

университетининг кичик босмахонаси.

Тошкент, Шаҳрисабз кўчаси, 25.

**ISBN 978–9943–6351–8–0**

© Тошкент давлат шарқшунослик университети, 2020